

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

**M.X. XODJAYEVA, A.N.MAXMUDOV,
X.F. XASANOVA, U.SH.FAYZIYEV, E.T.TULOVOV**

INVESTITSIYALAR AUDITI

*O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi
tomonidan 5230900-«Buxgalteriya hisobi va audit» (tarmoqlari bo‘yicha) oliy
o‘quv yurtlari talabalari uchun o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etilgan*

Toshkent – 2022

UO‘K: 330.332.(075)

KBK 65.262.1 F17

M.X. Xodjayeva, A.N.Maxmudov va boshqalar

Investitsiyalar auditi. O‘quv qo‘llanma./O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti – 2022. – 212 b.

ISBN: 978-9943-05-691-6

Mazkur o‘quv qo‘llanma Davlat ta’lim standartining talablariga muvofiq tayyorlangan bo‘lib, unda kapital va moliyaviy investitsiyalarni baholash, investitsiyalar auditini rejalashtirish va tashkil qilish, investitsiyalar auditini o‘tkazish hamda audit natijalarini rasmiylashtirish kabi masalalar yoritilgan. O‘quv qo‘llanmada investitsiyalarninig nazariy asoslari, moliyaviy investitsiyalarni xisobi yoritilgan bo‘lib, u 5230900-«Buxgalteriya hisobi va audit» (tarmoqlari bo‘yicha) bakalavriat ta’lim yo‘nalishining “Investitsiyalar auditi” fanidan o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etiladi.

Настоящее учебное пособие подготовлено в соответствии с требованиями Государственного образовательного стандарта, который охватывает такие вопросы, как оценка капитальных и финансовых вложений, планирование и организация инвестиционных проверок, инвестиционные проверки и оформление результатов проверок. Учебное пособие освещает теоретические основы инвестирования, учета финансовых вложений, и рекомендуется по предмету «Аудит инвестиций» направлении образования бакалавриата 5230900 - «Бухгалтерский учет и аудит» (по отраслям), в качестве учебного пособия.

This manual is prepared in accordance with the requirements of the State Education Standard, which covers issues such as the assessment of capital and financial investments, planning and organization of investment audits, investment audits and registration of audit results. The textbook covers the theoretical foundations of investment, accounting for financial investments, which is taught in the discipline "Investment Audit" 5230900 - "Accounting and Auditing" (by industry). recommended as a textbook.

Mas’ul muharrir: M.M.Tulakhodjaeva — iqtisod fanlari doktori, professor.

Taqrizchilar:

A.Z. Avloqulov — iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

N.Sh. Xajimuratov— iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent.

Mazkur o‘quv qo‘llanma Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2022-yil 17-martdagi 106-sonli buyrug‘iga asosan nashrga tavsiya etilgan

ISBN: 978-9943-05-691-6

© M.X. XODJAYEVA, A.N.MAXMUDOV, 2022

KIRISH

So‘nggi yillarda yurtimizda iqtisodiyotning jadal sur‘atlarda rivojlanishi, xorijiy investisiyalar jalb qilish, investorlarga to‘g‘ri va zarur axborotlarni yetkazib berish, shuningdek, aksiyadorlik jamiyatlari, sug‘urta tashkilotlari va banklari faoliyatini takomillashtirish va ularni xalqaro bozorlarga olib chiqishga alohida ahamiyat berilmoqda. Shu munosabat bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 fevraldagi “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4611-sonli qarori qabul qilindi¹. Mazkur qarorga muvofiq aksiyadorlik jamiyatlari, tijorat banklari, sug‘urta tashkilotlari va yirik soliq to‘lovchilar toifasiga kiritilgan yuridik shaxslar 2021 yil 1 yanvardan boshlab MHXS asosida buxgalteriya hisobi yuritilishini tashkil etadi va 2021 yil yakunlaridan boshlab moliyaviy hisobotni MHXS asosida tayyorlaydi.

Jahon mamlakatlari tajribasidan ma‘lumki, korxonalarni samarali boshqarishda, jahon bozoriga kirishida ularni investitsiyalarni jalb qilish asosiy omil hisoblanadi.

Rivojlangan davlatlarning kiritayotgan investitsiyalari globallashtirish sharoitida jahon iqtisodiyotining barqaror o‘rnatilishini ta‘minlash, risklar ehtimolini kamaytirish imkonini beradi. Investitsiyalar iqtisodiyotni ilg‘or yangi texnologiyalarga kirib kelishiga, ularni qabul qiluvchi mamlakatlar iqtisodiyotiga ham ijobiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin.

Jahon mamlakatlari tajribasidan ma‘lumki, korxonalar, kompaniya va xo‘jalik yurutuvchi sub‘yektlarning rivojlanishida investitsiyalarni jalb qilish ma‘lum bir darajada MHXS asosida tayyorlangan moliyaviy hisobotlarni taqdim qilish bog‘liq jarayondir. MHXS asosida tayyorlangan hisobotlarning tarkibiga kiruvchi investitsiyalar hisobi korxonalarining moliyaviy hisobotlarida o‘z aksini topadi. Investitsiyalar hisobi ikki yoki undan ortiq korxonalarining yuridik jihatdan birlashishidan kelib chiqadi.

¹ “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar” to‘g‘risida PQ-4611-sonli 25.02.2020- yil

Jahon miqyosida raqobat tobora kuchayib borayotgan bugungi keskin bir davr barchamizdan yangicha ishlash va fikrlashni, yuqori darajada safarbarlikni talab etmoqda.

Oldimizda turgan ana shu ulkan vazifalardan kelib chiqib, mamlakatimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'tarish maqsadida 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini qabul qildik.

Ushbu strategiyada davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish, qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini isloh qilish, iqtisodiyot va ijtimoiy sohani yanada rivojlantirish, xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosatni izchil davom ettirish kabi masalalar taraqqiyotimizning asosiy yo'nalishlari sifatida belgilab olindi.

Shiddat bilan rivojlanib borayotgan bugungi dunyoda o'z xalqi va kelajagi uchun qayg'uradigan har bir davlat yuksak ma'suliyatni anglagan holda o'z taraqqiyot yo'lini qat'iy belgilab oladi.

Mustaqil O'zbekistonning ham oldida o'tgan davr mobaynida bosib o'tgan tarixiy yo'li va orttirgan tajribasini xolisona baholash, mustaqillik yillarida erishgan yutuqlarini tahlil qilish hamda zamon talablaridan kelib chiqqan holda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va mamlakat taraqqiyotini jadallashtirishning muhim ustuvorliklarini hamda aniq marralarini belgilash vazifasi turgan edi.

Shu qatorda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018- yil 1-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5495-sonli Farmoniga muvofiq²:

a) 2018- yil 1-oktyabrdan investitsiya faoliyatini amalga oshirish uchun yer uchastkalarini berishning quyidagi yangi mexanizmlari joriy etilmoqda:

qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkasini 50 yilgacha muddatga, lekin arizada ko'rsatilganidan kam bo'lmagan muddatga

²O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 01.08.2018 yildagi PF-5495-son. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni O'zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida.

investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun uzoq muddatli ijaraga berish;

ko‘chmas mulk obyektlarini (mehmonxonalar, savdo obyektlari, madaniy-ko‘ngilochar majmualar, maishiy xizmat ko‘rsatish obyektlari, ta’lim va tibbiyot tashkilotlari, yo‘l infratuzilmasi va shu kabilar) qurish uchun yer uchastkalariga doimiy egalik qilish huquqini auksion orqali sotish;

b) quyidagilarga:

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda tuman (shahar) hokimlariga chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalariga qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkasini 50 yilgacha muddatga, lekin arizada ko‘rsatilganidan kam bo‘lmagan muddatga investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun uzoq muddatli ijaraga berish;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisiga, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlariga qonun hujjatlarida belgilangan vakolatlar doirasida va tartibda 10 million AQSH dollaridan ko‘p bo‘lmagan ekvivalentda chet el investitsiyasi ulushi bo‘lgan investitsiya loyihalarini amalga oshirishda chet el investorlari bilan investitsiya shartnomalarini tuzish;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev ta’kidlaganidek, “makroiqtisodiy barqarorlik – iqtisodiy islohotlarning mustahkam poydevoridir. Shuningg uchun 2021 yilda Tadbirkorlarga yanada qulaylik yaratish maqsadida 105 ta litsenziya va ruxsatnoma turlari bekor qilinadi, 115 tasi bo‘yicha esa tartib-qoidalar soddalashtiriladi. Tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liq 5 mingga yaqin normativ-huquqiy hujjatlar qayta ko‘rib chiqilib, ularning soni qisqartiriladi hamda Tadbirkorlik kodeksi ishlab chiqiladi. Shuningdek, 2021 yilda iqtisodiyotni kamida 5 foizga o‘shirishini, byudjet defisiti yalpi ichki mahsulotga nisbatan 5,4 foizdan oshmasligini ta’minlashimiz zarur. Kelgusi 2 yilda esa byudjet defisitini 2 foizdan oshirmaslik bo‘yicha Hukumat zarur chora-tadbirlarni belgilashi lozim”³.

³O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning “2021 yilda mamlakatimizni rivojlantirishning eng muhim ustuvor vazifalari to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Parlamentga Murojaatnomasi”. 2020 yil 29 dekabr.

Iqtisodiy islohotlarni liberallashtirish va modernizatsiyalash natijasida xo‘jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy-xo‘jalik, shuningdek, ishlab chiqarish faoliyatining samaradorligini oshirish, xususiy va xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish, subyektlar o‘rtasida hisob-kitoblarni yo‘lga qo‘yish hamda debitorlik va kreditorlik qarzlarni kamaytirish, budjet bilan qarz va boshqa to‘lovlar bo‘yicha hisoblashishni amalga oshirish, me‘yoriy-huquqiy hujjatlar yuzasidan maslahatlar berish va boshqa malakali xizmatlar ko‘rsatish borasida auditorlik faoliyatiga ehtiyoj oshmoqda. Bu esa, davlat va nazorat tuzilmalari korxonalar faoliyatiga aralashuvining qisqarishiga olib keladi.

2018 yil 19 sentyabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3946-son «O‘zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori qabul qilindi. Qarorda belgilanganidek, qator muammolar va kamchiliklar auditorlik faoliyatining yanada rivojlanishiga, boshqarishga oid qarorlarni qabul qilish va korporativ boshqaruv sifatini oshirish uchun auditorlik xizmatlarining ahamiyatini oshirishga to‘sqinlik qilmoqdaligi, ularni bartaraf etish uchun esa auditorlik xizmatlari bozorining rivojlanishi uchun sharoitlarni yanada yaxshilash va auditorlik faoliyatini tartibga solishda xalqaro standartlarga muvofiq zamonaviy yondashuvlarni joriy etish maqsadida auditorlik faoliyatini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini amalga oshirishni ta‘minlash belgilangan.

“Investitsiyalar auditi” fanini o‘qitishdan maqsad kapital va moliyaviy investitsiyalarni baholash, investitsiyalar auditini rejalashtirish va tashkil qilish, investitsiyalar auditini o‘tkazish hamda audit natijalarini rasmiylashtirish bo‘yicha talabalarda bilim, malaka va ko‘nikmalarni shakllantirishdan iborat.

Ushbu maqsaddan kelib chiqib, fanning predmetini o'rgatish uchun bir necha vazifalar qo'yildi, jumladan: magistrarga kapital investitsiyalarni baholash va buxgalteriyada hisobga olish; kapital investitsiyalar auditi; moliyaviy investitsiyalarning mohiyati va ularni hisobga olishning vazifalari, uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalarni turkumlash va baholash, investitsiyalarni diskontlash; uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalar harakatini hisobda aks ettirish, qisqa muddatli moliyaviy investitsiyalar hisobi; investitsiyalar auditini rejalashtirishning maqsadi; vazifalari; bosqichlari va asosiy tamoyillari; investitsiyalar auditi rejasini tuzish; investitsiyalar auditi dasturini tuzish; moliyaviy investitsiyalar tavsifi; auditi xususiyati, maqsadi va vazifalari; moliyaviy investitsiyalarni auditorlik tekshiruvidan o'tkazishda qo'llaniladigan ma'lumot manbalari; moliyaviy investitsiyalarni inventarizatsiyadan o'tkazish va oldin o'tkazilgan inventarizatsiyalar to'g'riligini tekshirish, moliyaviy investitsiyalar hisobiga doir dastlabki hujjatlarning rasmiylashtirilishini va qimmatli qog'ozlarni baholashning to'g'riligini tekshirish; qimmatli qog'ozlarning analitik hisobini, kirimi va chiqimiga doir muomalalarni tekshirish; moliyaviy investitsiyalarning daromadlilik, olingan daromadlarning to'liq aks ettirilishi va soliqqa tortilish maqsadlari o'rganiladi.

O'quv qo'llanma, asosan 5230900 «Buxgalteriya hisobi va audit» yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan. Shuningdek, undan 5230600 «Moliya», 5230700 «Bank ishi», 5230800 «Soliqlar va soliqqa tortish», 5230100 «Iqtisodiyot», 5230200 «Menejment», 5230300 «Marketing» yo'nalishlarida ta'lim olayotgan talabalar ham foydalanishlari mumkin.

Fanni o'qitishda ma'ruza, seminar va amaliy darslar, shuningdek, ilg'or pedagogik texnologiyalarning «klaster», «insert», «aqliy hujum», «kichik guruhchalar», «didaktik o'yinlar texnologiyasi», keys-stadilar, bliss-so'rov, taqdimot uslublaridan hamda proyektor, slayd, Microsoft Power Point, multimedia, «1-C Buxgalteriya dasturi», virtual kutubxona va boshqa ilg'or axborot texnologiyalari vositalaridan foydalaniladi.

O'quv qo'llanma albatta, ba'zi bir kamchiliklardan xoli emas. Shuning uchun, matnda uchragan kamchilik, fikr-mulohaza va takliflarni lutfan qabul qilamiz hamda Sizlarga oldindan minnatdorchilik bildiramiz.

I bob. IQTISODIYOTNI RIVOJLANISHIDA INVESTITSIYALAR MOXIYATI VA UNING TURLARI

O‘zbekiston qisqa vaqt mobaynida iqtisodiy o‘shish sur‘atlari bo‘yicha dunyoning ko‘p mamlakatlarini ortda qoldirib, rivojlanishda katta yutuqlarga erishdi. Mamlakatda xorijiy investorlar uchun qulay sharoitlar yaratilgan, to‘qimachilik, axborot texnologiyalari, oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash, mineral o‘g‘itlarni qazib olish va qayta ishlash kabi sohalarda ishga solinmagan ulkan potensial mavjud.

Radjan Madxu, «Hindiston-MDH» Savdo-sanoat palatasi

1.1. Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish sharoitida investitsiyalarning iqtisodiyotda tutgan o‘rni

Hozirgi shiddat bilan rivojlanish, globallashtirish, dunyoda davom etayotgan moliyaviy iqtisodiy inqirozlar, “savdo urushlari”, geosiyosiy jarayonlar, pandemiyalar yanada murakkablashib borayotgan bir sharoitda iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash ham siyosiy, ham iqtisodiy, ham ijtimoiy ahamiyat kasb etmoqda. Iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash hamda iqtisodiy o‘shish borasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev “To‘rtinchidan, iqtisodiy o‘shishga, avvalo, raqobatdosh sanoat zanjirlarini yaratish hamda bunday loyihalarga investitsiyalarni ko‘paytirish orqali erishiladi. ...Shu bilan birga, investitsiya siyosatini yuritishda davlat ishtirokini pasaytirib, xususiy va to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar ulushini oshirish kerak. ...Umuman olganda, kelgusi yilda 23 milliard dollar qiymatidagi investitsiyalarni o‘zlashtirish zarur.⁴” deb ta‘kidlab o‘tganlar. Shunday ekan, har qanday o‘shish va samaradorlikka erishish bevosita investitsiyalarga bog‘liqdir.

Iqtisodiyotimizga kiritilayotgan investitsiyalarning yildan yilga o‘shish borishida bir qator investitsion qulayliklar va qulay investitsiya muhiti shakllanganligini keltirib o‘tish joiz. Erkin iqtisodiy zonalar,

⁴ <https://president.uz/uz/lists/view/4057> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi, 2020-yil 29-dekabr.

texnoparklar, kichik sanoat zonalarining tashkil qilinishi to‘g‘ridan-to‘g‘ri chet el investitsiyalarini jalb qilishning asosiy omili bo‘ldi⁵. Shuningdek, investitsion muhit farovonligiga ta‘sir ko‘rsatuvchi quyidagi asosiy omillarni ham qayd etish o‘rinlidir. Bularga:

1. **Siyosiy barqarorlik.** Davlat tomonidan barcha ijtimoiy- iqtisodiy sohalarda olib borilayotgan tizimli islohotlar va O‘zbekistonda istiqomat qilayotgan 100 dan ortiq xalq va elatlar uchun yaratib berilayotgan teng imkoniyatlar, har bir shaxs, har bir xo‘jalik yurituvchi subyektlarga o‘z imkoniyatlarini to‘laqonli namoyish etishlari uchun barcha sharoitlarning mavjudligi.

2. **Milliy iqtisodiyotning barqaror sur‘atlarda rivojlanib borayotganligi. Makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash.** 2017-yilda O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy sur‘ati tubdan o‘zgardi. Harakatlar strategiyasiga muvofiq, iqtisodiy rivojlanish, avvalo, aholining hayot darajasi va sifatini oshirishga qaratilgan mutlaqo yangi bosqichga o‘tdi. Amalga oshirilgan barcha islohotlar “Inson manfaatlarini va farovonligi hamma narsadan ustun” degan tamoyilga asoslanadi. Davlat dasturining III bo‘limiga ko‘ra, 70 dan ortiq me‘yoriy-huquqiy hujjatlarni, shuningdek konsepsiyalar va «**Yo‘l xaritalari**»ni ishlab chiqishni o‘z ichiga olgan 105 ta chora-tadbirdan iborat 77 ta bandni amalga oshirish nazarda tutilgan. 40 mlrd.AQShdollariga teng bo‘lgan 649 ta investitsiya loyihalarini o‘z vaqtida amalga oshirishni ta‘minlash, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi tadbirkorlik subyektlari huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakil (**BIZNES OMBUDSMAN**)ni tashkil etish, ko‘mir qazib olishni yiliga 3,7 mln. tonnaga oshirish imkonini beruvchi investitsiyaviy loyihalarni amalga oshirish⁶. O‘zbekiston o‘z mustaqilligining dastlabki yillarida, bozor iqtisodiyotiga o‘tishning o‘ziga xos yo‘lini («o‘zbek modeli») tanlab, uni izchil amalga oshirishi natijasida Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi davlatlaridan farqli ravishda ishlab chiqarish va aholi turmush

⁵2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi.

⁶2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi.

darajasining keskin pasayib, davlatning ichki va tashqi qarzlari haddan ziyod oshib ketishiga yo‘l qo‘yilmaslikka erishdi. O‘zbekiston iqtisodiyoti 1997-2003-yillar davomida yiliga 3,8-5,2 foiz o‘shish sur‘atlari bilan rivojlandi. Qulay ishchan muhit yaratish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashga qaratilgan iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish jarayonlarining natijasi sifatida mamlakatimiz iqtisodiyoti 2004-yildan e‘tiboran yiliga 7-9 foiz darajasidagi yuqori va barqaror o‘shish sur‘atlarini namoyish qila boshladi⁷.

3. Geografik va geosiyosiy joylashuvi. O‘zbekiston Markaziy Osiyoning chorrahasida joylashgan bo‘lib, samarali mintaqaviy hamkorlik aloqalarini o‘rnatish, mintaqaviy va transmilliy loyiha- larda ishtirok etish uchun qulay transport koridorlariga ega mam- lakatdir⁸.

4. Rivojlangan infratuzilmaning mavjudligi. Respublikada transport infratuzilmasi bo‘lmish temiryo‘llar, avtomobil yo‘llari hamda havo yo‘llari yaxshi yo‘lga qo‘yilgan. «TALGO-250» rusumidagi 2 ta yuqori tezlikdagi yo‘lovchi poyezdni sotib olish loyihasini amalga oshirish, temiryo‘llarimizning uzunligi 6,5 ming km, avtomobil yo‘llarimizning uzunligi 43,5 ming km.ga teng. Milliy aviakompaniyamizda muntazam ravishda 40 dan ziyod xorijiy davlat shaharlariga to‘g‘ridan to‘g‘ri reyslar amalga oshiriladi, shuningdek, jahonning 24 ta davlatida 43 ta vakolatxonasiga ega. Respublikamizda yiliga 48 mlrd. k.s. elektr energiyasi va 10 mln. Gkal. issiqlik energiyasi ishlab chiqariladi. Bu nafaqat ichki ehtiyojimiz, balki xorijga eksport qilishimizga ham imkon yaratadi.

5. Qulay soliq va bojxona siyosati. O‘zbekiston iqtisodiyotiga kiritilayotgan xorijiy investitsiyalar uchun investorlarga qator imtiyoz va preferensiyalar yaratilgan va ularning kafolati qonun bilan mustahkamlab qo‘yilgan.

⁷O‘zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining mustaqillik yillaridagi (1990-2010-yillar) asosiy tendensiya va ko‘rsatkichlari hamda 2011-2015-yillarga mo‘ljallangan prognozlar. Statistik to‘plam. - T.: O‘zbekiston, 2011.13-b.

⁸Юлдашев Р.З. Инвестиционное обеспечение приватизированных предприятий в Узбекистане: управленческий аспект. Монография. -Т.: Иктисодиёт, 2009.

Xususan, ular mulk solig'idan, tadbirkorlik faoliyatidan olinayotgan daromad solig'idan hamda bir qator bojxona bojlarini to'lashdan ozod etilganlar.

6. Yuksak salohiyatga ega ishchi kuchining mavjudligi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining joriy yilda ta'lim tizimini takomillashtirishga qaratilgan 70 ga yaqin farmon, qaror va farmoyishi qabul qilindi. Bu tom ma'noda ta'lim tizimidagi o'zgarish va yangilanishlar jarayonini boshlab berdi, joriy yilda 18 ta oliygohda qurilish va ta'mirlash ishlari amalga oshirildi va 70 tasi 120 mlrd. so'mlik zamonaviy kompyuter, o'quv laboratoriyalari bilan jihozlandi, oliy ta'lim muassasalariga qabul 15 % oshirildi. Yuqori malakali va bilimdon o'qituvchi-pedagoglar bazasini shakllantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli qarori bilan Mirzo Ulug'bek nomidagi ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktab-internati hamda Astronomiya va aeronavtika bog'i tashkil etildi⁹. Yuqori salohiyatga ega mutaxassis kadrlarga ega bo'lib, aholi savodxonligi darajasi oshadi.

Mamlakatda har to'rtinchi kishi oliy yoki o'rta maxsus ma'lumotga ega hisoblanadi. Birgina ta'lim sohasini oladigan bo'lsak, mamlakatimizda o'z mazmun va mohiyatiga ko'ra noyob bo'lgan Kadrlar tayyorlash milliy dasturi muvaffaqiyatli amalga oshirildi. Ushbu dastur o'n ikki yillik yaxlit majburiy uzluksiz ta'lim tizimiga o'tish hamda ta'lim jarayonlarining sifatini tubdan va tizimli oshirish, kadrlarning yuksak darajadagi umumiy va kasbiy madaniyatga ega bo'lgan yangi avlodini tarbiyalashga qaratilgan maxsus chora-tadbirlarni ko'rish imkonini berdi. Aholining har bir a'zosi turmush sharoitlarini oshirish, bilim olish imkoniyatlarini kengaytirish, salomatligini mustahkamlash, ishchi kuchi sifatida ijtimoiy foydali mehnatda ishtirok etish salohiyatini yuksaltirish davlatimiz ijtimoiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

Ana shu ma'noda aholi muhofazasini ta'minlashdagi birinchi va asosiy vazifa ham insonni kamol toptirish, uning oila va jamiyatdagi

⁹2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi.

o'zni hamda nufuzini ko'tarish bilan bog'liq. Binobarin, jamiyatning insonparvarligi mamlakat iqtisodiy salohiyatining qanchalik yuksakligi bilangina emas, balki bu salohiyat har bir kishining farovon yashashi va har tomonlama rivojlanishi uchun yo'naltirilgani bilan ham baholanadi.

Mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, iqtisodiyot tarmoqlarining raqobatdoshligini oshirish hamda mahalliy ishlab chiqarish korxonalarining eksportdagi hajmini oshirishga qaratilgan investitsiya faoliyatini tartibga soluvchi 50 dan ortiq me'yoriy hujjatlar qabul qilindi, "Konsessiyalar to'g'risida", "Erkin iqtisodiy zonalar to'g'risida", "Chet el investitsiyalari to'g'risida", "Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida"gi, "Investitsiya faoliyati to'g'risida" hamda "Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida" qonunlar shular jumlasidandir.

Ma'lumki, jamiyat taraqqiyotida aholining muhtoj qatlamlarini ijtimoiy muhofaza qilish, nafaqat ijtimoiy, ayni vaqtda siyosiy ahamiyatga egadir. Chunki jamiyatning o'zagini tashkil etuvchi inson uning yuksalish darajasi, haqiqiy qiyofasini belgilaydi. Shu boisdan aholining mazkur qatlamlari ijtimoiy-iqtisodiy va demografik holati miqdoriy o'zgarishlarini, ularning daromadlari va xarajatlarining shakllanish xususiyatlarini, tarkibini o'rganish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini modernizatsiya qilish sharoitida aholi daromadlari tarkibida qator o'zgarishlar sodir bo'ldi:

birinchidan, daromad shakllari o'zgardi, ya'ni uning an'anaviy turlari (ish haqi, pensiya, nafaqa, stipendiya) qatoriga mutlaqo yangilari tadbirkorlik faoliyatidan, mulkdan, ko'chmas mulkdan, qimmatli qog'ozlardan, chet el valutasidan keladigan daromadlar qo'shildi;

ikkinchidan, daromadlarning tarkibiy qismlari miqdor va sifat jihatidan o'zgardi, bu borada fuqaro ixtiyoridagi haqiqiy daromadlar, to'planish va ajralish koeffitsiyenti, daromad tanqisligi, tirikchilik minimumi, qashshoqlik darajasi, oila pul daromadlarining xarid qobiliyati kabi tushuncha va kategoriyalar paydo bo'ldi;

uchinchidan, daromadlardan foydalanishning yangi yoʻnalishlari paydo boʻldi: majburiy toʻlovlar va badallar, xorijiy davlat valyutasi, qimmatli qogʻozlar va shaxsiy mulkni sotib olish uchun xarajatlar, tijorat banklariga qoʻyilmalar shular jumlasidandir.

Taʼkidlash joizki, aholi daromadlarining darajasi qanchalik yuqori boʻlsa, uning zaruriy ehtiyojini qondirish, salomatligini saqlash, dam olishini tashkil etish, maʼlumot olishi, boʻsh vaqtlarini madaniy tarzda oʻtkazishi boʻyicha imkoniyatlari shunchalik koʻp boʻladi.

Investitsiya faoliyatidagi burilishlar, taʼkidlangan vazifalarni yechish; investitsiyalashning davlat mexanizmini erkinlashtirib borish va bozor mexanizmlarida qoʻllaniladigan sohalarni kengaytirish; investitsiyalashni oʻz jamgʻarmalari hisobidan taʼminlashning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish va joriy qilish; zamonaviy, korporativ moliyalashtirish, lizing kabi yangi usullardan foydalanish sohasini kengaytirish talab qilinadi.

1.2. Investitsiyaning iqtisodiy mohiyati

Iqtisodiyot subyektlarining iqtisodiy rivojlanishi va oʻsishida mamlakatda olib borilayotgan investitsion siyosat muhim omil hisoblanadi va uning samarasi xoʻjalik yurituvchi subyektlarining koʻpayishi, faoliyatdagilarining kengayishi yoki rekonstruksiya qilinishi bilan belgilanadi. Oʻzbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrda qabul qilingan “Investitsiya va investitsiya faoliyati toʻgʻrisida”gi tahrirdagi qonunida investitsiyaga quyidagicha taʼrif berilgan: “**Investitsiyalar** — investor tomonidan foyda olish maqsadida ijtimoiy soha, tadbirkorlik, ilmiy va boshqa faoliyat turlari obyektlariga tavakkalchiliklar asosida kiritiladigan moddiy va nomoddiy boyliklar hamda ularga boʻlgan huquqlar, shu jumladan intellektual mulk obyektlariga boʻlgan huquqlar, shuningdek reinvestitsiyalar” dir¹⁰.

Oxirgi yillar davomida «investitsiyalar» atamasi keng qoʻllaniladigan tushunchalardan biri boʻlib qoldi.

¹⁰Oʻzbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrda qabul qilingan “Investitsiya va investitsiya faoliyati toʻgʻrisida”gi qonuni. 3-modda.

Har taraflama asoslangan, puxta o'ylangan investitsiya qarorlarini investitsiyalarni moliyalashtirishning ishonchli manbalari bilan chambarchas bog'liqlikda qabul qilish zarurligi va xorij kapitalini jalb qilishning kengayib borayotganligini hisobga oladigan bo'lsak, hozirgi zamon moliya nazariyasi nuqtayi nazaridan investitsiyalarning iqtisodiy mazmuni va mohiyatini ochib berish, ularning eng muhim sifat tavsiflarini aniqlash g'oyat dolzarb masala hisoblanadi.

Investitsiyalarning mazmun va mohiyatini aniq ochib berish uchun pul oqimlarining zamonaviy va bo'lajak qiymatlaridan kelib chiqqan holda tahlil qilib borish maqsadga muvofiq. "Investitsiya faoliyati" tushunchasi negizida ko'rinib turibdiki, "investitsiya" atamasi yotadi. Ushbu atama o'zbek tilining lug'atiga chet tillar leksikonidan o'zgarishsiz kiritilgan, lekin uning asl mohiyati iqtisodiy ahamiyatiga qarab tavsiflangan.

Iqtisodiy atama va tushunchaga aylangan "investitsiya" so'zi dunyo mamlakatlari xalqlari leksikoniga lotin tilidan kirib kelgan. Lotincha "investio" so'zi rus tiliga "укращать" so'zlari sifatida o'girilgan¹¹, bu rus so'zlari esa o'zbek tiliga "kiyintirmoq", "bezamoq" mazmuni bilan o'giriladi. Hozirgi davrda "investitsiya" tushunchasi aksariyat hollarda keng ma'noda ishlatilmoqda. Iqtisod fanlarining turli tarmoqlarida, amaliy faoliyatning turli yo'nalishlarida investitsiyalashning maqsadlari, harakatlar yo'nalishi, sohalar xususiyatlari, safarbar etilish obyektlari, harakat yo'nalishlaridan kelib chiqib va ahamiyatiga qarab «investitsiyalar» tushunchasi o'ziga xos ma'noda qo'llaniladi. Moliya nuqtayi nazari- dan ularning mazmun va mohiyatini aniq belgilash muhim vazifa hisoblanadi.

Investitsiyalar bo'lajak natijalarni qo'lga kiritish maqsadida mohiyatan hozirgi xarajatlarni bildiradi.

O'zbekiston iqtisodchi olimlaridan D.G'.G'ozibekov va T.M. Qorialiyevlar investitsiyani «daromad (foйда) yoki ijtimoiy samara keltiradigan va tadbirkorlik, ishbilarmonlikning davlat tomonidan taqiqlanmagan faoliyatlariga jalb qilinadigan (sarflanadigan) barcha

¹¹Толковый словарь иностранных слов. Составитель Н.Николаева. -М.: 1997, с.143-144.

turdagi mulkiy va intellektual boyliklar»¹² deb ta'riflaydilar. Shu o'ringa yana bir ta'rifga ko'ra, «investitsiya iqtisodiy foyda, ijtimoiy va ekologik samara olish maqsadida bevosita bir yildan ortiq muddatga tadbirkorlik va boshqa faoliyat turlariga sarflanadigan moddiy va moliyaviy aktivlar umumiylikini tashkil etuvchi kapital va moliyaviy qo'yilmalar, shuningdek, ushbu jarayon bilan bog'liq mehnat resurslaridir»¹³. N.V. Igoshinning fikricha, «investitsiya pul mablag'larini, sarmoyani qayta yaratish, uni saqlab turish va kengaytirish yo'lida sarflashdir. Eng umumiy ko'rinishda oladigan bo'lsak, investitsiya bo'sh pul mablag'larini moliyaviy va moddiy boyliklarning turli shakllariga sarflashdan iboratdir»¹⁴.

Umuman olganda, iqtisodiyotda investitsiyalar kapitalning jamg'arilish jarayonidir. Ayrim asarlarda mamlakat ichida yoki xorijda ishlab chiqarishni, tadbirkorlikni rivojlantirish, foyda olish yoki boshqa pirovard natijalar olish maqsadlarida turli tarmoqlar, dasturlar va ayrim tadbirkorlarga moliyaviy, mulkiy va intellektual ne'matlar qo'yilmalarining jami turlarini investitsiyalash deb ko'rsatiladi. Bunday nuqtayi nazarda turgan mualliflarning fikricha, ularning bir qismi bu joriy davrda foydalanilmaydigan va zaxiraga qo'yiladigan iste'mol ne'matlaridan, ikkinchi qismi ishlab chiqarishni kengaytirish yoki uni yangilashga, ya'ni real kapitalni ko'paytirishga yo'naltiradigan resurslar hisoblanadi.

Bizning fikrimizcha, o'zining hozirgi qiymatini saqlaydigan yoki uni ko'paytiradigan ne'matlarnigina investitsiyalar deb hisoblash mumkin, aks holda ular harakatsiz «o'lik kapitalga» aylanadi. Moliyaviy resurslar, ularni qo'yish va bu jarayon natijasida foyda olish bir-biri bilan uzviy bog'langan. Investitsiya qilishdan oldin resurslar jamg'ariladi, so'ngra ular foyda yoki ijtimoiy samara olish maqsadida qo'yiladi. Resurslar qanday bo'lishidan qat'i nazar ulardan foydalanish natijasini baholovchi mezon iqtisodiy samaradir. Yuqorida aytib

¹²G'ozibekov D.G', Qorialiyev T.M.. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. - T.: Matbuotchi., 2009. 10-11-betlar.

¹³Иломов Ш.И. Инвестиция фаолиятида бухгалтерия ҳисоби ва аудит. и.ф.н. дисс. - Т.: 2005. 27-б.

¹⁴Игошин Н.В. Инвестиции. - М.: Финансы.ЮНИТИ, 2000. с. 71.

o‘tilganidek, moliyaviy resurslar investitsiyalarning birinchi elementidir.

Investitsiyalarning mohiyatini yanada to‘laroq ochib berish uchun O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonuniga ko‘ra ularning tasnifini, shuningdek, bu masala bo‘yicha iqtisodiy adabiyotlarda mavjud bo‘lgan qarashlar, nuqtayi nazarlarni ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq.

Investitsiyalarni kiritishning asosiy maqsadi faqat kapitalning hozirgi qiymatini saqlab qolishdangina iborat bo‘lmay, qo‘yilmalarning xavfsizligi, serdaromadligi va ularni ko‘paytirishni (kapitallashtirishni) ham qamrab oladi.

Demak, investitsiyalarning asosiy maqsadi pul oqimlarining zamonaviy qiymatini saqlab qolish hamda ular natijalaridan kutiladigan bo‘lajak qiymatlarni kapitallashtirishdir.

Ular muayyan maqsadlarda jamg‘arish funksiyalarini ta’minlaydi.

Keng ma'noda investitsiyalar ko‘paytirib qaytarib olish maqsadlarida kapitalni bog‘lashni bildiradi. Ko‘pgina hollarda «investitsiyalar» tushunchasi iqtisodiy va boshqa faoliyat obyektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy ne‘matlar hamda ularga doir huquqlar tarzida ta’riflanadi.

Investitsiyalarining iqtisodiy mazmuni va mohiyatini ko‘rib chiqishda shuni ta’kidlash lozimki, iqtisodiy adabiyotlarda «Investitsiyalar» atamasini «kapital qo‘yilmalar», «kapital» tushunchalari bilan aynan ma'nolarda qo‘llash holatlari ko‘p uchraydi.

Bunday hollarda investitsiyalar asosiy kapitalga mablag‘lar qo‘yish ma'nosida talqin qilinadi. Ayni paytda shuni ham nazarda tutish kerakki, investitsiyalar nomoddiy aktivlarga ham, intellektual mulkka ham, aylanma aktivlarga, shu jumladan, moliyaviy vositalarga ham taalluqli.

Makroiqtisodiy darajada investitsiyalar deyilganda, ishlab chiqarish vositalarini takror ishlab chiqarishga, ya'ni uy-joy binolari, tovar zaxiralarini ko‘paytirish va shu kabilarga yo‘naltirilgan xarajatlarning bir qismi tushuniladi.

Ishlab chiqarishning omillaridan biri kapital hisoblanadi, kapital esa birinchi navbatda, investitsiyalar hisobiga o‘sib boradi.

Iqtisodchi olim O.T.Astanakulov tadqiqotlari natijasida korxonalarda investisiya faoliyati tahlilining tashkiliy, uslubiy hamda texnik jihatlarini o‘zaro bog‘liqlikda amalga oshirish bosqichlarining metodologik sxemasini taklif etgan va investisiya faoliyati tahlilining turlari bo‘yicha asosiy vazifalarni keltirib o‘tgan¹⁵.

Xorijiy olimlardan Zvi Bodie, Alex Kane, Alan J. Marcus investisiya muhiti, uning elementlari, qimmatli qog‘ozlar tahlili, hosilaviy qimmatli qog‘ozlar va investisiyalar portfelini boshqarish hamda risklar tahlili borasida tadqiqotlar olib borishgan¹⁶.

K.R.Subramanyam Korxonaning ichki (joriy va uzoq muddatli aktivlarga) va tashqi (qimmatli qog‘ozlar, ulushli investisiyalar, biznes birlashuvlari va h.z.) investisiyalari tahlilining maqsad, vazifalari hamda uslubiyotini yoritib bergan¹⁷.

Rossiyalik olim G.V.Saviskaya Investisiya faoliyati samaradorligi tahlilining asosiy yo‘nalishlari sifatida investision faoliyat hajmi tahlili, real investisiyalar, moliyaviy qo‘yilmalar samaradorligi tahlili, investisiya loyihalari samaradorligi va moliyalashtirish manbalari tahlilini keltirib o‘tgan¹⁸[12]. Olib borilgan tadqiqotlarda investisiyalar hisobi va tahlilining turli qirralari ochi berilgan va shu jihatlaridan kelib chiqib hisob va tahlilning maqsadi, vazifalari hamda zarurati yoritilgan. Ayrim iqtisodchilar shu nuqtayi nazardan investitsiyalarni kapitalni o‘stirish, ishlab chiqarishni kengaytirish, yangilash va texnika bilan qayta qurollantirishga yo‘naltiriladigan jami moddiy, mehnat va moliya resurslaridan foydalanish jarayoni tarzida izohlaydilar.

Investitsiya kiritish maqsadlari va ular bilan bog‘liq risklardan kelib chiqqan holda investitsiyalar venchur (riskli), bevosita, portfel va annuitet kabi turlarga tasniflanadi.

¹⁵ Astanakulov O.T. Korxonalar investitsiya faoliyati tahlili metodologiyasini takomillashtirish. -T.: TMI, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati, 2020, 16 b.

¹⁶ Bodie, Zvi. Investments / Zvi Bodie, Alex Kane, Alan J. Marcus.—9th ed. p. cm.—(The McGraw-Hill/Irwin series in finance, insurance and real estate), 2011. P.994

¹⁷ Subramanyam K.R. Financial statements analysis. 11th edition. —New York, “McGraw-Hill Education”, 2014.— P.701

¹⁸Savitskaya G.V. Ekonomicheskiy analiz: uchebnik—14-e izd., pererab. i dop. —M.: INFRA-M, 2017. —649 s.

Ma'lumki, katta risklar bilan bog'liq bo'lgan yangi faoliyat sohalarida yangi aksiyalar chiqarish venchur kapital shakli hisoblanadi. Shuningdek, investitsiyalar kreditlardan ham farq qiladi.

Kreditlashda kelishuv tashabbuskor, odatda, qarzdor hisoblanadi, investitsiyalashda esa tashabbus investordan chiqadi. Kreditga foiz ko'rinishidagi to'lov xos bo'lsa, investitsiyalarni dividend, foyda, foiz, daromad, moddiy ne'mat, ijtimoiy, ekologik va boshqa samaralar ko'rinishidagi natijalar kutadi.

Mazkur belgilar bo'yicha investitsiya va kredit bir-biridan farqlanadi. Investitsiyalar mazmuni ularning namoyon bo'lish shakllari orqali, maqsadi esa ularning asosiy funksiyasi - jamg'arish bilan aniqlanadi.

Investitsiyalarning mazmuni aniq va ishonchli manbalardan mablag'lar olish, ularni asosli holda safarbar etish, risklar darajasini hisobga olgan holda kapital qiymatini saqlash va ko'zlangan samarani olishdan iborat bo'ladi. Ana shu belgilarga ko'ra investitsiyalar boshqa qo'yilmalardan mazmunan farq qiladi.

Bularning barchasi asosida kapitalning harakatlanishi jarayoni yotadi. Kapitalning harakat qilish jarayoniga jalb etilishi investitsiyalar mohiyatini aks ettiradi.

Demak, investitsiyalar aniq va noaniq, lekin ehtimol risklar ostida kapitalni muayyan jarayonlarga, muayyan vaqtga bog'lash bo'lib, uning hozirgi qiymatini saqlash, kapitallashtirish va jamg'arish maqsadiga qaratiladi.

1.3. Investitsiyalarning turlari va shakllari

Investitsiyalarning iqtisodiy mazmuniga ko'ra quyidagi turlari mavjud:

- real;
- moliyaviy;
- intellektual.

Real investitsiyalar korxonada asosiy vositalarini vujudga keltirish va takror ishlab chiqarishga, shuningdek, moddiy ishlab chiqarishning boshqa shakllarini rivojlantirishga qo'shiladigan investitsiyalardir.

Buxgalteriya hisobida bu turdagi investitsiyalar kapital qo'yilmalar sifatida e'tirof etiladi.

Moliyaviy investitsiyalar qo'llanishiga ko'ra qisqa va uzoq muddatli bo'ladi.

Uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalar uzoq muomala muddatiga ega (12 oydan ortiq) aktivlarning sotib olinishiga oid investitsiyalardir.

Qisqa muddatli moliyaviy investitsiyalar o'zida muomala muddati 12 oydan oshmaydigan, yengil sotiladigan moliyaviy aktivlarning xarid qilinishiga oid investitsiyalardir.

Uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalarni hisobga olishning vazifalari quyidagilardir:

- uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalarni va ular bo'yicha olingan daromadlarni o'z vaqtida va to'g'ri aniqlash;
- uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalar uchun ajratilgan mablag'larni o'z vaqtida hisobdan chiqarishni ta'minlash;
- uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalarni hisobga olishda BHMS ni keng qo'llash;
- uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalardan olingan daromadlarni korxonada moliyaviy natijalarida aks ettirilishini ta'minlash;
- uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalardan olingan daromadlardan budjetga tegishli qismini amaldagi me'yoriy hujjatlarga, Soliq kodeksining talabiga muvofiq to'g'ri hisoblashni tashkil qilish, budjetga tegishli qismini o'z vaqtida o'tkazishni ta'minlash;
- uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalar hisobiga kelib tushgan mablag'lardan korxonani kengaytirish, rivojlantirish va korxonada jamoasi ehtiyoji uchun foydalanishni ta'minlash.

Uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalarni buxgalteriya hisobida hisobga olishni yengillashtirish uchun ular quyidagi guruhlariga ajratiladi:

- qimmatli qog'ozlar;
- sho'ba korxonalariga investitsiyalar;
- qaram birlashmalarga investitsiyalar;
- qo'shma korxonalariga investitsiyalar;
- boshqa uzoq muddatli investitsiyalar.

Qimmatli qog'ozlar uzoq muddatli investitsiyalarning asosiy qismini tashkil etadi. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida qimmatli qog'ozlar investitsiyalar yo'naltirishning asosiy vositasi hisoblanadi. 2015-yil 3-iyun O'RQ-387-son qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining «Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida»gi qonuniga (qo'shimcha va o'zgartirishlar bilan) muvofiq, «qimmatli qog'ozlar ularni chiqargan shaxs bilan ularning egasi o'rtasidagi mulkni huquqlari yoki qarz munosabatlarini tasdiqlovchi, dividend yoki foiz ko'inishida daromad to'lashni hamda ushbu hujjatlardan kelib chiqadigan huquqlarni boshqa shaxsga berish imkoniyatini nazarda tutuvchi pul hujjatlaridir»¹⁹.

Respublikamiz amaliyotida uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalarni yo'naltirishning asosiy vositasi aksiyadorlik jamiyatlarining qimmatli qog'ozlarini xarid qilish hisoblanmoqda.

Korxonaning shu'ba korxonalar, qo'shma korxonalar va qaram birlashmalarga investitsiyalari mavjudligi ularni buxgalteriya hisobida alohida turkumlarga ajratilishini taqozo etadi.

1.4. Investitsiya muhitini aniqlashning jahon tajribasi

Investitsiyalash borasidagi qo'shma loyihalar va qo'shma korxonalarni tashkil etishdagi risklarni hisobga olishda ko'pchilik xorijiy investorlar Beri indeksidan foydalanadilar.

Ushbu indeks mamlakatdagi investitsiya muhitini turlicha sal- moqqa ega bo'lgan 15 ta baholash mezonlari asosida hisoblab chiqadi. Har bir mezonga 0 dan (to'g'ri kelmaydi) 4 gacha (o'ta qulay) baho beriladi. To'plangan yuqori ball «barqaror mamlakat»ni anglatadi.

Mamlakat to'plagan ball qanchalik yuqori bo'lsa, investitsiyalashdan olinishi mo'ljallangan foyda ham shuncha yuqori bo'lishi zarur, aks holda investitsiyalash asossiz hisoblanadi. Beri indeksining umumiy ko'inishi 1.1-jadvalda keltirilgan.

¹⁹«Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuni, 2015- yil 3- iyun, O'RQ-387-son.

1.1-jadval
BERI indeksi¹

T/r	Mezonlar	Salmog'i, %
1	2	3
1.	Siyosiy barqarorlik: kutilmagan hukumat to'ntarishlari imkoniyatlari va ularning tadbirkorlik faoliyatiga ta'sirini baholaydi	12
2.	Xorijiy investitsiyalar va foydaga munosabat: xususiy tadbirkorlarga tegishli ijtimoiy ehtiyohlarga bo'lgan xarajatlar hajmi	6
3.	Milliylashtirish: beg'araz ekspropriatsiya imkoniyatlaridan to mahalliy hokimiyatlarga imtiyozlar berishgacha	6
4.	Devalvatsiya: devalvatsiya ta'siri hamda korxonalar faoliyatiga devalvatsiyaning ta'sirini yumshatuvchi choralarning hayotiyliigi	6

¹ *Imomov H.H.* Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. O'quv qo'llanma. - T.: IQTISOD-MOLIYA, 2010. 186-bet.

1.1-jadvalning davomi

1	2	3
5.	To'lov balansi: hisoblar balansi va umumiy balansga hamda xorijiy investorlarning daromadlariga ta'sir etuvchi omillar	6
6.	Rasmiyatchilik masalalari: davlatning iqtisodiyotga aralashuvi darajasi, bojxona rasmiyatchiliklarining amalga oshirilishi, valuta o'tkazishlari va boshqa shunday operatsiyalar	4
7.	Iqtisodiy o'sish sur'atlari: yillikyalpi mahsulot ishlab chiqarish sur'atlarining o'sishi, 3 %, 3-6 %, 6-10 % va 10 % dan yuqori chegaralarda	10
8.	Valutaning konvertirlangani: milliy valutaning xorijiy valutaga almashtirish imkoniyati hamda milliy valutaning (korxonalariga zarur bo'lgan darajada) valutalar bozoridagi o'rni	10
9.	Shartnomani amalga oshirish imkoniyati: shartnomaga amal qilish imkoniyati hamda til va urf-odatlardagi farq natijasida qiyinchiliklarning yuzaga kelishi	6
10.	Ish haqi va mehnat unumdorligiga xarajatlar: ish haqi darajasi, mehnat unumdorligi, ishga qabul qilish tartibi	8
11.	Ekspertlar va marketing xizmatlaridan foydalanish imkoniyati: korxonalariga yuridik, buxgalteriya, marketing bo'yicha maslahatlar berish, texnologiya va qurilish ishlarini amalga oshirish sohalarida maslahatlar kutish imkoniyati	2
12.	Aloqa va transportni tashkil etish: faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va ularning filiallari orasidagi transport yo'llari va aloqa tizimining (mamlakat ichidagini ham) tashkil etish va foydalanish imkoniyati. Transport infratuzilmasini baholash	4
13.	Mahalliy boshqaruv va hamkor: boshqaruvning turli masalalarini yechishda o'z kapitali bilan qatnashish va hamkorlikda faoliyat yuritishi mumkin bo'lgan mahalliy hamkorlarning soni va imkoniyatlari	4
14.	Qisqa muddatli kredit: xorijiy hamkorlarga qisqa muddatli kreditlar berish va ulardan foydalanish imkoniyati	8
15.	Uzoq muddatli kredit va shaxsiy kapital: hamkorlar tomonidan nizom kapitaliga o'z ulushlarini qo'shish shartlari va milliy valutada uzoq muddatli kredit berish shartlari	8

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga nisbatan Beri indeksi asosida investitsiya muhiti imitatsion baholangan bo‘lib, u 1.2-jadvalda qayd etilgan.

Mamlakat investitsiya muhitini baholashda yana Xalqaro kredit reytinglaridan ham foydalaniladi.

1.2-jadval

O‘zbekiston Respublikasi investitsiya muhitining imitatsion baholanishi

T/r	BERI indeksi mezonlari	Bahosi	Salmog'i, %	Indeks
1.	Siyosiy barqarorlik	4	12	0,48
2.	Xorijiy investitsiyalar va foydaga munosabat	3	6	0,18
3.	Milliylashtirish	2	6	0,12
4.	Devalvatsiya	0	6	0
5.	To‘lov balansi	1	6	0,006
6.	Rasmiyatchilik masalalari	1	4	0,04
7.	Iqtisodiy o‘shish sur'atlari	1	10	0,01
8.	Valutaning konvertirlanganligi	1	10	0,01
9.	Shartnomani amalga oshirish imkoniyati	3	6	0,18
10.	Ish haqi va mehnat unumdorligiga xarajatlar	2	8	0,16
11.	Ekspertlar va marketing xizmatlaridan foydalanish imkoniyati	1	2	0,02
12.	Aloqa va transportni tashkil etish	1	4	0,04
13.	Mahalliy boshqaruv va hamkor	3	4	0,12
14.	Qisqa muddatli kredit	1	8	0,08
15.	Uzoq muddatli kredit va shaxsiy kapital	2	8	0,16
16.	JAMI		100	1,61

Xalqaro kredit reytinglarini tuzishda foydalaniluvchi qimmatbaho qog'ozlarning ishonchliligi klassifikatsiyasi

Reyting interpretatsiyasi

O'ta yuqori ishonchlilik. Foizlar va qarz asosiy summasining to'lanish ehtimoli o'ta yuqori. Yuqori ishonchlilik. Foizlar va qarz asosiy summasining to'lanish ehtimoli yuqori

Ishonchlilik o'rtadan yuqori. Emitentning qarzni va foizlarni to'lash imkoniyatlari yuqori, ammo iqtisodiyotning ichki barqarorligiga bog'liq

Ishonchlilik yetarli darajada. Emitentning qarz va foizlarni to'lash imkoniyatlari to'lov vaqtidagi iqtisodiyotning ichki barqarorligiga bog'liq. Sharoitni ishonchli deb hisoblasa ham bo'ladi, ammo ichki iqtisodiy holatning beqarorligi tufayli doimo to'lamaslik xavfi mavjud

To'lamaslik xavfi yuqori. Emitentning to'lov qobiliyati cheklangan, ammo joriy vaqtdagi majburiyatlarga mos keladi

To'lanishi ehtimoli kam yoki to'lanmaydigan majburiyatlar. Emitentning to'lov qobiliyatiga mamlakatning ichki iqtisodiy beqarorligi bilan putur yetkazilgan **Umuman to'lanmaydigan majburiyatlar** (to'lovlar muddatini uzaytirish yoki to'lamaslik). Emitent bankrot yoki zarar ko'rmoqda

1.3-jadvaldagi ko'rsatkichlar jahondagi o'n bir obro'li agentlik tomonidan ishlab chiqilgan. Ulardan beshtasi Amerika, uchtasi

1.3-jadval

Reyting belgilari	
Standart and Poor's	Moody's
AAA	Aaa
AA+	Aa1
AA	Aa2
AA-	Aa3
A+	A1
A	A2
A-	A3
VVV+	Vaa1
VVV	Vaa2
VVV-	Vaa3
VV+	Va1
VV	Va2
VV-	Va3
V+	V1
V	V2
V-	V3
SSS +	Saa
SSS	
SSS-	
S	Sa

Yaponiya, ikkitasi Kanada va bittasi Angliya agentliklaridir. Bunda bozorning 90 % ikki yirik va mashhur Amerika kompaniyalariga tegishlidir Standart and Poor's Investor Service va Moody's Investor Service.

Xorijiy investorlar reytingdagi ma'lumotlardan vaqtni tejash maqsadida keng foydalanadilar. Mamlakatning reytingi yuqori yoki pastligi, albatta, ahamiyat kasb etadi. Lekin shu reytingga kirishning o'zi ham investorlarda ushbu mamlakatga nisbatan u yoki bu darajada ishonch uyg'otadi.

Iqtisodiyotning globalashuvi sharoitida va bozor munosabatlari talablaridan kelib chiqib, jahonda investitsiyalar uchun qat'iy raqobatli kurash izchil davom etmoqda.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish, mamlakatimiz iqtisodiyotiga bevosita xorijiy investitsiyalarning jalb qilinishini ta'minlaydigan huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa shart-sharoitlarni takomillashtirish, xorijiy investitsiyalarga nisbatan ochiq eshiklar siyosatini o'tkazish, mablag'larni mamlakatning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlovchi ustuvor yo'nalishlarda hamda raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarish bilan bog'liq yo'nalishlarda mujassam qilish respublikada o'tkazilayotgan investitsiya siyosatining asosiy tamoyillaridir.

Belgiyalik olim Xilbern Boysning fikriga ko'ra, «Katta iqtisodiy, mineral xomashyo va inson salohiyatiga ega O'zbekiston xorijiy sarmoyadorlarni, avvalo, mamlakatda barqaror siyosiy vaziyat bilan o'ziga jalb etadi. Ushbu mamlakatda tatbiq etilayotgan barcha yangilanishlar respublikani yanada ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va gullab-yashnatishga kafolat bo'ladi»²⁰.

Mamlakatimiz iqtisodiyotiga jalb etilayotgan investitsiyalar manbalari va ulardan foydalanish borasida ijobiy sifat o'zgarishlari ro'y bermoqda.

2018-yil 19-dekabr kuni Prezidentning "O'zbekiston Respublikasining 2019-yilga mo'ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori imzolandi. Hujjat bilan

²⁰ O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi. 3-son, 2011-yil. 19-b.

O‘zbekiston Respublikasining 2019-yilga mo‘ljallangan Investitsiya dasturi tasdiqlandi. U o‘z ichiga kapital qo‘yilmalarning asosiy parametrlari, ijtimoiy, uy-joy, muhandislik va transport infratuzilmasi obyektlarini ishga tushirish prognozi hamda obyektlar va ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish manzilli dasturini oladi. Shu bilan bir qatorda, kelasi yil uchun quyidagilar tasdiqlandi:

birinchidan, davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladigan, obyektlar qurish va ularni rekonstruksiya qilish manzilli dasturi;

ikkinchidan, markazlashtirilgan investitsiyalar hisobidan moliyalashtiriladigan:

melioratsiya obyektlarini qurish va rekonstruksiya qilish, shuningdek, texnikalar xarid qilish manzilli dasturi;

avtomobil yo‘llari, ko‘priklar va yo‘l o‘tkazgichlar qurish va rekonstruksiya qilish, shuningdek, obyektlarni jihozlash va texnikalar xarid qilish manzilli dasturi;

oliy ta‘lim muassasalari, ixtisoslashtirilgan olimpiya zaxiralari maktab-internatlari, bolalar musiqa va san‘at maktablari, tibbiy, ilmiy-tadqiqot, umumta‘lim va maktabgacha ta‘lim muassasalari obyektlarini qurish, rekonstruksiya qilish, kapital ta‘mirlash va jihozlash manzilli dasturlari;

ichimlik suvi ta‘minoti va kanalizatsiya tizimlari obyektlarini qurish va rekonstruksiya qilish manzilli dasturi;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyatida loyihalarni moliyalashtirishni tashkil qilgan holda Orolbo‘yi mintaqasini rivojlantirish manzilli dasturi;

uchinchidan, davlat kafolati bilan xorijiy kreditlarni jalb qilgan holda amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarining manzilli dasturi;

to‘rtinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi mablag‘larini jalb qilgan holda amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarining manzilli dasturi;

beshinchidan, tarmoq investitsiya loyihalari doirasida investitsiyalarni o‘zlashtirish yig‘ma manzilli dasturi;

oltinchidan, markazlashtirilmagan investitsiyalar hisobidan moliyalashtiriladigan:

to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlarni jalb qilgan holda amalga oshiriladigan tarmoq investitsiya loyihalarining manzilli dasturi;

to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilgan holda amalga oshiriladigan hududiy investitsiya loyihalarining manzilli dasturi;

yettinchidan, quyidagilar:

loyihaoldi va loyiha hujjatlarini ishlab chiqish, kelishish va tasdiqlashni jadallashtirish talab etiladigan investitsiya loyihalari ro'yxati;

ko'rib chiqiladigan istiqbolli investitsiya va infratuzilma tarmoq loyihalari ro'yxati;

loyihaoldi va loyiha hujjatlari ishlab chiqiladigan hamda tasdiqlanadigan, qurilishi va rekonstruksiya qilinishi davlat budjeti mablag'lari hisobidan moliyalashtirilishi nazarda tutilayotgan obyektlar ro'yxati;

loyihaoldi va loyiha hujjatlari ishlab chiqiladigan va tasdiqlanadigan, markazlashtirilgan investitsiyalar hisobidan moliyalashtirilishi nazarda tutilayotgan ijtimoiy soha ob'ektlari ro'yxat.

Loyiha hujjatlari ishlab chiqilib, ekspertizadan o'tkazilgadan keyin loyihalar (obyektlar) yuzasidan ro'yxatlarga va kapital qo'yilmalar limitlariga (qiymatiga) aniqlik va tuzatishlar kiritilishi mumkin. Bu LBMA bilan kelishilgan holda bosh vazirning o'rinbosari investitsiyalar, innovatsion rivojlantirish, erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalarini faoliyatini muvofiqlashtirish masalalari kompleksi rahbarining qarorlari bilan amalga oshirilishi mumkin.

Loyihalar (ob'ektlar) bo'yicha tasdiqlangan loyiha-smeta hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar hukumatning qarorlariga asosan kiritiladi.

Qurilish hamda tasdiqlangan loyiha-smeta hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish jarayonlariga zarur vakolatga ega bo'lmagan shaxslarning aralashuvi taqiqlanadi²¹.

²¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2019-yilga mo'ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. 2018 20- dekabr.

Bugungi kunda mamlakatimizni, avvalo, iqtisodiyotimizni isloh etish, erkinlashtirish va modernizatsiya qilish, uning tarkibiy tuzilishini diversifikatsiya qilish borasida amalga oshirilayotgan, har tomonlama asosli va chuqur o‘ylangan siyosat bizni inqirozlar va boshqa tahdidlarning salbiy ta'siridan himoya qiladigan kuchli to‘siq, aytish mumkinki, mustahkam va ishonchli himoya vositasini yaratdi.

Iqtisodiyotdagi tarkibiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, korxonalarining investitsion faoliyatini yanada jonlantirish, xorijiy investitsiyalarni, avvalo, to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish va ulardan samarali foydalanish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta qurollantirish, yangi ish o‘rinlarini shakllantirish va shu asosda milliy iqtisodiyotimizni barqaror va jadal rivojlantirishni ta'minlash maqsadida Respublika budjetidan ham ma'lum (yirik) miqdorda mablag'lar ajratilmoqda.

Mamlakatda investitsiya muhiti yaxshilangani natijasida iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarga to‘g‘ridan to‘g‘ri sarmoyalar faol kirib kelmoqda. Xususan, 2018-yilning besh oyida 776 ta yangi qo‘shma va xorijiy korxonalar ro‘yxatdan o‘tkazildi. Bu o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 496 taga ko‘pdir. Shuningdek, joriy yilda xorijiy investitsiyalar ishtirokida 377 ta hududiy va 148 ta tarmoq loyihalari bajarilishi belgilangan.

Respublikamizda investitsiyalarni moliyalashtirishning bozor mexanizmlari joriy etilishi bilan ularni moliyalashtirish manbalari hajmi yildan yilga o‘zgarib bormoqda.

So‘nggi olti yilda investitsiyalarni moliyalashtirish manbalarida davlat budjetining salmog‘i boshqa bozor iqtisodiyotiga xos bo‘lgan moliyalashtirish manbalarining oshishi evaziga kamayib borgan.

Rivojlangan davlatlarda investitsiyalarni moliyalashtirishda aholi qo‘yilmalarining salmog‘i ancha yuqori. Masalan, Yaponiyada bu hissa bank tizimining umumiy resurslarida 70 foizni tashkil etadi. Aholi uchun jamg‘armalarning yuqori likvidligi, ishonchliligi ta'minlanadi²².

²²Стратегии модернизации и обеспечения долгосрочного устойчивого экономического роста. Форум экономистов Узбекистана. —Т.: «SMI-ASIA», 2011. 63-с.

1.5. Mamlakatni modernizatsiyalash yo‘lida amalga oshirilayotgan faol investitsiya siyosati va o‘zlashtirilayotgan xorijiy investitsiyalar tahlili

Davlatimiz tomonidan qulay investitsiya siyosatini olib borish maqsadida quyidagi tamoyillarga ustuvorlik qaratilmoqda: tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada erkinlashtirish; respublika iqtisodiyotiga to‘g‘ridan to‘g‘ri kapital qo‘yilmalarning keng jalb qilinishini ta‘minlovchi huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa sharoitlarni yanada takomillashtirish; respublikaga jahon darajasidagi texnologiyalarni olib kiruvchi, milliy xo‘jalikning zamonaviy tuzilmasini tashkil etishga ko‘maklashuvchi chet el investorlariga nisbatan ochiq eshiklar siyosatini bosqichma-bosqich olib borish; respublika mustaqilligini mustahkamlovchi hamda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarilishini o‘zlashtirish bilan bog‘liq muhim ustuvor yo‘nalishlarga mablag‘larni jamlashtirish²³.


Bundan ko‘rinadiki, korxonalarni texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash, zamon talablariga mos bo‘lgan tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish va ayniqsa, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining keyingi ikkinchi to‘lqini zarbasiga ijtimoiy-iqtisodiy talofatlarsiz bardosh berish, uning salbiy oqibatlarini bartaraf etish bilan bog‘liq masalalarni hal etishda majmuaviy yondashuvlarga urg‘u berilmoqda. Zero, Yurtboshimiz ta‘kidlagandek, «... jahon zaxira valutalarining beqarorligi, moliya-bank tizimi kredit qobiliyatining keskin pasayishi va investitsiyaviy faollikning susayishi bilan bog‘liq murakkab muammolar ko‘plab davlatlar iqtisodiyotining tiklanish va o‘sish sur‘atlariga ta‘sir ko‘rsatmoqda»²⁴.

Investitsiya bilan birga turli soha va tarmoqlarga, hududlarga yangi texnologiyalar, ilg‘or tajribalar, yuksak malakali mutaxassislar kirib keladi, tadbirkorlik jadal rivojlanadi”, - degan edi Prezidentimiz Sh.M.

²³Sobirov A. O‘zbekiston Respublikasiga xorijlik investitsiyalarni jalb qilish shakllari. /Iqtisodiyot va ta‘lim, 2011-yil, 5-son.

²⁴Karimov I.A. 2012-yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘taradigan yil bo‘ladi. //Xalq so‘zi, 2012-yil 20-yanvar.

Mirziyoyev²⁵. Mamlakatning biznes yuritish muhitini yaxshilashda oldinga ancha siljishi qator xalqaro ko‘rsatkichlar bilan tasdiqlangan. O‘zbekiston – siyosiy barqaror, korrupsiya darajasi past, biznes yuritishga ko‘p xarajatlar talab etilmaydigan mamlakat.



1-diagramma. Biznes yuritish osonligi reytingi²⁶

Doing Business reytingi kichik va o‘rta biznes yuritish osonligi darajasini ifodalaydi. Hozirgi paytda bunda jami 11 indikator baholanadi: yangi ishni tashkil qilish, qurilishga oid ruxsatnomalar olish, elektroenergiyaga ulanish, mol-mulknini ro‘yxatdan o‘tkazish, kredit olish, minoritar investorlarni himoyalash, soliqlarni to‘lash, transchegaraviy savdo, shartnomalarga rioya qilish mexanizmlari, bankrotlik, shuningdek, mehnat bozorini tartibga solish osonligi. Doing Business mamlakatlar investitsiyaviy iqlim holatini tavsiflovchi eng ommaviy reytinglardan biri. 2018-yilda O‘zbekistonga 74-o‘rin berilgan edi. 2012-yilga taqqoslaganda O‘zbekiston 92 pozitsiyaga ko‘tarildi.


Ekologik samaradorlik indeksi (The Environmental Performance Index) – Yel universiteti qoshidagi Ekologik siyosat va huquq markazining aralash ko‘rsatkichisi bo‘lib, u mamlakat yutuqlarini ekologiya va tabiiy resurslarni boshqarish nuqtayi nazaridan o‘lchaydi. 2018-yilgi reyting yakunlariga ko‘ra, O‘zbekiston 136-o‘rinni egalladi.

Iqtisodiy bilimlar indeksi iqtisodiy rivojlanishning bilimga asoslangan rivojlanish darajasini tavsiflovchi kompleks ko‘rsatkich.

²⁵O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2018- yil, 28-dekabr.


²⁶O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining yillik hisobotlari.

Ushbu indeks davlatlar tomonidan siyosatlaridagi muammoli jihatlarni tahlil qilish va mamlakatlarning bilimga asoslangan rivojlanish modeliga o'tishiga tayyorligini o'lchash uchun qo'llanilishi ko'zda tutilgan. Joriy yilda O'zbekiston dunyoning 146 ta mamlakati orasida 105-o'rinni egallaydi.



2-diagramma. Iqtisodiy erkinlik indeksi²⁷

Ilmiy tadqiqot faolligi darajasi ko'rsatkichi mamlakat ilmiy-texnik rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi hamda ilmiy manbalar indeksi tizimiga kiritilgan tahrir qilinuvchi ilmiy jurnallar va nashrlarda chop qilingan ilmiy-tadqiqot materiallarining umumiy soni sifatida hisob-kitob qilinadi. Dunyo mamlakatlari ilmiy-tadqiqot faolligi ko'rsatkichi har yili AQShning «Science and Engineering Indicators» deb nomlanuvchi Milliy ilmiy fondning maxsus hisobotida chop qilinadi.




3-diagramma. AKTrivojlanishi indeksi²⁸

²⁷O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining yillik hisobotlari.

²⁸O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining yillik hisobotlari.

Indeks 2007-yilda Xalqaro elektr aloqa ittifoqi tomonidan AKT rivojlanishini baholashda foydalaniladigan 11 ta ko'rsatkich asosida amalga oshiriladi. Indeks ushbu ko'rsatkichlarni yagona mezonga birlashtiradi va undan dunyo mamlakatlarining AKT rivojlanishi borasidagi yutuqlarini taqqoslashga yo'naltiriladi, ayni paytda global, mintaqaviy va milliy darajalarda qiyosiy tahlilni amalga oshirish vositasi sifatida foydalanilishi mumkin.



4-

diagramma. YaIM va YaMMning o'sishi²⁹

Chindan ham investitsiya har qanday mamlakatning iqtisodiyotini harkatga keltiruvchi va uning taraqqiyotini ta'minlovchi muhim kapital manbayi sanaladi. Chunki yo'naltirilgan sarmoyalar ishlab chiqarishni rag'batlantirish asnosida qo'shimcha ish o'rinlarining yaratilishi, ishlab chiqarish vositalarining modernizatsiyasi va yangilanishida muhim omil vazifasini o'taydi, mamlakat iqtisodiyotining jahon iqtisodiyoti bilan integratsiyalashuvini jadallashtiradi. Yurtimizda o'tkazilayotgan iqtisodiy siyosat jahon iqtisodiy hamjamiyatiga integratsiya jarayonining faqat davlatning tarkibiy tuzilishi bo'yicha emas, balki xususiy sektor darajasida ham jadallashuvini nazarda tutadi. Erkin bozorning faoliyat ko'rsatishi uchun yaratilayotgan sharoit G'arb va Sharq ishbiarmonlarining mamlakatimizga barqaror qiziqishini uyg'otmoqda. Bugungi kunda bizning tadbirkorlarimiz ham xorijiy investorlarni hamkorlikka jadal jalb etmoqda.

Ayni vaqtda xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarni barpo etish quyidagi bosqichlarni o'z ichiga olmoqda: korxonani tashkil etish sabablarini inobatga olish; ishonchli sherik tanlash; xorijiy

²⁹O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining yillik hisobotlari.

investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar barpo etish haqida qaror qabul qilish.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonani tashkil etish sabablarining, asosan, uch turkumini ajratib ko'rsatish mumkin. Bular ichki, tashqi va strategik sabablardir.

Ichki sabablar tarkibi quyidagilardan iborat: yaratilgan investitsiya muhitidan foydalanish; boshqaruvning yangi usullarini o'zlashtirish; zamonaviy va eng qulay tartibga erishish; mahalliy ishchi kuchi resurslaridan samarali foydalanishni kengaytirish; xorij bozoriga kirib borishni tezlashtirish; ijtimoiy, madaniy va siyosiy bilimlarni kengaytirish; xodimlar malakasini oshirish.

Tashqi sabablar tarkibi quyidagicha: jahon bozoriga chiqish; sog'lom va samarali raqobat muhiti; siyosiy keskinlikning yumshashi; mahalliy hokimiyatning talablari.

Strategik sabablar tarkibi quyidagilardan iborat: mamlakatda zamonaviy ish yuritish usullaridan foydalanish imkoniyati; mustahkam xomashyo bazasiga ega bo'lish; texnologiyalar transferti; ishlab chiqarishni kengaytirish³⁰.

Davlatning iqtisodiyotdagi ishtirokini qisqartirish, iqtisodiyotda xususiy sektorning o'rnini va ahamiyatini oshirish, avval xususiylashtirilgan korxonalar bilan ishlash, ularning faoliyat samaradorligini oshirish, shuningdek, davlat mulkini boshqarish uslublari tamoman o'zgartirildi. Bunda ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish, yangi ish o'rinlari yaratish va shu asosda mamlakat iqtisodiyotining barqaror va bir maromda rivojlanishini ta'minlash imkoniyati yaratiladi. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, xorij investitsiyasi jalb qilinishi mazkur davlatlarning yuksak darajada taraqqiy etishida hal qiluvchi omillardan biri bo'lgan. Ammo yana bir haqiqat mavjudki, xorij investitsiyalarini keragidan ortiq jalb etish ham mamlakatni iqtisodiy va siyosiy qaramlikka olib kelishi mumkin.

Bugungi kunda yurtimizda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni jadal modernizatsiya qilish va texnik qayta jihozlashni ta'minlash yuksak

³⁰Mahmudov N.M, Madjidov Sh.A. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. O'quv qo'llanma. - T.: TDIU, 2010. 89-90-b.

texnologiyalar asosida faoliyat yuritadigan avtomobilsozlik va gaz-kimyoy, elektr texnikasi va to'qimachilik, oziq-ovqat va farmatsevtika, axborot va telekommunikatsiyalar tarmog'i hamda boshqa yo'nalishlardagi yangi va zamonaviy ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etishga qaratilgan faol investitsiya siyosatini yuritishga ustuvorlik bermoqda.

Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, jahon xo'jaligini rivojlantirishda xalqaro kapital migratsiyasi muhim ahamiyatga ega, chunki u mamlakatning tashqi iqtisodiy va siyosiy aloqalari mustahkamlanishiga olib keladi, ularning tashqi savdo aylanmalarini, ishlab chiqarish hajmlarini ko'paytiradi, iqtisodiy rivojlanishni jadallashtiradi, ishlab chiqarilayotgan tovarlarning jahon bozoridagi raqobatbardoshligini, importchi mamlakatlar texnik salohiyatini o'stiradi va mamlakatdagi bandlikni oshiradi³¹.

Ushbu o'rinda xorijlik olimlarning fikr-mulohazalari, tadqiqotlariga murojaat etadigan bo'lsak, marketingshunos olim M.Porter yirik transmilliy kompaniyalar va xorijiy investitsiyalarni qabul qiluvchi mamlakatlar strategiyalari mavjud raqobat ustunligidan foyda ko'rishga asoslanganligini isbotladi.

U raqobat ustunligini to'rt yo'nalishga bo'ldi: korporativ boshqaruv ustunliklari; ishlab chiqarish omillari ustunligi; mamlakatdagi talab hajmi; ko'makchi va qo'shimcha tarmoqlarga bog'liq ustunlik.

M.Porter ushbu omillar sintezini «raqobat afzalliklari brillianti» deb nomladi va ular kapitalni chetga chiqarishning muvaffaqiyati kafolatlashini nazarda tutadi. Qo'shimcha omillar sifatida esa davlatning oqilona siyosati va «omadli vaziyatlar»ni keltiradi. Shuningdek, olim mamlakatda o'zaro bog'liq ishlab chiqarish tarmoqlari mavjudligi to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar qabul qiluvchi mamlakat uchun katta raqobat ustunliklari va imkoniyatlarini yaratishini isbotladi. Buning uchun davlat tarmoqlar va sohalar bo'yicha klasterlarni rivojlantirishga turtki berishi kerakligini ta'kidladi.

³¹Mamatov M. Milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning nazariy asoslari./Iqtisodiyot va ta'lim. 2011-yil, 4-son, 38-b.

Masalan, mamlakatda zamonaviy oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish agrar soha mahsulotlari (sut, go'sht, poliz mahsulotlari, mevalar va shukabilar) ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishni, shunga mos ravishda tegishli hajmdagi o'rash va qadoqlash uskunalari, zamonaviy chakana savdo tizimi mavjudligini talab etadi; mamlakatda qishloq qurilishini jadallashtirish uchun esa zamonaviy qurilish materiallari ishlab chiqarish, kommunal xo'jalik tizimi hamda infratuzilma xizmatlari rivojlanishini taqozo etadi.

Yuqorida ta'kidlangan fikr-mulohazalardan ko'rinib turibdiki, mamlakatimizda iqtisodiyot biryoqlama rivojlanishga emas, balki majmuaviy, ko'p yoqlama, ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish orqali rivojlantirib borilmoqda.

Zero, yurtboshimizning ta'kidlaganidek, «Tarmoq va hududlar bo'yicha maqsadli dasturlar, ustuvor investitsiya loyihalari va boshqa dolzarb vazifalar bajarilishini tanqidiy tahlil qilish yuzasidan amaldagi mavjud tizim samaradorligini oshirishimiz lozim». Shu dasturga muvofiq, agrar sektorni modernizatsiyalash va intensiv rivojlantirish, qishloq xo'jaligini yanada isloh qilish va mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash borasida muayyan ishlar amalga oshirildi. 2017-yilning o'zida qishloq xo'jaligi sohasiga oid 5 ta qonun, 20 dan ortiq farmon va qaror qabul qilindi, 2 ta yangi qo'mita, 3 ta uyushma tuzildi. Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi faoliyati tubdan takomillashtirildi³². Investitsiya siyosati nafaqat kapital mablag'lar miqyosini oshirishni, balki ularning takror ishlab chiqarish tarkibiy tuzilmasini takomillashtirishni, investitsiyalarni ko'proq samarali va raqobatbardosh ishlab chiqarishlarga yo'naltirishni ko'zda tutadi. Ushbu o'rinda fikrlarni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan har yili qabul qilinib, amalga oshiriladigan Investitsiya dasturi tahliliga qaratamiz.

2018-yil asosiy kapital kiritilgan investitsiyalar 16826,6 mlrd.so'mni tashkil etib 2017-yilga nisbatan 129,4 %ga nisbatan, tashqi savdo aylanmasi 7918,6 mln. doll.ni tashkil etib 2017-yilga nisbatan 152,0

³²2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi.

%ga oshgani muhim omildir. Davlat rahbari ta'kidlashicha, jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, faol investitsiya siyosatiga ega bo'lgan mamlakatlar yuqori taraqqiyotga erishadi. "Valyuta iqtisodiyotning barqaror o'sishi yetakchi sohaga bog'liq", - deydi Shavkat Mirziyoyev³³.

Sohalarning rivojiga bog'liq bo'lgan konsepsiyani ishlab chiqish 1-aprelga qadar yakunlanishi kerakligi ta'kidlandi. Vazirlar Mahkamasiga ushbu masala yuzasidan taklif kiritish va "Raqamli iqtisodiyotga o'tish" konsepsiyasini 2 oy ichida ishlab chiqish yuklatildi.

Iqtisodiyotning barcha sohalarini raqamli texnologiyalar asosida yangilashni nazarda tutadigan Raqamli iqtisodiyot milliy konsepsiyasini ishlab chiqiladi hamda "Raqamli O'zbekiston-2030" dasturi hayotga tatbiq etiladi. 2019-yilda barcha manbalar hisobidan qariyb 138 trillion so'mlik, ya'ni 2018- yilga nisbatan 16 % ko'p investitsiyalar o'zlashtirilishi ko'zda tutilmoqda.

Umumiy qiymati 16,2 trillion so'm va 8,1 milliard AQSh dollariga teng loyihalarning amalga oshirishni nazarda tutuvchi hamda quyidagilarga qaratilgan 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi tasdiqlandi³⁴.

Mamlakatimizda investitsion muhitning barqarorligi va investitsion jozibadorlikning to'g'ri yo'lga qo'yilganligi ham xorijiy investitsiyalarning kirib kelishi uchun zamin bo'lmoqda.

Dasturda nazarda tutilgan tadbirlarning amalga oshirilishi jarayonida ularning moliyalashtirish manbalariga aniqlik kiritilishi mumkin.

Davlat byudjeti mablag'lari deganda markazlashgan investitsiyalar, vazirlik, idora va tashkilotlarning xarajatlar smetasida nazarda tutilgan budjet mablag'lari tushuniladi.

Tegishli komissiya bilan kelishilgan holda, dasturda nazarda tutilgan tadbirlarni amalga oshirish uchun qabul qilinadigan hujjatlar shakli zaruratga qarab o'zgartirilishi, boshqa bandlardagi hujjatlar bilan

³³2019- yil- "Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish" yili deb e'lon qilindi. Bu haqda Prezident Oliy Majlisga Murojaatnomasida ma'lum qildi.

³⁴2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi. 04/01/2019.

birlashtirilishi yoki bir necha turdagi hujjatlarga bo‘linishi mumkin. Me‘yoriy-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish jarayonida mutasaddi vazirlik va idoralarning takliflari asosida dasturda belgilangan tadbirlarning mazmuniga mos keladigan boshqa masalalar ham nazarda tutiladi.

2019-yilda davlat dasturi tadbirlarini amalga oshirishning jami xarajatlari:

16 236,6 mlrd. so‘m va 8 106,5 mln AQSh dollari, shundan: (1.5-javdal).

1.5-jadval

2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili”da amalga oshirishga oid

DAVLAT DASTURI³⁵

Ko‘rsatkichlar	So‘mda	AQSh dollarida
Davlat budjeti va Davlat maqsadli jamg‘armalari mablag‘lari	13 263,0 mlrd.	5,2 mln.
Ijrochilar va xayriya tashkilotlari mablag‘lari	2 515,4 mlrd.	4 120 mln.
Xalqaro tashkilotlar, moliya institutlari mablag‘lari va beg‘araz yordam	458,2 mlrd.	3 981,3 mln.


Jamg'armaning eng asosiy vazifalaridan biri — iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlari rivoji, birinchi navbatda, ishlab chiqarish infratuzilmasining shakllanishi bilan bog'liq ustuvor vazifalarni amalga oshirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadigan strategik investitsiya loyihalarini moliyalashtirishdan iborat.

³⁵2017–2021- yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi. 04/01/2019.

Respublikamizda iqtisodiy rivojlanishni jadal sur'atlarini ta'minlash va makroiqtisodiy barqarorlikni saqlab qolishda puxta o'ylangan investisiya siyosatini muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, investisiyalar iqtisodiyot taraqqiyatning muhim omili sifatida ishlab chiqarishni modernizasiyalar, texnik va texnologik yangilanishlar va innovasiyalarni rahbatlantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish hamda korxonalar daromadini oshirishni ta'minlaydi. Masalaning nechog'lik muhim ekanligini yillar davomida investisiya oqimlarini muntazam oshirib borishga qaratilgan investisiya siyosatini yuritilayotganligida ko'rish mumkin.

Darhaqiqat, so'nggi yillarda investisiyalar hajmini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar ko'lami ham huquqiy ham amaliy jihatdan yanada sezilarli darajada oshirildi. Ayniqsa, olib borilayotgan faol investisiya siyosati natijasida respublikamizda investisiyalar oqimi dinamikasi bo'yicha ijobiy o'sish kuzatilmoqda (1-2-rasmlar).

Keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, o'zlashtirilgan investisiyalar hajmi keskin ortib bormoqda. 2020 yilda koronavirus pandemiyasi tufayli butun dunyoda yuz bergan iqtisodiy pasayish va inqiroz sharoitida ham respublikamizda investisiyalar hajmi 2016 yilga qaraganda 4 barobar oshganini ko'rish mumkin.³⁶



1-rasm. O'zbekiston Respublikasida 2016-2020 yillarda asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investisiyalar hajmi, mlrd.so'm³⁷

Investsiyalarning o'sish dinamikasida faqatgina 2020 yilda o'sish darajasi 3 foizni tashkil etganligi bevosita pandemiya sharoiti bilan bog'liqdir. Ammo, 2019 yildagi o'sish 57,7 foiz bo'lib, so'nggi besh yillikdagi eng yuqori ko'rsatkich hisoblanadi. E'tiborli jihati shundaki,

³⁶ Abror Abdullaev, Olmos Ochilov. Faol investisiya siyosati sharoitida investisiyalar hisobi va tahlili: zarurat, maqsad va vazifalar "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy jurnali. №2, aprel', 2021 yil.

³⁷ O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

investisiyalar hajmining jadal sur'atlarda o'sib borayotganligi respublikamizda uzoqni ko'zlab, puxta o'ylangan investisiya siyosatini yuritishning amaliy natijasi hisoblanadi.

Koronavirus pandemiyasi sharoitida yuzaga kelgan iqtisodiy inqiroz sharoitida 2020 yilda asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarda pasayish kuzatilgan bo'lsada, 2021 yilda respublikamizda qayta tiklanish va barqaror o'sishga erishish prognoz qilinmoqda. Chunonchi, mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti 2021 yilda 5,1 foizga o'sishi prognoz qilinmoqda³⁸. Osiyo taraqqiyot bankining prognozlariga ko'ra respublikamizda joriy yilda yalpi ichki mahsulot 6,5 foizga o'sishi kutilmoqda³⁹. Ushbu o'sish sur'atlariga erishi esa juda katta miqdordagi ichki va tashqi investisiyalarni jalb qilishni talab etadi.

Hozirgi paytda jamg'armaning investitsiya portfelida umumiy qiymati 18,5 milliard AQSh dollaridan ortiq 55 ta investitsiya loyihasi mavjud. Shuning 4,3 milliard AQSh dollari Jamg'arma mablag'lari hisobidan birgalikda moliyalashtiriladi. Bugungi kunda yurtimizda xorij investitsiyalari hisobidan qiymati 23 milliard AQSh dollari miqdoridagi 456 ta loyiha amalga oshirilmoqda.

Shuni ta'kidlash lozimki, mamlakatimiz hududlarining barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash respublikamizda yuritilayotgan iqtisodiy siyosatning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lmoqda. Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlanishi, aholi turmush sharoitlarining yaxshilanishi ham bevosita ularning iqtisodiyoti rivojlanishi bilan bog'liq. Mamlakat iqtisodiyoti hududlardan tarkib topgan bir butun tizimni tashkil etganligi sababli, uning har bir mintaqasidagi rivojlanishni ta'minlash mamlakatimizning uzluksiz taraqqiyotiga zamin yaratadi. Shunday ekan, to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning muhim omillaridan biri bo'lgan mamlakat va uning mintaqalarida yaratilgan investitsion jozibadorlik va nisbiy afzalliklar eng dolzarb masalalardandir. Aynan ushbu omillarga investorlar tomonidan obyektни tanlab olishda xavfsizlik nuqtayi

³⁸ O'zbekiston Respublikasining "2021-yil uchun Davlat budjeti to'g'risida"gi Qonuni, 2020-yil 25-dekabr, O'RQ-657. <https://lex.uz/docs/5186044>

³⁹ <https://www.adb.org/news/uzbekistan-economic-growth-2020-slow-further-rebound-2021> Osiyo taraqqiyot banki rasmiy sayti ma'lumotlari.

nazaridan ustunlik beriladi. Hududlarning investitsion jozibadorligini aniqlashda turli uslublardan foydalaniladi. Ularning bir-biridan farqi investitsion muhitni belgilovchi ko'rsatkichlar va indikatorlarni tanlab olishdan iborat.

Respublikamiz olimlarining tadqiqotlariga ko'ra, mintaqalarning investitsion jozibadorlik indeksi oltita element asosida hisoblanadi va shu bo'yicha integral indeks aniqlanadi. Olingan ma'lumotlarga ko'ra, mintaqalarning investitsion jozibadorligini uchta guruhga bo'lish mumkin (1.6-jadval).

**Hududlarning investitsion
jozibadorligini aniqlash elementlari**

1.6-jadval

T\r	Hududlar	Hududning umum- iqtisodiy rivojla- nish darajasi	Hududning moliyaviy resurslar bilan ta'minlan- ganligi	Investit- sion infratuzil ma rivojlanis h darajasi	Hudud- ning demo- grafik tavsifi	Institu- tsional o'zga- rishlar va rivojlanish darajasi	Hududning investitsion faoliyat xavfsizligi darajasi	Mutlaq integral rang ko'r satkichi
1.	Qoraqalpog'iston Respublikasi	0,0064	0,121	0,085	0,222	0,559	0,535	0,234
2.	Andijon	0,341	0,151	0,276	0,426	0,560	0,594	0,367
3.	Buxoro	0,304	0,144	0,165	0,413	0,509	0,511	0,315
4.	Jizzax	0,198	0,049	0,075	0,388	0,496	0,506	0,151
5.	Qashqadaryo	0,362	0,542	0,266	0,382	0,370	0,386	0,382
6.	Navoiy	0,536	0,189	0,218	0,348	0,348	0,439	0,338
7.	Namangan	0,141	0,118	0,183	0,374	0,531	0,554	0,285
8.	Samarqand	0,181	0,234	0,154	0,401	0,607	0,522	0,322
9.	Surxondaryo	0,150	0,101	0,104	0,324	0,549	0,422	0,250
10.	Sirdaryo	0,185	0,037	0,147	0,320	0,317	0,723	0,247
11.	Toshkent	0,434	0,197	0,366	0,493	0,611	0,362	0,404
12.	Farg'ona	0,317	0,241	0,331	0,470	0,289	0,573	0,347
13.	Xorazm	0,171	0,113	0,199	0,310	0,529	0,535	0,284
14.	Toshkent sh.	0,837	0,793	0,701	0,820	0,580	0,845	0,755

Birinchi guruhga Toshkent shahri, Toshkent, Qashqadaryo, Andijon va Farg'ona viloyatlari kiradi hamda investorlar uchun eng qulay hisoblanadi (indeks 0,755-0,347). Investitsion jozibadorlik yuqori bo'lishi ushbu hududlarda tabiiy-iqtisodiy salohiyat, infratuzilma, jumladan, transport va axborot kom- munikatsiyalarining rivojlanish darajasi yuqoriligi bilan belgilanadi.

Ikkinchi guruhni Samarqand, Buxoro, Navoiy va Namangan viloyatlari tashkil etadi (indeks 0,322-0,288). Ushbu hududlar xorijiy investorlarning mavjud qazib oluvchi va qayta ishlash korxonalarini faoliyat ko'rsatayotganligiga qiziqishi bilan belgilanadi.

Uchinchi guruhga nisbatan kam rivojlangan hududlar Xorazm, Surxondaryo, Jizzax, Sirdaryo viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasi kiradi (0,284-0,234). Yuqorida qayd etilgan hududlarga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda davlatning ishtiroki yuqori bo'lishi lozim.

I Bob bo'yicha xulosa

Investitsiya muhiti tushunchasi o'z murakkabligi va mukammalligi jihatidan makro va mikroiqtisodiyot darajasida ko'rib chiqiladi. Makroiqtisodiyot darajasida u kapitalni qabul qiluvchi mamlakatdagi mavjud siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy holatlarni o'z ichiga oladi.

Mikroiqtisodiyot darajasida investitsiya muhiti bir tomondan investor firmasi va ikkinchi tomondan xorijiy investitsiyani qabul qiluvchi xo'jalik subyektlari, ya'ni sotuvchilar, sotib oluvchilar, banklar hamda kasaba uyushma va boshqa jamoat tashkilotlari o'rtasidagi ikkiyoqlama munosabatlarni aks ettiradi.

Nazorat savollari

1. Investitsiyaning mohiyati va mazmuni nimalardan iborat?
2. Hozirgi sharoitda investitsiyalarning asosiy yo'nalishlarini keltiring.
3. Bozor iqtisodiyoti sharoitida investitsiyalarga bo'lgan obyektiv zarurat nimalar bilan belgilanadi?
4. Investitsiyalar kapital qo'yimlardan qanday farqlanadi?
5. Investitsion muhitni rivojlantirish uchun qanday imtiyozlar mavjud?

6. Portfel investitsiya nima?
7. Real investitsiya nima?
8. Intellektual investitsiya deganda nimani tushunasiz?
9. Investitsiya funksiyasini tushuntiring.
10. Investitsion loyihalarni baholash usullari.
11. Investitsion loyihalar tahlili va ularga oid xatarlar.
12. Makroiqtisodiy darajada milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsiyalarni boshqarish maqsadlari va masalalari nimadan iborat?
13. Investitsiyani qoplashning diskontlashtirilgan muddati nima?
14. Investitsiyaning joriy qiymatini misol asosida tushuntiring.
15. Investitsiyalarning qanday turlarini bilasiz?
16. O'zbekiston Respublikasining «Investitsiya faoliyati to'g'risida»gi Qonuni nechta mo'ddadan iborat?
17. Obligatsiyalarning xususiyatlarini talqin qiling.
18. Obligatsiyalarning joriy daromadliligi qanday hisoblanadi?
19. Investitsiyalar hisobining uslubiy muammolari deganda nimani tushunasiz?
20. Investitsiyalar auditi deganda nimani tushunasiz?
21. Investitsiyalarni boshqarishdagi asosiy vazifa nima hisoblanadi?
22. Investitsion faoliyatni boshqarish jarayonida subyektni nechta izchil bosqichga ajratish mumkin? Ularni sanab bering.
23. Bozor munosabatlari sharoitida ichki va tashqi buxgalteriya hisobi.

Testlar

1. Investitsion muhit farovonligiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillar qaysi javobda berilgan?
 - a) Siyosiy barqarorlik.
 - b) Milliy iqtisodiyotning barqaror sur'atlarda rivojlanib borayotganligi. Makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash
 - c) Geografik va geosiyosiy joylashuvi
 - d) barcha javob to'g'ri
2. Mamlakatimiz iqtisodiyotini modernizatsiya qilish sharoitida aholi daromadlari tarkibida qanday o'zgarishlar sodir bo'ldi?
 - a) daromadlarning tarkibiy qismlari miqdor va sifat jihatidan o'zgardi
 - b) daromadlardan foydalanishning yangi yo'nalishlari paydo bo'ldi
 - c) daromad shakllari o'zgardi
 - d) barcha javob to'g'ri
3. Investitsion ob'ektlar inventarizatsiyasi qaysi standartga binoan o'tkaziladi
 - a) 19-son BHMA
 - b) 11-son BHMA
 - c) 3-son BHMA
 - d) 21-son BHMA
4. Audit haqida tushuncha qanday ma'noni anglatadi?
 - a) audit "Eshitaman" degan ma'noni bildiradi.
 - b) audit-iqtisodiy tahlil yakunidir.
 - c) moliyaviy tahlil yakunidir .
 - d) korxonaning barqarorligini bildiradigan foyda
5. Investitsiyalar auditida dalillar yig'ish qaysi standartlar talablari asosida bo'lish kerak?
 - a) 500-son AXS
 - b) 315-son AXS
 - c) 200-son AXS
 - d) 700-son AXS
6. Investitsiyalar auditida aralash tanlash qaysi usullarning uyg'unligini o'zida mujassam qiladi?

- a) tasodifiy va ketma-ket
 - b) ketma-ket va muntazam
 - c) tasodifiy va muntazam
 - d) tasodifiy, ketma-ket va muntazam
7. Investitsiyaning qanday turlari mavjud?
- a) real, intellektual.
 - b) moliyaviy, intellektual.
 - c) real, moliyaviy, intellektual.
 - d) to'g'ri javob yo'q
8. O'zbekiston Respublikasining «Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida»gi qonuni qachon qabul qilingan?
- a) *2014-yil 3-iyul O'RQ-287-son*
 - b) *2015-yil 3-iyun O'RQ-387-son*
 - c) *2016-yil 3-iyun O'RQ-487-son*
 - d) *2017-yil 3-iyun O'RQ-587-son*
9. Investitsiyalar auditida tasodifiy tanlash nima asosida amalga oshiriladi?
- a) Sonlar ketma-ketligi bo'yicha
 - b) Tasodifiy sonlar ketma-ketligi bo'yicha
 - c) Tasodifiy sonlar bo'yicha
 - d) Tasodifiy sonlar jadvali bo'yicha
10. Umumiy audit rejasi qaysi hollarda tuziladi:
- a) audit protseduralarini o'tkazish tartibini kelishish;
 - b) muhimlik va auditorlik xavfi darajasini aniqlash;
 - c) auditning samaradorligi va samaradorligiga erishish;
 - d) barcha javoblar to'g'ri.

II bob. XALQARO AUDIT STANDARTLARINI QO`LLASHDA INVESTITSIYALAR HISOBI VA AUDITINING MUAMMOLARI

Albatta, biz rejalashtirayotgan barcha o'zgarishlarning nihoyatda ko'p qirrali va o'ta muhim ekanini men chuqur tushunaman. Biroq yo'limizda qanday to'siq va qiyinchiliklar, keskin va dolzarb muammolarga duch kelsak ham, shoshma-shosharlik bilan, pala-partish qarorlanri qabul qilishga, yaxshi o'ylab ko'rilmagan xatti-harakatlarga yo'l qo'yishga haqqimiz yo'q.

SH.M. Mirziyoyev,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

2.1. Investitsiyalar hisobining uslubiy muammolari

Bugungi kunda xo'jalik yurituvchi sub'ektlar mamlakatda amalga oshirilayotgan investisiya faoliyatining eng muhim va asosiy sub'ekti hisoblanadi. Investisiya faoliyati natijasida xo'jalik yurituvchi sub'ektlar mulki va uning manbalar tarkibida o'zgarishlar yuz beradi. Xususan, investisiya faoliyatidagi ishtiroki bo'yicha xo'jalik yurituvchi sub'ektlar investitsiyalarni yo'naltirish yoki jalb qilishi mumkin. Buning natijasida ularning aktivlari, xususiy kapitali va majburiyatlari ortadi yoxud kamayadi. Bu esa xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda investisiyalar hisobi va tahlilining nazariy, uslubiy, tashkiliy hamda amaliy jihatlarini takomillashtirishni talab etadi.

Respublikamiz olimlari tomonidan investisiyalar hisobi va tahliliga borasida olib borilgan tadqiqotlar davriyligiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ularning aksariyati o'n va undan ko'proq yillar olddin amalga oshirilganligini guvohi bo'lamiz. Xususan, 2008 yilda boshlangan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozidan so'ng buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit tizimida juda ko'plab o'zgarishlar sodir bo'ldi. Bunday o'zgarishlar ham milliy ham xalqaro darajada yuz bergani o'rganilayotgan mavzu bo'yicha tadqiqotlarni yangicha yo'nalshlarda olib borish zarurligini ko'rsatdi. Bundan tashqari, 2015 yil 24 aprelda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Aksiyadorlik jamiyatlarida

zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonining qabul qilinish va unda "2015—2018 yillarda barcha aksiyadorlik jamiyatlari yillik moliyaviy hisobotni nashr etishi va Xalqaro audit standartlari hamda Xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga muvofiq tashqi auditni o'tkazishi ma'lumot uchun qabul qilinsin. Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatining samaradorligini oshirish va korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish komissiyasi 2015 yilning 1 iyuliga qadar aksiyadorlik jamiyatlarining yillik moliyaviy hisobotini xalqaro standartlarga muvofiq nashr etish jadvalini tasdiqlasin⁴⁰" degan vazifalarning belgilanishi milliy hisob va audit tizimini xalqaro standartlarga transformasiyalash yo'lida dastlabki qadamlar bo'ldi. Shu boisdan, investisiyalar hisobi va tahlili borasida yangi tadqiqotlar olib borishga ehtiyoj paydo bo'ldi. Yana bir iqtisodchi olim B.F.Bo'ronov esa korxonalar moliyaviy aktivlari hisobiga bag'ishlangan tadqiqot ishida moliyaviy investisiyalarni moliyaviy aktiv sifatida o'rganib, moliyaviy investisiyalarni boshlang'ich qiymatini aniqlash, amortizasiyalanadigan qiymat hamda hissali qatnashish metodi bo'yicha baholash uslubiyotini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida ochib bergan⁴¹. Ushbu uslubiyot xalqaro standartlarda keltirib o'tilgan bo'lsada, muallif uni milliy korxonalar amaliyotida qo'llashning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda takliflarni ilgari surgan. Biroq, ushbu tadqiqotda investisiyalar bo'yicha o'rganilgan jihatlar ularning faqatgina bir qismini ifodalaydi, xolos. Yuqorida keltirib o'tilgan barcha tadqiqotlar bo'yicha ilgari surilgan ilmiy g'oyalar o'z davri uchun g'oyat muhim ahamiyat kasb etgan, ammo, bugungi investisiya siyosati, normativ hujjatlar talablari, amalga oshirilayotgan islohotlar, shuningdek, investisiya turlarining kengayib borayotganligi investisiyalar hisobi va tahlili mavzusida zamonaviy yondashuvlardan kelib chiqib tadqiqotlar olib borishni taqazo etadi deb hisoblaymiz.

⁴⁰ O'zbekiston respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2015-y., 17-son, 204- modda; 2017-y., 37-son, 980-modda.

⁴¹ Bo'ronov B.F. Korxonalar moliyaviy aktivlari hisobini takomillashtirish.– T.: TMI, i.f.f.d (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati, 2021, 58 b.

Bizning fikrimizcha, xo‘jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan investitsiyalar hisobi va tahlilining tashkil etilishi va ular to‘g‘risida moliyaviy axborotlarni shakllantirish, tahlil qilish hamda o‘z vaqtida axborot foydalanuvchilarga yetkazish uslubiyotini zamonaviy talablarga to‘liq javob beradi deb bo‘lmaydi. Xususan, amaldagi moliyaviy hisobotlarda investitsiyalar to‘g‘risida faqatgina moliyaviy investitsiyalar, qisman kapital investitsiyalar va jalb qilingan kredit, qarzlarni hamda ustav kapitali to‘g‘risida axborot olish mumkin. Biroq, investitsiyalarning barcha turlari, ob'ektlari, maqsadi, moliyalashtirish manbalari bo‘yicha hisob va hisobotda muammolar mavjud. Ushbu muammolarni quyidagicha ifodalash mumkin:

- investitsiyalarning buxgalteriya hisobi ob'ekti sifatidagi tasnifi va tavsifining bugungi kun talablari va amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar bilan mos emasligi;

- investitsiyalar to‘g‘risida axborotlarni ularning turlari, ob'ektlari, maqsadi va moliyalashtirish manbalari bo‘yicha olish imkoniyatining mavjud emasligi;

- investitsiyalar hisobini tartibga soluvchi normativ-hujjatlarning o‘zaro nomuvofiqligi hamda ularni xalqaro tajribalar asosida yangilash zaruratining mavjudligi;

- investitsiyalar to‘g‘risida axborotlarni boshlang‘ich hujjatlar va buxgalteriya hisobi registrlarida aks ettirish bo‘yicha axborot ta'minotining yetarli emasligi;

- investitsiyalar, investitsiya aktivlarini baholash, bunda inflyasiya darajasi ta'sirini hisobga olish uslubiyotining normativ-hujjatlar bilan tartibga solinmaganligi va boshqa shu kabi muammolar.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida investitsiyalar hisobi muammolarini quyidagicha tizimlashtirgan holda aks ettirishga harakat qildik (2.1-jadval).

Xo‘jalik subyektlari bilan uning tashqi va ichki manbalari o‘rtasida investitsiya resurslarining eng samarali harakatini ta'minlash borasida qaror qabul qilish investitsiyalarni boshqarishdagi asosiy vazifa hisoblanadi. Shuning uchun moliyaviy investitsiyalar resurslari oqimini

boshqarish investitsiya faoliyatini boshqarishdagi markaziy masala hisoblanadi.

2.1 -jadval

Investisiyalar hisobi muammolari va ularning tavsifi⁴²

1	Muammo tasnifi	Muammo tavsifi
1	Investisiyalar hisobini tartibga soluvchi huquqiy muammolar	Investisiyalar hisobi to'g'risidagi normativ hujjatlardagi o'zaro nomuvofiqliklarning mavjudligi, milliy va xalqaro standartlardagi tafovutlar, investisiyalar hisobini tashkil etish tartibini belgilovchi nizom (yo'riqnoma)larning yetishmasligi.
2	Investisiyalar hisobining nazariy muammolari	Investisiyalarni buxgalteriya hisobi ob'ekti sifatida tan olish masalalarining yetarlicha ochib berilmaganligi, investisiyalarni buxgalteriya hisobi nuqtayi nazardan tasniflash muammolari, jumladan, korxonaga kiritilgan investisiyalar to'g'risida hisob ma'lumotlarini olishning murakkab va chalkashligi, kriptovalyutalar va inson kapitaliga kiritilgan investisiyalar hisobi masalalari tadqiq etilmaganligi.
3	Investisiyalar hisobining uslubiy muammolari	Investisiyalar bilan bog'liq xo'jalik jarayonlarini buxgalteriya hisobi schyotlarida aks ettirish, ayniqsa, moddiy va nomoddiy aktivlar bilan kiritilgan investisiyalar va ushbu jarayonlarni soliqqa tortilishi nuqtayi nazaridan buxgalteriya hisobi yozuvlarini hamda reinvestitsiyalash jarayonlarining buxgalteriya hisobida aks ettirilishida yagona uslubiy ko'rsatmalarning mavjud emasligi.

⁴² Abror Abdullaev, Olmos Ochilov. Faol investitsiya siyosati sharoitida investisiyalar hisobi va tahlili: zarurat, maqsad va vazifalar "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy jurnali. '2, aprel', 2021 yil.

4	Investisiyalar hisobining amaliy muammolari	Investisiyalarga oid jarayonlarni hujjatlashtirish, hujjatlar aylanuvini tashkil etish, investisiyalarning analitik hisobini tashkil etish, investisiyalardan olinadigan daromadlarni tan olish va ular to'g'risidagi axborotlarni moliyaviy hisobotda aks ettirishda noaniqliklarning mavjudligi.
---	---	--

Jadvalda keltirib o'tilgan muammolarning bartaraf etilishi bir qator tadqiqotlarni olib borish, xalqaro tajribani o'rganish hamda milliy iqtisodiyot xususiyatlarini inobatga olgan holda yondashish orqali amalga oshiriladi. Shuningdek, ushbu muammolar investisiyalar hisobiga oid kelgusida bajariladigan ilmiy tadqiqot ishlarining yo'nalishlarini belgilab olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bizning fikrimizcha, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini joriy etish orqali investisiyalar hisobi muammolari qisman bartaraf etilsada, ammo nazariy va uslubiy muammolar alohida tadqiqotlar orqaligina hal qilinishi mumkin. Bundan tashqari, investisiyalar hisobi muammolarining tadqiq etilishi investisiyalar tahlilining ham yangi yo'nalishlarini ochib beradi. Faol investisiya siyosatini yuritish sharoitida investisiyalar hisobining ahamiyati har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, iqtisodiyoti rivojlanayotgan mamlakatlarda jalb etilayotgan investisiyalarning nazorati va samaradorligin baholash boshqaruv nuqtayi nazaridan dolzarb masalalardan bo'lib hisoblanadi. Shuningdek, investisiya jarayonlarida faol ishtirok etayotgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar ham bu jarayonlarni samarali boshqarish uchun investisiyalar to'g'risida ishonchli, aniq va tezkor ma'lumotlarni o'z vaqtida ta'minlab turilishi lozim. Bu esa investisiyalar buxgalteriya hisobini takomillashtirish va uning axborot berish imkoniyatlarini yanada kengaytirish zaruratini keltirib chiqaradi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, investisiyalar hisobi va tahlili masalalarining tadqiq etilishi bugungi kunda ob'ektiv zaruratga aylanmoqda. Ushbu zaruratdan kelib chiqib, investisiyalar hisobi va tahlilining maqsad va vazifalarini belgilab olish mumkin.

Buxgalteriya hisobga oid aksariyat manbalarda investisiyalar hisobi vazifalari moliyaviy hisob nuqtayi nazardan ochib berilgan. Xususan, professor A.Karimov boshchiligida yozilgan “Buxgalteriya hisobi” darsligida investisiyalar hisobining vazifalari sifatida quyidagilar keltirib o‘tilgan: uzoq va qisqa muddatli investisiyalarni hamda ular bo‘yicha olingan daromadlarni o‘z vaqtida to‘g‘ri aniqlash; uzoq va qisqa muddatli investisiyalar uchun ajratilgan mablag‘larni o‘z vaqtida hisobdan chiqarishni ta‘minlash; investisiyalarni hisobga olishda BHMS va BHXS larni keng qo‘llash; uzoq muddatli investisiyalardan korxonalar moliyaviy natijalarida aks ettirilishini ta‘minlash; moliyaviy investisiyalardan olingan daromadlardan byudjetga tegishli qismini amaldagi me‘yoriy hujjatlarga, soliq kodeksining talabiga muvofiq to‘g‘ri hisoblashni tashkil etish, byudjetga tegishli qismini o‘z vaqtida o‘tkazishni ta‘minlash; uzoq va qisqa muddatli moliyaviy investisiyalar hisobiga kelib tushgan mablag‘lardan korxonani kengaytirish, rivojlantirish va korxonalar jamoasi ehtiyoji uchun ishlatishni ta‘minlash⁴³”.

Sohaga oid boshqa adabiyotlarda ham investisiyalar hisobi vazifalari shu tartibda keltirib o‘tilgan. Olib borilgan tadqiqotlar natijalari va bugungi investisiya siyosatining mazmunidan kelib chiqib, investisiyalar hisobining maqsadi barcha turdagi axborot foydalanuvchilarni korxonaning kapital, moliyaviy va inson kapitaliga qilingan investisiyalari va ulardan olinadigan daromadlar to‘g‘risida ishonchli, aniq va tezkor axborotlar bilan ta‘minlashdan iborat bo‘lmog‘i lozim. Investisiyalar hisobining vazifalari to‘liq bajarilishi orqali tahlil jarayonining natijadorligi ta‘minlanadi. Investisiyalar hisobi va tahlilining yagona umumiy funksiyasi mavjud bo‘lib, u ham bo‘lsa axborot berishdir. Zero, har ikkala tizim ham biznes qarorlarini qabul qilish uchun eng zaruriy “xom ashyo” vazifasini o‘taydi.

Investisiyalar tahlilining maqsadi ham uning asosiy funksiyasidan kelib chiqadi. Bu borada tadqiqot olib borgan O.T.Astanakulov, M.Yu.Raximov va N.N.Kalandarovalarning fikricha, tadbirkorlik

⁴³ Karimov A.A., Kurbanbayev J.E., Jumanazarov S.A. Buxgalteriya hisobi. Darslik.—Ò.: “Iqtisod-Moliya”, 2019, 287 b.

sub'ektlarida investisiya dasturini pul oqimlari bo'yicha tahlil qilishning maqsadi korxonaga to'lovga layoqatliligi va likvidliligini ta'minlashdan iborat⁴⁴. Investitsiyalar tahlili bo'yicha keltirilgan ushbu fikr asosan moliyaviy tahlilning maqsadini o'zida mujasamlashtirgan.

Investitsiya faoliyatini boshqarish jarayonida sub'yektni uchta izchil bosqichga ajratish mumkin: zarur axborotni yig'ish va to'plash; uni audit va tahlil qilish; boshqaruvga oid investitsion qarorlar qabul qilish.

Bozor munosabatlari sharoitida buxgalteriya hisobi ichki va tashqi foydalanuvchilarga eng muhim ma'lumotlarni yetkazib beruvchi vazifasini o'tab, maqbul boshqaruv qarorlarini ishlab chiqishga ko'maklashadi, bunday qarorlar amalga tatbiq etilishi natijasida korxonaning ishlab chiqarish potentsiali oshadi va raqobat bozorida uning mavqeyi ko'tariladi.

Biroq tezkor boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish hisobot yuritish tizimida mavjud bo'lgan va buxgalteriya hisobi hisobvaraqlari, hisob registrlari va hisobotlarida aks ettirilgan ma'lumotlarda umuman yetishmaydi.

Buxgalteriya hisobi moliyaviy investitsiyalarni hisobni yuritishning mustaqil obyekti sifatida ko'radi. Bunday yondashuv xarajatlarni joriy asosiy faoliyat (ishlab chiqarish va muomala xarajatlari) bilan bog'liq xarajatlar va uzoq muddatli qo'yilmalarga bo'lish konsepsiyasiga asoslangan.

Axborotlar tizimi orqali olingan iqtisodiy ma'lumotlarni muayyan ko'rsatmani vujudga keltiradigan holatga yetkazish uchun uni tayyorlash, ya'ni to'plash, tekshirish va qayta ishlash kabi qo'shimcha ishlarni amalga oshirish zarur, bu esa auditorlik faoliyatining asosiy mazmuni va tahlil ishlarining bosqichlaridan biri hisoblanadi.

Ma'lumki, audit tekshiruvidan o'tkazishda moliyaviy hisobot amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq tayyorlangani, buxgalteriya hisobi standartlariga mosligi, undagi ma'lumotlarning haqqoniyligi

⁴⁴ Olim T.Astanakulov, Matnazar Yu.Raximov, Nargiza N.Kalandarova. Analysis of the investment programm of the analytical cycle at the enterprise for the development of the company's entrepreneurial activity. *Academy of Entrepreneurship Journal*. Volume 26, Special issue 3, 2020. P.1-7

haqida axborot mavjud bo'lganida ham darhol investitsion qaror qabul qilish mumkin emas.

Olingan axborotni chuqur tahlil qilish yo'li orqali boshqari- layotgan obyekt holati va uning rivojlanish tamoyillarini, amalga oshirilayotgan xo'jalik jarayonlari mohiyatini tushunishga erishiladi. Faqat moliyaviy hisobot ma'lumotlari va boshqaruv «yuragi»ni tashkil etadigan buxgalteriya hisobida boshqa axborot manbalarini chuqur tahlil qilish yo'li bilangina to'g'ri boshqaruv, investitsion qarorni qabul qilish mumkin.

Mana shuning uchun ham auditor moliyaviy hisobot elementlarining haqqoniyligini aniqlagandan so'ng o'z ishini tugallamaydi, balki tahlil ishlarini amalga oshiradi.

Auditorlar moliyaviy hisobot haqida o'z fikrlarini bildirishdan oldin tekshirilayotgan xo'jalik subyekti ishlariga chuqurroq nazar tashlashlari, uning faoliyatidagi kamchiliklarni aniqlashlari hamda moliyaviy yo'qotishlarning oldini olish va auditdan o'tkazilayotgan subyektning bozorda barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan tegishli tavsiyalarni ishlab chiqishlari zarur. Bunga esa ular, bizningcha, faqatgina iqtisodiy tahlil usullariga tayangan holda ish olib borsalargina erishishlari mumkin.

Boshqaruv nuqtayi nazaridan audit va moliyaviy tahlil qaror qabul qilishdan oldingi bosqich bo'lib, uning maqsadi: boshqarilayotgan obyekt holatiga to'g'ri baho berish va bu holatning talab qilinayotgan holatdan qanchalik farq qilishini ko'rsatib berish; obyektning amaldagi vaziyatdan talab qilinayotgan holatga o'tkazish imkoniyatlari va yo'llarini aniqlash; maqbul qarorlar qabul qilish uchun materiallar tayyorlashdan iboratdir.

Boshqacha qilib aytganda, investitsiyalarni boshqarish tizimida audit va tahlil axborot olish va boshqaruv qarorlarini qabul qilish o'rtasidagi oraliq joyini egallaydi. Ular boshqaruv qarorlarini qabul qilish asosiy hisoblanadi, qaror qabul qilishning o'zi esa boshqaruv tizimida yetakchi o'rin tutadi.

Audit va moliyaviy tahlil axborot olish va investitsion qaror qabul qilish o'rtasidagi oraliq bo'g'inni egallagan holda, birinchidan, xo'jalik


yuritish samaradorligini oshirish imkoniyatlarini aniqlash va undan foydalanish, ikkinchidan, boshqaruv qarorlarini ilmiy asoslash, uchinchidan, barcha boshqaruv vazifalarini bajarish, to'rtinchidan, investitsiya mexanizmini takomillashtirish, beshinchidan, xo'jalik subyektlari xodimlarini iqtisodiy tarbiyalash quroli bo'lib xizmat qiladi.

Mazkur investitsion siyosatni amalga oshirishdagi tadbirlarning to'g'ri yuritilishini ta'minlashda buxgalteriya hisobini zamon talabi darajasida va buxgalteriya hisobining milliy hamda xalqaro standartlari asosida yuritilishini tashkil qilish zarur.

Bizga ma'lumki, investitsiyalar ma'lum davr davomida iqtisodiy foyda ko'rish maqsadida qo'yilgan kapitalni bildiradi. Investitsiyalarning tarkibiy qismi bo'lgan moliyaviy investitsiyalar daromad olish va asosiy kapital qiymatini ko'paytirish maqsadida uning tasarrufida qisqa va uzoq muddatli investitsiyalardan iborat.

Moliyaviy investitsiyalar hisobini zamon talablari va makon amaliyoti talablari darajasida tashkil qilish uchun, avvalo, ularni hisobga olishning vazifalari belgilanadi:

- uzoq va qisqa muddatli moliyaviy investitsiyalarni hamda ular bo'yicha olingan daromadlarni o'z vaqtida to'g'ri aniqlash;
- uzoq va qisqa muddatli moliyaviy investitsiyalar uchun ajratilgan mablag'larni o'z vaqtida hisobdan chiqarishni ta'minlash;
- moliyaviy investitsiyalarni hisobga olishda BHMA (Buxgalteriya hisobi milliy andozalari) va MHXS (Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari)ni keng qo'llash;
- uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalardan olingan daromadlarning korxonaga moliyaviy natijalarida aks ettirilishini ta'minlash;
- moliyaviy investitsiyalardan olingan daromadlardan budjetga tegishli qismini amaldagi me'yoriy hujjatlarga, Soliq kodeksining



2-rasm. Investitsion faoliyatni me'yoriy tartibga solish

talabiga muvofiq to'g'ri hisoblashni tashkil qilish, budjetga tegishli qismini o'z vaqtida o'tkazishni ta'minlash;

- uzoq va qisqa muddatli moliyaviy investitsiyalar hisobiga kelib tushgan mablag'lardan korxonani kengaytirish, rivojlantirish va korxonalar jamoasi ehtiyoji uchun ishlatishni ta'minlash.

Korxonalarda moliyaviy investitsiyalar hisobi yuzasidan ko'p-gina muammolar tug'ilmoqda. Quyida ushbu muammolarning ba'zilariga to'xtalib o'tamiz:

1. Qimmatli qog'ozlarni xarid qilishda foydalanadigan qarz mablag'lari bo'yicha foizlar hisobi. Schyotlar rejasini qo'llash bo'yicha yo'riqnomada xarid qilib olingan qimmatli qog'ozlar qiymatiga xarid qilingan qimmatli qog'ozlarni buxgalteriya hisobiga qabul qilgungacha ularni xarid qilishda foydalanadigan qarz mablag'lari bo'yicha to'langan foizlar ham xarid qilingan qimmatli qog'ozlar qiymatiga (tannarxiga) qo'shilishi ko'zda tutilgan.

Bunda yuqorida keltirilgan tartibdan quyidagi xulosaga kelish mumkin: qarz mablag'lari bo'yicha foizlarni xarid qilingan qimmatli qog'ozlar qiymatiga qo'shish uchun qarz mablag'lari qimmatli qog'ozlarni buxgalteriya hisobida aks ettirgungacha foydalanishi lozim.

Bu yerda qarz mablag'larining foydalanishi deyilganda, qimmatli qog'ozlar qiymatining to'lanilishi tushuniladi. Ammo moliyaviy investitsiyalar har bir turini baholash va qayta baholash o'ziga xos xususiyatlarga ega. Quyida ushbu xususiyatlarning ayrimlariga to'xtalamiz.

Qimmatli qog'ozlarga yo'naltirilgan moliyaviy investitsiyalar. Ushbu turdagi investitsiyalarni baholashda ikkita sana muhim rol o'ynaydi:

1. Sotib olish sanasi.
2. Keyingi sanalar.

Sotib olish sanasi deganda, qimmatli qog'ozlarga yo'naltirilgan moliyaviy investitsiyalarni sotib olish, ya'ni ularni qabul qilib olish sanasi tushuniladi.

«Moliyaviy investitsiyalarni xarid qilish chog'ida ular xarid qiymati bo'yicha baholanadi va bu qiymatga brokerlik xizmati uchun to'langan haq, bank xizmati uchun to'lovlar, bojlar va boshqa xarajatlar kiritiladi.

Masalan, xo'jalik yurituvchi subyekt qimmatli qog'ozlarni sotib oldi. Qimmatli qog'ozlarning sotib olish qiymati-500 000 so'm, brokerga to'langan komission haq-15 000 so'm.

Qimmatli qog'ozlarni sotib olish uchun brokerga -500 000 so'm pul to'langanda quyidagi buxgalteriya provodkasi beriladi:

Dt 0610	«Uzoq muddatli investitsiyalar» schyoti -500 000
Kt 5110	«Hisob-kitob» schyoti- 500 000

Brokerga to‘langan komission haq summasiga quyidagi buxgalteriya provodkasi beriladi:

Dt 0610	«Uzoq muddatli investitsiyalar»-15 000
Kt 5110	«Hisob-kitob» schyoti- 15 000

Agar investitsiya, aksiyalarni emissiya qilish va boshqa qim- matli qog'ozlar chiqarish yo‘li bilan to‘laligicha yoki qisman olinayotgan bo‘lsa, u holda xarid qiymati qimmatli qog'ozlarning nominal qiymatiga emas, balki chiqarilgan qimmatli qog'ozlarning joriy qiymatiga teng bo‘ladi. Agar investitsiya boshqa aktivga ayirboshlash yo‘li bilan to‘la yoki qisman olingan bo‘lsa, u holda investitsiya qiymati, topshirilgan aktivning joriy qiymatiga qarab aniqlanadi»⁴⁵.

Agar sotib olish sanasida sotib olish qiymatiga ma'lum sana- gacha bo‘lgan davr uchun hisoblangan dividendlar va foizlar hissasi kiritilgan bo‘lsa, qimmatli qog'ozlarga yo‘naltirilgan investitsiyaning balans qiymati o‘tkazib berilgan summadan sotuvchi tomonidan bo‘nak sifatida to‘langan foiz va dividenlar summasini chegirishdan keyin qolgan qiymatda aks ettirilishi lozim. Chunki, sotib olish vaqtida olingan summa va sotib olish qiymati o‘rtasidagi farq investorning investitsiya kiritgan mablag'lari uchun avans tariqasida olgan daromadi hisoblanadi. Bu avans summa investitsiyani sotib olishdan to qaytarilgunicha bo‘lgan davrda investor tomonidan doimiy daromad sifatida bir maromda hisobdan chiqarib borilishi kerak.

⁴⁵«Moliyaviy investitsiyalar». 12-son. BHMS, Toshkent. «O'BAMA». 2003, 117-118-b.

Keyingi sanalar deganda, sotib olingandan keyingi balans sanalari tushuniladi. Ushbu sanalarda qimmatli qog'ozlarga yo'naltirilgan moliyaviy investitsiyalar balansda turli qiymatda baholanishi mumkin. Jumladan, uzoq muddatli aktivlar sifatida tasnif etilgan investitsiyalar buxgalteriya hisobida:

- xarid qiymati bo'yicha;
- qayta baholangan qiymati bo'yicha;
- xarid va bozor qiymatining umumiy investitsiyalar usuli bo'yicha aniqlangan eng kam bahosi bo'yicha hisobga olinadi.

Qisqa muddatli aktivlar sifatida tasnif qilingan investitsiyalar buxgalteriya balansida:

- bozor qiymati bo'yicha;
- xarid qiymati va bozor qiymati kabi ikki qiymatning eng kabi bo'yicha hisobga olinishi kerak¹.

Masalan, 1-aprelda korxonaga 500 000 so'mlik qimmatli qog'ozni sotib oldi, bunda brokerga 2000 to'landi.

1-aprel:

Dt 5800	Qisqa muddatli investitsiyalar- 520 000
Kt 5110	Pul mablag'lari-520 000

Agar kompaniya investitsiyalarni bozor qiymati bo'yicha baholasa, unda hisobda investitsiya qiymatining ko'tarilishi ham, pasayishi ham aks ettirilishi kerak. Faraz qilaylik, 1-mayda ushbu qimmatli qog'ozning haqqoniy qiymati 540 000 so'm, 1-iyunda esa 510 000 so'mgacha pasaygan.

1-may:

Dt 5800	Qisqa muddatli investitsiyalar -20 000
Kt 8532	Rezerv kapitali- 20 000

Qiymatning pasayishi 1-maydagi qayta baholash natijasini bekor qilib, moliyaviy faoliyatdan zararga olib keladi.

1-iyun:

Dt 8532	Rezerv kapitali- 20 000
Dt 9430	Investitsiyalarni

	baholashdan zarar -10 000
Kt 5800	Qisqa muddatli investitsiyalar -30 000

Qimmatli qog'ozlarga yo'naltirilgan moliyaviy investitsiya- larning bozor qiymati deganda, ularning moliya bozorida sotish vaqtida namoyon bo'lgan sotish qiymati tushuniladi.

Bozor qiymati haqqoniy qiymat deb ham ataladi. Bu qiymat ko'p omillarga bog'liq, jumladan, aksiyadorlik jamiyati yoki tijorat bankining foydalilik darajasi, to'lanayotgan dividendlarning miqdori, ularning kelajakdagi obro'-e'tiboriga va boshqa omillarga.

Qiymat tamoyiliga muvofiq, qimmatli qog'ozlarga yo'naltirilgan moliyaviy investitsiyalar boshqa aktivlar singari keyingi sanalarda yuqorida keltirilgan qiymatlarning eng kichik miqdorida balansda aks ettirilishi lozim.

Ushbu qiymatda uzoq muddatli qimmatli qog'ozlar balansda investitsiya portfelini metodiga asoslanib aks ettiriladi. Qisqa muddatli qimmatli qog'ozlar ularning bozor va sotib olish qiymatlarining eng kichik qiymatida hisobga olingan bo'lsa, balansda qimmatli qog'ozlar portfelining jami investitsiya qiymati yoki qimmatli qog'ozlarning alohida nomlari bo'yicha topilgan qiymatiga asoslanib aks ettiriladi.

Masalan:

1-yanvarda 6 oylik muddatga nominal qiymati 200 000 sh.b. bo'lgan, 12 %li obligatsiya har oylik foizlar to'lovi sharti bilan 188 000 sh.b. sotib olindi.

Dt 5800	Qisqa muddatli investitsiyalar-188 000
Kt 5110	Pul mablag'lari-188 000

1-yanvarda 6 oylik muddatga nominal qiymati 200 000 sh.b. bo'lgan 12 %li obligatsiya har oylik foizlar to'lovi sharti bilan 206 000 sh.b.ka sotib olindi.

Dt 5800	Qisqa muddatli investitsiyalar-206 000
----------------	--

Kt5110	Pul mablag'lari-206 000
---------------	-------------------------

Qisqa muddatli investitsiyalar bo'yicha foiz daromadlarini hisoblash.
31-yanvarda:

Dt 4830	Olinadigan foizlar $(200\ 000 \times 0,12 \times 1/12) = 2\ 000$
Kt9530	Qisqa muddatli investitsiyalardan foiz ko'rinishidagi daromad 4 000

Obligatsiyaning sotib olish va nominal qiymati o'rtasidagi farqni hisobdan chiqarish: Chegirma (diskont):

Dt 5800	Qisqa muddatli investitsiyalar- $(200\,000 - 188\ 000) \times 6) 2\ 000$
Kt 9530	Qisqa muddatli investitsiyalardan foiz ko'rinishidagi daromad- 2000 Ustama mukofot):

Keyingi sanalarda bozor qiymati sotib olish qiymatidan past bo'lsa qimmatli qog'ozlarga yo'naltirilgan moliyaviy investitsiya- larning sotib olish qiymati bozor qiymati darajasigacha yetkazilishi va balansda shu qiymat bilan aks ettirilishi kerak.

Yuqorida keltirilgan tartibga asosan, agar xarid qilinayotgan qimmatli qog'ozlar bo'yicha huquqlar ularning to'lovigacha olingan bo'lsa, u holda qarz mablag'larining foydalanishi qimmatli qog'ozlar qiymatiga qo'yilmaydi. Bu xarajatlarning korxonaga foyda va zararlar schyotiga olib borilishi to'g'riroq bo'ladi.

Qimmatli qog'ozlarni xarid qilish uchun olingan qarz mablag'lari bo'yicha foizlar hisobi, asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarni xarid

qilish uchun olingan qarz mablag'lari bo'yicha foizlar hisobi kabi bir xil tartibda joriy qilingan.

Yuqorida keltirilgan me'yoriy hujjatlarga asosa, 08-«Kapital qo'yilmalar» schyotining asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarga qilingan qo'yilmalariga shu maqsadlar uchun korxonalarining bank krediti bo'yicha to'lanadigan foizlari va boshqa qarz majburiyatlari bo'yicha xarajatlari kiradi.

Bunda asosiy vositalar obyektlarining foydalanishga topshirilishi va hisobga olingandan keyin to'langan (hisoblangan) foizlar 9910-«Yakuniy moliyaviy natijalar» schyotiga olib borilishi yoki boshqa shunga o'xshash manbalardan foydalanish mumkinligi ko'zda tutilgan.

Fikrimizcha, qimmatli qog'ozlarni xarid qilishda foydalanadigan qarz mablag'lari bo'yicha foizlar hisobi, asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarni xarid qilishdagi qarz mablag'lari bo'yicha foizlar hisobi kabi bir xil tartibda amalga oshirilishi ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshiruvchi korxonalar va tashkilotlar uchun to'liq asoslidir, chunki ular tomonidan qimmatli qog'ozlarni xarid qilish doimiy uchrab turadigan operatsiyalar turiga kirmaydi. Qonunchilikda, ya'ni me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqishda aynan mana shunga urg'u berilgan.

Biroq qimmatli qog'ozlar bozori professional ishtirokchilarining qimmatli qog'ozlar bo'yicha operatsiyalari, aksariyat hollarda, ularning asosiy faoliyat turlariga kiradi.

Shuni hisobga olgan holda qonunchilikda qimmatli qog'ozlar jarayoni va ularning tannarxini to'g'ri shakllantirish masalalarida ularning faoliyat turi xususiyatlarini hisobga oluvchi me'yoriy hujjatlar ishlab chiqilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

2. Qimmatli qog'ozlarni hisobdan chiqarishga taalluqli xarajatlarni aks ettirish tartibi. Bugungi kunda qimmatli qog'ozlar bozori professional ishtirokchilari oldida turgan yana bir muhim masalalardan biri qimmatli qog'ozlarni hisobdan chiqarish bilan bog'liq xarajatlar soliqqa tortilishining buxgalteriya hisobi hisoblanadi.

Korxonalar moliyaviy-xo'jalik faoliyati buxgalteriya hisobining schyotlar rejasini qo'llash bo'yicha yo'riqnomaga muvofiq, qimmatli qog'ozlarning balans qiymati, ularni sotish bahosi hamda boshqa

moliyaviy qo'yilmalar 9220-«Boshqa aktivlarni hisobdan chiqarishlar» schyotida aks ettiriladi.

9220 schyotining debetida hisobdan chiqarilayotgan qimmatliklarning balans qiymati hamda u bilan bog'liq xarajatlar aks ettiriladi.

Ma'lumki, qimmatli qog'ozlarning vositachilarga to'langan komission mukofot xarajatlarini o'zida aks ettirgan xarid qiymati hisobdan chiqarilishi balansda 9220-«Boshqa aktivlarni hisobdan chiqarishlar» schyotining debeti va «Uzoq muddatli moliyaviy qo'yilmalar» schyotlarida aks ettiriladi. Shunday qilib, qimmatli qog'ozlarni hisobdan chiqarish bilan bog'liq xarajatlarni 9220 «Boshqa aktivlarni hisobdan chiqarishlar» schyotining debetida hisobga olinadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 25-oktabr 444-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi va moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risidagi» nizomda boshqa turdagi mulk va sotishdan tashqari olingan daromadlar va ushbu operatsiyalar bo'yicha yakuniy moliyaviy natija (foyda yoki zarar) soliqqa tortilishida, moliyaviy natijadan sotilgan mahsulot tannarxi, asosiy vositalar va korxonaning boshqa mulklari va sotishdan tashqari olingan daromadlar hamda ushbu operatsiyalar bo'yicha xarajatlar chiqarilishi ko'zda tutilgan.

Fikrimizcha, «Xarajatlar tarkibi to'g'risida»gi nizomda boshqa turdagi mulk realizatsiyasi moliyaviy natijasi tushunchasiga aniqlik kiritilmagan. Yuqorida qayd etilganidek, buxgalteriya hisobining schyotlar rejasini qo'llash bo'yicha yo'riqnomasida keltirilishicha, boshqa turdagi mulk realizatsiyasi bo'yicha moliyaviy natijalar tarkibiga uning realizatsiyasi bilan bog'liq xarajatlar ham kiradi. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining «Korxonalar va tashkilotlarning budjetga daromad (foyda) solig'ini hisoblashi va to'lashi tartibi» to'g'risidagi yo'riqnomasida boshqa turdagi realizatsiyasidan (ushbu turga qimmatli qog'ozlar ham taalluqli) olingan foydani (zarar) soliqqa tortishda mulkning boshlang'ich qiymati va sotilgan bahosi o'rtasidagi farq soliq bazasiga qo'shilishi nazarda tutilgan.

Demak, shunday nuqtayi nazar ham mavjudki, unga ko'ra yuqorida qayd etilgan yo'riqnomaga muvofiq, qimmatli qog'ozlarning realizatsiyasi bilan bog'liq xarajatlar soliqqa tortilmaydi.

Biroq yo'riqnomaga to'liq amal qilinishiga to'g'ridan to'g'ri olib borilmaydigan qimmatli qog'ozlarning oldi-sotdisi amalga oshirilishida yuzaga keladigan umumxo'jalik xarajatlarining miqdoriga korxonada daromad solig'i bazasi kamatirilmaydi.

Yuqorida qayd etilganidek, investitsion institutlar tomonidan qimmatli qog'ozlar operatsiyalarining amalga oshirilishi ular faoliyatining asosiysi hisoblanadi. Bular kompaniya ustavida keltirilgan.

Shunday qilib, ba'zi me'yoriy hujjatlar qimmatli qog'ozlar bozori professional ishtirokchilari faoliyatining asosiylikini tasdiqlasa, boshqalari esa uni boshqa faoliyat turlari bilan bog'liqligini tasdiqlaydi.

Qimmatli qog'ozlar bozori professional ishtirokchilari faoliyatining to'g'ri aniqlanishi soliq bazasini to'g'ri aniqlash va hisoblash, shu jumladan, qimmatli qog'ozlarni hisobdan chiqarish bilan bog'liq xarajatlarning hisobi uchun hamda asosiy faoliyat bilan bog'liq umumxo'jalik xarajatlarini to'g'ri hisoblash uchun kerakli sharoitdir.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash mumkinki, yuqorida sanab o'tilgan holatlarning kelib chiqishiga asosiy sabab qimmatli qog'ozlar bozori professional ishtirokchilarining faoliyatini soliqqa tortish bo'yicha tartibning yo'qligidir. Amaldagi qonunchilikda professional ishtirokchilarning statusi belgilanmagan, ya'ni qimmatli qog'ozlar bozori professional ishtirokchilari soliq qonunchiligi va buxgalteriya hisobining mustaqil subyektlari hisoblanmaydi.

Ular tomonidan amalga oshirilayotgan asosiy faoliyat (qimmatli qog'ozlar oldi-sotdisi) qonunchilikda ba'zi hollarda boshqa faoliyat turiga olib borilgan. Qonunchilikdagi keltirilgan bunday qarama-qarshiliklar eng kamida ikkilamchi hisobni yuritishni taqozo etadi: buxgalteriya va soliq hisobi. Bunday hisobda investitsiya kompaniyalari barcha faoliyatidan soliq to'lab, bunda o'z faoliyatini amalga oshirishidagi xarajatlarni hisobga olmaydi hamda ba'zi zararlar mavjudki, ular bilan fond bozorida normal faoliyat yuritish murakkab hisoblanadi.

2.2. Investitsiyalar auditining uslubiy muammolari

Auditorlik tekshiruvimiz amalda to'g'ri hamda ilmiy asoslangan investitsion qarorlarni qabul qilish mumkin emas.

Chunki:

1) investitsion faoliyatni boshlashdan oldin investitsion loyiha- ning qoplanishi va uning samaradorligini tahlil qilish zarur;

2) investitsion loyihani hayotga tatbiq etish mobaynida buxgal- teriya hisobini tashkil etish va yuritish hamda rejada belgilan- ganidan haqiqatdagining farqini tahlil qilish zarur;

3) investitsion loyiha tugaganidan so'ng buxgalteriya hisobi ma'lumotlari asosida audit tekshiruvi o'tkaziladi, shu asosda investitsiya faoliyati bo'yicha boshqaruv qarori qabul qilinadi.

Buxgalteriyadan olingan axborotni faqat chuqur tahlil qilish va auditdan o'tkazish asosidagina xo'jalik yurituvchi subyektning investitsiya faoliyati natijalarini xolis baholash, kutilgan maqsad- larga erishish yo'li orqali uni yanada rivojlantirish istiqbollarini ishlab chiqish mumkin.

Audit moliyaviy investitsiya faoliyatining quyida sanab o'tilgan barcha vazifalarini amalga oshirishda muhim o'rin tutadi:

- rejalashtirish uchun eng yaxshi investitsion dasturni tanlab olish uchun uning variantlariga baho beriladi;

- taxminlash uchun xo'jalik subyekting moliya strate- giyasi variantlarini tanlash ishlab chiqiladi va asoslanadi;

- tashkil etish uchun xo'jalik subyekti investitsiyalarini boshqarishning eng samarali tuzilmasini tanlash uchun variantlar baholanadi;

- muvofiqlashtirish uchun xo'jalik subyektlari ma'naviyat investitsiyalarini boshqarish tizimining barcha bo'g'inlarida ishlari- ning kelishilganligini ta'minlaydi;

- tartibga solish uchun qo'yilgan maqsadlardan chetga chiqish holatlarini o'z vaqtida bartaraf etishda yordamlashish maqsadida bunday holatlar tezkorlik bilan aniqlanadi;

- rag'batlantirish uchun rag'batlantirishning amaldagi tizimlari, ularning xo'jalik subyekti faoliyati ko'rsatkichlariga ta'sir ko'rsatish samaradorligi o'rganilishi ta'minlanadi;

- nazorat uchun moliyaviy axborotlarning haqqoniyligi, moliya ishlarining yo'lga qo'yilganligi, moliyaviy rejalarning bajari-lishi va umuman olganda, boshqaruv qarorlarining ijro etilishi tekshiriladi.

Xo'jalik subyektlarining moliyaviy investitsiya faoliyatini buxgalteriya hisobida to'g'ri aks ettirish hamda moliyaviy tahlil qilishni chuqurlashtirish, uning metodik usullarini yanada rivoj- lantirish va takomillashtirish mamlakatning bozor iqtisodiyotiga muvaffaqiyatli o'tishining muhim shartlari hisoblanadi.

Bozor munosabatlarini shakllantirish sharoitida faoliyat yuri- tayotgan xo'jalik subyektlarining investitsiya resurslarini bosh- qarishda buxgalteriya hisobi va auditning ahamiyati tobora ortib borayotgani tufayli, ularning nazariy va uslubiy muammolarini tadqiq qilish dolzarb masalaga aylandi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish munosabati bilan korxonalar, tashkilot va muassasalarda mavjud mablag'lardan samarali foydalanish, korxonalar ixtiyoridagi aktivlarning samaradorligini maksimal darajada ko'tarish asosiy vazifa hisoblanadi. Chunki mablag'lardan samarali foydalanish korxonalar aktivlari unumdorligini oshirishda va bu orqali maksimal darajada foyda olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Iqtisodiyotni bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o'tkazish va tarmoqlar iqtisodini izchil rivojlantirish inves- titsiyalardan foydalanish samaradorligini oshirishga bevosita bog'liq.

Albatta, investitsiyalardan foydalanish samaradorligini oshirishda moliyaviy investitsiyalar va ular bo'yicha olingan daro- madlarni to'g'ri hisobga olish, ular maqsadli foydalanishini nazorat qilish va hisobini ta'minlash, investitsiyalar samaradorligini tahlil qilish hamda auditini o'tkazish muhim o'rin tutadi, auditning uslubiy muammolarini bartaraf etish hamda takomillashtirish dolzarb vazifalarimizdan biri bo'lib hisoblanadi.

Bugungi kunda investitsiyalarni bozor iqtisodiyotiga moslash- tirish va investitsion faoliyatni boshqarish o'zgacha yonda- shishlarni talab

etmoqda. Chunki xo‘jalik yuritishning zamonaviy yo‘lini tanlash investitsion siyosatni ham tubdan o‘zgartirishni talab qiladi. Investitsion siyosatni amalga oshirishda bozor munosabatlariga mos dastaklardan foydalanish, ya'ni investitsion jarayon qatnashchilarining huquq va majburiyatlarini belgilab berish; mamlakatda investorlar uchun to‘laqonli raqobatni ta'minlash; moliyaviy, moddiy va aqliy boyliklarni boshqarishda batamom erkin harakat qilish va shunga tenglashtirilgan tadbirlarni amalga oshirish talab qilinadi.

II BOB bo‘yicha xulosa

Mamlakatimizda olib borilayotgan faol investisiya siyosati, xo‘jalik yurituvchi sub'ektlarning investisiya faoliyatidagi ishtirokining sezilarli darajada oshganligi hamda xalqaro integratsiya jarayonlarining tobora chuqurlashib borayotganligi investisiyalar hisob va tahlili bo‘lgan zaruratni keskin oshirgan holda yangicha maqsad va vazifalarni belgilashni taqazo etdi. Shu o‘rinda faol investisiya siyosatini yuritishda buxgalteriya hisobi va iqtisodiy tahlilning muammolari va ulardan kelib chiqib investisiyalar hisobi va tahlilining maqsad va vazifalarini belgilash bo‘yicha quyidagi ilmiy xulosa va takliflarni ko‘rsatib o‘tishimiz lozim:

1. Respublikamizda amalga oshirilayotgan faol investisiya siyosati natijasida erishilayotgan ijobiy natijalar va iqtisodiy o‘rinishga ta'siri tahlil qilindi.

2. Investisiyalarni buxgalteriya hisobi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar, me'yoriy-huquqiy hujjatlar va zamonaviy yondashuvlar asosida investisiyalar hisobi muammolarini huquqiy, nazariy, uslubiy va amaliy jihatlarini bo‘yicha tizimlashtirgan holda tavsiflash bu borada olib boriladigan tadqiqotlar samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

3. Investisiyalar hisobi muammolari, hisob tizimining xalqaro standartlarga transformasiyalashuvi borasida islohotlar hamda pandemiya sharoitida yuzaga kelgan iqtisodiy holatdan kelib chiqib, investisiyalarni buxgalteriya hisobi va iqtisodiy tahlil elementi sifatida tadqiq etish zarur.

4. Investitsiyalar hisobining maqsadi belgilanib, ularning buxgalteriya hisobi vazifalarini moliyaviy hisob, boshqaruv hisobi va soliq hisobi talablaridan kelib chiqib, deduktiv yondashuv asosida belgilash hisob tizimi natijadorligini ta'minlaydi.

Nazorat savollari

1. Investitsiyalar hisobining uslubiy muammolari deganda nimani tushunasiz?

2. Investitsiyalar auditi nima?

3. Investitsiyalarni boshqarishdagi asosiy vazifa.

4. Investitsion faoliyatni boshqarish jarayonida subyektini nechta izchil bosqichga ajratish mumkin?

5. Bozor munosabatlari sharoitida buxgalteriya hisobi ichki va tashqi foydalanuvchilari kimlar?

6. Qanday hollarda darhol investitsion qaror qabul qilish mumkin emas?

7. Investitsiyalarni boshqarish tizimida audit va tahlilning roli.

8. Xo'jalik subyektining investitsiya faoliyatini boshqarish tizimida buxgalteriya hisobining tutgan o'ri.

9. Xo'jalik subyektining investitsiya faoliyatini boshqarish tizimida tahlil va auditning tutgan o'ri.

10. Investitsiya faoliyatining subyektini kimlar?

11. Investitsion siyosatni amalga oshirishda buxgalteriya hisobining roli?

12. Investitsiyalarning tarkibiy qismiga nimalar kiradi?

13. Moliyaviy investitsiyalar hisobini zamon talablari darajasida tashkil qilish yo'llari.

14. Korxonalarda moliyaviy investitsiya yuzasidan ko'pgina muammolar tug'ilmoqda. Buning sababi nimada deb o'ylaysiz?

15. Qimmatli qog'ozlarni hisobdan chiqarishga taalluqli hujjatlar.

16. Auditorlik tekshiruvsiz amalda to'g'ri hamda ilmiy asoslangan investitsion qarorlarni qabul qilish mumkinmi?

17. Faoliyat yuritayotgan xo'jalik subyektlarining investitsiya resurslarini boshqarishda buxgalteriyaning ahamiyati.

18. Investitsiyalar hisobining uslubiy muammolari deganda nimani tushunasiz?

19. Investitsiya auditining uslubiy muammolariga izoh bering.

Testlar

1. Uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalarning baholanishi qaysi BHMAga asoslanadi?
 - a) 3-son BHMA
 - b) 11-son BHMA
 - c) 8-son BHMA
 - d) 12-son BHMA
2. Investitsiyalar auditida kamchiliklar sabablarini surishtirish auditorlik dalillarini olishning qaysi turiga bog'liq
 - a) analitik amallar
 - b) hisoblash
 - c) nazorat
 - d) so'rov
3. Investitsiyalar auditini rejalashtirishning asosiy qoidalarini ko'rsating.
 - a) komplekslik, aniqlilik, maqbullik
 - b) to'liqlik, uzluksizlik, maqbullik
 - c) aniqlilik, uzluksizlik, maqbullik
 - d) komplekslik, uzluksizlik, maqbullik
4. Qisqa muddatli investitsiyalarni qaysi buhgalteriya hisobvaraqda hisobi yuritiladi,
 - a) 5000
 - b) 5100
 - c) 5800
 - d) 0600
5. Investorning korxonadagi ulushi 20% dan 50% gacha bo'ganida qaysi usul qo'llaniladi?
 - a) ulushda qatnashish bo'yicha baholash usuli
 - b) tannarx qiymat usuli
 - c) konsolidatsiya usuli
 - d) bozor bahosi

6. O‘z.Res. “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi qonun necha moddani o‘z ichiga olgan?
- a) 69
 - b) 70
 - c) 71
 - d) 72
7. Investitsiya shartnomasi nima?
- a) *investitsiya faoliyati subyektlari o‘rtasida tuziladigan bitim*
 - b) *investitsiya shartnomasi taraflarining huquqlari ko‘rsatilgan bitim*
 - c) *majburiyatlari va javobgarligini belgilaydigan yozma bitim*
 - d) *investitsiya faoliyati subyektlari o‘rtasida tuziladigan, investitsiya shartnomasi taraflarining huquqlari, majburiyatlari va javobgarligini belgilaydigan yozma bitim*
8. Chet el investitsiyalari –bu?
- a) chet eldan kelgan kata sarmoya
 - b) Qimmatli qog‘ozlar
 - c) chet ellik investor tomonidan ijtimoiy soha, tadbirkorlik, ilmiy va boshqa faoliyat turlari obyektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy boyliklar hamda ularga bo‘lgan huquqlar, shu jumladan intellektual mulk obyektlariga bo‘lgan huquqlar, shuningdek reinvestitsiyalar
 - d) to‘g‘ri javob ko‘rsatilmagan.
9. Investitsiya resurslari jumlasiga nimalar kiradi?
- a) pul mablag‘lari va boshqa moliyaviy mablag‘lar
 - b) ko‘char va ko‘chmas mol-mulk hamda ularga bo‘lgan huquqlar;
 - c) intellektual mulk obyektlari
 - d) barcha javoblar to‘g‘ri
10. Auditni rejalashtirish nechanchi AXS asosida tartibga solinadi
- a) 300-son AXS
 - b) 200-son AXS
 - c) 400-son AXS
 - d) 500-son AXS

III bob. KAPITAL INVESTITSIYALARNI BAXOLASH VA UNING AUDITI

Hozirgi paytda O‘zbekiston davlati faol investitsiyaviy siyosatni yuritmoqda, xorijiy sheriklar bilan ishbilarmonlik aloqalarini kengaytirishga tayyorligini namoyish etmoqda. Shu munosabat bilan turli-tuman tabiiy resurslarga ega, infratuzilmasi yaxshi rivojlangan, sanoati ilg‘or va katta texnologiya salohiyatiga ega O‘zbekiston va Yevropa kompaniyalari keng ko‘lamdagi yo‘nalishlar bo‘yicha, shu jumladan, ilg‘or bilimlar transferi hamda qo‘shma loyihalarni ishlab chiqish uchun «nou-xau» sohalarida o‘zaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yishi va kengaytirishi mumkin. Xorijiy investorlar tomonidan asosiy muammolardan biri sifatida qabul qilinadigan mahalliy sheriklar bilan hamkorlik bo‘yicha tajribaning yetishmasligi endi to‘xtatuvchi omil bo‘lib qolmasligi kerak.

Adolfo Romero, *Global konsalting kompaniyasi ESKZ rahbari (Ispaniya)*

3.1. Kapital investitsiyalar hisobining vazifalari

Kapital investitsiyalar hisobining vazifalari kapital investitsiyalar xo‘jalik yurituvchi subyektlar ishlab chiqarish faoliyatining o‘ziga xos shaklidir, u asbob-uskunalarni zamonaviylashtirish, ishlab chiqarish obyektlari va bevosita ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lmagan obyektlarni qayta qurish, ta‘mirlash va asosiy ishlab chiqarish vositalarini kengaytirilgan holda qayta ishlab chiqarishni ta‘minlaydi.

Kapital investitsiyalar asosiy vositalar, takror ishlab chiqarishni kengaytirish hamda ularning sifat tarkibini yaxshilash xarajatlari majmuidir. Kapital investitsiyalar hajmi ishlab turgan korxonalarni qurish, kengaytirish, texnik qayta jihozlash va quvvatlarni saqlash, shuningdek, ishlab chiqarish va ishlab chiqarishga mo‘ljallangan uskuna transport vositalari va asosiy vositalarning boshqa obyektlarini xarid

qilishga mablag' bilan ta'minlashning barcha manbalari hisobiga qilingan xarajatlarning umumiy summasiga ko'ra belgilanadi.

Kapital mablag'lar hajmiga quyidagi sohalarga yo'naltirilgan xarajatlar kiradi:

- qurilish-montaj, loyiha-qidiruv, geologiya-razvedka, bur- g'ulash va boshqa ishlarga qilingan xarajatlar;

- ishlab turgan korxonalarni tiklash, texnik qayta jihozlash va texnika vositalarning quvvatini kengaytirishga qilingan xarajatlar;

- mashina va uskunalarni, ishlab chiqarish va xo'jalik inven- tarlari transport vositalari va asosiy vositalarning boshqa obyektlarini sotib olishga ketgan xarajatlar;

- korxonalar, tashkilot va muassasalar uchun yangi obyektlar qurishga ketgan xarajatlar;

- boshqa shu turdagi xarajatlar.

Kapital investitsiyalarni buxgalteriyada hisobga olishda «Asosiy vositalar» nomli 5-sonli BHMS va «Kapital qurilish uchun pudrat shartnomalari» nomli 17-sonli BHMSdan foydalaniladi.

Kapital investitsiyalarni buxgalteriyada hisobga olishning dolzarb vazifalari quyidagilardan iborat:

- qilingan barcha kapital xarajatlarni obyektlarning turlari bo'yicha to'liq va o'z vaqtida aks ettirishni ta'minlash;

- kapital investitsiyalar rejasi ishlab chiqarish quvvatlari va asosiy vositalar obyektlarini ishga tushirish rejalarining bajarilishi ustidan nazoratni ta'minlash;

- sotib olingan asosiy vosita obyektlarining balans qiymatini to'g'ri belgilash va uning o'z vaqtida kiringa olinishini ta'minlash.

2020-yilning yanvar-mart oylarida O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyot va ijtimoiy sohani rivojlantirish uchun jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 16826,6 mlrd. So'm (dollar ekvivalentida 2,1 mlrd. AQSh doll.) asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirildi va 2019-yilning mos davriga nisbatan 129,4 %ni tashkil qildi. YaIMga nisbatan asosiy kapitalga investitsiyalar 25,9 %ni tashkil etib, 2017-yilning yanvar-martdagi ko'rsatkichga nisbatan 3,3 % punktga ko'paydi.

2020-yilning yanvar-martida jami asosiy kapitalga investitsiyalarning yarmidan ko‘prog‘i, ya‘ni 55,3 %i Respublikaning 3 hududida, jumladan, Buxoro viloyatida 24,7 %, Toshkent shahrida 20,5 % va Qashqadaryo viloyatida 10,1 % o‘zlashtirildi. Qator hududlarda asosiy kapitalga investitsiyalarning yuqori o‘shish sur‘atlari kuzatildi, jumladan, Navoiy viloyatida 2,3 marta (1746,4 mlrd. So‘m), Namangan 2,1marta (1018,7 mlrd. So‘m), Surxondaryo 2,0 marta (1026,4 mlrd. So‘m), Toshkent 144,2 % (1166,7 mlrd. So‘m), Toshkent shahrida 130,7 % (3137,6 mlrd. So‘m) o‘shish sur‘ati kuzatildi.

3.1-jadval

2020-yilning yanvar-martida asosiy kapitalga investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari bo‘yicha taqsimlanishi⁴⁶

T\r	Moliyalashtirish manbalarining nomlanishi	Ajratiladign mablag'lar, mlrd. so‘m
1	2	3
	Jami kapital qo‘yilmalar, shundan:	16826,6
1.	Markazlashgan investitsiyalar:	3603,0
1.1.	Budjet mablag'lari	391,6
1.2.	Davlat maqsadli jamg‘armalari	147,6
1.3.	Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi (so‘m ekvivalentida)	1177,7

⁴⁶2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi. 04/01/2019.

3.1-jadvalning davomi

1	2	3
2.	Markazlashmagan investitsiyalar	13223,6
2.1.	Korxonalar mablag'lari	5107,2
2.2.	Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarzi mablag'lari, shu jumladan:	3489,2
2.3.	To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar (so'm ekvivalentida)	2803,4
2.4.	Aholi mablag'lari	1823,8

O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati Markazlashgan moliyalashtirish manbalar hisobidan 2019-yilning mos davriga nisbatan 163,4 % yoki 3603,0 mlrd. so'm (jami investitsiyalar hajmining 21,4 % yoki o'tgan yilning mos davri ko'rsatkichiga nisbatan 5,5 % punktga) ko'p o'zlashtirildi, mos ravishda markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan- 13223,6 mlrd. so'm yoki 122,6 % (jami investitsiyalardagi ulushi 78,6 %).

2020-yilda moliyalashtirishning turli manbalari hisobidan 14084 ish o'rniga ega jami 1006 ta ishlab chiqarish obyektlari iste'molga kiritildi. Bular:

Tarmoqlar va sohalar	Foydalanishga topshirilgan obyektlar soni	Yaratilgan ishchi o'rinlari
Yog'ochni qayta ishlaydigan soha	41	221
Yengil va tekstil sanoati	235	6658
Mashinasozlik sanoati	17	409
Oziq-ovqat sanoati	352	2550
Qurilish mollari ishlab chiqarish sohasi	278	3234
Qishloq va suv xo'jaligi sohasi	2	7
Farmatsevtika sanoati	4	137
Kimyo sanoati	11	139
Boshqa tarmoqlar	66	729

Olib borilgan tizimli ishlar va oqilona investitsiya siyosati tufayli o'tgan 2011-yildan boshlab o'nlab zamonaviy korxonalar ishga tushirildi. Xususan, «Jeneral Motors Pavertreyn O'zbekiston» qo'shma korxonasida yuqori texnologiyalar asosida avtomobil generatori va kompressorlari ishlab chiqarish bo'yicha quvvatlar barpo etildi, energiyani tejaydigan lampalar ishlab chiqarish bo'yicha uchta loyiha amalga oshirildi.

Shular qatorida «Zenit elektroniks» qo'shma korxonasida «Samsung» kir yuvish mashinalari ishlab chiqarish o'zlashtirildi. Ayni paytda maishiy gaz plitalari, konditsionerlar, elektr chan yutgichlar va bir qancha boshqa mahsulotlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.

3.2. Kapital investitsiyalarni turkumlash

Kapital investitsiyalar hisobini soddalashtirish uchun ularni turkumlab olish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Kapital investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tuzilmasi korxonaning yangi qurilishga, amalda ishlab turgan korxonalarni kengaytirish, tiklash, texnik qayta jihozlash va quvvatlarni oshirishga qilingan xarajatlarning tarkibi va nisbatini anglatadi.

Yangi qurilish obyektlariga quyidagilar kiradi: yangidan bunyod etilayotgan korxonalarining asosiy, yordamchi va ishlab chiqarish obyektlarini, shuningdek, ishga tushirilganidan so'ng mustaqil balansda turadigan bo'linmalar va ayrim korxonalarni tiklash.

Kengaytirish deganda, ishlab turgan korxonada qo'shimcha ishlab chiqarishlarni qurish, shuningdek, korxonada hududida va uning atrofidagi maydonchalarida asosiy, yordamchi va ishlab chiqarish ahamiyatidagi ayrim sexlar va obyektlarni qurish hamda ishlab turganlarini kengaytirish tushuniladi.

Tiklash deganda, ishlab chiqarishni takomillashtirish va uning texnik-iqtisodiy darajasini yangi texnologiyalar asosida qayta qurish tushuniladi.

Texnik qayta jihozlash deganda, ilg'or texnika va texnologiyani joriy etish, ishlab chiqarishni avtomatlashtirish hamda ma'naviy va jismoniy

jihatdan eskirgan asosiy vositalarni zamonaviy, samarali asosiy vositalar bilan almashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuyi tushuniladi.

Quvvatlarni oshirish deganda, ishlab chiqarish jarayonida ishdan chiqqan asosiy vositalarni yangilab turish hamda tiklashga oid ishlar tushuniladi.

Kapital investitsiyalarning texnologik tuzilmasi qurilish va montaj ishlari bilan bog'liq hamda asosiy vositalar obyektlarini sotib olishga, shuningdek, boshqa kapital ishlar va xizmatlar uchun qilingan xarajatlar tarkibi va nisbatini anglatadi.

Qurilish ishlariga asosiy vositalar obyektlarini barpo etish, qurilgan binolar va inshootlarni yoki ularning ayrim qismlarini kengaytirish hamda tiklash va boshqa ishlar kiradi.

Montaj ishlari deganda, texnologiya, energetika, ko'tarish- transport va boshqa jihozlarni yig'ish hamda o'rnatish, ya'ni ularni yig'ib, poydevorga o'rnatgandan keyingina foydalanishi mumkin bo'lgan ishlar tushuniladi.

Jihozlar, asbob-uskuna va inventar xarajatlariga barcha turdagi jihozlar, texnologik jihatdan ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan transport vositalari, laboratoriya uchun jihozlar, ustaxonalar, tajriba uskunalari va shu kabilarning qiymati, ishlab chiqarish asbob-uskunalari va inventarning qiymati kiradi.

Jihozlar, o'z navbatida, montaj talab qiladigan va montaj talab qilmaydigan hamda smeta qiymatiga kiradigan va smeta qiymatiga kirmaydigan jihozlarga bo'linadi.

Boshqa kapital xarajatlar tarkibi kapital mablag'lar hisobidan o'tkaziluvchi loyiha-qidiruv, shuningdek, qurilayotgan korxonalar ma'muriyatini ta'minlashga, ishchilarni uyushgan holda ishga olishga hamda smetada ko'zda tutilgan boshqa xarajatlarni o'z ichiga oladi.

Kapital investitsiyalar vazifasiga ko'ra ishlab chiqarish maqsadlaridagi obyektlar qurilishiga (sanoat, qishloq xo'jaligi, transport, aloqa va shu kabi sohalarga mo'ljallangan) va noishlab chiqarish maqsadlaridagi obyektlar qurilishiga (turar joy, kommunal xo'jalik, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot, xalq ta'limi va shu kabi sohalarga

bo‘lingan) ajratiladi. Bular ayrim obyektlar o‘rtasida smeta qiymatiga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

Ushbu xarajatlarning tegishli ulushi faqatgina qurib bitkazilgan obyektlar qiymatiga qo‘shiladi.

Quruvchi (buyurtmachi) qurilish ishlari qanday usulda olib borilayotganligidan qat'i nazar foyda va zararni alohida-alohida buxgalteriya hisobida yuritishi shart. Olingan jarimalar, penyalar, shuningdek, moddiy boyliklar va xizmatlarni chetga sotishdan kelgan foyda buyurtmachi hisobidagi foyda hisobvarag'iga kiritiladi.

Yil yakuni bo‘yicha zarar aniqlanganida zararining umumiy summasi boshqa kapital ishlar va xarajatlar tarkibidagi obyekt- larning inventar qiymatiga qo‘shiladi.

Ish xo‘jalik usulida olib borilganida qurilish ishlarini amalga oshirishni hisobga olish korxonalar moliyaviy-xo‘jalik faoliyati xarajatlarining amaldagi barcha qoidalariga asoslanadi. Xo‘jalik usulida qurilish-montaj ishlari korxonaning o‘z kuch va vositalari qurilish uchastkasi bilan bajariladi. Xo‘jalik usuli bilan qurilish ishlari olib borilganida, kapital mablag'lar bo‘yicha quyidagicha provodkalar beriladi:

Mol yetkazib beruvchilardan olingan qurilish materiallari qiymatiga:

Dt 1050	«Qurilish materiallari»
Kt 6010	«Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schyotlar»

sotib olingan jihozlar qiymatiga:

Dt 0710	«O‘zimizda ishlab chiqarilgan o‘rnatiladigan asbob-uskunalar»
Kt 6010	«Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schyotlar»

sotib olingan qurilish materiallari va jihozlarning qiymatini to‘lashga:

Dt 6010	«Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schyotlar»
Kt 5110	«Hisob-kitob schyoti»

qurilish uchun sarflangan materiallar qiymatiga:

Dt 0810	«Tugallanmagan qurilish»
Kt 1050	«Qurilish materiallari»

montajga berilgan jihozlar qiymatiga

Dt 0810	«Tugallanmagan qurilish»
Kt 0710	«O‘zimizda ishlab chiqarilgan o‘rnatiladigan asbob-uskunalar»

quruvchilarga berilgan ish haqi summasiga:

Dt 0810	«Tugallanmagan qurilish»
Kt 6710	«Xodimlar bilan mehnatga haq to‘lash bo‘yicha hisoblashishlar»

ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar summasiga:

Dt 0810	«Tugallanmagan qurilish»;
Kt 6520	«Davlat maqsadli fondlariga to‘lovlar»;

ish haqidan ushlab qolinadigan soliqlarga:

Dt 6710	«Xodimlar bilan mehnatga haq to‘lash bo‘yicha hisoblashishlar»
Kt 6410	«Budjetga to‘lovlar yuzasidan qarzlilar»

budjetga o‘tkazilgan soliqlar summasiga:

Dt 6410	«Budjetga to'lovlar yuzasidan qarzar»
Kt 5110	«Hisob-kitob schyoti»

quruvchilarga ish haqi to'lash uchun bankdan olingan pul mablag'lariga:

Dt 5010	«Milliy valutadagi pul mablag'lari»
Kt 5110	«Hisob-kitob schyoti»

quruvchilarga ish haqi to'langanida:

Dt 6710	«Xodimlar bilan mehnatga haq to'lash bo'yicha hisoblashlar»
Kt 5010	«Milliy valutadagi pul mablag'lari»

Qurilish ishlari tugaganidan so'ng asosiy vositaning boshlan- g'ich qiymatini aniqlash chog'ida 0810-«Tugallanmagan qurilish» hisobvarag'i debetidagi ma'lumotlar jamlanmali, so'mga asosiy vositalarni hisobga oluvchi hisobvaraqlarga o'tkaziladi: Dt 0120-«Imorat, inshoot va uzatuvchi moslamalar» hisobvaraqlaridan 9430-«Boshqa operatsion xarajatlar» hisobvarag'ining debetiga hisoblab chiqarilgan.

Ish pudrat usulida olib borilganida buyurtmachilar qurilish ishlari bajarish uchun pudratchi tashkilotlarni jalb etib, ular bilan qurilishning butun davri uchun pudrat shartnomalari tuzadi.

Kapital qurilishlar pudrat usulida bajarilganida sarflanadigan kapital mablag' xarajatlarini hisobga olib borishda «Kapital qurilish uchun pudrat shartnomalari» nomli 17-sonli BHMSga asoslanish lozim. Ushbu andozaning 4-bandiga muvofiq, qurilish pudrat shartnomasi-buyurtmachining topshirig'iga asosan pudratchi qurilish ishlari bajarish majburiyatini tavakkal qilib zimmasiga oladigan, buyurtmachi bajarilgan ishni qabul qilib oladigan va haqini to'laydigan shartnoma.

Qurilish pudrat shartnomasida shartnomada ishtirok etuvchi barcha tomonlarning huquq va majburiyatlari ko'rsatiladi.

Qurilish ishlari pudrat usulida bajarilganida qurilishga ketadigan xarajatlarni pudratchi hisobga olib boradi. Buyurtmachi qurilish sifatini nazorat qiladi hamda qurib o'tkazilgan obyektlarni 2-shakl-«Qurilishi tugagan obyektidagi bajarilgan ishlarni qabul qilish dalolatnomasi» bo'yicha foydalanishga qabul qilib oladi. Dalolatnomaga «Ajratilgan qurilish ishlari qiymati haqidagi ma'lu- motnoma» ilova qilinadi.

Bajarilgan va belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan qurilish ishlari va jihozlarni montaj qilish bo'yicha ishlarni pudratchi tashkilotlar hisobvaraqlariga ko'ra to'lov uchun bank tomonidan qabul qilingan smeta qiymati yoki shartnoma narxi bo'yicha buyurtmachi quyidagi buxgalterlik yozuvlarida aks ettiradi:

Dt 0810	«Tugallanmagan qurilish»
Kt 6010	«Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to'lanadigan schyotlar»

pudratchilarga to'lanadigan summaga:

Dt 6010	«Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to'lanadigan schyotlar»
Kt 5110	«Hisob-kitob schyoti»

bankning uzoq muddatli kreditlari hisobiga pudratchiga o'tkaziladigan summaga:

Dt 6010	«Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to'lanadigan schyotlar»
Kt 7810	«Uzoq muddatli kreditlar»

Kapital qurilish ishlari olib borilayotgan obyektlarda o'rnatiladigan asbob-uskunalar qay yo'sinda olib borilishidan qat'i nazar 0710-«O'zimizda ishlab chiqarilgan o'rnatiladigan asbob-uskunalar» hisobvarag'i va 0720-«Xorijdan olingan o'rnatiladigan asbob-uskunalar» hisobvaraqlariga ko'ra sotib olinadi va hisobga olinadi.

Yig'ish-o'rnatishni talab qiluvchi asbob-uskunaga ularning qismlari yig'ilganidan so'ng, fundamentga, ustunga, polga va imorat hamda

inshootlarning boshqa konstruksiyalariga mustah- kamlangandan keyin ishga tushiriladigan ko‘tarma asbob-uskunalar, shuningdek, bunday asbob-uskunalarining ehtiyot qismla- rining ko‘tarmalari kiradi. Bunday asbob-uskunalar tarkibiga, shuningdek, nazorat-o‘lchov apparatlari va o‘rnatiladigan asbob- uskuna tarkibiga yig‘ish-o‘rnatilish uchun mo‘ljallangan boshqa asboblar kiradi.

Asbob-uskuna o‘rnatiladigan asbob-uskunalarini hisobga oluvchi hisobvaraqlarda xarid qilish (tayyorlash) baholari bo‘yicha qiymati va bu boylklarni korxonaga yetkazish va tayyorlov xarajatlaridan tashkil topgan xarid qilish (tayyorlash)ning haqiqiy tannarxi bo‘yicha hisobga olinadi.

Mol yetkazib beruvchilardan olingan, montajni talab qiladigan jihozlarning qiymatiga quyidagicha provodka beriladi:

Dt 0710	«O‘zimizda ishlab chiqarilgan o‘rnatiladigan asbob- uskunalar»
Kt 6010	«Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘la- nadigan schyotlar»

belgilangan tartibda montaj qilish uchun berilgan jihozlar summasiga:

Dt 0810	«Tugallanmagan qurilish»
Kt 0710	«O‘zimizda ishlab chiqarilgan o‘rnatiladigan asbob- uskunalar»

Asosiy vositalar, nomoddiy aktivlarni sotib olishga, shuningdek, asosiy podani shakllantirishga va boshqa kapital investitsiyalarga kiradigan haqiqiy xarajatlar aks ettiriladi. Ushbu hisobvaraqlar kredit 0810-0890-«Kapital investitsiyalar» hisobvaraqlari xarajatlari 0110-0190-«Asosiy vositalar», 0410-0400-«Nomoddiy aktivlar» hisobvaraqlarini hisobdan chiqarish operatsiyalari orqali amalga oshiriladi.

0810-0890-«Kapital investitsiyalar» hisobvaraqlari bo‘yicha saldo korxonaning tugallanmagan qurilishga kapital investitsiyalari miqdorini

va asosiy vositalar sotib olinishini, shuningdek, boshqa tugallanmagan xarajatlar summasini aks ettiradi.

0810-«Tugallanmagan qurilish» hisobvarag'ida imorat va inshootlar barpo etish, kapital qurilish smetalarida loyiha-smeta hisoblarida, titul ro'yxatlarida ko'zda tutilgan asbob-uskunalarni, vositalarni, inventarlarni va boshqa jihozlarni xarid qilish, boshqa sarf-xarajatlar hisobga olinadi.

0820-«Asosiy vositalarni sotib olish» hisobvarag'ida asosiy vositalarni xarid qilish yoki korxonaning o'zida asosiy vositalar obyektlarini yaratish bilan bog'liq barcha xarajatlar hisobga olinadi.

0830-«Nomoddiy aktivlarni sotib olish» hisobvarag'i va nomoddiy aktivlarni xarid qilish yoki korxonaning o'zida nomoddiy aktivlar obyektlarini yaratish bilan bog'liq barcha xarajatlar hisobga olinadi.

0840-«Asosiy podani shakllantirish» hisobvarag'iga asosiy podaga o'tkaziladigan xo'jalikdagi yosh mahsuldor va ishchi hayvonlarni o'stirish bo'yicha xarajatlar, asosiy poda uchun xarid qilingan katta yoshdagi va ishchi hayvonlarning qiymati, hayvonlarni yetkazib berish bilan bog'liq sarf-xarajatlarni ham qo'shgan holda, boshqa korxonalaridan bepul olingan katta yoshdagi hayvonlarni xo'jalikka olib kelish bilan bog'liq sarflar hisobga olinadi. Asosiy podaga o'tkaziladigan yosh hayvonlar haqiqiy tannarx bo'yicha baholanadi. Asosiy podaga o'tkaziladigan yosh mahsuldor va ishchi hayvonlar barcha turlarining qiymati yil davomida 1110-«O'stirishdagi va boquvdagi hayvonlar» hisobvarag'idan 0840-«Asosiy podani shakllantirish» hisobvarag'i debetiga yil boshidagi balans qiymati bo'yicha hisobga olingan, yil boshidan to hayvonlarni asosiy podaga o'tkazish paytiga qadar bo'lgan davrda ortgan vazni yoki o'sgan vaznining reja tannarxini qo'shgan holdagi qiymati bo'yicha hisobdan chiqariladi.

Chetdan xarid qilingan katta yoshdagi hayvonlarning qiymati 0840-«Asosiy podani shakllantirish» hisobvarag'i debetiga ularni xarid qilishning haqiqiy tannarxi bo'yicha yetkazib berish sarflari qo'shilgan holda kirim qilinadi.

Asosiy podani tashkil etishning tugallangan muomala bo'yicha xarajatlari 0840-«Asosiy podani shakllantirish» hisobvarag'idan 0170-«Ishchi hayvonlar va mahsuldor hayvonlar» hisobva- raqlarining debetiga hisobdan chiqariladi. 0850-«Yerni obodon- lashtirishga kapital investitsiyalar» hisobvarag'ida yer maydonini takomillashtirish bo'yicha korxonaning kapital xarajatlari, shu jumladan, kirish yo'llari, avtomobillar va boshqa transport vositalarini qo'yish joylari, manzaralar va to'siqlar boshqa turlarining qiymati aks ettiriladi.

0860-«Uzoq muddatli ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarga kapital investitsiyalar» hisobvarag'ida ijaraga olingan mulkni obodonlashtirish, shuningdek, uni ta'mirlash va modernizatsiyalashga kapital mablag'lar hisobga olib boriladi.

Kapital investitsiyalarni hisobga oluvchi hisobvaraqlarning debeti bo'yicha asosiy vositalar obyektlarining dastlabki qiymatiga o'rnatilgan tartibda kiritiladigan, quruvchilarning ushbu obyekt uchun haqiqatda sarflangan barcha xarajatlari, shuningdek, korxonaning asosiy vositalarni, nomoddiy aktivlarni xarid qilish, asosiy podani tashkil qilish va boshqa kapital investitsiyalar bilan bog'liq xarajatlar aks ettiriladi.

Asosiy vositalarni sotib olish va qurilish bilan bog'liq, lekin o'rnatilgan tartibda asosiy vositalarning dastlabki qiymatiga kiritilmaydigan xarajatlar kapital investitsiyalarni hisobga oluvchi hisobvaraqlardan sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot, xalq ta'limi va shu kabi sohalarga mo'ljallangan obyektlarga ajratiladi.

Kapital investitsiyalar ishlarni bajarish usuliga ko'ra pudrat va xo'jalik usulida bajariladigan kapital investitsiyalarga bo'linadi.

Pudrat usulida qurilish-montaj ishlarini ixtisoslashtirilgan pudrat qurilish-montaj tashkilotlari olib boradi, bunda ikki tomon - bosh pudratchi va buyurtmachi aloqaga kirishib, ularning o'zaro munosabatlari pudrat shartnomasi bilan belgilanadi.

Xo'jalik usulida qurilish-montaj ishlari korxonaning o'z kuch va vositalari (qurilish uchastkasi) bo'yicha bajariladi.

Kapital investitsiyalar mablag' bilan ta'minlash investitsiyalari (korxonada foydasi, zaxiralar va shu kabilar) hisobidan, chetdan jalb qilingan qarz mablag'lari (bank krediti, turli xil yuridik va jismoniy

shaxslarning qarz mablag'lari) hisobidan hamda chetdan jalb qilingan qaytarilmaydigan mablag'lar (davlat hamda xalqaro xorijiy tashkilotlarning grantlari va boshqa qaytarilmaydigan mablag'lar) hisobidan qoplanishi mumkin.

3.3. Kapital investitsiyalarni baholash va buxgalteriyada hisobga olish

Kapital investitsiyalar va u bilan bog'liq barcha xarajatlarni buyurtmachi, ya'ni o'zi uchun qurayotgan va shu qurilishni mablag' bilan ta'minlayotgan korxonaga hisobga olib boradi. Yangi korxonaga qurilayotganida qurilayotgan korxonaning ma'muriyati ana shunday tashkilot bo'ladi, amalda ishlab turganda esa - kapital qurilish bo'limi orqali ish tutayotgan korxonaning o'zi ana shunday tashkilot bo'ladi.

Kapital investitsiyalarning hisobi amaldagi xarajatlar va smeta qiymati bo'yicha ularning turlari asosida umuman qurilish bo'yicha ham, ayrim obyektlar bo'yicha ham, qurilish boshlangan yildan e'tiboran o'sib boruvchi yakunlar bilan obyektlar ishga tushirilguniga qadar yoki tegishli ishlarning to'la-to'kis bajarilib, xarajatlarning hisobdan chiqarilgunigacha yuritiladi.

Kapital investitsiyalar bo'yicha xarajatlarning analitik hisobi 18-«Kapital mablag' xarajatlari» qaydnomasida yuritiladi. Mazkur qaydnomaga yil choragi, yarim yil yoki yil uchun ochiladi. Qaydnomaga barcha hisobvaraqlarni qo'shish, ishlab chiqarishga tegishli va ishlab chiqarishga tegishli bo'lmagan obyektlar bo'yicha xarajatlarni alohida ajratib ko'rsatish, bular ichida esa yangi qurilish, kengaytirishni, tiklash va texnik jihatdan qayta jihozlashni alohida ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

18-qaydnomaga birlamchi hujjatlar (to'lov topshiriqnomalari va to'lov talabnomalari, materiallar berish uchun yukxatlar), xarajatlarni taqsimlash qaydnomalari, ishlanma jadvallar kabi hujjatlar asosida to'ldiriladi.

Kapital investitsiyalarning sintetik hisobi 1b-jurnal orderda yuritiladi.

Korxonaning asosiy vositalariga va nomoddiy aktivlariga investitsiyalar haqida, shuningdek, mahsuldor va ishchi hayvonlarning

(qiymatidan qat'i nazar korxonaning aylanma mablag'lariga kiruvchi parrandalar, quyonlardan, asalarilardan, yo'l va qo'riqlovchi itlar, tajriba ostidagi itlardan tashqari) asosiy podasini tashkil qilish bo'yicha xarajatlar haqidagi axborotlar quyidagi hisobvaraqlarda umumlash-tiriladi: 0810-«Tugallanmagan qurilish»; 0820-«Asosiy vositalarni sotib olish»; 0830-«Nomoddiy aktivlarni sotib olish»; 0840-«Asosiy podani shakllantirish»; 0850-«Yerni obodonlashtirishga kapital investitsiyalar»; 0860-«Uzoq muddatli ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarga kapital investitsiyalar»; 0890-«Boshqa kapital investitsiyalar».

Ushbu hisobvaraqlar aktiv hisoblanadi. Hisobvaraqlarning debetida asosiy vosita obyektlarini qurishga ketgan haqiqiy xarajat- lar aks ettiriladi.

Kapital investitsiyalar haqida qaror qabul qilish loyihalarni investitsiya qilishga taalluqli bo'lgan uzoq muddatli qarorlar qabul qilishdir. Ushbu qarorlarni qabul qilish kapital qo'yilmalar smetasini tuzish va ular xarajatlarini qoplashni baholash jarayoni bilan bog'liq. Ushbu jarayon quyidagi yo'nalishlarda qo'llaniladi:

- 1) kompaniya qaysi investitsiya loyihasini tanlashi bilan bog'liq;
- 2) ushbu loyiha amalga oshishi uchun kompaniya sarflaydigan umumiy kapital qo'yilmalar summasi;
- 3) loyihalar portfelini qanday moliyalashtirish bilan bog'liq.

Kapital investitsiyalarni baholash jarayoni:

1. Korxonaga strategiyasiga mos keluvchi investitsiya yo'nalish- larini izlab topish.
2. Keyingi ishlanmalar uchun eskiz loyihalarini tayyorlash.
3. Dastlabki baholash va tatbiq etiladigan variantlar asosida izchil loyihalar ishlab chiqish.
4. Variantlarni baholash.
5. Variantlarni qabul qilish yoki inkor etish to'g'risida qaror qabul qilish.

Xarajatlarni qoplash usuli kapital qo'yimlardan pul mablag'lari kelib tushish vaqtini belgilab beradi. Agar kapital qo'yimlardan kelib tushuvchi sof pul tushumi har yili o'zgaras bo'lsa, unda xarajatlarni

qoplash davri dastlabki investitsiya qiymatini (summasini) yillik sof pul tushumiga bo'lish bilan aniqlanadi:

Dastlabki investitsiya

Xarajatlarni qoplash usuli = -----

Har yilgi sof pul tushumi

Misol:

Loyiha bo'yicha dastlabki investitsiya miqdori-100 000 sh.b. Har yilgi sof pul tushumi-20 000 sh.b. Bunda xarajatlarni qoplash davri quyidagiga teng:

5 yil = 100 000/20 000 agar har yilgi sof pul tushumi bir xilda bo'lmasa, unda har yilgi sof pul tushumlarining dastlabki qiymatiga yetarli bo'lguncha (oshguncha) hisoblab boriladi.

Misol:

Dastlabki Sof pul tushumi

investitsiya 1-yil 2-yil 3-yil 4-yil 5-yil

100 000 sh.b 40 000 sh.b. 40 000 sh.b. 30 000 sh.b. 35 000 sh.b. 45 000 sh.b Bunda dastlabki investitsiya qiymati qanchada qoplanishini aniqlash kerak bo'lganligi uchun bizning misolimizda 1-yilda 40 000, 2-yilda ham 40 000 pul kelib tushgan. Dastlabki investitsiyani qoplash uchun bizga 3-yilda 20 000 yetarli bo'lar edi, lekin bizning misolimizda 3-yilda 30 000 pul kelib tushgan. Xarajatlarni qoplash davrini aniq hisoblash uchun quyidagicha hisoblaymiz:

Xarajatlarni

qoplash = 2 yil + 20 000 /30 000 = 2.666

davri (40 000+40 000 = 80 000)

Demak, bizning misolimizda xarajatlarni qoplash davri 2,666 yilga teng ekan.

Agar alternativ loyihalar mavjud bo'lsa, unda xarajatlarni qoplash davri eng kam bo'lgan loyiha tanlanadi.

Misol:

Loyiha Dastlabki investitsiya Sof pul tushumi

1-yil 2-yil 3-yil 4-yil

A 100 000 60 000 sh.b. 40 000 sh.b.

B 100 000 40 000 sh.b.40 000 sh.b. 20 000 sh.b. 50 000 sh.b.

Xarajatlarni qoplash qiymati: loyiha A = 2 yil, loyiha B = 3 yil.

Xarajatlarni qoplash usuliga muvofiq A loyihasi qabul qilinadi, vaholanki, B loyihasida sof tushumlar qiymati ancha katta bo'lsa ham. Xarid qiymati usulining kamchiligidan biri bu pulning vaqt bo'yicha qiymatini inkor etishidir. Ushbu usulning kamchiliklaridan yana biri xarajatlarni qoplash davridan keyingi pul tushumlari inkor etiladi.

Xarajatlarning hisob koeffitsienti hisob daromadiga asoslangan bo'lib, loyiha bo'yicha o'rtacha yillik daromadni dastlabki investitsiyalar miqdoriga bo'lish bilan topiladi:

$$\text{Hisob koeffitsiyenti} = \frac{\text{O'rtacha yillik daromad}}{\text{Dastlabki investitsiya}}$$

Misol:

Loyiha bo'yicha investitsiya-10 000 sh.b. Loyihani tatbiq qilishning 5 yillik muddatidagi umumiy daromadi 75 000 sh.b. ni tashkil etdi.

Bu esa o'rtacha yillik daromad 15 000 sh.b. ekanini bildiradi (75 000/5 yil=15 000).

$$\text{Xarajatlarni qoplashning hisob koeffitsienti:} = \frac{15\,000 \text{ sh.b.}}{100\,000 \text{ sh.b.}} = 15\%$$

Ushbu usulning kamchiliklaridan biri pulning vaqt bo'yicha qiymatini inkor qilishidir.

3.4. Qurilishi tugallangan obyektlarni hamda tugallanmagan qurilishni hisobga olish

Barcha qurilish-montaj ishlari tugallanib, qabul qilish dalolatnomalari bilan rasmiylashtirilib, tasdiqlangan holdagina qurilish tugallangan hisoblanadi.

Bajarilgan ishlar qabul qilib olinganidan so'ng, qurib bitkazilgan obyektlar foydalanishga topshiriladi. Mazkur qabulni maxsus qabul komissiyasi o'zining qurilishi tugallangan kapital mablag' obyektlarini qabul qilish dalolatnomasi orqali amalga oshiradi.

Dalolatnoma buxgalteriyaga beriladi hamda obyektning inventar qiymatini belgilashda, uni asosiy vositalar tarkibiga kiritishda hamda tegishli moliyalashtirish manbalaridan olingan mablag'larni hisobdan chiqarishda asos bo'lib xizmat qiladi.

Qurilishi tugallangan obyektning asosiy vositalar tarkibiga kiritishda uning inventar qiymati aniqlanadi. Inventar qiymat barpo etiladigan qurilish, tiklash yoki sotib olingan obyektlarga tegishli jami xarajatlardir.

Binolar va inshootlarning inventar qiymati qurilish ishlari xarajatlari va ularga tegishli bo'lgan boshqa kapital ishlar va xarajatlardan tarkib topadi.

Boshqa kapital ishlar va xarajatlardan to'g'ridan to'g'ri obyektlarning inventar qiymatiga qo'shiladi.

Obyektlarning asosiy vositalar tarkibiga kiritishda quyidagicha provodka beriladi:

Dt 0120-«Imorat, inshoot va uzatuvchi moslamalar»;

Kt 0810-«Tugallanmagan qurilish».

Amalga oshirilmagan va to'xtatib qo'yilgan kapital qurilish xarajatlari belgilangan tartibda hisobdan chiqarishga ijozat olinishiga qarab, asosiy vositalarning qiymatini oshirmaydigan xarajatlardan sifatida hisob va hisobotlarda aks ettirilib, quruvchi (buyurtmachi) balansidan chiqariladi:

Dt 9400-«Davr xarajatlari schyotlari»;

Kt 0810-«Tugallanmagan qurilish».

Hisobot davri yakunida korxonada tugallanmagan qurilish alohida hisobga olinadi. Tugallanmagan qurilish obyektlariga quyidagilar kiradi:

- qurilishi davom etayotgan obyektlar;
- qurilishi to'xtatib qo'yilgan, vaqtincha to'xtatilgan yoki uzil-kesil to'xtatilgan obyektlar;
- garchi ishga tushirilgan bo'lsa-da, ammo hozircha qabul qilish dalolatnomalari tasdiqlanmagan obyektlar.

Buxgalteriya hisobida tugallanmagan qurilish 0810-«Tugallanmagan qurilish» hisobvarag'ining saldosi aks ettiriladi.

3.5. Kapital investitsiyalar auditi

Asosiy vositalarni ta'mirlashga doir muomalalarni tekshirish chog'ida auditor hujjatlar rasmiylashtirilishining to'g'rililigiga alohida e'tibor qaratishi lozim. Bunda dastavval, mazkur masala bo'yicha korxonada qanday hisob siyosati qabul qilinganligini aniqlashi zarur. Bu narsa tekshiruvni davom ettirish ketma- ketligini belgilaydi. Korxonalarda asosiy vositalarni ta'mirlashga doir xarajatlar quyidagicha hisobdan o'chirilishi mumkin:

- xarajat me'yoriga qarab bevosita mahsulot (ish, xizmat)lar tannarxiga;
- asosiy vositalarni ta'mirlash uchun yaratilgan fond hisobidan;
- xarajatlarni oldin 3190-«Boshqa oldindan to'langan xarajatlar» schyotiga olib borib, keyinchalik bir me'yorda tannarxga qo'shib borish.

Agar hisob siyosatiga muvofiq korxonada asosiy vositalarni ta'mirlash uchun rezerv tashkil etiladigan bo'lsa, unda auditor rezerv uchun ajratmalar summasining iqtisodiy asoslanganligini, asosiy vositalarning turlari bo'yicha (binolar, inshootlar, qurilmalar va hokazo) ajratmalar miqdori ko'zda tutilganligi yoki ajratmalar yagona me'yori belgilanadi, har oyda rezerv hisoblash tamoyiliga rioya qilinishini aniqlaydi.

Ta'mirlash uchun qilingan haqiqiy xarajatlar yaratilgan rezerv hisobiga hisobdan o'chiriladi. Shuning uchun auditor yil oxirida (ta'mirlash ishlari tugallangan hollarda) oshiqcha hisoblangan rezerv to'g'rilanganligi (storno qilinganligi) ga ishonch hosil qilishi lozim.

Asosiy vositalarni ta'mirlashga doir muomalalarning buxgalteriya hisobi schyotlarida aks ettirilishini tekshirish chog'ida auditor, ishlab chiqarishga doir asosiy vositalarni ta'mirlash xarajatlari tannarxga olib borilganligi, noishlab chiqarishga doir asosiy vositalarni esa o'z manbalari hisobiga hisobdan o'chirilganligiga ishonch hosil qilishi lozim. Shuningdek, auditor ta'mirlash ishlari qaysi usul (puدرات yoki xo'jalik usuli) bilan amalga oshirilganligini ham tekshiradi.

Agar hisobot davrida lizingga olingan asosiy vositalar ta'mirlangan bo'lsa, ta'mirlash turini (joriy yoki kapital) lizing shartnomasiga kapital

ta'mirlash ko'zda tutilganligi va xarajatlar kimning hisobidan qoplanishini tekshirishi zarur.

Korxonalar hisobot davrida asosiy vositalar obyektlarini zamonaviylashtirish va qayta jihozlash uchun ham xarajatlar qilishi mumkin. Auditor bu holda qilingan xarajatlar 0890-«Boshqa kapital sarflar» schyotida hisobga olinganligini, ta'mirlash ishlari yakunlanganidan so'ng asosiy vositalar dastlabki qiymati oshganligini, korxonada qo'shilgan kapitalning ko'payishi hisobda ko'rsatilganligini tekshiradi.

Korxonada asosiy vositalarni ta'mirlash bilan bog'liq barcha xarajatlarni ishlab chiqarilgan mahsulot (bajarilgan ish, ko'rsatilgan xizmat) lar tannarxiga kiritadi, bu pirovardida moliyaviy natijaning shakllanishiga, shuningdek, korxonaning foydadan budjetga to'lovlar bo'yicha budjet bilan o'zaro munosabatlariga ham ta'sir etadi.

Auditor, eng avvalo, bu masala bo'yicha ham korxonalar qanday hisob siyosati qabul qilinganligini aniqlashi lozim. Ayrim korxonalar kelgusi yil uchun hisob siyosatini qabul qilishda ta'mirlash xarajatlarini har oyda haqiqiy xarajatlar hajmida hisobdan o'chiradigan tartibni qo'llaydilar. Boshqa korxonalar ta'mirlash fondi yaratadilar (ta'mirlashning barcha turlari uchun rezervga mablag' ajratadi), haqiqatda bajarilgan ta'mirlash ishlari uchun qilingan xarajatlarni esa tashkil etilgan fond hisobiga hisobdan o'chiradilar.

Birinchi holatda ta'mirlashga doir barcha xarajatlar ta'mirlash qaysi hisobot davrida amalga oshirilgan bo'lsa, bevosita shu davrdagi ishlab chiqarish xarajatlariga qo'yilishi lozim; ikkinchi holatda korxonada balansida turgan asosiy vositalarning dastlabki qiymatiga nisbatan foiz hisobida ta'mirlash fondiga ajratmalar normativi hisoblab chiqariladi.

Odatda, hisob yuritish siyosatining birinchi variantini kichik va o'rta biznes korxonalari, ikkinchisini esa asosiy vositalari mulklar (aktivlar)ning salmoqli qismini tashkil etadigan yirik korxonalar qo'llaydi.

Auditor ta'mirlash xarajatlarini ishlab chiqarish xarajatlariga qo'shishning to'g'riligini korxonada qabul qilingan hisob yuritish

siyosatidan kelib chiqib, uning o'zgarish hollarida esa sababini va ushbu vaziyatning moliyaviy natijaga ta'sirini tekshirishi lozim.

Asosiy vositalarga eskirishni hisoblash va ta'mirlash bo'yicha korxonada qanday hisob yuritish siyosati qabul qilinganligini aniqlash uchun 8910-«Kelgusidagi xarajatlar va to'lovlar uchun rezervlar» schyotining ma'lumotlari bilan tanishish zarur. Agar 8910 schyotida alohida «Ta'mirlash fondi» degan analitik schyot ajratilgan bo'lsa, ushbu fondga qilingan ajratmalarning hajmi qanchalik asoslanganligi (iqtisodiy hisob-kitoblar bilan tasdiqlanganligi) ga ishonch hosil qilish zarur. Ajratmalar hajmi asosiy vositalar turlari bo'yicha tabaqalangan yoki ajratmalarning yagona me'yori o'rnatilgan bo'lishi mumkin. Agar yagona normativni qo'llash, auditor nuqtayi nazaridan, tannarxning asosiy ko'tarilishi va soliqqa tortiladigan bazaning pasayishiga olib kelsa, u bunday holatni auditor hisobotida ko'rsatib o'tishi lozim.

Masalan, ta'mirlash fondiga ajratmalarning yagona normasida, bino va inshootlarning qiymati umumiy balansda salmoqli o'rin tutsa, auditor keyingi yillarda qanday ajratmalar me'yori qo'llanilganini ko'rib chiqishi lozim. Asosiy vositalar (binolar, inshootlar, transport vositalari, mashinalar va qurilmalar) ning xizmat qilish muddatlari xilma-xil, shuning uchun amortizatsiya ajratmalarining yagona normalarini qo'llash unchalik to'g'ri emas. Boshqa tomondan, mashina va qurilmalarni har xil ish smetalarida, alohida texnologik muhit va shunga o'xshash yuqori darajada eskirishga olib keladigan sharoitlarda ishlatish ham ta'mirlash fondiga qilinadigan ajratmalarni tezlashtirishni taqozo etadi.

Pudrat shartnomasi bo'yicha hisoblangan summalar, ijtimoiy sug'urta fondi(ISF)ga ajratmalar va transport solig'idan tashqari mehnat haqi sarflari (budjetdan tashqari fondlarga ajratmalar bilan birgalikda) kabi xarajatlarga qo'shiladi. Auditor ta'mirlash fondiga ajratmalar normativlarining texnik-iqtisodiy asosi (hisob-kitobi) ning mavjudligi va har oylik ajratmalar qilishda ularga rioya qilinganligiga ishonch hosil qilishi lozim.

Podrat usulida bajarilgan ta'mirlash ishlari auditining xususiyatlari. Bu holda ta'mirlash ishlari tuzilgan shartnomalar asosida pudratchi tashkilotlar tomonidan bajariladi.

Bunda 6010-«Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to'lanadigan schyotlar» schyotida aks ettirilgan, korxonaning ta'mirlash tashkilotlari bilan hisob-kitoblari tekshirish obyektlari hisoblanadi.

Shuningdek, ta'mirlash ishlari tadbirkor jismoniy shaxslar yoki tadbirkor bo'lmaganlar bilan tuzilgan pudrat shartnomalariga asosan ham bajarilishi mumkin. Sarflarni ishlab chiqarish xarajatlariga qo'shish faqat ta'mirlash ishlarini bajarish smetasi shartnoma bilan ko'zda tutilgan holatdagina mumkin. Agar bunday bo'lmaganda, jismoniy shaxslar bilan tuzilgan pudrat shartnomalari bo'yicha bajarilgan ishlar uchun qilingan xarajatlar korxonaning sof foydasi hisobiga hisobdan o'chirilishi lozim. Jismoniy shaxslardan budjetga daromad solig'i ushlanishi va o'tkazib berilishi lozim.

Xo'jalik usulida bajarilgan ta'mirlash ishlari auditining xususiyatlari. Avval ta'kidlab o'tilganidek, ta'mirlash fondi tashkil etmaydigan ko'pchilik korxonalar barcha qilgan xarajatlarini ularning sarf qilinish me'yoriga qarab mahsulot ishlab chiqarish (ish bajarish, xizmat ko'rsatish) xarajatlariga qo'shadilar. Katta va o'rta korxonalarda maxsus ta'mirlash xizmatlari (sexlar, uchastkalar) bo'lishi mumkin.

Bunday bo'linmalarining xarajatlari amalda ta'mirlash turlari: joriy, o'rta, kapital ta'mirlash bo'yicha 2310 «Yordamchi ishlab chiqarishlar» schyotining «Ta'mirlash ustaxonasi» analitik schyotida oldindan yig'ilib ta'mirlash ishlari tugallanganidan keyin korxonada qabul qilingan hisob yuritish siyosatiga ko'ra 2310 schyot kreditidan ishlab chiqarish schyotlari (2010, 2510) ning debetiga yoki ta'mirlash fondi (8910 schyoti «Ta'mirlash fondi» analitik schyoti) hisobiga hisobdan o'chiriladi. Kapital va o'rta ta'mirlash uchun smetalar tuzilgan bo'lishi lozim. Bularning hammasi auditor tomonidan tekshiriladi. U xo'jalik muomalalarini hujjatlashtirish tartibi bilan tanishib chiqishi kerak. Dastlabki hujjatlar (materiallarni olish uchun talabnoma va shu kabilar) da xarajatlarning yo'nalishi, ya'ni ta'mirlash ishlari ko'rsatilishi lozim.

Auditor korxonaga ma'muriyatiga nuqson (defekt)lar vedomostiga asosan tuziladigan, choraklarga bo'lingan ta'mirlash ishlarini o'tkazishning 1 yillik rejasini tuzishni tavsiya qilishi mumkin.

Bu tadbirlar, o'z navbatida, korxonalariga ta'mirlash maqsadida mablag'lardan samarali foydalanish ustidan nazoratni kuchaytirishga imkon yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, asosiy vositalarni malakali auditorlik tekshiruvidan o'tkazish, sifatli auditorlik hisoboti va auditorlik xulosasi tuzish uchun ushbu hisob obyektini har tomonlama sinchiklab tekshirish, ma'lumotlarni tahlil qilish, shuningdek, bu ishga kirishishdan oldin asosiy vositalar hisobiga doir barcha me'yoriy hujjatlar hamda boshqa zarur manbalardan iborat ma'lumotlar to'plamini shakllantirish orqali auditor malakali tekshiruv o'tkazib, korxonaga (mijozga) sifatli xizmat ko'rsatishi va qimmatli maslahatlar berishga erishishi mumkin.

III BOB bo'yicha xulosa

Kapital qo'yilmalar hisobi, tahlili va uning auditini takomillashtirish borasida olib borilgan ilmiy izlanishlar natijalari quyidagi xulosalar qilishga imkon beradi:

1. Respublikamiz va xorijlik iqtisodchi olimlarning fikrlari asosida kapital qo'yilmalarning korxonalar iqtisodiy faoliyatidagi o'rnini aniqlangan va ularning quyidagi mukammallashtirilgan ta'rifi berilgan: «kapital qo'yilmalar - asosiy vositalar va boshqa uzoq muddatli aktivlarni sotib olish, qurish, kapital ta'mirlash, kengaytirish bilan bog'liq xarajatlar yig'indisidir».

2. O'quv qo'llanmada xisob ishlarini to'g'ri tashkil qilish, axborotlarning aniq bo'lishini ta'minlash maqsadida kapital qo'yilmalarning bir nechta belgilari bo'yicha tasniflash tartibi keltirib o'tilgan. Ushbu tasnif kapital qo'yilmalarni hisobga olish va tahlil qilish jarayonida qulaylik tug'diradi.

3. O'quv qo'llanmada xo'jalik usulida bajarilgan kapital qurilishda kapital- qo'yilmalarni baholashning ilmiy jihatdan asoslangan tartibi ishlab chiqilgan.

4. Kapital investitsiyalar auditini tashkil etish buyicha takliflar kiritildi. Amalga oshirilgan ilmiy izlanishlar natijasida kapital qo'yilmalar samaradorligi tahlili va auditini takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan takliflarning amaliyotga tatbiq etilishi, fikrimizcha, iqtisodiyot tarmoqlaridagi korxonalarda kapital mablag'lardan samarali foydalanish, mablag'larni oqilona sarflash, xarajatlarni qisqartirish, buxgalteriya hisobi hujjatlarini ixchamlashtirish, kapital qo'yilmalar tahlilini takomillashtirish imkonini beradi.

Nazorat savollari

1. Kapital investitsiya nima?
2. Kapital investitsiyalar hisobining vazifalari nimalardan iborat?
3. Kapital mablag'lar hajmiga qaysi xarajatlar kiradi?
4. Kapital investitsiyalarni buxgalteriyada hisobga olishda nechanchi BHMSdan foydalaniladi?
5. Kapital investitsiyalarni buxgalteriyada hisobga olishning dolzarb vazifalari nimalardan iborat?
6. Kapital investitsiyalarni turkumlash deganda nimani tushunasiz?
7. Kapital investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tuzilmasi maqsadini tushuntirib bering.
8. Kapital investitsiyalar ishlarni bajarish usuliga ko'ra qaysi turlarga bo'linadi?
9. Kapital investitsiyalar bo'yicha xarajatlarning analitik hisobi nechanchi qaydnomada yuritiladi?
10. Kapital qurilishlar pudrat usulida bajarilganida sarflanadigan kapital mablag' xarajatlarini hisobga olib borishda nechanchi sonli BHMS ga asoslanish lozim?
11. Mol yetkazib beruvchilardan olingan montaj talab qiladigan jihozlarning qiymatiga qanday o'tkazma beriladi?
12. Quruvchi (buyurtmachi) qurilish ishlari qanday usulda olib borilayotganligidan qat'i nazar, foyda va zararni alohida-alohida buxgalteriya hisobida yuritishi shartmi? Nima uchun?
13. Inventar qiymat deganda nimani tushunasiz?
14. Foizlar bo'yicha xarajatlar qanday kapitallashtiriladi?
15. Foizlar bo'yicha xarajatlar nima maqsadda kapitallashtiriladi?

16. Investitsiyalarga doir pul oqimlarini diskontlashtirish haqida qanday tushunchaga egasiz?

17. Kapital investitsiyalar auditining maqsadi, vazifasi, xususiyatlari nimada?

18. Kapital investitsiyalar auditi qanday meyoriy hujjatlar yordamida tartibga solinadi?

19. Kapital investitsiyalar qanday maqsadda audit qilinadi?

Testlar

1. Kapital investitsiyalarni qaysi buxgalteriya andozasida hisobga olishda

- a) 5-sonli BHMS
- b) 17-sonli BHMS
- c) 5-son BHMS va 17-son BHMS
- d) to'g'ri javob yo'q

2. Investitsiya muhitida qabul qilingan asosiy vosita (kompyuter)larni balansga kirim qilinishi qanday ikki yoqlama yozuv bilan ifodalanadi?

- a) DT 0110 KT 0610
- b) DT 0150 KT 0810
- c) DT 0150 KT 0820
- d) DT 0150 KT 5810

3. Kapital investitsiyalarning sintetik hisobi qaysi jurnal orderda yuritiladi?

- a) 1b-jurnal
- b) 2b-jurnal
- c) 3b-jurnal
- d) 4b-jurnal

4. Kapital investitsiyalarni baholash jarayoni qanaqa?

- a) korxonaga strategiyasiga mos keluvchi investitsiya yo'nalishlarini izlab topish.
- b) keyingi ishlanmalar uchun eskiz loyihalarini tayyorlash hamda dastlabki baholash va tatbiq etiladigan variantlar asosida izchil loyihalar ishlab chiqish.
- c) variantlarni baholash va variantlarni qabul qilish yoki inkor etish to'g'risida qaror qabul qilish.

d) barcha javob to'g'ri

5. Moliyaviy hisobot maqsadli auditor

a) xo'jalik yurituvchi sub'ektning moliyaviy hisobotining ishonchliligi to'g'risida auditorlik tashkilotining barcha muhim jihatlari bo'yicha fikrini shakllantirish va ifodalash

b) soliqlarning to'g'ri hisoblanishi va to'lanishi ustidan nazorat

c) soliq solinadigan bazalarni hisoblashning to'g'riligini tasdiqlash

d) a va c javoblar to'g'ri

6. Quyidagi auditorlik xizmatlaridan moliyaviy hisobot auditiga mos keladigan xizmat turini aniqlang:

a) buxgalteriya

b) soliq hisobotlarini tayyorlash

c) boshqaruv konsaltingi

d) to'g'ri javob yo'q

7. Aktsiyadorlik jamiyatlari har yili majburiy auditorlik tekshiruvidan o'tkaziladi:

a) mahsulot, ishlar va xizmatlarni sotish hajmi 100 million so'mdan ortiq.

b) Mingdan ortiq aktsiyadorlar bilan

c) aktsiyadorlar soni va ustav kapitalining kattaligidan qat'iy nazar.

d) to'g'ri javob yo'q

8. Audit zarurligining sababi nimada?

a) zarurati

b) strategik rejalarni ishlab chiqish uchun ma'lumot olish zarurati

c) kompaniya rahbariyatining moliyaviy to'lov qobiliyatiga ishonch hosil qilish istagi

d) buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot hujjatlarining to'g'riligi va to'g'riligini tasdiqlash a va c javoblar to'g'ri

9. Majburiy audit o'tkaziladi:

a) har 1 yilda bir marta

b) har 2 yilda bir marta

c) har 3 yilda bir marta

d) har 5 yilda bir marta

10. Qurilishi tugallangan obyektlarni hamda tugallanmagan qurilishni hisobga olivchi hisobvaraqa qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

a) 0800

- b) 9400
- c) 5800
- d) 6010

IV bob. MOLIYAVIY INVESTITSIYALARNI BAHOLASH

4.1. Moliyaviy investitsiyalarning mohiyati va ularni hisobga olishning vazifalari

Prezident farmoniga muvofiq 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini «Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi tasdiqlandi.

Xalqaro moliyaviy bozorlarning jo‘shqinlik bilan rivojlanishi natijasida obligatsiyaga o‘xshash an’anaviy dastlabki vositadan boshlab, to foizli svoplarga o‘xshash turli hosila shakldagi vositalargacha xilma-xil keng tarqalgan moliyaviy instrumentlardan foydalanishga olib keldi.

Moliyaviy instrumentlar har qanday shartnoma bo‘lib, uning natijasida bitta korxonada moliyaviy aktiv va boshqa korxonada moliyaviy majburiyat yoki ulushli vosita bir vaqtning o‘zida paydo bo‘ladi. Har qanday tomonning majburiyatlari pul shaklida yoki boshqa moliyaviy instrument sifatida qaytarilishini ko‘zda tutgan tovarlarni yetkazib berish yuzasidan shartnomalar moliyaviy instrumentlar shaklida paydo bo‘lganidek hisobga olinishi zarur, quyidagi tovarlarni yetkazib berish shartnomalari bundan istisno qilinadi: (a) xaridlar, sotilish yoki tovarlarni ichki foydalanish bo‘yicha korxonaning kutilayotgan ehtiyojlarini qondirish va ushbu ehtiyojlarga keyinchalik ham muvofiq bo‘lishga oid, (b) bitim tuzilganda ushbu maqsadlarni ko‘zda tutgan, (d) ular bo‘yicha majburiyatlarni qoplash tovarlarni yetkazib berish sifatida amalga oshirilishi kutiladiganlar.

Moliyaviy vositalar xisobi BHXS (IAS) 32-«Moliyaviy instrumentlar: axborotni taqdim etish» va MHXS (IFRS) 9-«Moliyaviy instrumentlar» nomli standartlarga muvofiq amalga oshiriladi. Shuningdek, moliyaviy vositalar bilan bog‘lik ma‘lumotlarni ochib berishda IFRS 7- «Moliyaviy instrumentlar: axborotni ochib berish» hamda moliyaviy vositalarning haqqoniy qiymatini baxolashda esa MHXS (IFRS) 13-«Xaqqoniy qiymatni baxolash» nomli standartlardan foydalaniladi.

Moliyaviy aktiv quyidagi shakldagi har qanday aktiv:

- (a) pul mablag'lari;
- (b) pul mablag'lari yoki boshqa moliyaviy aktivlarni boshqa korxonadan olishga oid shartnoma huquqi;
- (d) bo'lg'usida manfaat keltirish imkoniyati bo'lgan moliyaviy instrumentlarni boshqa korxonaga bilan ayirboshlashga oid shartnoma huquqi;
- (e) boshqa korxonaning ulushga oid vositasi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish munosabati bilan korxonaga, tashkilot va muassasalarda mavjud mablag'lardan samarali foydalanish, korxonaga ixtiyoridagi aktivlarning samaradorligini maksimal darajada ko'tarish asosiy vazifa hisoblanadi. Chunki mablag'lardan samarali foydalanish korxonaga aktivlari unumdorligini oshirishda va bu orqali maksimal darajada foyda olishda muhim ahamiyat kasb etadi.


Iqtisodiyotni bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o'tkazish va tarmoqlar iqtisodiyotini izchil rivojlantirish investitsiyalardan foydalanish samaradorligini oshirishga bevosita bog'liq.

Bugungi kunda investitsiyalarni bozor iqtisodiyotiga moslashtirish va investitsion faoliyatni boshqarish o'zgacha yondashishlarni talab etmoqda. Chunki xo'jalik yuritishning zamonaviy yo'lini tanlash investitsion siyosatni ham tubdan o'zgartirishni talab qiladi.

Investitsion siyosatni amalga oshirishda bozor munosabatlariga mos dastaklardan foydalanish, ya'ni investitsion jarayon qatnashchilarining huquq va majburiyatlarini belgilab berish mamlakatda investorlar uchun to'laqonli raqobatni ta'minlash, moliyaviy, moddiy va aqliy boyliklarni boshqarishda batamom erkin harakat qilish va shunga tenglashtirilgan tadbirlarni amalga oshirishni talab etadi.

Investitsiya inglizcha "investment" so'zidan olingan bo'lib, "sarmoya qo'yish" degan ma'noni anglatadi.

Moliyaviy investitsiyalar-daromad olish (xuddi foizlar, royalti, dividendlar va ijara haqi singari) va asosiy kapital qiymatini ko'paytirish maqsadida uning tasarrufida bo'lgan korxonaga aktivlaridir.



3-rasm. Moliyaviy investitsiyalarni tasniflash

Bozor iqtisodiyoti sharoitida moliyaviy investitsiyalar muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Moliyaviy investitsiyalar yuridik va jismoniy shaxslarning ixtiyorida mavjud bo'lgan bo'sh pul mablag'laridan samarali foydalanishni ta'minlaydi.

4.2. Uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalarni turkumlash va baholash

Uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalarni buxgalteriya hisobida hisobga olishni yengillashtirish uchun quyidagi guruhlariga ajratiladi:

- qimmatli qog'ozlar;
- shu'ba korxonalariga investitsiyalar;
- qaram birlashmalarga investitsiyalar;
- qo'shma korxonalariga investitsiyalar;
- boshqa uzoq muddatli investitsiyalar.

Qimmatli qog'ozlar uzoq muddatli investitsiyalarning asosiy qismini tashkil etadi. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida qimmatli qog'ozlar investitsiyalar yo'naltirishning asosiy vositasi hisoblanadi. 2008 yil 22 iyulda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi qonuniga muvofiq "qimmatli qog'ozlar «qimmatli qog'ozlar ularni chiqargan shaxs bilan ularning egasi o'rtasidagi mulkiy huquqlarni yoki qarz munosabatlarni tasdiqlovchi, dividend yoki foiz ko'rinishida daromad to'lashni hamda ushbu hujjatlardan kelib chiqadigan huquqlarni boshqa shaxsga berish imkoniyatini nazarda tutuvchi pul hujjatlaridir». Yuqorida qayd etilgan qonunga ko'ra, qimmatli qog'ozlarga:

- aksiyalar;
- obligatsiyalar;
- xazina majburiyatlari;
- depozit va xazina sertifikatlari;
- veksellar;
- hosilaviy qimmatli qog'ozlar kiradi.

Aksiya (gollandcha «actie» so'zidan olingan bo'lib, "qimmatli qog'oz" degan ma'noni anglatadi) aksiyadorlik jamiyatining ustav fondiga muayyan hissa qo'shganlikdan guvohlik beruvchi, uning egasiga foydaning bir qismini olish va odatda, ushbu jamiyatni boshqarishda ishtirok etish huquqini beruvchi qimmatli qog'ozdir. Aksiya amal qilish muddati cheklanmagan qimmatli qog'oz bo'lib, uni chiqargan aksiyadorlik jamiyati amal qilib turgan vaqt mobaynida muomalada bo'lishi mumkin. Aksiyalar bo'yicha olingan daromad dividend (lotincha «dividendus» so'zidan olingan bo'lib, "bo'lishga tegishli" degan ma'noni anglatadi) deb nomlanadi. Dividend, odatda, aksiyadorlik jamiyatining foydasiga bog'liq bo'ladi. Agar kompaniya hisobot yili natijalariga ko'ra foydaga ega bo'lsa, katta dividend to'lash imkoniyati bo'ladi va aksincha. Aksiyalar ikki turga bo'linadi:

- oddiy aksiyalar;
- imtiyozli aksiyalar.

Oddiy aksiya aksiyadorlar yig'ilishida ovoz berish huquqini beradi, olinadigan dividend miqdori aksiyadorlik jamiyatining olgan sof foydasiga bog'liq va boshqa hech narsa bilan kafolatlanmagan.

Imtiyozli aksiyalar aksiyadorlar umumiy yig'ilishida ovoz berish huquqini va bu bilan korxonani boshqarishda ishtirok etish huquqini bermaydi. Ularning imtiyozlilik shundaki, xo'jalik faoliyati natijalaridan qat'i nazar kafolatlangan daromadni olish imkoniyatini, ikkinchi tomondan, aksiyadorlik jamiyati tugatilgan vaqtda aksiyalar qiymatini birinchi navbatda olish huquqiga ega.

Obligatsiya (lotincha "obligation" so'zidan olingan bo'lib, "majburiyat" ma'nosini anglatadi) uning egasi qarz berganligidan guvohlik beruvchi, unga ushbu qimmatli qog'ozning nominal qiymatini unda ko'rsatilgan muddatda belgilangan (qat'iy) foiz to'langan holda qoplash majburiyatini tasdiqlovchi qimmatli qog'ozdir.

Obligatsiya bir shaxsning (investorning) boshqa bir shaxsga (emitentga) mablag'larni vaqtinchalik foydalanish uchun berganligi haqidagi guvohnomadir. Obligatsiyalardan olinadigan daromad foiz ko'rinishida bo'ladi.

Xazina majburiyatlari ularning egalari tomonidan budjetga pul mablag'larini berganliklarini tasdiqlovchi hamda ushbu qimmatli qog'ozlarga egalik qilishning butun muddati davomida belgilangan daromadni olish huquqini beruvchi davlat qimmatli qog'ozlaridir. Ular jismoniy shaxslar uchun chiqariladigan qimmatli qog'ozlardir.

Depozit sertifikatlari (inglizcha "certificati of deposit") pul mablag'larining omonatga qo'yilganligi to'g'risida, omonatchiga belgilangan muddat tugagandan so'ng depozit summasi va unga tegishli foizlarni olish huquqini beruvchi kredit muassasasining guvohnomasidir. 1994-yildan boshlab depozit sertifikatlari yuridik shaxslar uchun 1 yilgacha muddatga, jismoniy shaxslar uchun 3 yilgacha muddatga chiqarila boshlandi.

Veksel (nemischa "wechsel" so'zidan olingan) - veksel beruvchi yoki vekselda ko'rsatilgan boshqa to'lovchining vekselda ko'zda tutilgan muddat kelganda, veksel egasiga ma'lum miqdordagi summani to'lash haqidagi so'zsiz majburiyatini tasdiqlovchi qimmatli qog'ozdir.

Amaldagi qonunchilikka ko'ra, veksellar korxonasi va tashkilotlar tomonidan aniq savdo bitimi asosida yozilishi mumkin.

Hosilaviy qimmatli qog'ozlar shartnomalar bo'lib, ular bo'yicha bir tomon qimmatli qog'ozlarning ma'lum bir miqdorini ma'lum muddatda kelishilgan narxda sotib olish yoxud sotish huquqi yoki majburiyatini oladi. Ularning quyidagi turlari mavjud:

- opsiyon;
- varrant;
- fyuchers.

Opsiyon (lotincha "optio" so'zidan olingan bo'lib, "tanlov" degan ma'noni anglatadi) - bitimda ishtirok etayotgan tomonlarning biriga qimmatli qog'ozlarning ma'lum bir miqdorini muayyan vaqt mobaynida belgilangan narxda sotib olish yoki kontragentga sotish huquqini beruvchi shartnomadir. Kontragent esa mukofot evaziga ushbu huquqni amalga oshirish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

Varrant (nemischa "warrant" so'zidan olingan) — bu uning egasi ma'lum muddat davomida yoki ma'lum bir kunda varrantlar emitenti tomonidan dastlabki chiqarilgan qimmatli qog'ozlarni xarid qilish huquqini olganligini tasdiqlovchi hujjat.

Fyuchers (inglizcha "future" so'zidan olingan bo'lib, "kelajak" ma'nosini anglatadi) kelishilgan miqdordagi qimmatliklarni ma'lum vaqt mobaynida bitim tuzish vaqtida belgilangan narxda yetkazib berish to'g'risidagi shartnomalarni o'zida namoyon qiladi.

Valuta (pul mablag'lari) ayirboshlash vositasi bo'lganligi uchun, va, shunday qilib, moliyaviy hisobotda barcha bitimlarni baholash va taqdim etish asosi bo'ladigan moliyaviy aktivdir. Bankdagi yoki boshqa moliyaviy muassasadagi pul depoziti moliyaviy aktiv hisoblanadi, chunki u ushbu muassasadan pulni olish yoki chek yozib berish yoxud kreditor foydasiga moliyaviy majburiyatni qoplash yuzasidan hisobvaraqqoldig'iga pul qo'yuvchining shartnomaviy huquqini ifodalaydi.

Moliyaviy majburiyat - majburiyat bo'lib, quyidagi majburiyatlarni o'zida aks ettiradi:

a) shartnoma turi bo'lib, ko'zda tutilgan quyidagi majburiyatni bildiradi:

- boshqa korxonaga pul mablag'larini yoki boshqa moliyaviy aktivni berib yuborishni;

- korxonaga uchun potentsial foydali bo'lmagan sharoitlar asosida boshqa korxonaga o'rtasida moliyaviy aktivlar yoki moliyaviy majburiyatlar bilan almashish;

b) shartnoma turi bo'lib, u bo'yicha hisob-kitoblar korxonaning xususiy ulushli vositalari (instrumentlari) bilan amalga oshiriladigan yoki oshirilishi mumkin.

Kelgusida shartnoma bo'yicha pul mablag'larini olish huquqini ifodalaydigan moliyaviy aktivlarning, shuningdek, shartnoma bo'yicha kelgusida to'lovni amalga oshirishni ko'zda tutgan moliyaviy aktiv va moliyaviy majburiyatlarning umumiy misollariga quyidagilarni kiritish mumkin:

(a) savdo operatsiyalari bo'yicha debitorlik va kreditorlik qarzlari;

(b) olinadigan va to'lanadigan veksellar;

(d) olinadigan va to'lanadigan zayomlar bo'yicha qarzdorlik; va,

(e) olinadigan va to'lanadigan obligatsiyalar bo'yicha qarzdorlik summaları;

(f) muddatsiz obligatsiyalar, ta'minlanmagan obligatsiyalar va kapital qimmatli qog'ozlar (odatda bu kabi vositalar obligatsiya (egallari)ga belgilangan sanalarda cheklanmagan muddat foiz olish huquqini beradi);

(q) moliyaviy ijara;

(g) moliyaviy kafillik (masalan, moliyaviy kafolat – qarz oluvchi pul mablag'larini qaytara olmasa (defolt xolatida), kafil tomon o'sha qarzni talab berishni o'z majburiyatiga oladi);

(h) shartli huquq va majburiyatlar (masalan, sug'urta shartnomasi bo'yicha yuzaga keladigan shartli huquq va majburiyatlar), moliyaviy xisobotlarda bu kabi aktiv va majburiyatlar xar doim xam aks ettirilmasa xam.

Yuqorida keltirilgan moliyaviy majburiyatlarga qo'shimcha sifatida quyidagilarni xam keltirish mumkin:

- belgilangan sanada belgilangan summaga qayta sotib olishni ko'zda tutgan imtiyozli aksiyalar (agar ma'lum sanada imtiyozli aksiya

egasining hohishiga ko‘ra sotib olinishi ko‘zda tutilgan bo‘lsa);

- qayta sotish xuquqini beruvchi moliyaviy vosita;

- ochiq turdagi o‘zaro jamg‘armalar;

- pay fondlari;

- hamkorlik yoki ba'zi kooperativ tashkilotlar o‘rtasida yuzaga keladigan moliyaviy majburiyatlar.

Korxonada moliyaviy aktivlar bilan qoplash imkoniyati bo‘lgan yoki xususiy ulushli qimmatli qog‘ozlar shaklidagi shartnoma majburiyatiga ega bo‘lishi mumkin. Bunday holatda, agar majburiyatni qoplash uchun yetarli bo‘lgan ulushga oid qimmatli qog‘ozlar miqdori ularning haqqoniy qiymatining o‘zgarishiga muvofiq, majburiyatni qoplash uchun foydalanilgan ulushga oid qimmatli qog‘ozlarning umumiy haqqoniy qiymati doimo shartnoma majburiyatiga teng ravishda o‘zgarsa, majburiyatning egasi ulushga oid qimmatli qog‘ozlar narxini o‘zgarishidan olinadigan daromad yoki zarar ko‘rish tavakkalchiligiga duch kelmaydi. Bunday majburiyat korxonaning moliyaviy majburiyati sifatida hisobga olinishi kerak.

Ulushga oid vosita barcha majburiyatlar chegirilgandan keyin, korxonada aktivlarining ulushiga egalik qilish huquqini tasdiqlovchi har qanday shartnoma. Ulushli vositalarga quyidagilarni misol qilib keltirish mumkin:

- oddiy aksiyalar;

- qayta sotish xuquqiga ega bo‘lgan ba'zi moliyaviy vositalar;

- korxonada tugatilishida sof aktivlarini boshqa korxonaga ularga tegishli bo‘lsa ulushini berish majburiyatini yuklovchi moliyaviy vositalar;

- ba'zi turdagi imtiyozli aksiyalar (emitent ixtiyoriga ko‘ra, emitent belgilagan muddatda to‘lov amalga oshirilishi ko‘zda tutilgan imtiyozli aksiyalar, kumulyativ va nokumulyativ);

- varrantlar va chiqarilgan koll-optsiyonlar (bu kabi vositalar o‘z egalari, ya'ni ushlovchilariga emitent tashkilotning oddiy aksiyalarini belgilangan miqdorda belgilangan pul mablag‘lari summasiga yoki boshqa moliyaviy aktiv evaziga sotib olish xuquqini beradi).

Boshqa tomonning moliyaviy aktivlariga almashtirish evaziga xususiy

ulushga oid vositalarni chiqarish bo'yicha korxonaning majburiyati bo'lg'usida nafsiz bo'lmaydi, chunki u xususiy kapitalni oshirishga olib keladi va korxonani zararga olib kelishi mumkin emas. Korxonada xususiy kapital bo'yicha hissalar mavjud bo'lgan egalari bu majburiyat natijasida o'z hissalarining haqqoniy qiymati kamayganligini aniqlash ehtimoli bor, korxonada ularni manfaatsiz qoldirmaydi.

O'z xususiy ulushiga oid vositalarni qaytarib sotib olish huquqini beradigan, korxonadan olingan opsiya yoki shunga o'xshash vositalar ushbu korxonada uchun moliyaviy aktiv bo'lmaydi. Mazkur opsiyani bajarish yordamida korxonada pul yoki boshqa moliyaviy aktivni olmaydi. Opsiyani bajarish korxonada uchun naf olib kelish imkoniyatiga ega emas, chunki u xususiy kapitalning kamayishiga va aktivlarning chiqib ketishiga olib keladi. O'z xususiy ulushiga oid vositalarni sotib olish yoki bekor qilish natijasida korxonada hisobida aks ettirilgan xususiy kapitaldagi har qanday o'zgarishi, korxonada o'zi uchun foyda yoki zararni emas, korxonada xususiy kapitalida o'z ulushidan voz kechadigan va o'z ulushlarini saqlab qoladigan ulushga oid vositalar egalari orasida xususiy kapitalni siljishini ifodalaydi.

Qayta sotish xuquqiga ega vosita (instrument) moliyaviy vosita bo'lib, u egasiga mazkur vositani emitentga pul mablag'lari yoki boshqa moliyaviy aktiv evaziga qayta sotish huquqini beradi yoki mazkur vosita kelgusi hodisalar yuzaga kelganda, yoki moliyaviy vosita egasi nafaqaga chiqqanda yohud vafot etganda avtomatik tarzda emitentga sotiladi.

MXXS (IFRS) 9 «Moliyaviy instrumentlar» nomli standartda qo'llaniladigan tushunchalar:

- moliyaviy aktivning yoki moliyaviy majburiyatning amortizatsiyalanadigan qiymati;
- tan olishni to'xtatish;
- proizvodniy vosita;
- samarali foiz stavkasi usuli;
- moliyaviy kafolat shartnomasi;
- foyda va zararlar orqali haqqoniy qiymati bo'yicha hisobga olinadigan moliyaviy majburiyat;
- qat'iy shartnoma majburiyati;

- taxmin qilinadigan operatsiya;
- xedjirlash samaradorligi;
- xedjirlash obyekti;
- xedjirlash vositasi;
- sotish uchun mo'ljallangan vosita;
- standart sharoitlar asosida sotish yoki sotib olish;
- bitim bo'yicha xarajatlar.

Moliyaviy instrument emitenti dastlabki tan olishda mazkur instrumentni moliyaviy majburiyat, moliyaviy aktiv yoki ulushli vosita sifatida shartnoma munosabatlari mohiyati va ularning ta'riflaridan kelib chiqib moliyaviy hisobotlardan alohida aks etirishi lozim.

Àksiyalarga opsiyon (emitent tanloviga asosan aksiyalar hisob-kitoblar netto-asosda pul mablag'lari evaziga o'z aksiyalarini pul mablag'lariga almashtirish yo'li bilan amalga oshirilishi mumkin). Bu kabi operatsiyalarni aks ettiruvchi shartnomalar moliyaviy aktivlar yoki moliyaviy majburiyatlarni o'zida aks ettiradi.

- moliyaviy opsiyonlar;
- fyuchers va forvard shartnomalari;
- foizli va valyuta svoplari (belgilangan foiz to'lab suzib yuruvchi foizda pul mablag'i olish uchun bitim, yoki ikki xil valutada to'lovlarni amalga oshirish bo'yicha shartnoma);
- put-opsion (sotishga) yoki koll-opsion (sotib olishga);
- «kep» shartnomalari (opsionlar jamlamasi bo'yicha shartnoma);
- foiz stavkasiga «kollar» va «flor»;
- qarzlarni berish bo'yicha majburiyatlar;
- qarz qimmatli qog'ozlarni chiqarish haqidagi bitimlar va akkreditivlar.

Foizli svop shartnomasi forvard shartnomasining bir turi sifatida qaralishi mumkin, bunda tomondar kelgusida bir necha martalik pul mablag'lari to'lovini amalga oshirishda bir tomon suzib yuruvchi foiz stavkasidan foydalansa, ikkinchi tomon esa o'rnatilgan foiz stavkasidan foydalanadi.

Fyuchers shartnomalari forvard shartnomalarining bir turi bo'lib, forvard shartnomalaridan asosiy farqi fyuchers shartnomalari standartlashtirilgan shaklga ega va birjada qo'llaniladi.

Nomoddiy aktivlar, zahiralalar, asosiy vositalar, shuningdek patentlar va savdo rusumlari kabi jismoniy aktivlar moliyaviy aktivlar deb hisoblanmaydi. Bunday jismoniy va nomoddiy aktivlar olib boriladigan nazorat pul mablag'lari va boshqa aktivlarni tushumini ta'minlash imkoniyatini yaratadi, biroq pul mablag'lari va boshqa moliyaviy aktivlarni olish uchun haqiqiy huquqning paydo bo'lishiga olib kelmaydi.

Kelgusi iqtisodiy naf olish tovarlar va xizmatlarni olishdan iborat bo'lgan kelgusi davr xarajatlari kabi aktivlar, pul mablag'lari va boshqa moliyaviy aktivlarni olish uchun huquqidan farqli ravishda moliyaviy aktivlar deb hisoblanmaydi. Xuddi shunga o'xshash kelgusi davr daromadlari va aksariyat kafolatlangan majburiyatlar moliyaviy majburiyatlar hisoblanmaydi, chunki ular bilan bog'liq iqtisodiy naflarning kamayish ehtimoli pul mablag'lari yoki boshqa moliyaviy aktivlarni emas, balki tovarlar va xizmatlarni bajarishda ifodalanadi.

Moliyaviy vositalarni dastlab tan olish. IFRS 9-«Moliyaviy instrumentlar» nomli standartga muvofiq barcha moliyaviy vositalarni dastlabki tan olishda baholash va bitim bo'yicha harajatlarni kapitalizatsiya qilish orqali haqqoniy qiymat bo'yicha tan olish zarur. Agar moliyaviy aktiv yoki moliyaviy majburiyat haqqoniy qiymat bo'yicha foyda va zararlar orqali baholansa, u xolda bitim bo'yicha harajatlar ayiriladi. Moliyaviy vositalarni keyinchalik baxolash. Moliyaviy aktivlarni baholash asosi IFRS 9-«Moliyaviy vositalar» nomli standartda keltirilgan. Baxolash asosi moliyaviy vositalarni boshqarish biznes modeliga va shartnoma ko'zda tutilgan pul mablaglari oqimi bilan bog'lik bo'lgan moliyaviy aktivlar hususiyatiga bog'liq.

Keyinchalik hisobda moliyaviy vositalar va majburiyatlar haqqoniy qiymat va amortizatsiyalanadigan qiymat bo'yicha baholanadi va tan olinadi.

MHXS (IFRS) 9- «Moliyaviy vositalar» nomli standartga muvofiq moliyaviy aktivlar quyidagicha turkumlanadi va baholanadi:

1. amortizatsiyalanadigan qiymat bo'yicha xisob;
2. foyda va zararlar to'g'risidagi hisobot orqali haqqoniy qiymat bo'yicha xisob (SSOPU);

3. boshqa yalpi daromad orqali haqqoniy qiymat bo'yicha hisob (SSPSD)

Tashkilot moliyaviy aktivlarni amortizatsiyalanadigan qiymat bo'yicha, boshqa yalpi daromad orqali haqqoniy qiymat yoki foyda va zararlar orqali haqqoniy qiymat bo'yicha baholashga turkumlashi uchun quyidagilardan kelib chiqqan holda turkumlashi kerak:

a) moliyaviy aktivlarni boshkarish uchun qo'llaniladigan biznes – modeldan;

b) shartnomada ko'zda tutilgan pul oqimlari bilan bog'liq moliyaviy aktivning xususiyatlaridan

Moliyaviy aktiv amortizatsiyalanadigan qiymat bo'yicha baholanishi kerak, agar quyidagi ikkita talab bajarilsa:

a) shartnoma shartlariga ko'ra moliyaviy aktiv pul oqimlarini olish uchun moliyaviy aktivlarni ushlab turish doirasida qo'llaniladigan biznes-modelga to'g'ri kelsa;

b) moliyaviy aktivning shartnoma shartlari belgilangan sanalarda pul mablag'larini olishni nazarda tutsa, ya'ni bu to'lovlarni to'lash shartlari qarzning asosiy summasini va qolgan to'lanmagan qarzning asosiy qismiga to'lanadigan foiz to'lovlarini to'lashni nazarda tutsa.

Moliyaviy aktiv yalpi daromad orqali haqqoniy qiymat bo'yicha baholanishi kerak, agar quyidagi ikkita talab bajarilsa:

a) shartnoma shartlariga ko'ra moliyaviy aktiv pul oqimlarini olish uchun moliyaviy aktivlarni ushlab turish, shuningdek moliyaviy aktivni sotish orqali pul oqimlari olinishini ko'zda tutuvchi biznes modelga to'g'ri kelsa;

b) moliyaviy aktivning shartnoma shartlari belgilangan sanalarda pul mablag'larini olishni nazarda tutsa, ya'ni bu to'lovlarni to'lash shartlari qarzning asosiy summasini va qolgan to'lanmagan qarzning asosiy qismiga tulanadigan foiz to'lovlarini to'lashni nazarda tutsa.

Moliyaviy aktiv amortizatsiyalanadigan qiymat bo'yicha baholanishi uchun shartnomaga ko'ra pul mablag'lari qarzning asosiy summasini va qolgan qarz uchun to'lanadigan foizlar to'lovini amalga oshirilishini belgilashi kerak.

Moliyaviy aktiv haqqoniy qiymat bo'yicha boshqa yalpi daromad

orqali baholanadi agar biznes modelga asosan shartnoma shartlariga ko'ra pul mablag'lari uning saqlashdan yoki sotish natijasida olinishi mumkin bo'lsa. Bu kabi moliyaviy aktivlarning foiz daromadi moliyaviy aktiv amortizatsiyalanadigan qiymat bo'yicha baxolangani kabi baxolanadi, ya'ni foyda va zararlar boshqa yalpi daromad tarkibida ko'rsatiladi.

Moliyaviy aktiv haqqoniy qiymat bo'yicha boshqa yalpi daromad orqali baholansa, u holda foiz daromadi foyda va zararlar tarkibida ko'rsatiladi.

Haqqoniy qiymatning oshishi esa boshqa yalpi daromad tarkibida ko'rsatiladi.

Boshqa hollarda moliyaviy aktivlar, qayta baholash natijalari foyda va zararlarda tarkibida haqqoniy qiymat bo'yicha baholanadi.

IFRS 9 «Moliyaviy vositalar» nomli standartga muvofik ulushli vositalarga investitsiyalar moliyaviy aktivlar bulib, shartnomaviy pul okimlari test talablariga javob bermaydi, shuning uchun ulushli vositalarga investitsiyalar xakkoniy kiymat buyicha baxolanishi kerak. Agar ulushli vositalarga investitsiyalar savdo maqsadlarida saqlanmasa, u holda dastlabki tan olishda ularni keyinchalik baholashda qayta baholash natijasini boshqa yalpi daromadda aks ettirish orqali haqqoniy qiymatda baholash usulini tanlash mumkin.

Qayta baholash natijalarini foyda va zararlar tarkibida va boshqa yalpi daromad tarkibida aks ettirishning katta farqi yo'q. Biroq bu farqlar amaliy ahamiyatga ega. Jamoat kompaniyalari uchun bu muhim ahamiyatga ega. Bu kabi korxonalar moliyaviy hisobotida 1 aksiyaga tugri keladigan foydani IAS 33-Aktsiyaga to'g'ri keladigan foyda nomli standartga asosan aks ettirishi kerak. Foyda va zararlar tarkibida ko'rsatilgan foyda va zararlar 1 aksiyaga to'g'ri keladigan foyda ko'rsatkichiga ta'sir etadi. Lekin boshqa yalpi daromad tarkibida ko'rsatilgan foyda va zararlar bu ko'rsatkichiga ta'sir etmaydi. Agar moliyaviy aktivlar haqqoniy qiymati bo'yicha baholansa, u holda foyda va zarar to'liq summasi bo'yicha foyda va zararlar tarkibida aks ettiriladi yoki boshqa yalpi daromad tarkibida. Ulushli vositalarga investitsiyalar haqqoniy qiymati bo'yicha foyda va zararlar orqali aks ettirilishi lozim,

haqqoniy qiymati bo'yicha yalpi daromad orqali aks ettiriladigan ulushli moliyaviy vositalardan tashqari. Agar ulushli moliyaviy vositalarga investitsiyalar «sotish uchun mo'ljallangan» guruxga tegishli bo'lmasa, u holda tan olish davrida bu kabi vositalarning haqqoniy qiymatidagi o'zgarishlarini boshqa yalpi daromad tarkibida aks ettirishga qaror qabul qilishi mumkin. Bunda dividendlar foyda va zararlar tarkibida aks ettirilishi kerak. Qarz vositalari, (1)shartnomada ko'zda tutilgandek, pul mablag'lari olish maqsadida belgilangan biznes-model doirasida ushlab turilsa, va (2) shartnomada belgilangan sanalarda yuzaga keladigan pul mablag'lari o'z ichiga qarzning asosiy summasini va qoplanmagan qarz summasi bo'yicha foiz to'lovini olsa, u holda mazkur qarz vositasi amortizatsiyalanadigan qiymat bo'yicha baholanishi kerak, agar foyda va zararlarida aks ettirish orqali haqqoniy qiymati bo'yicha aks ettirish usuli tanlanmagan bo'lsa. Qarz vositalari, (1)shartnomada ko'zda tutilgandek, pul mablag'lari olish maqsadida belgilangan biznes model doirasida ushlab turilsa, va (2) shartnomada belgilangan sanalarda yuzaga keladigan pul mablag'lari o'z ichiga qarzning asosiy summasini va qoplanmagan qarz summasi bo'yicha foiz to'lovini olsa, u holda mazkur qarz vositasi boshqa yalpi daromad orqali haqqoniy qiymati bo'yicha aks ettirishi kerak, agar foyda va zararlar orqali haqqoniy qiymat bo'yicha aks ettirish usuli tanlanmagan bo'lsa. Boshqa barcha qarz vositalari haqqoniy qiymat bo'yicha foyda va zararlar orqali aks ettirilishi kerak. Sotish uchun mo'ljallangan moliyaviy majburiyatlar foyda va zararlar orqali haqqoniy qiymati bo'yicha baholanishi kerak. Boshqa moliyaviy majburiyatlar amortizatsiyalanadigan qiymat bo'yicha baholanishi kerak, haqqoniy qiymat bo'yicha baholanishi belgilangan vositalardan tashqari. Moliyaviy aktivlarni keyinchalik baholashda qaysi usuldan foydalanishi tashkilot tomonidan foydalaniladigan biznes modelga va shartnomada ko'zda tutilgan pul oqimlari bilan bog'lik moliyaviy aktivning hususiyatiga bog'liq.

Respublikamiz amaliyotida uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalarni yo'naltirishning asosiy vositasi aksiyadorlik jamiyatlarining qimmatli qog'ozlarini xarid qilish hisoblanmoqda. Korxonaning sho'ba korxonalar, qo'shma korxonalar va qaram birlashmalarga

investitsiyalari mavjudligi ularni buxgalteriya hisobida alohida turkumlarga ajratishni taqozo etadi.

Uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalarning baholanishi «Moliyaviy investitsiyalar hisobi» nomli 12-sonli BHMSga asoslanadi.

Xarid qilinishi chog'ida moliyaviy investitsiyalar brokerlik xizmatlariga oid to'lovlar, bojlar, bank xizmatiga oid to'lov va boshqa xarajatlar kabi xarid qilishga oid xarajatlar bilan birgalikda xarid qilish qiymati bo'yicha baholanadi.

Uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalarning aksiyalar yoki boshqa qimmatli qog'ozlar emissiyasi yo'li bilan qisman yoki to'liq xarid qilinishi chog'ida ularning nominal qiymati emas, balki qimmatli qog'ozlar bozoridagi sotish qiymati xarid qilish qiymati hisoblanadi.

Uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalarning almashtirish yoki boshqa aktivga qisman almashtirish yo'li bilan xarid qilishda xarid qiymati berilayotgan aktivning bozor qiymatiga asoslangan holda aniqlanadi.

Uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalarning o'z ichiga foizlar ulushini hisoblangan dividendlarni ularni sotib olish vaqtigacha bo'lgan davr uchun bo'lgan qiymat bo'yicha sotib olinishi xaridor tomonidan sotuvchiga to'langan foizlar summasi chiqarib tashlangan holda xarid qilish qiymati bo'yicha hisobga olinadi. Agar uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalar xarid qilish vaqtiga qadar hisoblangan foizlar bilan birga sotiladigan bo'lsa, u holda ularning foizlarini to'lash ko'pi bilan to'g'ri kelmaydigan kunlarda sotib olinishi chog'ida xaridor bilan sotuvchi o'zaro tegishli summani bo'lishib olishlari kerak. Xaridor sotuvchiga investitsiyalar qiymati bilan bir qatorda ularning so'nggi to'lovi amalga oshirilgan vaqtdan boshlab o'tgan davr uchun to'lanishi lozim bo'lgan foizlarni to'laydi.

Foizlarni to'lashning navbatdagi muddati kelgan vaqtda xaridor ularni to'liq, jami davr uchun oladi.

Qarzga oid qimmatli qog'ozlarga investitsiyalarning xarid qilish qiymati bilan so'ndirish qiymati o'rtasidagi farq (diskont yoki xarid qilish chog'idagi mukofot), odatda, investor tomonidan qimmatli

qog'ozni xarid qilish vaqtidan boshlab so'ndirish vaqtigacha hisobdan chiqariladi, ya'ni amortizatsiya qilinadi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalarni quyidagi baholarda hisobga olib boradi:

- xarid bahosida;
- qayta baholashni hisobga olgan qiymatda;
- qimmatli qog'ozlar portfeli asosida aniqlanadigan xarid va joriy qiymatlar yuzasidan eng kam baholashda.

Uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalarni qayta baholashni amalga oshirish uchun qayta baholashlar davriyligi aniqlab olinishi zarur. Bunda qayta baholashning yakka tartibdagi usuli qo'llaniladi.

Qayta baholash natijasida uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalar qiymatining oshib ketishi 8510-«Aktivlarni qayta baholash bo'yicha tuzatishlar» hisobvarag'ida, kamayishi esa qo'shimcha baholash chegarasida rezerv kapitalining kamaytirilishi yoki avvalgi qo'shimcha baholashdan oshgan summada harajat sifatida hisobga olinadi.

Agar uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalarning qayta baholanishi natijasida dastlab kamayish, keyin esa ko'payish yuz bergan bo'lsa, u holda uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalar qiymatining avvalgi kamayish summasi qayta tiklanishi lozim bo'ladi. Tiklanish lozim bo'lgan summa qabul qilingan hisob siyosatiga muvofiq, daromad yoki taqsimlanmagan foydaga kiritiladi.

Uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalar o'z qiymatining bir qismini yo'qotgan hollarda (ya'ni investitsiyalar bahosining pasayish jarayoni yuz berganida) ularning balans qiymati qayta ko'rib chiqilishi kerak.

4.3. Investitsiyalarni diskontlash

Investitsion faoliyatning faollashuvida investorlar muhim rol o'ynaydi. Investor o'z sarmoyasini biror-bir obyektga yo'naltirar ekan, avvalo, uning mablag'i kelajakda qanchani tashkil etishi, ya'ni yo'naltirgan sarmoyasining muayyan davrdan so'ng qancha miqdorga teng bo'lishi qiziqtiradi.

Buning uchun investor o'z mablag'ini diskontlashi lozim. Diskont baho ham investitsiyalarni hisobga olishda keng qo'llaniladi.

Moliyaviy hisob-kitoblarda hamma vaqt va har qanday sharoitda ham boshlang'ich, oshgan, chegirma va ustama summalari ma'lum bo'lmaydi. Bu muammo diskontlash usullarini qo'llash bilan hal etiladi.

Ba'zida yil mobaynida kompaniya joriy majburiyatlarni to'lash uchun zarur bo'lgandan ko'proq pul mablag'lariga ega bo'lishi mumkin. Pul mablag'larini aylantirishga yo'naltirish, ayniqsa, yuqori foiz stavkalari qo'llanilishi davrida, foyda keltirishini hisobga olib, kompaniya ortiqcha pullarni muddatli depozitlar, depozit sertifikatlar, davlatning va boshqalarning qimmatli qog'ozlariga qo'yishi mumkin. Bunday omonatlar qisqa muddatli investitsiyalar (shortterm investments) yoki bozorda aylanadigan qimmatli qog'ozlar (marketable securities) deb ataladi, ulardan aylanma mablag'lar sifatida joriy majburiyatlarni to'lash maqsadida foydalanish mumkin. Investitsiyalar iqtisodiy manfaat olish maqsadida ma'lum davr mobaynida kapitalni qo'yish hisoblanadi.

Korxonalar investitsiyalarni turli sabablar bilan amalga oshiradi. Ayrim korxonalar uchun investitsiyaviy faoliyat ularning faoliyatini muhim tarkibiy qismi va korxonalar faoliyati natijalarini baholash yuqori darajada yoki umuman investitsiyaviy faoliyat natijalariga bog'liq bo'lishi mumkin. Ba'zi korxonalar me'yordan ortiq mablag'lar zaxiralari sifatida saqlash uchun qimmatli qog'ozlarga ega bo'lishi mumkin, boshqalari esa – savdo investitsiyalarni o'zaro tijorat munosabatlarini mustahkamlash yoki tijorat ustunligiga ega bo'lish uchun saqlaydi. Korxonalar ixtiyorida bo'lgan barcha qimmatli qog'ozlarning majmuyi investitsiyaviy portfel deyiladi.

Diskont boshlang'ich summani hisoblash, aniqlash uchun oshgan qiymatdan ayiriladigan chegirma summasidir. Diskontlash (ustama yozish) ustamalarni yozish, aniqrog'i, foizlarni hisoblash demakdir.

Diskontlash formulasi yordami bilan sarflangan sarmoyaning qoplanish muddatlarini va uning sotuvning dastlabki narxi sifatida baholanuvchi hajmini aniqlash mumkin:

$$K_0 = KJ(1+R)^n,$$

bu yerda:

K_0 - dastlabki kapital miqdori;

K_n - davr oxiridagi kapital (investitsiya miqdori);

R - foiz stavkasi.

Misol. Donor korxonada 5 yil ichida 50 000 so‘m pul yig‘ilgan. Agar yillik foiz stavkasi 4 foiz bo‘lsa, dastlabki qo‘yilma qancha bo‘lgan:

$$K_0 = 50\,000 / (1 + 0,04)^5 = 41\,096,35 \text{ so‘m}$$

Bu yerda diskont summasi 8903,65 so‘m (50 000-41096,35) ga teng.

Shuningdek, diskontlash korxonaga investor qancha miqdorda eng ko‘p moliyaviy resurslar sarflashi va eng ko‘p darajada qancha daromad olishini aniqlashga imkon yaratadi. Ushbu holatda diskontlash formulasi quyidagicha:

$$K_n = KJ(1 + R)^n$$

Misol. Donor (investor) korxonaga akseptor (qarz oluvchi) korxonaga 5 yil muddatga 100 000 so‘m pulni 4 foizlik stavka bilan qarzga berdi.

Diskontlash formulasi orqali 3 yildan so‘ng yig‘iladigan jami investitsiya hajmini topamiz:

$$K_n = 100\,000 - (1 + 0,04)^3 = 112\,486,4 \text{ so‘m}$$

Bu holatda diskont summasi 12486,4 so‘m (112486,4-100 000) ga teng.

1. Investitsiyalarni baholashning diskontlangan usuli.

Diskontlangan pul oqimi usulidan ma‘lum bir vaqt ichida kutilayotgan barcha pul tushumi va to‘lovlarni o‘lchash uchun foydalaniladi.

Pulning vaqt bo‘yicha qiymati shundan iboratki, bugun olingan pul birligi kelgusida olinadigan pul birligidan yuqoriroq turishini anglatadi.

Ushbu holat quyidagicha izohlanadi, bugungi olingan pul qiymati foiz asosida yana investitsiyaga qo‘yilishi mumkin. Kelgusidagi qiymat kattaligini aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$FV_n = V_0 (1 + K)^n,$$

bu yerda:

FV_n - yildan keyingi investitsiya qiymati;

V_0 - dastlabki investitsiya qiymati;

K - qo‘yilgan kapitaldan foyda olish me‘yori;

n - pullarning necha yilga qo‘yilganligi.

Misol. 10 000 sh.b. bankdan yillik 10% foyda hisobiga qo'yiladi va har yili 3 yil mobaynida qayta investitsiya qilinadi. Har yilgi qayta investitsiyalash (reinvestitsiya) qiymati (summasi) quyidagicha aniqlanadi:

Yil	Foizlar	Yil oxiridagi barcha investitsiyalarning qiymati 0 1000
1	1000 x 10 %	1100 (100)
2	1100 x 10 %	1210 (110)
3	1210 x 10 %	1331* (121)

* $F_v = 1000(1 + 0,10)^3$ Quyidagi formuladan foydalangan holda keltirilgan qiymatning (1331) 3-yil oxiridagi qiymati topiladi:

$$V_0 = \frac{FV}{(1 + K)^n} = \frac{1331}{(1 + 0,10)^3} = 1000$$

bu yerda:

V_0 - keltirilgan qiymat summasi;

FV_n - investitsiya kelgusidagi qiymati n yildan so'ng;

K - qo'yilgan kapitalning daromadlilik me'yori;

n - necha yilga pul qiymatini qo'yilganini ko'rsatuvchi raqam.

2. Ichki daromadlilik stavkasi (IRR).

IRR usuli diskontlash stavkasining keltirilgan sof pul oqimlari qiymatining dastlabki investitsiyaga teng bo'lgani, ya'ni loyihaning sof keltirilgan qiymati 0 ga teng bo'lgandagi qiymati:

$$I_0 = -C_0 + \frac{FV_1}{1 + K} + \frac{FV_2}{(1 + K)^2} + \dots + \frac{FV_n}{(1 + K)^n}$$

3. Investitsiyalarni chiqib ketishining hisobi. Qimmatli qog'ozlarni sotishdan kompaniya, odatda, foyda oladi yoki zarar ko'radi:

- ✓ daromad va balans qiymati orasidagi farq foyda yoki zarar sifatida tan olinadi;

- ✓ aktivni qayta baholashdan kelgan har qanday daromad moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotda daromadga o‘tkaziladi yoki bevosita buxgalteriya balansida taqsimlanmagan foydaga qo‘shilishi mumkin (bunda tanlangan usuldan izchillik bilan oxirigacha foydalanish kerak).

Agar investitsiya portfeli asosida sotib olish va bozor qiymatidan eng kam qiymat bo‘yicha hisoblanadigan joriy aktiv bo‘lgan bo‘lsa, sotuvdan kelgan foyda yoki zarar sotib olish qiymatiga asoslangan bo‘lishi kerak. Agar investitsiya ilgari qayta baholangan yoki bozor qiymati bo‘yicha qayta baholangan bo‘lsa, hamda ko‘payish qayta baholashdan kelgan daromadga (xususiy kapital)ga o‘tkazilgan bo‘lsa, ikkita usulni qo‘llash mumkin:

a)yoki qayta baholashdan kelgan daromad summasining moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotda aks ettirilishi bilan, sotuvdan kelgan daromad summasiga kreditlanishi bilan;

b)yoki qayta baholashdan kelgan daromad summasining taqsimlanmagan foydaga o‘tkazilishi bilan.

Aksiyalar sotilganda, sotish va sotib olish qiymatlari orasidagi farq hisobda va moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotda aks ettiriladi. Bunday investitsiyalar bo‘yicha olingan dividendlar summasi «Pul mablag‘lari» hisobvarag‘ining debeti va «Dividendlardan olingan daromad» hisobvarag‘ining krediti bo‘yicha aks ettiriladi. Faraz qilaylik, 5 dekabrda “Atlant” kompaniyasi 5,000 ta aktsiyasini “Kompyuter texnologiyalari” korporatsiyasiga sotadi. Bu aktsiyalarning har biri, brokerning xizmat haqlari bilan birgalikda 35 sh.b. bo‘yicha sotib olingan edi. Bu aktsiyalarning har biri uchun 25 sh.b. bo‘yicha sotilishi (brokerlik komission to‘lovlaridan tashqari) quyidagicha aks ettiriladi:

05 dekabrda: Dt Pul mablag‘lari 125, 000 Dt Investitsiyalarni sotishdan ko‘rilgan zarar 50,000 Kt Uzoq muddatli investitsiyalar 175,000

4.4. Uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalar harakatini hisobda aks ettirish

Korxonada uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalar hisobini yuritish orqali quyidagilar namoyon bo‘ladi:

- boshqa aksiyadorlik jamiyatlarining aksiyalari va boshqa subyektlarning, shu jumladan shu’ba korxonalarining ustav kapitallariga oid uzoq muddatli investitsiyalarning mavjudligi va harakati;

- davlat va mahalliy obligatsiyalar, sertifikatlar va tijorat banklari, xo‘jalik yurituvchi subyektlar hamda tadbirkorlik tuzilmalarining shunga kabi qimmatli qog‘ozlariga oid uzoq muddatli investitsiyalar;

- subyektlarga, turli xil tadbirkorlik tuzilmalariga berilgan uzoq muddatli pul va boshqa ko‘rinishdagi qarzlarning harakati va qoldirlari.

Uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalarga doir muomalalarni buxgalteriya hisobida aks ettirish uchun hisobvaraqlar rejasida quyidagi hisobvaraqlar ochilgan:

0610	«Qimmatli qog'ozlar»
0620	«Sho‘ba korxonalarga investitsiyalar»
0630	«Qaram birlashmalarga investitsiyalar»
0640	«Qo‘shma korxonalarga investitsiyalar»
0690	«Boshqa uzoq muddatli investitsiyalar»

0610-«Qimmatli qog‘ozlar» hisobvarag‘ida aksiyadorlik jamiyatlarining aksiyalari, foizli obligatsiyalari va boshqa qimmatli qog‘ozlari (opsion, fyuchers va shu kabilar) ga uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalarning mavjudligi va harakati aks ettiriladi.

0620-«Sho‘ba korxonalariga investitsiyalar»;

0630-«Qaram birlashmalarga investitsiyalar»;

0640-«Qo‘shma korxonalariga investitsiyalar» hisobvaraqlarida mos ravishda shu‘ba, qaram va qo‘shma korxonalariga investitsiyalarning mavjudligi va harakati aks ettiriladi.

0690-«Boshqa uzoq muddatli investitsiyalar» hisobvarag'ida kelajakda moliyaviy daromad olish maqsadida korxonaning davlat korxonasiga, xayriya yoki ekologik tashkilotlarga investitsiyalarning mavjudligi hisobga olib boriladi.

Bu hisobvaraqlar aktiv bo‘lib, debetdagi qoldiqlar har oying boshiga korxonadan sotib olingan qimmatli qog'ozlar qiymatini ifodalaydi. Debet tomonidagi oboroti oy davomida sotib olingan qimmatli qog'ozlar qiymati, investitsiya uchun sarflangan mablag'lar miqdorini hamda kredit tomonidagi oborotlar hisobidan chiqarilgan, sotib yuborilgan, qaytarib berilgan qimmatli qog'ozlar qiymatini yoki investitsiyalarning tuzilishini aks ettiradi.

Moliyaviy investitsiyalarning tahliliy hisobi qimmatli qog'ozlar turlari va investitsiya obyektlari bo‘yicha yuritiladi.

Misol. «Nur» kompaniyasi sotib olgan aksiyalarning qiymati 600 000 so‘m, nominal qiymati esa 500 000 so‘m, uzish muddati 10 yil. Aksiyalar bo‘yicha har yili 10 foiz daromad olishga kelishilgan.

Aksiyalar sotib olinganida:

Dt 0610	«Qimmatli qog'ozlar» - 600 000 so‘m
Kt 5110	«Hisob-kitob schyoti» - 600 000 so‘m

Har yili olinadigan daromadning hisoblanishi:

$$500000 - 10/100 = 50000 \text{ so‘m.}$$

Sotib olish va nominal qiymatlar o‘rtasidagi farq:

$$600000 - 500000 = 100000 \text{ so‘m, demak, har yilga } 100000/10 = 10000 \text{ so‘m.}$$

Yillik daromad hamda aksiyani sotib olish va nominal qiymatlari o'rtasidagi farq: $500\ 00 - 100\ 00 = 40\ 000$ so'm.

Yil oxirida olingan daromad va tafovutlar quyidagicha hisobga olinadi:

sotib olish va nominal qiymatlari o'rtasidagi farqqa:

Dt 4840	«Olinadigan dividendlar» - 10 000 so'm
Kt 0610	«Qimmatli qog'ozlar» — 10 000 so'm

yillik daromad hamda aksiyani sotib olish va nominal qiymatlari farqi orasidagi tafovut summasiga:

Dt 4840	«Olinadigan dividendlar» - 40 000 so'm
Kt 9520	«Dividendlar ko'rinishidagi daromadlar» - 40 000 so'm

hisob-kitob schyotiga pul kelib tushganida:

Dt 5110	«Hisob-kitob schyoti» - 50 000 so'm
Kt 4840	«Olinadigan dividendlar» - 50 000 so'm

Agar qimmatli qog'ozning nominal qiymati uni sotib olish qiymatidan ko'p bo'lsa, ushbu qog'oz bo'yicha daromad hisoblan- ganida nominal va sotib olish qiymatlari orasidagi farqning qismi ham hisobdan chiqariladi.

Odatda, uzoq muddatli qimmatli qog'ozlar kupon (qirqiladigan kupon) bilan chiqariladi. Ushbu talonlar bo'yicha muntazam ravishda muomala davrida foizlar to'lanadi.

Bu holda qimmatli qog'ozlarning nominal va sotib olish qiymatlari orasidagi farq korxonaga tegishli daromad hisoblan- ganida hisobdan chiqariladi.

Misol. «Nur» kompaniyasi «Bek» hissadorlik jamiyatining obligatsiyalarini 600 000 soʻmga sotib oldi. Ularning nominal qiymati 500 000 soʻm.

Obligatsiyalar boʻyicha yillik 20 foiz daromad har 6 oyda qirqiladigan kupon orqali berilishi moʻljallangan. Obligatsiyani sotib olish va nominal qiymatlari orasidagi farq $600\ 000 - 500\ 000 = 100\ 000$ soʻm. Muomala davri — 5 yil.

Obligatsiyani sotib olish:

Dt 0610	«Qimmatli qogʻozlar» — 600 000 soʻm
Kt 5110	«Hisob-kitob schyoti» — 600 000 soʻm.

Yarim yildan keyin obligatsiyalardan oylik stavkasining yarmi miqdorida daromad hisoblandi $(500\ 000 - 10/100) = 50\ 000$ soʻm:

Dt 4840	«Olinadigan dividendlar» — 50 000 soʻm
Kt 9520	«Dividendlar koʻrinishida daromadlar» — 50 000 soʻm

Bir vaqtning oʻzida obligatsiyani sotib olish va nominal qiymatlari orasidagi farq amortizatsiyalanadi $(100\ 000/10) = 10\ 000$ soʻm:

Dt 9610	«Foizli koʻrinishdagi xarajatlar» — 10 000 soʻm
----------------	---

Binobarin, 0610-«Qimmatli qogʻozlar» hisobvaragʻida yarim yildan keyin $(600\ 000 - 10\ 000) = 590\ 000$ soʻm, bir yildan keyin $(600\ 000 - 20\ 000) = 580\ 000$ soʻm hisobga olinadi.

Faraz qilaylik, bir yildan keyin obligatsiyalarning narxi birjada keskin pasayib ketdi. Shunga muvofiq, obligatsiyalar paketi 550 000 soʻm deb baholandi. Demak, joriy davrga obligatsiyalarning haqiqiy qiymati va balans qiymati orasidagi farq $(580\ 000 - 550\ 000) = 30\ 000$ soʻmni tashkil etadi. Hisobot davri oxirida ushbu muomalaga quyidagicha provodka beriladi:

Dt 9690	«Moliyaviy faoliyatdan boshqa xarajatlar» — 30 000 soʻm
----------------	---

Kt 0610	«Qimmatli qog'ozlar» — 30 000 so‘m
----------------	------------------------------------

Qolgan 4 yilga (yilda ikki marotaba $2 \cdot 4 = 8$) obligatsiya qiymati farqini qayta ko‘rib chiqish kerak: $(550\,000 - 500\,000) / 8 = 6250$ so‘m.

Bir yildan so‘ng, korxonada quyidagicha provodka beriladi:

obligatsiyaning haqiqiy va nominal qiymatlari orasidagi farqning amortizatsiya summasiga:

Dt 9610	«Foizli ko‘rinishdagi xarajatlar» — 6250 so‘m
Kt 0610	«Qimmatli qog'ozlar» — 6250 so‘m

obligatsiya bo‘yicha hisoblangan daromad summasiga:

Dt 4840	«Olinadigan dividendlar» — 50 000 so‘m
Kt 9520	«Dividendlar ko‘rinishidagi daromadlar» — 50000 so‘m

daromad hisob-kitob schyotiga olinganida:

Dt 5110	«Hisob-kitob schyoti» — 50 000 so‘m
Kt 4840	«Olinadigan dividendlar» — 50 000 so‘m

Qimmatli qog'ozlar mo‘ljallangan daromadni keltirmagan taqdirda yoki uni aynan kelajakda sotish uchun olingan bo‘lsa, ular boshqa tashkilotlarga sotib yuboriladi.

Qimmatli qog'ozlarni sotishda 9220-«Boshqa aktivlarning realizatsiyasi va boshqacha chiqib ketishi» hisobvarag'idan foydalaniladi.

Agar qimmatli qog'ozlarni sotish natijasida daromad olinsa, ushbu hisobvaraqning debeti 9320-«Boshqa aktivlarning realizatsiya qilishdan va boshqacha chiqib ketishidan olingan foyda» hisobvarag'ining krediti bilan, agar zarar ko‘rilgan bo‘lsa hisobvaraqning krediti 9430-«Boshqa operatsion xarajatlar» hisobvarag'ining debeti bilan korrespondentsiyada bo‘ladi.

Misol. «Do‘stlik» korxonasi avval olgan obligatsiyani boshqa korxonaga sotdi. Balans qiymati - 500 000 so‘m, sotish qiymati -400 000 so‘m.

Ushbu muomalalarga quyidagicha provodka beriladi:

- obligatsiyani sotishdan tushgan tushum:

Dt 5110	«Hisob-kitob schyoti» - 400 000 so‘m
Kt 9220	«Boshqa aktivlarning realizatsiyasi va boshqacha chiqib ketishi» - 400 000 so‘m

obligatsiyaning balans qiymati hisobdan chiqariladi:

Dt 9220	«Boshqa aktivlarning realizatsiyasi va boshqacha chiqib ketish» - 500 000 so‘m
Kt 0610	«Qimmatli qog'ozlar» - 500 000 so‘m

- sotishdan olingan zarar (500 000 - 400 000) = 100 000 so‘m:

Dt 9430	«Boshqa operatsion xarajatlar» - 100 000 so‘m
Kt 9220	«Boshqa aktivlarning realizatsiyasi va boshqacha chiqib ketishi» - 100 000 so‘m

Shu‘ba, qo‘shma va qaram korxonalariga mablag' sarflan- ganida, ushbu korxonalariga investitsiyalar mavjudligini hisobga oluvchi hisobvaraqlarning debeti asosiy vositalarni, nomoddiy aktivlarni, ishlab chiqarish zaxiralarini va pul mablag'larini hisobga oluvchi hisobvaraqlarning krediti bilan o‘zaro korrespondensiyada bo‘ladi. Investitsiyalarning uzilishida esa, ularni hisobga olib boruvchi hisobvaraqlarning krediti pul mablag'lari va aktivlarni hisobga oluvchi boshqa hisobvaraqlarning debeti bilan o‘zaro korrespondensiyada bo‘lishi mumkin.

1. Àmortizatsiyalangan qiymati bo'yicha hisob;

2. Xaqqoniy qiymat bo'yicha hisob (XK).

Tashkilot barcha moliyaviy majburiyatlarni amortizatsiyalanadigan qiymat bo'yicha baholashi kerak, quyidagilardan tashqari:

a) foyda va zararlar orqali xaqqoniy qiymat bo'yicha baholanadigan moliyaviy majburiyatlar. Bu kabi majburiyatlar, shuningdek proivodniy vositalar bo'lib hisoblanuvchi majburiyatlar keyinchalik xaqqoniy qiymat bo'yicha baholanadi;

b) moliyaviy aktivni berish paytida tan olishni to'xtatish uchun talablarga muvofiq kelmaganda yuzaga keladigan moliyaviy majburiyatlar;

v) moliyaviy kafolat shartnomalari. Dastlabki tan olgandan keyin, mazkur shartnomani chiqargan tomon bu shartnomani quyidagilardan eng ko'p summasida baholashi kerak:

- zararlar bo'yicha baholangan rezerv summasi; va

- MHXS (IFRS) 15 «Haridorlar bilan shartnomalar bo'yicha tushum» standartiga muvofiq dastlabki tan olingan summa, daromadning umumiy summasini ayrigandan keyin

g) bozor stavkasidan pastroq foiz stavkasi bo'yicha qarzlarni berish bo'yicha majburiyatlar. Mazkur majburiyatni tan olgan tomon keyinchalik bu majburiyatni quyidagilardan eng ko'pi bo'yicha baholashi kerak:

- zararlar uchun baholangan rezerv summasi; va

- MHXS 15 ga muvofiq dastlabki tan olingan summa, daromadning umumiy summasini ayrigandan keyin

d) bizneslarning birlashuvida sotib oluvchi tomonidan shartli qoplash summasi, ya'ni IFRS 3 qo'llaniladigan holatlarda. Bu kabi shartli qoplash majburiyati keyinchalik xaqqoniy qiymat bo'yicha foyda va zararlar orqali baxolanadi.

1-Misol

Àmortizatsiyalanadigan qiymat bo'yicha.

Kompaniya o'z hodimiga 01.10.2018 yilda foizsiz 800 000 sh.b. li zaym berdi. Zaymni qaytarish muddati 30.09.20120 yil va kompaniya xodim tomonidan mazkur qarzni qaytarishiga ishonchi komil. Kompaniya

odatda beriladigan biznes – zaymlar bo‘yicha 10% daromadni talab qiladi.

Echim.

Bu zaym moliyaviy aktiv bo‘lib hisoblanadi va 01.10.2018 y. da. dastlab xaqqoniy qiymati bo‘yicha tan olinadi

Bu kabi biznes - zaymlar bo‘yicha kompaniya 10 % li daromadni talab qilgani uchun, bu zaym aktiv ko‘rinishidagi dastlab 661 157 sh.b.da $(800\ 000/(1,10)^2$ aks ettirilishi kerak.

$800\ 000 - 661\ 157 = 138\ 843$ sh.b. 01.10.2015 y.da foyda va zararlarga olib boriladi.

Biznes modelga va shartnoma shartlarida ko‘rsatilgan pul oqimlariga muvofiq, bu aktiv keyinchalik amortizatsiyalanadigan qiymat bo‘yicha baholanadi.

30.09.2019 yilda 66,116 sh.b. $(661\ 157\ sh.b * 10\ \%)$ moliyaviy daromad sifatida aks ettiriladi. Zaym ko‘rinishidagi aktivning qoldik qiymati 727 273 sh.b. $(661\ 157 + 66\ 116)$ ga teng buladi va bu davrdan boshlab qarz qoldigi qisqa muddatli aktiv sifatida ko‘rsatiladi, to‘lov muddati 30.09.2020 yil bo‘lganligi uchun.

2-Misol

Foyda va zararlar tarkibida aks ettirish orqali xaqqoniy qiymat bo‘yicha baholash

01.10.2018 yilda ÀVS Kompaniyasi Z kompaniyasiga 10 mln sh.b. summasiga teng 3 yilga qarz berdi. Zaymning foiz stavkasi 8% yillik bo‘lib, davr oxirida to‘lanadi. 30.09.20120 yilda ÀVS kompaniyasi qarz to‘lovini amalga oshirish uchun Z kompaniyasining ma'lum miqdordagi aksiyalarini oladi. 30.09.2019 yilda Z kompaniyasi 800 000 sh.b. summasidagi foiz to‘lovini amalga oshirdi va likvidlilik bo‘yicha muammosi mavjud emas. To‘langan foizlarni hisobga olgan holda mazkur aktivning xaqqoniy qiymati 30.09.2019 yilga 10 mln.500 ming sh.b. deb baholangan.

Echim. Zaym oddiy tijorat shartlarida berilgani uchun, dastlab u 10 mln sh.b. da tan olinadi.

Olingan foizlar 800 000 sh.b. summada moliyaviy daromad sifatida foyda va zararlarda kreditlanib aks ettiriladi.

Bu holatda shartnoma shartlariga muvofiq to'lovlar alohida asosiy to'lov va qolgan qarz summasiga alohida foizlar to'lanishi ko'zda tutilmayapti. Shuning uchun keyinchalik bu moliyaviy aktiv qayta baholash natijalarini foyda va zararlar tarkibida aks ettirish orqali xaqqoniy qiymat bo'yicha baholanadi.

10mln 500 ming sh.b. dagi zaym ko'rinishidagi aktiv uzoq muddatli sifatida eks ettiriladi.

3-misol

Boshqa yalpi daromad tarkibida aks ettirish orqali xaqqoniy qiymat bo'yicha aks ettirish.

01.10.2018 yilda A kompaniyasi B kompaniyasining ulushli vositalarini sotib oldi, 12 mln.sh.b. tulab. Bu investitsiya A kompaniyasiga B kompaniyasini nazorat qilish yoki faoliyatiga muhim ta'sir o'tqazish imkoniyatini bermadi, lekin bu investitsiya uzoq muddatli deb hisoblanadi. 30.09.2018 yilda A kompaniyasining B kompaniyasiga investitsiyasining xaqqoniy qiymati 13 mln. sh.b deb baxolandi.

Echim.

Ulushli vositaga investitsiyalar dastlab sotib olishning xaqqoniy qiymati bo'yicha – 12 mln. sh.b summada aks ettiriladi.

Shartnomada belgilangan shartlarga ko'ra ulushli vositalarga investitsiyalar qarzning asosiy summasi va qarzning qolgan summasiga foiz to'lovini bildirmaydi. Demak, bu holatda aktiv qayta baholash natijasini foyda va zararlar tarkibida aks ettirish orqali xaqqoniy qiymat bo'yicha baholanadi.

Natijada qayta baholashdan 1 mln sh.b. farq yuzaga keladi (13 mln – 12 mln) va bu farq foyda va zararlar tarkibida tan olinadi, ya'ni aks ettiriladi.

Ulushli vositalarga investitsiyalar uzoq muddatga ushlab turilgani sababli, ya'ni savdo maqsadlaridagi portfel bo'lmaganligi uchun 01.10.2018 yilda bu aktivni o'zgarishlarini boshqa yalpi daromad tarkibida aks ettirish orqali xaqqoniy qiymat bo'yicha baholash usulini belgilash mumkin. U holda qayta baholash natijasidagi o'zgarish 1 mln .sh.b foyda va zararlar tarkibida emas, balki boshqa yalpi daromad tarkibida aks ettirilishi kerak bo'ladi.

Xedjirlash munosabatlari 3 turga bo‘linadi: 1) xaqqoniy qiymatni xedjirlash; 2) pul mablag‘larni xedjirlash; 3) xorijiy faoliyatga sof investitsiyalarni xedjirlash.

Tashkilot xedjirlashni hisobga olgan holda xedjirlash munosabatlarini aks ettirishi mumkin, agar samaradorlikning quyidagi mezonlari bajarilsa: 1) xedjirlash ob'ekti va xedjirlash vositasi o‘rtasida iqtisodiy o‘zaro bog‘liqlik mavjud bo‘lsa; 2) kredit tavakkalchiligi samaradorligi bunday iqtisodiy o‘zaro bog‘liqlikdan kelib chiqadigan qiymat o‘zgarishlaridan yuqori kelmasa, 3) xedjirlash munosabatlarining xedjirlash koeffitsienti iqtisodiy xedjirlashda foydalaniladigan xaqiqiy koeffitsientga teng bo‘lsa.

Kutilayotgan kredit zararlari (qadrsizlangan kreditlar bo‘yicha sotib olingan yoki tashkil qilingan moliyaviy aktivlardan tashkari) zahira orqali baholanishi kerak quyidagi qiymatlardan birida: 1) 12 oy davomida kutilayotgan kredit bo‘yicha yo‘qotish yoki 2) kreditning umumiy amal qilish muddati bo‘yicha zarar summasida. Ohirgi variant kredit tavakkalchiligi moliyaviy vositani dastlabki tan olish davridan sezilarli darajada ko‘tarilgan hollarda qo‘llaniladi.

Masalan, 1 aprelda korxonada 50,000 sh.b. qimmatli qog‘ozni sotib oldi, bunda brokerga 2,000 to‘landi.

1 aprel

Dt Joriy investitsiyalar 52,000

Kt Pul mablag‘lari 52,000

Agar kompaniya investitsiyalarni bozor qiymati bo‘yicha baholasa, unda hisobda investitsiya qiymatini ko‘tarilishi ham, pasayishi ham aks ettirilishi kerak. Faraz qilaylik, 1 mayda ushbu qimmatli qog‘ozning haqqoniy qiymati 54,000 sh.b., 1 iyunda esa 51,000 sh.b. gacha pasaygan.

1 may

Dt Joriy investitsiyalar -2,000

Kt Rezerv kapitali- 2,000

Qiymatni pasayishi 1 maydagi qayta baholash natijasini bekor qilib moliyaviy faoliyatdan zararga olib keladi

1 iyun

Dt Rezerv kapitali -2,000

Dt Investitsiyalarni baholashdan zarar -1,000

Kt Joriy investitsiyalar- 3,000

Àgar kompaniya investitsiyalarni tannarx yoki bozor narxidan eng past bahoda hisobga olsa, 1 may kuni o'tkazma berilmaydi, qiymatni pasayishi esa quyidagicha hisobga olinadi:

1 iyun

Dt Investitsiyalarni baholashdan zarar- 1,000

Kt Joriy investitsiyalar- 1,000

Uzoq muddatli investitsiyalar. Uzoq muddatli investitsiyalar - bir yildan uzoq bo'lgan muddatda egalik qilishga mo'ljallangan qimmatli qog'ozlarga qo'yilgan investitsiyalardir. Ular, odatda investitsiyaviy portfelda ulushli (aktsiyalar) va qarz (uzoq muddatli obligatsiyalar) qimmatli qog'ozlari bilan ifodalangan bo'ladi.

4. Qarzdorlikka oid qimmatli qog'ozlarga investitsiyalarning hisobi

Ushbu investitsiyalar uchta katta guruhga bo'linadi:

1. Qoplanish muddatigacha ushlab turiladigan – korxonada qoplanish muddati yetib kelmaguncha ushlab turishni nazarda tutgan yoki ushlab turgan qimmatli qog'ozlardir.

2. Savdo-sotiqqa oid – asosan yaqin kelajakda narxdagi qisqa muddatli farqdan daromadni olish maqsadida sotish uchun sotib olingan va saqlab turiladiganlar.

3. Qayta sotish uchun mavjud bo'lgan – ushbu turkumga birinchi ikkita turkumga kiritilmagan qarzdorlikka oid qimmatli qog'ozlar kiritiladi.

Àgar kompaniya qimmatli qog'ozni noma'lum davrgacha ushlab turishni mo'ljallasa, u qoplanish muddatigacha ushlab turadigan deb turkumlanishi mumkin emas.

4.5. Qisqa muddatli moliyaviy investitsiyalar hisobi

Qisqa muddatli moliyaviy investitsiyalar - o'zida muomala muddati 12 oydan oshmaydigan, yengil sotiladigan moliyaviy aktivlarning xarid qilinishiga oid investitsiyalardir. Ularning sintetik (umumlashgan) hisobi 5800-«Qisqa muddatli moliyaviy investitsiyalar» hisobvarag'ida yuritiladi.

Ushbu hisobvaraқ muddatli bo‘lib (bir yildan oshmagan muddat ichida), xo‘jalik yurituvchi subyektlarning investitsiyalarini, ya‘ni boshqa bir korxonalarining qimmatli qog‘ozlari, foizli davlat va mahalliy obligatsiyalari, shuningdek, bir korxonaning boshqa korxonaga bergan qarzlarning holati va harakati to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni umumlashtirish uchun xizmat qiladi.

Ushbu hisobvaraқ foizli obligatsiyalarga investitsiyalar va shu kabi qimmatli qog‘ozlar, shuningdek, boshqa korxonalariga berilgan qarzning holati va harakati to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni umumlashtirish uchun xizmat qiladi.

Agar foizli obligatsiyalarga investitsiyalar va shu kabi qimmatli qog‘ozlar, shuningdek, boshqa korxonalariga berilgan qarzlarni qaytarish muddati bir yildan oshmasagina, bu investitsiyalar 5800-«Qisqa muddatli moliyaviy investitsiyalar» hisobvarag‘ida hisobga olib boriladi.

Bundan tashqari, qaytarish (qayta sotib olish) muddati ko‘rsatilmagan boshqa qimmatli qog‘ozlar uchun investitsiyalar, agar ulardan daromad olish mo‘ljali bir yildan ortiq bo‘lmasa ham korxonalar 5800-«Qisqa muddatli moliyaviy investitsiyalar» hisobvarag‘ida sintetik hisobini olib boradi.

Hisobvaraqlar rejasiga muvofiq, ushbu hisobvaraқ bo‘yicha quyidagi hisobvaraqlar ochilishi mumkin:

5810 -«Qimmatli qog‘ozlar»;
5830 -«Berilgan qisqa muddatli qarzlardir»;
5890 -«Boshqa joriy investitsiyalar».

Korxonalarda 5810-«Qimmatli qog‘ozlar» hisobvarag‘ida aksiya, davlat va mahalliy zayomlarning foizli obligatsiyalariga bir yildan kam muddatga qilingan investitsiyalarning holati hisobga olib boriladi.

Korxonalar daromadli va barqaror faoliyat yurituvchi boshqa bir korxonalar aksiya yoki obligatsiyalarini bir yildan kam muddatga xarid qilganda 5810-«Qimmatli qog‘ozlar» hisobvarag‘i debetlanib, 5110-«Hisob-kitob schyoti», 5210-«Valuta schyoti» yoki boshqa moddiy va har xil qimmatliklarni hisobga oluvchi hisobvaraqlar kreditlanadi (agar qimmatli qog‘ozlarning qiymati moddiy qimmatliklar bilan to‘lansa yoki sotuvchi korxonaga berilsa).

Ushbu qimmatli qog'ozlarni sotish va qayta sotish (qoplash) jarayonida 9220-«Boshqa aktivlarning sotilishi va turli chiqimi» hisobvarag'i debetlanib, 5810-«Qimmatli qog'ozlar» hisobvarag'i kreditlanadi.

5830-«Berilgan qisqa muddatli qarzlarni» hisobvarag'ida korxonalarining boshqa bir korxonaga bergan qisqa muddatli qarzlarning harakati hisobga olinadi.

Ushbu berilgan qarzlarga quyidagicha: debet 5830- «Berilgan qisqa muddatli qarzlarni» hisobvarag'i, kredit 5110-«Hisob-kitob schyoti» yoki boshqa hisobvaraqlar yozuvi beriladi.

Korxonalar bergan qarzlari qaytarib berilganda 5110-«Hisob- kitob schyoti» yoki boshqa hisobvaraqlar debetlanib, 5530- «Berilgan qisqa muddatli qarzlarni» hisobvarag'i kreditlanadi.

5890-«Boshqa joriy investitsiyalar» hisobvarag'ida korxonalarining mamlakat va xorij valutalarida omonat sertifikatlari, banklardagi depozit schyotlarga qilingan investitsiyalar va boshqa joriy investitsiyalarning harakati hisobga olinadi.

Korxonalarda 5800-«Qisqa muddatli moliyaviy investitsiyalar» hisobvarag'i bo'yicha analitik hisob investitsiyalar va obyektlarning turlari bo'yicha, ya'ni sotib olingan qimmatli qog'ozlar turlari va ularni chiqargan korxonalar bo'yicha yuritiladi.

Masalan, korxonalar 5810-«Qimmatli qog'ozlar» hisobvarag'ida alohida «Davlat obligatsiyalari», «Mahalliy zayom obligatsiyasi». «Korxonalar obligatsiyasi» (obligatsiyaning turlari bo'yicha), shuningdek, aksiyaning turlari bo'yicha «Oddiy aksiyalar» va «Imtiyozli aksiyalar» uning obyektlari bo'yicha ham (aksiyani chiqargan korxonalar bo'yicha) alohida analitik hisobvaraqlar ochib, ularning harakatini hisobga oladi.

5830-«Berilgan qisqa muddatli qarzlarni» hisobvarag'ida analitik hisob qarzlarni olgan korxonalar bo'yicha berilgan qarzni qaytarib olish muddatlari bo'yicha yuritiladi.

Korxonalarda ochilgan analitik hisobvaraqlar mamlakat hududidagi va xorijdagi qisqa muddatli moliyaviy investitsiyalar to'g'risida ma'lumot olish imkonini berishi kerak. Korxonalarda moliyaviy

investitsiyalarning sintetik hisobi ularning muddatidan kelib chiqqan holda alohida hisobvaraqlarda yuritiladi.

4.1-jadval

5800-«Qisqa muddatli moliyaviy investitsiyalar» hisobvarag'i bo'yicha hisobvaraqlar korrespondensiyasi

T/r	Xo'jalik muomalalarining mazmuni	Hisobvaraqlar korrespondensiyasi	
		debet	kredit
1.	Asosiy vositalarni berish hisobiga qimmatli qog'ozlarning qabul qilinishi	5810	9210
2.	Nomoddiy aktivlarni berish hisobiga qimmatli qog'ozlarning qabul qilinishi	5810	9220
3.	Qimmatli qog'ozlarni ularning qiymatini hisob-kitob va valuta schyotlaridan to'lash orqali xarid qilinishi	5810	5110 5210- 5220
4.	Qimmatli qog'ozlarning naqd pul hisobiga xarid qilinishi	5810	5010
5.	Tayyor mahsulot va tovarlar ko'rinishida qisqa muddatli qarzlarning berilishi	5830	9010 9020
6.	Qimmatli qog'ozlarning sotilishi	5110	5810
7.	Boshqa korxonalaridan qisqa muddatli qarzlarning qaytarilishi	5110	5830
8.	Mol yetkazib beruvchilardan bo'lgan qarzning qimmatli qog'ozlarni berish hisobiga uzilishi	6010	5810

Obligatsiyalar va shu kabi qimmatli qog'ozlar investor tomonidan balansda aktivlar hisobvarag'ida olish bilan bog'liq barcha harajatlarni hisobga olgan holda sotib olish qiymati bo'yicha aks ettiriladi. Agar sotib olish qiymati nominal qiymat (to'lash qiymati)dan farq qilsa, u holda sotib olish qiymati va nominal qiymati orasidagi farq (ustama yoki chegirma) summasi, obligatsiyalar chiqarilgan muddat davomida hisobdan chiqariladi. Ustamaning hisobdan chiqarilishi qisqa va uzoq

muddatli investitsiyalar hisobvaraqlarning kreditlanishi bilan, chegirmalar esa ushbu hisobvaraqlarning debetlanishi bilan amalga oshiriladi, chunki obligatsiyalarning to'lanish davrigacha ularning balans qiymati nominal qiymatga to'g'ri kelishi kerak. Obligatsiyalar bo'yicha ustamalar va chegirmalarning hisobdan chiqarilishining davriyligi ular bo'yicha hisoblangan foiz daromadlarining davriyligiga mos keladi. Berilgan hisobot davrida hisobdan chiqarilishi lozim bo'lgan chegirma, ustama summalari foiz daromadi yoki xarajati deb ta'riflanadi.

Masalan: 01-yanvarda 6 oylik muddatga nominal qiymati 200,000 sh.b. bo'lgan, 12 % lik obligatsiya har oylik foizlar to'lovi sharti bilan 188,000 sh.b.ga sotib olindi.

Dt Qisqa muddatli investitsiyalar- 188,000

Kt Pul mablag'lari-188,000

01 yanvarda 6 oylik muddatga nominal qiymati 200,000 sh.b. bo'lgan, 12 % lik obligatsiya har oylik foizlar to'lovi sharti bilan 206,000 sh.b.ga sotib olindi.

Dt Qisqa muddatli investitsiyalar-206, 000

Kt Pul mablag'lari-206,000

Qisqa muddatli investitsiyalar bo'yicha foiz daromadlarini hisoblash
31 yanvarda:

Dt Olinadigan foizlar $(200\ 000 \times 0,12 \times 1/12) = 2,000 \times 2=4,000$

Kt Qisqa muddatli investitsiyalardan foiz ko'rinishidagi daromad-4,000

Obligatsiyaning sotib olish va nominal qiymati o'rtasidagi farqni hisobdan chiqarish: Chegirma (diskont):

Dt Qisqa muddatli investitsiyalar- $(200,000 -188, 000) \times 1/6) 2,000$

Kt Qisqa muddatli investitsiyalardan foiz ko'rinishidagi daromad-2,000

Ustama (mukofot):

Dt Boshqa foiz ko'rinishidagi xarajatlari $(206,000 - 200,000) \times 1/6)$
1,000

Kt Qisqa muddatli investitsiyalar-1,000

Hisoblangan foiz daromadining kelib tushishi:

01-fevralda:

Dt Pul mablag'lari- 4,000

Kt Olinadigan foizlar-4,000

Qisqa muddatli obligatsiyalarning to'lanishi (emitent tomonidan sotib olinishi):

30 iyunda:

Dt Pul mablag'lari-400,000

Kt Qisqa muddatli investitsiyalar- 400,000

(nominal qiymati 200,000 sh.b. bo'lgan ikkita 12 %li obligatsiyalar)

Davlatning qisqa muddatli qarzi hisoblangan xazina veksellari odatda belgilangan daromad foiziga ega bo'lmaydi, ular chegirma bilan chiqariladi va ushbu chegirma vekselning foiz daromadi hisoblanadi.

Masalan, faraz qilaylik, 1-martda kompaniya 197,000 sh.b.ga to'lov muddati 120 kundan keyin keladigan hazina vekselini sotib oldi, unga to'lov 200,000 sh.b.ni tashkil qiladi.

01- martda:

Dt Qisqa muddatli investitsiyalar-197,000

Kt Pul mablag'lari-197,000

30- iyunda:

Hazina veksellarining to'lanishi:

Dt Pul mablag'lari-200,000

Kt Foizlar bo'yicha daromadlar- 3,000

Kt Qisqa muddatli investitsiyalar-197,000

Foizlar bo'yicha hisoblangan summalarni qo'shgan holda foizlarni to'lash sanalari orasidagi davrda obligatsiyalarni sotib olish hisobi:

Nominal qiymati 100,000 sh.b. bo'lgan 10 %li obligatsiya 5 yillik muddatga 31 dekabr va 30 iyunda foizlari to'lanishi sharti bilan 101,667 sh.b.ga sotib olinmoqda, shu jumladan hisoblangan daromad foizi 1, 667 ($100,000 \times 0,1 \times 2/12$) ni tashkil qiladi.

01 -martda:

Dt Uzoq muddatli investitsiyalar -100,000

Dt Boshqa debitor qarzdorlik- 1,667

Kt Pul mablag'lari- 101,667

Sotib olish davridan boshlab foiz to'lanadigan sanagacha bo'lgan davr uchun foiz daromadining hisoblanishi:

30- iyun:

Dt Olinadigan foizlar $(100,000 \times 0,1 \times 4/12)=3,333$

Kt Boshqa investitsiyalardan foiz ko'rinishidagi daromad=3,333

30- iyun:

Foiz to'lanadigan butun davr uchun foiz daromadining kelib tushishi:

Dt Pul mablag'lari-5,000

Kt Olinadigan foizlar -3,333

Kt Boshqa debitorlik qarzlari-1,667

Olingandan keyin ulushga oid qimmatli qog'ozlarga investitsiyalarning hisobi, odatda, bir kompaniya (investor) boshqa kompaniyaning (investitsiya qo'yilgan kompaniya) oddiy aktsiyalarida ulushli ishtiroki darajasiga bog'liq holda belgilanadi. BHXSga muvofiq bir kompaniyaning boshqa kompaniyaga qilingan investitsiyalari investitsiyalanadigan kompaniyada investor ega bo'lgan ovozga ega aktsiyalar foiziga bog'liq holda turkumlanadi:

1. 20 % gacha ega bo'lgan ulush (qiymat usuli) – investor passiv ulushga ega.
2. 20 % dan 50 % gacha ega bo'lgan ulush (ulushda qatnashish usuli) – investor ahamiyatli ta'sirga ega.
3. 50 % dan yuqori bo'lgan ulush (umumlashgan hisobot) – investor aktsiyalarni nazorat to'plamiga ega.

Uyushmalashtirilgan korxonalar – investorning sho'ba korxonasi ham, qo'shma korxonasi ham bo'lmagan, ammo investor ahamiyatli ulushga ega bo'lgan korxonadir.

Ahamiyatli ta'sir – boshqarish siyosatida nazorat bo'lmagan holda investorni investitsiya qilingan korxonaning moliyaviy va ishlab chiqarish siyosati bo'yicha qarorlarni qabul qilishda ishtirok etishga vakolatning mavjudligiga aytiladi.

Agar investor, to'g'ri yoki bilvosita o'z sho'ba korxonalari orqali investitsiya qilingan korxonalar 20 % yoki ko'proq foiz ovozga ega bo'lsa, investor ahamiyatli ta'sirga ega deb tushuniladi. Agar investor, to'g'ri yoki bilvosita o'z sho'ba korxonalari orqali investitsiya qilingan korxonalar 20 % foizdan kam ovozga ega bo'lsa, investor ahamiyatli ta'sirga ega emas deb tushuniladi. Bunday holatda investitsiyalarni hisobi xarajatlarning haqiqiy summasi bo'yicha yuritiladi.

Investitsiyalar hisobining usullari

1. Qiymat usuli. Ushbu usulni qo'llaganda investor o'z investitsiyasini boshqa korxonaga joriy qiymati bo'yicha qo'yadi. Investor daromadni investitsiya qilingan korxonaning yig'ilgan sof foydasini sotib olingan kundan keyin yuzaga kelgan qismidan tushgan to'lovlarni olgan zahoti tan oladi. Bunday foydadan ortiqcha olingan to'lovlar investitsiyalarni qaytishi sifatida ko'riladi.

2. Ulushda qatnashish usuli. Boshida investitsiya qiymati bo'yicha ko'rsatiladi, joriy summa osadi yoki investorning ulushini investitsiya qilingan korxonaning sotib olingan sanasidan keyingi foyda yoki zararlarida tan olish uchun kamayadi. Investitsiya qilingan korxonadan olingan tolovlar investitsiyani joriy qiymatini kamaytiradi. Investitsiyani joriy qiymatini tuzatish mulkni, asbob-uskunani va investitsiyalarni qayta baholash hamda kursdagi farqlar yuzaga kelganda amalga oshiriladi.

Ustav kapital da ulush	Investitsiyalar hisobining usuli	Foyda e'lon qilindi	Dividendlar e'lon qilindi	Dividendlar o'z e'loni
20% dan kam	Qiymat usuli	-	Dividendlardan daromad tan olinadi Dt Olinadigan dividendlar Kt Dividend ko'rinishidagi daromad	D-t Pul mablag'lari K-t Olinadigan dividendlar
20% - 50%	Ulushda qatnashish usuli	Investitsiya qiymati ulushga mutanosib ko'payadi Dt	Investitsiya qiymati kamayadi Dt Olinadigan dividendlar	D-t Pul mablag'lari K-t Olinadigan dividendlar

		Investitsiya Kt Investitsiya dan olingan daromad	Kt Investitsiya	
50%da n yuqori	Umumlas hgan moliyavi y hisobot			

IV BOB bo`yicha xulosa

Bozor iqtisodiyotini chuqurlashtirish sharoitida korxonalar, tashkilot va muassasalarda mavjud mablag'lardan samarali foydalanish, korxonalar ixtiyorida aktivlarning samaradorligini maksimal darajada ko'tarish asosiy vazifa hisoblanadi. Chunki mablag'lardan samarali foydalanish korxonalar aktivlari unumdorligini oshirishda va bu orqali maksimal darajada foyda olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

1. Moliyaviy investitsiyalar-daromad olish (xuddi foizlar, royalti, dividendlar va ijara haqi singari) va asosiy kapital qiymatini ko'paytirish maqsadida uning tasarrufida bo'lgan korxonalar aktivlaridir

2. Investitsion faoliyatning faollashuvida investorlar muhim rol o'ynaydi. Investor o'z sarmoyasini biror-bir obyektga yo'naltirar ekan, avvalo, uning mablag'i kelajakda qanchani tashkil etishi, ya'ni yo'naltirgan sarmoyasining muayyan davrdan so'ng qancha miqdorga teng bo'lishi qiziqtiradi. Buning uchun investor o'z mablag'ini diskontlashi lozim. Diskont baho ham investitsiyalarni hisobga olishda keng qo'llaniladi.

Nazorat savollari

1. Moliyaviy investitsiyalarning mohiyatini tushuntirib bering.
2. Moliyaviy investitsiyalarni hisobga olishning vazifalari nimalardan iborat?
3. Uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalar qanday turkumlanadi?
4. Uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalar nima sababdan baholanadi?
5. Investitsiyalarni diskontlash deganda nimani tushunasiz?

6. Uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalar harakati hisobda qanday aks ettiriladi?
7. Bozor iqtisodiyoti sharoitida moliyaviy investitsiyalarning ahamiyati nimada?
8. Moliyaviy investitsiyalar yuridik va jismoniy shaxslarning ixtiyorida mavjud bo'lgan bo'sh pul mablag'laridan samarali foydalanishni ta'minlaydimi?
9. Moliyaviy investitsiyalar muddatiga ko'ra qaysi turlarga bo'linadi?
10. Uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalarni hisobga olishning vazifalarini sanab bering.
11. Uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalarni buxgalteriya hisobida hisobga olishning ahamiyati nimada?
12. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida qimmatli qog'ozlarning ahamiyati.
13. Dividend deganda nimani tushunasiz?
14. Hosilaviy qimmatli qog'ozlarga nimalar kiradi?
15. Depozit sertifikatlari haqidagi tushunchangiz.
16. Xo'jalik yurituvchi subyektlar uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalarni qaysi baholarda hisobga olib boradi?
17. Qayta baholashning yakka tartibdagi usuli deganda nimani tushunasiz?
18. Qayta baholash natijasida uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalar qiymatining oshib ketishi qaysi hisobvaraqda hisobga olinadi?
19. Uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalar o'z qiymatining bir qismini yo'qotgan hollarda nima qilish kerak?
20. Kelajakda moliyaviy daromad olish maqsadida korxonaning davlat korxonasiga, xayriya yoki ekologik tashkilotlarga investitsiyalarining mavjudligi qaysi hisobvaraqda hisobga olib boriladi?

Testlar

1. Qaysi qiymat bo'yicha qimmatli qog'oz birlamchi bozorda sotiladi?
 - a) Emissiya qiymati
 - b) Nominal qiymati
 - c) Bozor qiymati

d)Funksional qiymati

2. Ta'rischilardan olingan nomoddiy aktivlar kirim qilinadi

- a) sotish bahosi
- b) kelishuv bahosida
- c) qoldiq bahosida
- d) hohlagan bahoda

3. Kapital investitsiyalar

- a) nomoddiy aktivning qiymatini oshiradi
- b) nomoddiy aktivning qiymatini oshirmaydi
- c) ta'mirlash bilan bog'liq harajatlar
- d) sotish bilan bog'liq harajatlar

4. Buxgalteriya hisobi qanday turlarga bo'linadi?

- a) operativ va analitik
- B) moliyaviy va boshqaruv
- c) moliyaviy va statistik
- d) boshqaruv va texnik

5. Auditor qimmatli qog'ozlarni to'g'ri baholanganligini tekshiruvni chog'ida 12-sonli «Moliyaviy investitsiyalar hisobi» nomli BHMS ning nechanchi bandlaridagi qoidalarga asoslanadi?

- a) 7 va 15
- b) 9 va 19
- c) 6 va 10
- d) 11 va 21

6. «Dividendlar ko'rinishidagi daromadlar» qaysi schetda hisobga olinadi?

- a) 9510
- b) 9520
- c) 9530
- d) 9540

7. Auditor sotib olingan qimmatli qog'ozlardan tashqari korxonaning o'zida chiqarilgan qimmatli qog'ozlar saqlanishi ham mumkinligini bilishi zarur. Bunday qimmatli qog'ozlar o'z jamoasi a'zolariga sotilguncha yoki birjaga berilgunga qadar qaysi schetda hisobga olinadi?

- a) 5810 «Qimmatli qog'ozlar» schetida

- b)5890 «Boshqa joriy investitsiyalar» schetida
- c)006-«Qat'iy hisobot varaqlari» degan balansdan tashqari schyotda
- d)0610 «Qimmatli qog'ozlar» schetida

8. Qimmatli qog'ozni xarid qilishda sarf qilingan haqiqiy xarajatlar qiymati qanday ataladi?

- a)Emissiya qiymati
- b)Nominal qiymati
- c)Balans qiymati
- d)Garov qiymati

9. Agar qimmatli qog'ozlar korxonaning kassasida saqlansa, ularning inventarizatsiyasi qaysi muddatda pul mablaglarining tekshiruvi bilan birgalikda o'tkazilishi lozim?

- a)Har oyda
- b)Har kuni
- c)Har 10 kunda
- d)Har chorakda

10. Moliyaviy investitsiyalarni inventarizatsiyadan o'tkazishning xususiyati nafaqat qimmatli qog'ozlarning haqiqatda mavjudligi, balki qimmatli qog'ozlarni baholash ya'ni, ularning qiymatini shakllantiruvchi qaysi xarajatlar to'g'riligini aniqlashdan iborat?

- a)Emission xarajatlar
- b)Ma'muriy xarajatlar
- c)Foizli xarajatlar
- d)Haqiqiy xarajatlar

V bob. INVESTITSİYALAR AUDITINI REJALASHTIRISH

Xalq boy bo'lsa, davlat ham boy va qudratli bo'ladi.

SH.M. Mirziyoyev,

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

5.1. Investitsiyalar auditini rejalashtirishning maqsadi, vazifalari, bosqichlari va asosiy tamoyillari

Har qanday faoliyat, xususan, auditorlik faoliyati ham samarali bo'lishi uchun, dastavval uning puxta va aniq rejasi yoki dasturini tuzish lozim. Ularning mazmuni qo'yilgan maqsad va uni bajarish uchun belgilangan aniq vazifalardan kelib chiqadi. Auditning maqsadlari, xususan, quyidagilardan iborat: buxgalteriya hisobining holatini ekspertiza yo'li bilan baholash, yillik moliyaviy hisobot ma'lumotlarining haqqoniyligini tekshirish va tasdiqlash, valuta muomalalarini taftish qilish, aksiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar emissiyasi prospektining ma'lumotlarini tasdiqlash, korxonaning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash bo'yicha tadbirlar ishlab chiqish, iqtisodiyot va moliyaviy huquq sohasidagi yangi qonunchilik hujjatlari bo'yicha aniq maslahat (konsultatsiya) o'tkazish va hokazo.

Investitsiyalar auditini rejalashtirish chog'ida auditorlik tashkiloti tomonidan qo'llaniladigan me'yorlar "Moliyaviy xisobot auditini rejalashtirish" nomli 300-sonli auditning xalqaro standartlari (AXS) bilan belgilanadi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, audit rejasini puxta tuzmasdan, sifatli auditorlik tekshiruvi o'tkazish mumkin emas. Amalda investitsiyalar auditini rejalashtirish jarayoni auditorlik tashkiloti bilan xo'jalik yurituvchi subyekt o'rtasida shartnoma tuzilgunga qadar boshlanadi.

Bu holat ko'p hollarda, agar mijoz bilan shartnoma tuzilmasa, auditni rejalashtirish bilan bog'liq xarajatlar qaysi mablag'lar hisobidan mablag' bilan ta'minlanishi to'g'risidagi savolni yuzaga keltiradi.

Keyinchalik shartnoma tuzilgan holda auditni dastlabki rejalashtirishga doir ishlar qiymati (xo'jalik yurituvchi subyekt rahbariyatiga yozma axborot) va auditorlik xulosasi tuzishni nazarda

tutish lozim. Rejalashtirish chog'ida auditor quyidagilarni hisobga olishi zarur:

- kelgusi davrdagi vaqt sarfi hisob-kitobi (takroriy audit o'tkazish hollarida) va haqiqiy mehnat xarajatlari;
- muhimlik darajasi;
- auditorlarni ularning malakaviy darajalari va lavozimlariga muvofiq audit o'tkaziladigan muayyan uchastkalarga taqsimlash;
- auditorlik guruhining barcha a'zolariga yo'l-yo'riq ko'rsatish, ularni mijozning moliya-xo'jalik faoliyati bilan tanishtirish;
- auditorlik guruhi rahbarining reja bajarilishi va yordamchi auditorlar ishlari sifati ustidan nazorat o'rnatishi;
- auditorlik amallarini bajarish bilan bog'liq uslubiy masalalarni tushuntirish.

Auditorlik tekshiruvini amalga oshirish chog'ida ko'p hollarda mijoz faoliyatini 100 % tekshirish mumkin bo'lmaydi. Shu boisdan rejada auditorlik tanlash qay tarzda amalga oshirilishini ko'rsatish zarur.

Audit umumiy rejasi va dasturining ayrim bo'limlarini xo'jalik yurituvchi subyekt rahbariyati bilan kelishish ko'zda tutilgan bo'lib, bunda auditorlik tashkiloti audit uslublari va usullarini tanlashda mustaqil bo'lib qoladi.

Ko'p hollarda bunday kelishish, mijoz faoliyatining ayrim uchastkalarni batafsilroq tahlil etish bilan bog'liq masalalarni rejalashtirish bosqichida ko'zda tutish, auditorning tekshiruv chog'idagi xatti-harakatlari mijoz korxonaga rahbariyati uchun tushunarli bo'lishi, shuningdek, auditorning ish jadvaliga muvofiq talab qilinadigan hujjatlar mijoz tomonidan tezkorlik bilan taqdim qilinishi va tekshiruvning u yoki bu bosqichida zarur bo'ladigan moliyaviy xizmat xodimlarini ishdan ozod etish uchun maqsadga muvofiqdir.

5.2. Investitsiyalar auditining dasturini tuzish

Standartga muvofiq, auditning umumiy rejasi tuzilganidan so'ng audit dasturi tuzilib, unda barcha auditorlik amallarining batafsil ro'yxati bayon qilinishi zarur.

Dastur auditorlar uchun batafsil yo‘riqnoma bo‘lib, unda tekshirilishi lozim bo‘lgan buxgalterlik hisobining barcha bo‘limlarini tekshirish, shuningdek, ichki nazorat tizimini tahlil qilish bo‘yicha ularning barcha xatti-harakatlari aks ettirilgan bo‘lishi lozim.

Audit dasturini tuzish yuzaki bajarilmasligi lozim, chunki u auditorlar ishidagi ta'sirchan nazorat dastagi bo‘lib xizmat qiladi, dasturning har bir bo‘limi bo‘yicha auditor xulosalari esa auditorlik hisoboti va auditorlik xulosasini tuzish uchun asos bo‘lib xizmat qilishi lozim.

«Moliyaviy xisobot auditini rejalashtirish» nomli 300-sonli AXS «Auditorlik tanlash va testlashning boshqa tanlash amallari» nomli 530-sonli, «Tavakkalchilikni va ichki nazorat tizimini baholash» nomli 400-sonli, «Hujjatlashtirish» nomli 230-sonli va auditorlik tekshiruvini amalga oshirishni tartibga soladigan boshqa standartlar bilan o‘zaro chambarchas bog‘liq. Shunday qilib, boshqa standartlardagi talablarni o‘rganmasdan va izchil bajarmasdan, ushbu standart talablarini bajarish mumkin emas.

Auditor o‘z ishini shunday rejalashtirishi lozimki, buxgalterlik (moliyaviy) hisobotlarini moliya-xo‘jalik muomalalarining ishonchliligi va qonuniyligini hamda ular buxgalteriya hisobi schyotlarida aks ettirilishining to‘g‘riligini o‘z vaqtida va sifatli auditorlik tekshiruvidan o‘tkazish imkoni bo‘lsin.

Auditni rejalashtirish quyidagilarni ta'minlashi lozim:

- a) buxgalterlik hisobi va hisobotining holati hamda ichki nazorat tizimining samaradorligi to‘g‘risida zarur axborotlarni olish;
- b) bajarilishi lozim bo‘lgan nazorat amallarining mazmuni, o‘tkazish vaqtini va hajmini aniqlash.

Auditni rejalashtirish kutilgan ishlar rejasini tuzish va auditorlik dasturini ishlab chiqishni o‘z ichiga oladi.

Rejalashtirish jarayoni parokanda qismlardan tarkib topmaydi, balki uzluksiz va takrorlanuvchi xususiyat kasb etadi. Mazkur jarayon odatda oldingi audit yakunlangani zahoti (yoki u bilan bir vaqtda) boshlanadi va joriy audit kelishuvi yakunlangunga qadar davom etadi. Biroq, auditni rejalashtirishda auditor keyingi auditorlik tartib-taomillari bajarilgunga qadar yakunlanishi lozim bo‘lgan muayyan ishlar va

auditorlik tartib-taomillarini bajarish muddatlarini e'tiborga olishi lozim. Masalan, rejalashtirish muhim buzib ko'rsatishlar risklari auditor tomonidan aniqlangunga yoki baholangunga qadar quyidagi masalalarni ko'rib chiqish zaruratini o'z ichiga oladi:⁴⁷

- a. Risklarni baholash doirasida bajarilishi lozim bo'lgan tahliliy tartib-taomillar.
- b. Tadbirkorlik sub'ektiga nisbatan qo'llaniladigan me'yoriy huquqiy baza haqida va mazkur baza talablariga tadbirkorlik sub'ekting muvofiqligi haqida umumiy bilim olish.
- c. Muhimlik darajasini aniqlash.
- d. Ekspertlar ishtiroki.
- e. Risklarni baholash bo'yicha boshqa tartib-taomillarni bajarish.

Kutilayotgan ishlar rejasida quyidagi ko'rsatkichlar aks ettiriladi:

- audit o'tkazish muddati va ishlarning davomiyligi;
- bajariladigan ishlar hajmi;
- auditor qo'llaydigan usullar va amallar.

Auditor o'z rejasini tekshiriladigan korxonaga rahbariyati va xodimlari bilan muhokama qilishi mumkin. Bu o'tkaziladigan auditning ta'sirchanligini oshirish va auditorlik amallarini korxonaga xodimlari faoliyati bilan muvofiqlashtirishga imkon yaratadi.

Auditor rejani yaxshi va sifatli tuzish hamda ishlarning kutilayotgan hajmini aniq hisobga olish uchun, eng avvalo:

- auditorlik tekshiruvini o'tkazish shartnomasi shartlarini o'rganishi;
- o'tkaziladigan auditning eng muhim masalalarini ajratib olishi;
- maxsus e'tibor talab qiladigan shartlarni aniqlashi;
- tekshiriladigan korxonaga faoliyatining predmetini hisobga olgan holda yangi qonunlar, nizomlar, yo'riqnomalar va boshqa aloqador me'yoriy hujjatlarning auditga ta'sirini o'rgatishi;
- tekshiriladigan korxonaning hisob tizimi va ichki audit tizimining ishonchlilik darajasini aniqlashi;
- ichki auditorlarning ishlari va ularni auditga jalb qilish mumkinligini tahlil qilishi;

⁴⁷ www.naaa.uz Auditning xalqaro standarti: 300- Moliyaviy xisobot auditini rejalashtirish.

- korxonaning alohida balansga ajralib chiqarilgan filiallari, vakolatxonalarini, bo'limlari va maxsus bo'linmalarida audit o'tkazish maqsadga muvofiqligini o'rganishi;

- eksportlarni jalb qilish zarurligini aniqlashi lozim.

Auditorlik tekshiruv chog'ida audit rejasiga tuzatishlar kiritilishi mumkin.

Auditor tekshiruv vaqtida ular tomonidan bajariladigan ishlarining hajmi va sifatini tasdiqlaydigan, asosiy xarajatlardan bo'lib hisoblangan ish hujjatlarini tuzishi lozim. Bu hujjatlar ixtiyoriy shaklda tuzilib, ularda mijoz to'g'risidagi zarur ma'lumotlar, bajariladigan ishlarning batafsil bayoni bo'lishi lozim.

Xususan, quyidagilar ko'rsatiladi: tekshiruv o'tkazish uslubi (yoppasiga tanlab) yoki tekshiriladigan hujjatlarning hajmi; tekshiruv natijasida aniqlangan kamchiliklar; tekshiruvga taqdim etilmagan dastlabki va boshqa hujjatlar ro'yxati; amaldagi qonunchilikka mos kelmasliklar; aniqlangan kamchiliklarni bartaraf qilish usullari to'g'risida auditorning fikrlari; mijozning moliya-xo'jalik faoliyatini yaxshilashga qaratilgan boshqa tavsiyalar.

Shuningdek, ish hujjatlarida mijoz-korxonaning ichki xo'jalik nazorat tizimini (ushbu tizimning ijobiy tomonlari va salbiy jihatlari ajratib ko'rsatgan holda), o'tgan yildagi audit dasturi va uning natijalarini aks ettirish zarur.

Ish hujjatlari auditning yaxshi rejalashtirilganligini, to'plangan ma'lumotlar ishonarliligini, auditorlik xulosasining amalga oshirilgan audit natijalariga muvofiqligini tasdiqlashi lozim. Zarur hollarda auditor haqiqatan ham aynan shunday auditorlik xulosasi tuzish uchun yetarli guvohliklar to'planganligini ham baholashi zarur.

Ish hujjatlaridagi tafsilotlar tasdiqlangan moliyaviy hisobotdagi ma'lumotlardan farq qilmasligi o'ta muhimdir. Auditorlik xulosalari yaqqol va ikki xil ma'no bildirmaydigan bo'lishi lozim.

Ish hujjatlarida aks ettirilgan yozuvlarga asosan auditorlik hisoboti va auditorlik xulosasi tuziladi. Auditorning ish hujjatlari maxfiy hisoblanadi.

Audit yakunlanganidan soʻng ish hujjatlarini himoyalash boʻyicha barcha zarur choralar koʻrilishi kerak. Ish hujjatlari begona shaxslarga, agar boshqa holatlar Oʻzbekiston Respublikasi qonunchiligida koʻzda tutilmagan boʻlsa, faqat mijoz-korxonaning roziligi bilan berilishi mumkin.

Auditorlik tashkilotlarining ish faoliyatini umumiy rejalashtirish ikki bosqichga boʻlinadi. Birinchi bosqichda tekshiriladigan korxonaga oʻrganilib, bayon qilinadi va oʻtkaziladigan tekshiruvning asosiy oʻlchamlari aniqlanadi, ikkinchi bosqichda esa tekshiruv strategiyasi ishlab chiqiladi va barcha oldinda turgan ishlarning batafsil bayoni tuziladi.

Auditning umumiy rejasini tayyorlash va tuzish jarayonida auditor korxonadan olinadigan ma'lumotlarni tekshirmaydi, lekin uning reja tuzishga oid ishlari hujjatlashtirilishi lozim.

Shuning uchun rejalashtirishning birinchi bosqichida auditor tekshiriladigan korxonaga boʻyicha quyidagi ma'lumotlarni tayyorlashi lozim: korxonaga faoliyatining bayoni; buxgalteriya hisobining shakli va tashkiliy tuzilishining bayoni, boshqaruv tizimining bayoni, tekshirilayotgan korxonaga moliyaviy hisobining qisqacha tahlili. Bunda auditor korxonaga toʻgʻrisidagi birlamchi ma'lumotlarni toʻplaydi. Ayni paytda korxonaga faoliyatini belgilaydigan muhim ma'lumotlar va hujjatlar nusxalaridan iborat doimiy hujjatlar toʻplamini shakllantiradi.

Ushbu toʻplam hozircha mazkur korxonaga auditorlik tashkilotining mijoz boʻlib qolar ekan, kelgusidagi barcha tekshiruvlarda undan foydalanilaveradi.

Har bir auditorlik tekshiruvi uchun korxonaning ish faoliyatini yoki hisob tizimini, agar ular sezilarli darajada oʻzgarmagan boʻlsa, qaytadan oʻrganib chiqishga ehtiyoj qolmaydi. Shuning uchun auditor har doim keyinchalik audit oʻtkazganida ham ushbu doimiy toʻplamdan foydalanib, zarurat boʻlganda uni yangilab boradi.

V BOB boʻyicha xulosa

Investitsiyalar auditini rejalashtirish chogʻida auditorlik tashkiloti tomonidan qoʻllaniladigan meʼyorlar “Moliyaviy xisobot auditini

rejalashtirish” nomli 300-sonli auditning xalqaro standartlari (AXS) bilan belgilanadi. Audit rejasini puxta tuzmasdan, sifatli auditorlik tekshiruvini o‘tkazish mumkin emas. Amalda investitsiyalar auditini rejalashtirish jarayoni auditorlik tashkiloti bilan xo‘jalik yurituvchi subyekt o‘rtasida shartnoma tuzilgunga qadar boshlanadi. «Moliyaviy xisobot auditini rejalashtirish» nomli 300-sonli AXS «Auditorlik tanlash va testlashning boshqa tanlash amallari» nomli 530-sonli, «Tavakkalchilikni va ichki nazorat tizimini baholash» nomli 400-sonli, «Hujjatlashirish» nomli 230-sonli va auditorlik tekshiruvini amalga oshirishni tartibga soladigan boshqa standartlar bilan o‘zaro chambarchas bog‘liq. Shunday qilib, boshqa standartlardagi talablarni o‘rganmasdan va izchil bajarmasdan, ushbu standart talablarini bajarish mumkin emas.

Nazorat savollari

1. Auditor reja tuzilgunga qadar tekshiruv jarayonini boshlashi mumkinmi?
2. AXSga muvofiq investitsiyalar auditini rejalashtirish necha bosqichdan iborat?
3. Investitsiyalarni audit qilishda ular bo‘yicha hujjatlar mavjud bo‘lmasa yoki ular qonunga rioya qilinmagan holda rasmiylashtirilgan bo‘lsa, u holda auditor qanday chora ko‘radi?
4. Investitsiyalar auditining rejasi va dasturi qanday ma'lumotlarga asosan tuziladi?
5. Investitsiyalar auditini rejalashtirish chog'ida auditorlik tashkiloti tomonidan qanday me'yoriy hujjatlar qo‘llaniladi?
6. Rejalashtirish chog'ida auditor nimalarni hisobga olishi zarur?
7. Auditorlik tekshiruvini amalga oshirish paytida mijoz faoliyatini yuz foiz to‘liq tekshirib bo‘ladimi?
8. Auditni rejalashtirish nimalarni ta'minlashi lozim?
9. Auditor rejani yaxshi va sifatli tuzish hamda ishlarning kutilayotgan hajmini aniq hisobga olish uchun eng avvalo, nimalarni o‘rganishi zarur?
10. Auditorlik tekshiruvini chog'ida audit rejasiga tuzatishlar kiritilishi mumkinmi?

11. Ulushli qimmatli qog'ozlarni hisobga olib borish usullari.
12. Investitsiyalar qanday tartibda auditorlik tekshiruvdan o'tkaziladi?
13. Investiyalarning qanday turlarini bilasiz?

Testlar

1. Investitsiyalar auditini oldindan rejalashtirish bosqichida auditorga tanish bo'lishi kerak bo'lgan korxonada faoliyati to'g'risida eng muhim ma'lumotlarni aniqlang:
 - a) Iqtisodiy sub'ekt asoschilarining tarkibi to'g'risida
 - b) xo'jalik yurituvchi sub'ekt tegishli bo'lgan sanoat haqida
 - c) Xo'jalik yurituvchi sub'ektning iqtisodiy faoliyatiga ta'sir qiluvchi ichki omillar, uning individual xususiyatlari bilan bog'liq
 - d) to'g'ri javob yo'q
2. "Dastlabki" audit nimani anglatadi:
 - a) auditorlik tashkiloti tomonidan birinchi marta o'tkazilgan audit
 - b) auditorlik firmasi bu tashkilotda birinchi marta audit o'tkazdi
 - c) biznes -reja auditi, mahsulot, ishlar, xizmatlar bozorining ma'lum bir segmentida belgilangan mezonlarga muvofiq tashkil etilayotgan tashkilotning samaradorligini tekshirish.
 - d) to'g'ri javob yo'q
3. Auditorning quyidagi axloqiy tamoyillaridan qaysi biri amal qilishi kerak:
 - a) xayrixohlik
 - b) professional xatti -harakatlar
 - c) halollik
 - d) to'g'ri javob yo'q
4. Investitsiyalar a uditda halollik tamoyilining mazmunini aniqlang.
 - a) auditor sifatli xizmatlar ko'rsatishga imkon beradigan zarur bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak
 - b) Auditorning kasbiy burchiga majburiy majburiyati
 - c) auditorning ehtiyotkorlik bilan, ehtiyotkorlik bilan professional xizmatlar ko'rsatish majburiyati
 - d) to'g'ri javob yo'q

5. Investitsiyalar auditini o'tkazishda yaxlitlik tamoyilining mazmunini aniqlang :

- a) halollik
- b) Haqiqat
- c) Adolatli muomala
- d) to'g'ri javob yo'q

6. Audit o'tkazish to'g'risida shartnoma tuzishda xo'jalik yurituvchi sub'ekt auditoridan auditorlik tavakkalchisining hisobini taqdim etishni so'radi. Bu talab oqlanadimi?

- a) Yo'q, bu auditorlik tashkilotining xavfi va uning hisobi audit faoliyatini rejalashtirishda ishlatiladi
- b) auditor cheklanmagan holda har qanday ma'lumotni xo'jalik yurituvchi sub'ekt rahbariyatiga ko'rsatishi kerak
- c) a va b javob to'g'ri
- d) to'g'ri javob yo'q

7. Audit paytida bajarilishi kerak bo'lgan asosiy tadbirlardan birini aniqlang:

- a) auditni rejalashtirish
- b) moddiylik darajasini hisoblash
- c) audit xavfini aniqlash
- d) to'g'ri javob yo'q

8. Korxonaga investitsiya faoliyatini auditida nima uchun rejalashtirish birinchi navbatda zarur:

- a) auditorlik to'lovini aniqlash
- b) mijoz biznesining muammoli sohalarini va bu muammolarning audit protseduralari vaqtiga ta'sirini aniqlash
- c) audit bilan shug'ullanadigan mutaxassislar sonini aniqlash
- d) to'g'ri javob yo'q

9. O'z ishini rejalashtirishni auditor amalga oshiradi:

- a) audit dasturi tasdiqlanishidan oldin
- b) doimiy ravishda auditorlik tekshiruvi davomida
- c) audit protseduralari boshlanishidan oldin
- d) to'g'ri javob yo'q

10. Investitsiya muhitida auditorlik tekshiruvi o'tkaziladigan vaqtni rejalashtirishda nimani e'tiborga olish kerakligini aniqlang:

- a) auditorlik xavfini baholashni o'tkazish
- b) xodimlarning soni va malakasi
- c) auditorlarning kasbiy fazilatlariga muvofiq tayinlanishi
- d) to'g'ri javob yo'q

11. Agar auditor mijozlar bilan ishbilarmonlik aloqalari to'xtatilsa, maxfiy ma'lumotlarni sir saqlashga majburmi?

- a) Ha, qonun talab qiladi
- b) yo'q, maxfiylik talabi faqat mijoz bilan doimiy munosabatlar mavjud bo'lganda qo'llaniladi
- c) Auditorning xohishiga ko'ra
- d) to'g'ri javob yo'q

VI bob. MOLIYAVIY INVESTITSIYALAR AUDITINI TASHKIL QILISH TARTIBI

Mamlakatimiz rahbarining 2018- yilning 28- dekabr kuni Oliy Majlisga yo‘llagan Murojaatnomasida *“Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, qaysi davlat faol investitsiya siyosatini yuritgan bo‘lsa, o‘z iqtisodiyotining barqaror o‘shishiga erishgan. Shu sababli ham investitsiya – bu iqtisodiyot drayveri, o‘zbekcha aytganda, iqtisodiyotning yuragi, desak, mubolag‘a bo‘lmaydi⁴⁸.”*

6.1. Moliyaviy investitsiyalar tavsifi, auditining xususiyati, maqsadi va vazifalari

Bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida bozor munosabatlarining tezlik bilan o‘zgarishiga moslashish har bir korxonada faoliyati muvaffaqiyatining garovidir. Bunda mahsulotlar va xizmatlarning bozorda tutgan o‘rni (mavqeyi), shuningdek, xarajatlarni nazorat qilish bilan cheklanmasdan, balki qabul qilingan boshqaruv qarorlarining samaradorligini muttasil tekshirish, o‘zgaruvchan bozor sharoitida korxonaning o‘z huquq va imkoniyatlaridan qay darajada foydalanayotganini tahlil qilish ham zarur.

Korxonaning vaqtincha bo‘sh turgan pul mablag‘laridan samarali foydalanish usullaridan biri ularni qimmatli qog‘ozlar sotib olishga yo‘naltirishdir.

Mablag‘larni qimmatli qog‘ozlarga yo‘naltirish o‘z tavsifiga ko‘ra yuqori tavakkalchilik faoliyati bilan bog‘liq bo‘lib, tavakkalchilik darajasini imkoni boricha pasaytirish maqsadida emitentning moliyaviy holatini va bozor konyunkturasini bilish fond birjasi ma‘lumotlarini muntazam ravishda monitoring qilib turishni taqozo etadi.

Ma‘lumki, qimmatli qog‘ozlar muomala jarayonida uchta bosqichdan o‘tadi. Bulardan birinchisi emissiya bosqichi bo‘lib, unda qimmatli qog‘ozlar birlamchi joylashtiriladi va o‘zining birinchi egasi (andarrayting yoki investor) ga o‘tadi. Ikkinchi bosqich deganda, ularning ikkilamchi, ya‘ni aktiv bozordagi harakati tushuniladi.

⁴⁸O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2018 yil 28 dekabr.

Yakuniy - uchinchi bosqichda qimmatli qog'ozlarning so'ndirilishi (emitent tomonidan qaytarib olinishi) amalga oshiriladi. Ushbu muomala jarayonida qimmatli qog'ozlar harakati fond birjalarida amalga oshirilib, vaqtga teskari proporsional ravishda nominal va haqiqiy (bozor) narxlari o'zgaradi. Ushbu o'zgarish iqtisodiyotda bozor kotirovkasi deb ham ataladi.

Bozor kotirovkasiga ega qimmatli qog'ozlar deganda, fond birjalari va birjadan tashqari bozorlarda faol savdo qilinadigan aksiyalar va obligatsiyalar tushuniladi, ularning kotirovkasi esa keng chop etiladi.

Bunday qimmatli qog'ozlarning ro'yxati qimmatli qog'ozlar (fond) birjasi ekspert komissiyasi tomonidan e'lon qilinadi. Bunda qimmatli qog'ozlar javob berishi lozim bo'lgan quyidagi mezonlarga qaraladi: birja savdosiga ruxsat etish shartlari (listing shartlari) ga mos kelish; bitta fond birjasida rasmiy kotirovka qilishga ruxsat etish.

Korxonaning qimmatli qog'ozlar listingiga kiritilishi tavsiya etilayotgan qimmatli qog'ozlar sifati haqida potensial investorlarga aniq tasavvur berishdan iborat. Bozor ishtirokchilari emitentning iqtisodiy rivojlanish istiqbollari va shu bilan birga, uning qimmatli qog'ozlari ishonchligini baholash imkoniyatlariga ega bo'lishlari lozim.

Qimmatli qog'ozlar bilan birjada savdo qilishga ruxsat etish uchun korxonaning ishlab chiqarish jarayonlari va boshqaruvining eng muhim sohalarini tahlil qilish zarurligini alohida ta'kidlab o'tish lozim. Bunda tahlil quyidagi axborotlarni umumlashtirish va ishlashga tayanadi: ustav kapitalining miqdori, bitta aksiyaga to'g'ri keladigan daromad, xavf-xatarni baholash, bozorning holati, ishlab chiqarish samaradorligi, to'lov qobiliyati va pul mablag'lari bilan ta'minlanganlik.

Xavf-xatarni baholash iqtisodiyot uchun mazkur tarmoq ahamiyatidan kelib chiqib kuzatilayotgan tendensiyalar, «boshlang'ich» rivojlanishning oson yoki qiyinligi, daromad negizining xilma-xilligi, davlat tomonidan tartibga solib turishni hisobga olgan holda aniqlanadi. Shuningdek, korxonaning mahsulotlarning tashqi bozordagi raqobatbardoshligi, inflatsiya o'sishining kutilayotgan sur'atlarini va ishlab chiqarish tashkiliy-texnik darajasining ko'rsatkichlari, kapital sig'imi, xomashyo va mehnat resurslari bilan ta'minlanganlik, ishlab

chiqarishning konsentratsiyalashuvi va ixtisoslashganligini ham inobatga olish zarur.

Bozorning holati to'g'risidagi axborot korxonada mahsulotlarini asosiy yo'nalishlari bo'yicha sotish, o'tmishdagi tajribani va kelajakdagi istiqbolni hisobga olgan holda tahlil qilishni ko'zda tutadi.

Mahsulotlar hayotiylik davrining uzunligi yoki qisqaligi, yangiligi, muhimligi pozitsiyasidan turib tadbirkorlik, ishlanmalarni rivojlantirish hamda marketing imkoniyatlari baholanadi.

Ishlab chiqarish samaradorligini tahlil qilishda birinchi navbatda, xarajat va natijalar nisbati, bu nisbatni bir me'yorda tutib turish va yaxshilash layoqati baholanadi.

Ishlab chiqarish xarajatlari tuzilmasi batafsil tahlil qilinganidan so'ng asosiy ishlab chiqarish fondlarining faoliyati, moddiy va mehnat resurslari ko'rib chiqiladi.

Boshqaruv samaradorligini baholashda ishlab chiqarish va moliyaviy muomalalar natijalari puxta tahlil qilinadi, korxonada faoliyatini strategik va joriy rejalashtirishning sifati; rejalarning kompleksligi va ular bajarilishining sifati, ichki boshqaruv, moliyaviy, shuningdek, tashqi nazorat ham baholanadi. Korxonaning firmalar bilan qo'shib ketishi, boshqa kompaniyalarni o'ziga qo'shib olish, boshqa firmalarni sotib olish hisobiga kengayish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi.

Nomoddiy aktivlar, boshqaruv, tashkiliy resurslar, firmaning bozordagi amaliy shuhrati (goodwill), sotish shaxobchalarini nazorat qilish va shu kabilar alohida baholanadi.

Hisobni tahlil qilishda hisob yuritish siyosati, asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarga amortizatsiya hisoblashda qo'llaniladigan usullar, moddiy qimmatliklarni baholash, daromadlarni aniqlash va hokozolar umumiy tarzda baholanadi. Shuningdek, firma moliyaviy ahvolini aks ettirishning to'raligi ko'rib chiqiladi.

Daromadlilikni tahlil qilish korxonaning uzoq kelajakdagi daromadlilikini, soliqlarni to'lashda oldingi va keyingi kapitalga to'g'ri keladigan daromadlarni tavsiflaydigan asosiy ko'rsatkichlarni ko'rib chiqishni nazarda tutadi. Inflatsiya va o'z-o'zini moliyalashtirish imkoniyatlari o'sishining ta'siri baholanadi. To'lovga layoqatlilikni

tahlil qilish korxonaga qisqa muddatli va uzoq muddatli qarzlari tarkibini, kreditor qarzlarni o'rganib chiqish, o'z aylanma mablag'larining tarkibi va manbalarining qo'shimcha o'sishini o'rganishdan iborat.

Korxonaga jami qarzlarning o'z kapitaliga nisbati dinamikasining, ya'ni kapital tuzilmasi koeffitsiyentlari; pul mablag'lari va boshqa joriy aktivlarning joriy majburiyatlariga nisbati, ya'ni tez va mutlaq likvidlik koeffitsiyentlari aniqlanadi va baholanadi.

Pul mablag'lari bilan ta'minlanganlik korxonaning barcha ehtiyojlarini o'z mablag'lari bilan qondira olish imkonini bildiradi. Bunday imkoniyatni baholash bir necha yillardagi naqd pullar harakati (sash flow) rejasini va hisobotini, shuningdek, kapital investitsiyalarga bo'lgan ehtiyojni va hokazolarni tahlil qilish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Ko'rinib turibdiki, o'z qimmatli qog'ozlarini birjaga chiqarish haqida qaror qabul qilgan korxonaga bozorda yaxshi sharoitlarga, shuningdek, yaqin kelajakdagi rivojlantirishning aniq strategiyasi, mahsulot ishlab chiqarishning zamonaviy texnologiyasi, ishlab chiqarish va menejmentning yuqori saviyada tashkil etilishiga ega bo'lishi lozim.

Rasmiy ravishda kotirovka qilishga ruxsat etish, korxonada mustaqil auditorlik kompaniyalari tomonidan ishonchliligi tasdiqlangan hisobotlarni taqdim etish bo'yicha ma'lum majburiyatlar bajarilishi va asosiy hisobot ko'rsatkichlarini rasmiy birja byulletenlarida chop etilishini ko'zda tutadi.

Ushbu barcha choralarining qat'iyligi aksiyadorlarni maksimal himoya qilish bilan bog'liq.

Shuning uchun auditor qimmatli qog'ozlarni inventarizatsiya qilishda ularning emitentlari va rasmiy birja kotirovkasining mavjudligini puxta tahlil qilishi zarur. Agar korxonaga mablag'lariga qo'yilgan qimmatli qog'ozlar fond birjalarida muomalada bo'lmasa va bozor kotirovkasiga ega bo'lmasa, u holda auditor bunday qimmatli qog'ozlarni sotib olishda vujudga keladigan xavf-xatarlarni baholashi zarur.

Bunda auditor qimmatli qog'ozlarning haqiqiy sotib olish bahosini ularning daromadlilikini tahlil qilishda asos bo'ladigan muqobil kursi bilan qiyoslashi zarur. Afsuski, bizning amaliyotimizda daromadlilikni

bunday tahlil qilish o'tkazilmayapti. Shuni inobatga olgan holda, qimmatli qog'ozlar bozori rivojlangan mamlakatlar tajribasidan foydalanish mumkin.

Bu quyidagilarni ko'zda tutadi:

- soliqlar chegirib tashlanganidan so'ng taqqoslanuvchan, tasodifiy, vaqti-vaqti bilan o'zgarib turmaydigan daromad miqdori aniqlanadi. Bu miqdor bitta aksiyaga hisoblab chiqariladi;

- taqqoslanayotgan korxonalar aksiyalari bozorining o'rtacha foydaliligiga yo'naltirilgan foyda multiplikatori hisoblab chiqariladi. Shu bilan birga multiplikatorga o'sish dinamikasi, kapital bozorida mashhurlik darajasi, moliyaviy sharoitlar, dividendlar hajmi va boshqa alohida ishlab chiqarish tarmoqlar kabi jabhalar ham kiritiladi.

Korxonada enutentning moliyaviy hisoboti yo'q bo'lsa, bunda tahlil o'tkazish imkoni bo'lmaydi. Auditor bu holda birjada kotirovka qilinmagan aksiyalarga investitsiyalar qilish haqida qaror nimaga asosan qabul qilinganligi, korxonada rahbariyati va ichki auditorlik xizmati tomonidan hisobotlar va emissiyaning hozirgi va kelajakdagi moliyaviy holati tahlil qilinganligi bilan ham tanishishi zarur.

Moliyaviy investitsiyalar inflatsiya sharoitida pul mablag'lari qadrsizlanishining oldini olish, qo'shimcha daromad olish va boshqa korxonada faoliyati ustidan nazorat o'rnatish maqsadida amalga oshiriladi.

Moliyaviy investitsiyalar buxgalteriya hisobotidagi «Uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalar» va «Qisqa muddatli moliyaviy investitsiyalar» moddalarini ko'rsatkichlarining ishonchliligi va moliyaviy investitsiyalarni hisobga olish hamda soliqqa tortish bo'yicha qo'llanilayotgan uslubiyotning O'zbekiston Respublikasida amal qilayotgan me'yoriy hujjatlarga muvofiqligi to'g'risida xulosa shakllantirish maqsadida auditorlik tekshiruvidan o'tkaziladi.

Moliyaviy investitsiyalarni auditorlik tekshiruvidan o'tkazishning maqsadi boshqa aktivlar tekshiruvidagi kabi quyidagilarni ta'minlashdan iborat:

- to'liqlik-barcha moliyaviy investitsiyalarning buxgalteriya hisobi va hisobotida to'liq aks ettirilishi, hisobga olinmay qolgan moliyaviy investitsiyalar yo'qligi;

**Moliyaviy investitsiyalarni auditorlik tekshiruvdan o'tkazish
chog'ida hal etiladigan vazifalar**

Auditorning vazifalari	Tekshiriladigan masalalar
1.Moliyaviy investitsiyalarni hisobga olish va nazorat qilishning holatini tekshirish	Korxonada aktivlarini moliyaviy investitsiyalar qatoriga olib borishning to'g'riligi. Muomalalarni hujjatlashtirishni tekshirish. Moliyaviy investitsiyalarni baholashning to'g'riligi. Moliyaviy investitsiyalarni inventarizatsiya qilish. Buxgalteriya hisoboti ko'rsatkichlarining sintetikva analitik hisob ma'lumotlariga mosligi
2.Moliyaviy investitsiyalar harakatini buxgalteriya hisobida aks ettirishga doir muomalalar sintetik hisobining to'liqligi va to'g'riligi hamda soliq qonunchiligiga rioya qilinishini tekshirish	Moliyaviy investitsiyalar kirimi va hisobdan chiqarilishini sintetik hisob registrlarida aks ettirish. Qimmatli qog'ozlar analitik hisobini tashkil etish. Moliyaviy investitsiyalarni hisobdan chiqarishga doir muomalalar bo'yicha soliq qonunchiligiga rioya qilinishi. Qimmatli qog'ozlar qadrsizlanishining oldini olish maqsadida rezerv tashkil etishga doir muomalalarni aks ettirish. Qarz shartnomasi bo'yicha berilgan mablag'lar hisobi
3. Moliyaviy investitsiyalarga doir daromadlarning to'liq aks ettirilishi va ularning soliqqa tortilishini tekshirish	Hisoblangan daromadlarni aks ettirish.Ushbu muomalalarni soliqqa tortishning to'g'riligini tekshirish

- korxonada tomonidan sotib olingan qimmatli qog'ozlar va berilgan qarzlarning barchasi buxgalteriya hisobi va hisobotida to'liq aks ettirilishi;

- moliyaviy investitsiyalar hisobga olinadigan sintetik schyotlar qoldig'i va oborotlarining tegishli analitik hisob schyotlari qoldiq va oborotlariga mos kelishi;

- schyotlar bo'yicha qoldiq va oborotlarning buxgalteriya hisobi registrlaridan bosh daftarga va buxgalteriya hisobotlariga to'liq hajmda o'tkazilishi;

- moliyaviy investitsiyalar kirimi va hisobdan o'chirilish ma'lumotlarining barchasi buxgalteriya hisobi va hisobotida aks ettirilishi;

- moliyaviy investitsiyalar harakatiga doir barcha muomala- larning buxgalteriya hisobida o'z vaqtida ro'yxatdan o'tkazilishi;

- mavjudligi - barcha moliyaviy investitsiyalar korxonada uchun ahamiyatli bo'lib, balans tuzish sanasiga mavjud va kelajakda daromad keltiradi;

- moliyaviy investitsiyalar mavjudligi belgilangan tartibda o'tkazilgan inventarizatsiya va zarur dastlabki hujjatlar bilan tasdiqlangan;

- huquq va majburiyatlar-korxonada moliyaviy investitsiyalar uchun tegishli huquqlarga ega va ushbu huquqlar bilan bog'liq xavf-xatar uchun mas'uldir;

- buxgalteriya hisobida aks ettirilgan moliyaviy investitsiyalar (qimmatli qog'ozlar va berilgan qarzlarda) korxonada qonun asosida tegishlidir;

- buxgalteriya balansida aks ettirilgan qimmatli qog'ozlar korxonada mulkiy huquq asosida tegishli bo'lib, tegishli huquq talablariga mos shartnomani amalga oshirish natijasida olgan hamda korxonada qimmatli qog'ozlar olinganligini tasliqlovchi barcha zarur guvohliklarga ega;

- buxgalteriya hisobi schyotlaridagi barcha yozuvlar amaldagi qonunchilik va me'yoriy hujjatlar talablariga muvofiq rasmiylashtirilgan, isbotlovchi va dastlabki hujjatlar bilan rasmiylashtirilgan;

- moliyaviy investitsiyalarga doir barcha muomalalar amaldagi qonunchilikka zid bo'lmagan munosabatlar sharoitidan kelib chiqadi;
- moliyaviy investitsiyalar bilan bog'liq muomalalarni amalga oshirish belgilangan tartibda vakolatli shaxslar tomonidan ruxsat etilganligi;
- baholashlar-moliyaviy investitsiyalar (qimmatli qog'ozlar) buxgalteriya hisobi va hisobotida me'yoriy hujjatlar talablariga muvofiq baholangan;
- xorij valutasidagi qimmatli qog'ozlarni so'mda baholash amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq o'tkazilgan;
- qimmatli qog'ozlarni sotib olish usuliga ko'ra ularning haqiqiy qiymati me'yoriy hujjatlar talablariga muvofiq shakllantirilgan;
- qimmatli qog'ozlar qiymati buxgalteriya hisobotiga kiritish uchun me'yoriy hujjatlar talablariga muvofiq va to'g'ri hisoblab chiqarilgan (bozor bahosi pasayishini hisobga olgan holda);
- qimmatli qog'ozlarni sotishdan olingan tushum buxgalteriya hisobida dastlabki hujjatlardagi ma'lumotlarga mos bahoda aks ettirilgan;
- aniqligi-moliyaviy investitsiyalarga doir xarajatlar buxgalteriya hisobi qoidalariga muvofiq hisobga olingan, buxgalteriya hisoboti ma'lumotlari sintetik hisob registrlaridagi yozuvlarga mos keladi;
- dastlabki hujjatlarda, buxgalteriya hisobi registrlarida, ma'lumotlarni buxgalteriya hisobotlariga o'tkazishda ko'rsatkichlarning arifmetik aniqligiga rioya qilingan;
- xorij valutasida ifodalangan qimmatli qog'ozlarning so'mdagi qiymatini aniqlashda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan va muomala sodir bo'lgan kunda amalda bo'lgan chet el valutasida kursidan foydalanilgan; buxgalteriya hisobotida haqiqiy ma'lumotlar asosida aniqlangan moliyaviy natijalar aks ettirilgan;
- hisob davrining cheklanganligi-moliyaviy investitsiyalarni hisobga qabul qilish va hisobdan chiqarishga doir barcha muomalalar tegishli hisob davrida hisobga olingan;

- taqdim qilish va bayon qilish - barcha moliyaviy investitsiyalar to'g'ri turkumlangan va buxgalteriya hisobotida mohiyati ochib berilgan;

- moliyaviy investitsiyalar turlari va qaytarish muddatlariga ko'ra turkumlangan;

- moliyaviy investitsiyalarni sotish va qaytarish bilan bog'liq daromadlar va xarajatlar moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotda to'g'ri turkumlangan;

- moliyaviy investitsiyalar to'g'risidagi axborotlar buxgalteriya hisobotlariga beriladigan tushuntirishlarda ochib berilgan.

Tekshiriladigan masalalar bo'yicha yetarli dalillarga ega bo'lish ko'rsatilgan dalillarni mustaqil baholash, yo'l qo'yilgan xato-kamchiliklar hamda amaldagi me'yoriy hujjatlar va buxgalteriya hisobi qoidalaridan chetga chiqishlarni aniqlashga imkon beradi.

6.2. Moliyaviy investitsiyalarni auditorlik tekshiruidan o'tkazishda qo'llaniladigan ma'lumot manbalari

Moliyaviy investitsiyalarni auditorlik tekshiruidan o'tkazishda foydalaniladigan axborot manbalari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- moliyaviy investitsiyalarni buxgalterlik hisobida aks ettirish va soliqqa tortishni hamda auditorlik tekshiruidan o'tkazishni tartibga soladigan me'yoriy hujjatlar;

- buxgalteriya hisobotlari;

- korxonaning hisob siyosati to'g'risidagi buyrug'i;

- moliyaviy investitsiyalarni hisobga oladigan sintetik va analitik hisob registrlari;

- moliyaviy investitsiyalarni aks ettiradigan dastlabki hujjatlar.

Korxonaning hisob siyosati to'g'risidagi buyrug'i bo'yicha auditor quyidagilar bilan tanishishi mumkin:

- boshqa korxonalarning ustav kapitalida ishtirok etishda olingan daromadlarni oddiy operatsion faoliyatdan olingan daromadlar qatorida tan olish;

- moliyaviy investitsiyalarni aks ettirish uchun foydalaniladigan schyotlar rejasi;

- qo'llaniladigan buxgalteriya hisobi shakli va korxonada buxgalteriyasida tuziladigan hisob registrlari ro'yxati;
- moliyaviy investitsiyalarni hisobga olish bilan bog'liq dastlabki hujjatlarning hujjatlar aylanishi (hujjatlar aylanish grafigi);
- korxonaning moliyaviy investitsiyalari, qarz shartnomalarini rasmiylashtirishga ruxsat etilgan shaxslar ro'yxati;
- moliyaviy investitsiyalarni hisobga olish uchun korxonadan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan dastlabki hujjatlar shakllaridan foydalaniladi.

Buxgalteriya hisobining yagona jurnal order shaklidan foydalanadigan korxonalarda jurnal-orderlar qo'llanilib, ularda hisobga qabul qilingan dastlabki hujjatlardagi axborotlar to'planadi va muomalalar aks ettiriladi.

Moliyaviy investitsiyalarni hisobga olishda kompyuter dasturlaridan foydalanilganda schyotlar bo'yicha debet va kredit oborotlarining bosmadan chiqarilgan yozma nusxasi ma'lumoti tuziladi.

Moliyaviy investitsiyalarning analitik hisob registri sifatida «Qimmatli qog'ozlarni hisobga olish daftari» tavsiya etiladi.

Qimmatli qog'ozlar bo'yicha muomalalar quyidagi hujjatlarga asosan amalga oshiriladi: ta'sis shartnomasi (boshqa korxonalar ustav kapitaliga investitsiyalar qilishda), qimmatli qog'ozlar oldi-sotdi shartnomasi, qarz shartnomasi, depozit jamg'arma uchun shartnoma, qimmatli qog'ozlarni garovga qo'yish shartnomasi, oddiy shirkat shartnomasi (hamkorlikdagi faoliyat shartnomasi) va hokazolar.

Auditor ushbu ko'rsatilgan shartnomalar qoidalarining qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq muomalalarni tartibga soladigan boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar talablariga mos kelishini tekshirishi lozim.

Moliyaviy investitsiyalar auditida ma'lumot ma'nosi sifatida foydalaniladigan dastlabki hujjatlarga quyidagilar kiradi: qimmatli qog'ozlarni qabul qilish-topshirish dalolatnomasi, hamkorlikdagi faoliyatga qo'shiladigan ulushni qabul qilish-topshirish dalolatnomasi, umumiy ishni yurituvchi hamkor tomonidan mulklarni qabul qilish to'g'risidagi avizo, pul shaklidagi ulushlarni o'tkazish to'g'risidagi to'lov-topshiriqnomasi va bank ko'chirmasi (naqd pulsiz hisob-

kitoblarda) yoki kassa chiqim orderi va kassa kirim orderining kvitansiyasi (naqd pulli hisob-kitoblarda), qimmatli qog'ozlar qiymatini to'lash uchun beriladigan mulklar (aktivlar)ni rasmiylashtirish schyot-fakturasini va nakladnoyi, qimmatli qog'ozlar va qat'iy hisobda turadigan blankalarning inventarizatsiya ro'yxati va boshqa hujjatlar.

6.3. Moliyaviy investitsiyalarni inventarizatsiyadan o'tkazish va oldin o'tkazilgan inventarizatsiyalar to'g'riligini tekshirish

Shuni ta'kidlash joizki, moliyaviy investitsiyalarni auditorlik tekshiruvidan o'tkazish uslubi hali respublikamizda to'liq ishlab chiqilmagan.

Moliyaviy hisobotlar investitsion faoliyatning miqyoslari, yo'nalishlari va tavsifini, uning korxonada moliyaviy faoliyati, istiqboliga ta'sirini ochib berish uchun xizmat qiladi. Ulardan zarur axborotlarni olish tashqi foydalanuvchilar va analitiklarda korxonaning mulkiy va moliyaviy faoliyati haqida to'liq va aniq ma'lumot shakllanishiga yordamlashadi.

Bunday axborotlarga quyidagilar to'g'risidagi ma'lumotlar kiradi: sotib olingan qimmatli qog'ozlar umumiy qiymati; qimmatli qog'ozlardan olingan daromad (dividendlar va foizlar); qimmatli qog'ozlarni ayrim toifalarga taqsimlash; kotirovkasi muttasil e'lon qilinmaydigan qimmatli qog'ozlarning taxmin qilinayotgan bozor qiymati (u holda baholash usullari korxonada hisob siyosatidan kelib chiqqan holda bayon qilingan boshqaruv xodimlarining baholashi bo'lishi mumkin); aksiya qiymatining o'zgarishlari; qimmatli qog'ozlarni sotish natijasida vujudga kelgan, ko'zda tutilmagan daromadlar va zararlar (agar ular sezilarli darajada bo'lsa); korxonada investitsiyasida salmoqli o'rin egallovchi qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar.

Bundan tashqari qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar to'g'risidagi ma'lumotlarni tavsiflashda foydalanilgan usullar mohiyati maxsus ochib berilishi lozim.

Bu ma'lumotlar buxgalterlik hisobotining qiymat ko'rsatkichlarini baholash uchun zarur. Qimmatli qog'ozlar auditi qimmatli qog'ozlarga

taalluqli buxgalterlik hisoboti ma'lumotlarining haqqoniyligini tekshirishdan boshlanadi.

Bunday tekshiruv korxonaning naqd pullarini tekshirishdagi kabi inventarizatsiya (ashyoviy ro'yxat) o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi (19-sonli BHMS, 3.30-3.36-bandlari).

Qimmatli qog'ozlarni inventarizatsiya (ashyoviy ro'yxat) qilish quyidagi vazifalarni hal etadi: ularning haqiqatdagi mavjudligini aniqlash; haqiqatda mavjud qoldiqlarini buxgalterlik hisobi ma'lumotlari bilan taqqoslash orqali ularning saqlanishi ustidan nazorat o'rnatish; qimmatli qog'ozlardan olinadigan daromad- larning to'liqligi va o'z vaqtidaligini tekshirish; ularning saqlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratilganligini tekshirish (korxonada saqlanganida); qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq daromadlar va yo'qotishlarni hisobda aks ettirishning haqqoniyligini aniqlash.

Auditor inventarizatsiyani boshlashdan oldin qimmatli qog'ozlar bo'yicha ichki auditning ahvoli bilan tanishishi zarur. Chunonchi, korxonaning pul mablag'lari bo'yicha maxsus komissiyasi har oyda kamida bir marta pul mablag'lari kabi qimmatli qog'ozlarni ham inventarizatsiya (ashyoviy ro'yxat) dan o'tkazishi lozim.

Bundan tashqari yillik buxgalterlik hisobotini tuzishdan oldin moddiy javobgar shaxslar almashish hollarida, o'g'rilik, o'marib ketish, o'zlashtirish yoki suiiste'mol qilish hollarida, yong'in yoki tabiiy ofatdan so'ng inventarizatsiya (ashyoviy ro'yxat) o'tkazilishi shart (19-sonli BHMS, 5-bandi).

Agar qimmatli qog'ozlar korxonaning o'zida saqlansa, ularni inventarizatsiyadan o'tkazish pul mablag'larini inventarizatsiyadan o'tkazish bilan bir paytda amalga oshiriladi.

Korxonada kassasida saqlanayotgan qimmatli qog'ozlarni inventarizatsiya (ashyoviy ro'yxat) qilish ularni varaqma-varaq sanash yo'li bilan amalga oshiriladi. Bunda har bir qimmatli qog'ozlarning nominal qiymati, haqiqiyliigi va to'g'ri rasmiylashtirilganligi aniqlanadi. Tekshiruv alohida har bir emitent bo'yicha dalolatnomada seriyasi, raqami va umumiy summasi ko'rsatilgan holda o'tkaziladi. Har bir

qimmatli qog'ozning rekvizitlari buxgalteriyada yuritiladigan ro'yxatlar, reyestrlar yoki daftarlarning ma'lumotlari bilan solishtiriladi.

Qimmatli qog'ozlar maxsus tashkilotlarda saqlanganida (banklar, depozitariyalarda, maxsus joylarda) inventarizatsiya korxonaning tegishli buxgalteriya hisobi schyotlaridagi qoldiqlar ko'chirmasi ma'lumotlari bilan solishtirish orqali amalga oshiriladi.

Masalan, depozitariyda saqlash uchun topshirilgan qimmatli qog'ozlar inventarizatsiyasi 0610 - "Qimmatli qog'ozlar" va 5810- "Qimmatli qog'ozlar" schyotlaridagi qoldiq summaları depozitariylar ma'lumotlari bilan taqqoslash orqali amalga oshiriladi. Depozitariylar ma'lumotlari inventarizatsiya o'tkazilayotgan paytda depozitariyga yuborilgan so'rov natijasida olinishi mumkin (19-sonli BHMS 3.35-bandi).

Korxonaga tegishli qimmatli qog'ozlarni inventarizatsiya qilishda ular sotib olish qiymatining haqqoniyligini baholashga alohida e'tibor berilishi lozim. Buning uchun aksiyadorlik jamiyatlarining chop etiladigan buxgalterlik hisobotlarini olish, shuningdek, boshqa qiziqtirgan hisob va hisobot ma'lumotlari bilan tanishish huquqiga ega ekanligiga e'tibor berish zarur.

Inventarizatsiya ro'yxatida qimmatli qog'oz emitenti, nomi, seriyasi, raqam, nominal va haqiqiy qiymati, qaytarish muddatlari va umumiy summasi ko'rsatiladi.

Buxgalteriya hisobi va hisoboti ma'lumotlarining ishonchliligini tasdiqlash uchun auditor moliyaviy investitsiyalarni inventarizatsiyadan o'tkazishning to'g'riligini ham tekshiradi. Tekshiruv chog'ida quyidagilar aniqlanadi:

- «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 11-moddasi talablariga rioya qilinayotganligi;

- korxonaning hisob yuritish siyosati to'g'risidagi buyrug'ida moliyaviy investitsiyalarni inventarizatsiyadan o'tkazishning muddatlari belgilanganligi va bu muddatlarga rioya qilinayotganligi;

- inventarizatsiya hujjatlarining to'g'ri rasmiylashtirilishi (korxonada inventarizatsiya ro'yxatlarining unifikatsiyalangan shakllaridan foydalanish, qimmatli qog'ozlar korxonada kassasida saqlanganida

ularning haqiqatda mavjudligi to'g'risidagi ma'lumotlarni ro'yxatga kiritishning aniqligi va to'g'riligi ta'minlanganligi va hokazo).

Qimmatli qog'ozlar auditining keyingi bosqichida haqiqatda mavjud qimmatli qog'ozlar buxgalterlik hisobi ma'lumotlari bilan solishtiriladi. Bunda auditor qimmatli qog'ozlarning ortiqcha chiqqanlarini ham, kam chiqqanlarini ham o'zining ishchi hujjatlarida aks ettirishi va bular haqida korxonaga rahbariyatiga bildirishi lozim.

O'z navbatida, korxonaga rahbariyati bunday kamomadlarning vujudga kelish sabablari va bunga javobgar shaxslarni aniqlash hamda kamomadlarni bartaraf etish choralarini ko'rish lozim; ortiqcha chiqqan qimmatli qog'ozlarni kirim qilish, kam chiqqan qimmatli qog'ozlar qiymati aybdor shaxslar tomonidan qoplanishi yoki korxonaning moliyaviy natijalariga olib borilishi mumkin.

Bunda inventarizatsiya dalolatnomalari, taqqoslash vedomostlari va moddiy javobgar shaxslarning tushuntirish xatlariga asosan quyidagi buxgalterlik provodkalari tuziladi:

a) ortiqcha chiqqanda: Dt 0610, 0620, 0630, 0640, 0690, 5810, 5830, 5890 schyotlar;

Kt 9590 schyot ortiqcha chiqqan qimmatli qog'ozlarning nominal qiymatiga (turlari bo'yicha);

b) kamomad: Dt 9430, Kt 0610, 0620, 0630, 0640, 0690, 5810, 5830, 5890 schyotlari kam chiqqan qimmatli qog'ozlar nominal qiymatiga;

d) kamomadlarni qoplash: Dt 1730, Kt 9430 nominal qiymatiga. Dt 4730, Kt 9590 kam chiqqan qimmatli qog'ozning nominal qiymatidan birja qiymatining kamomad aniqlangan paytdagi oshgan summasiga;

e) Dt 5010, 6710, Kt 4730 kam chiqqan qimmatli qog'ozlar birja qiymatining aybdor shaxs tomonidan kassaga naqd pul bilan to'lanishi yoki uning oylik maoshidan ushlab qolinishi;

f) kamomadlarning korxonaga moliyaviy natijalariga olib borilishi: Dt 9690, Kt 9430 kam chiqqan qimmatli qog'ozlarning nominal qiymati.

Inventarizatsiyada ortiqcha va kam chiqqan qimmatli qog'ozlarni hisobda aks ettirishning yuqorida keltirilgan tartibi shunga bog'liqki, hozirgi vaqtda qimmatli qog'ozlar balansda ularning sotib olish bahosi bo'yicha aks ettirilib, keyinchalik nominal qiymatiga yetkaziladi.

Dt 0610, 0620, 0630, 0640, 0690, 5810, 5830, 5890 schyotlari, Kt 5110, 5210, 5220 - sotib olish bahosi; Dt 0610, 0620, 0630, 0640, 0690, 5810, 5830, 5890 schyotlar Kt 9590 nominal qiymatining xarid bahosidan oshgan qismi; Dt 9590, Kt 0610, 0620, 0630, 0640, 0690, 5810, 5830, 5890 schyotlari sotib olish qiymatining nominal qiymatidan oshgan qismi.

Moliyaviy investitsiyalarni inventarizatsiyadan o'tkazishning xususiyati nafaqat qimmatli qog'ozlarning haqiqatda mavjudligi, balki qimmatli qog'ozlarni baholash, ya'ni ularning qiymatini shakllantiruvchi haqiqiy xarajatlar to'g'riligini aniqlashdan ham iboratdir.

Auditor qimmatli qog'ozlar bo'yicha olingan daromadlarni buxgalteriya hisobida aks ettirishning o'z vaqtidaligi va to'liqligini tekshirishda inventarizatsiya ma'lumotlaridan ham foydalanadi.

VI BOB bo'yicha xulosa

Moliyaviy investitsiyalar buxgalteriya hisobotidagi «Uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalar» va «Qisqa muddatli moliyaviy investitsiyalar» moddalari ko'rsatkichlarining ishonchliligi va moliyaviy investitsiyalarni hisobga olish hamda soliqqa tortish bo'yicha qo'llanilayotgan uslubiyotning O'zbekiston Respublikasida amal qilayotgan me'yoriy hujjatlarga muvofiqligi to'g'risida xulosa shakllantirish maqsadida auditorlik tekshiruvidan o'tkaziladi. Moliyaviy investitsiyalarni inventarizatsiyadan o'tkazishning xususiyati nafaqat qimmatli qog'ozlarning haqiqatda mavjudligi, balki qimmatli qog'ozlarni baholash, ya'ni ularning qiymatini shakllantiruvchi haqiqiy xarajatlar to'g'riligini aniqlashdan ham iboratdir.

Nazorat savollari

1. Moliyaviy investitsiya nima?
2. Moliyaviy investitsiyalarni auditorlik tekshiruvidan o'tkazishda qo'llaniladigan ma'lumot manbalari.
3. Moliyaviy investitsiyalar qanday qilib inventarizatsiyadan o'tkaziladi?
4. Korxonaning vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'laridan samarali foydalanishning qanday usullarini bilasiz?

5. Joriy bozor konyunkturasi deganda nimani tushunasiz?
6. Qimmatli qog'ozlar muomala jarayonida nechta bosqichdan o'tadi va ular qaysilar?
7. Bozor kotirovkasiga ega qimmatli qog'ozlar deganda nimani tushunasiz?
8. Ishlab chiqarish samaradorligini tahlil qilishda, birinchi navbatda, nimani baholash lozim?
9. Moliyaviy investitsiyalar bo'yicha xarajatlarning analitik hisobi nechanchi qaydnomada yuritiladi?
10. Moliyaviy investitsiyalarni auditorlik tekshiruvidan o'tkazish chog'ida hal etiladigan vazifalarni sanab bering.
11. Korxonada aktivlari moliyaviy investitsiyalar qatoriga qaysi yo'llar bilan olib boriladi?
12. Moliyaviy investitsiyalar nima maqsadda audit qilinadi?
13. Moliyaviy investitsiyalarni inventarizatsiya qilish chog'ida hujjatlar noto'g'ri aks ettirilganda, aybdor shaxsga qanday chora ko'riladi?
14. Moliyaviy investitsiyalar inventarizatsiyasi natijalarini umumlashtirish deganda nimani tushunasiz?
15. Moliyaviy investitsiyalarni auditorlik tekshiruvidan o'tkazishda auditorning vazifasi nimalardan iborat?
16. Moliyaviy investitsiyalar nima maqsadda amalga oshiriladi?
17. Moliyaviy investitsiyalarni hisobga olish va nazorat qilishning qanday usullarini bilasiz?
18. Moliyaviy investitsiyalarning analitik hisob registri nima?
19. Qimmatli qog'ozlar bo'yicha muomalalar qaysi hujjatlarga asosan amalga oshiriladi?
20. Moliyaviy investitsiyalar hisobda qaysi bahoda aks ettiriladi?
21. Qimmatli qog'ozlarni inventarizatsiya qilish qanday xususiyatlarga ega?
22. Korxonada aktivlarini moliyaviy qo'yilmalar qatoriga kiritish qanday tekshiriladi?
23. Moliyaviy qo'yilmalar auditida qanday me'yoriy hujjatlardan foydalaniladi?

24. Qimmatli qog'ozlar bo'yicha olingan daromadni hisobga olishda qanday buxgalteriya provodkasi beriladi?

25. Qimmatli qog'ozlarni hisobdan chiqarish qaysi schyot orqali amalga oshiriladi?

26. Taftish jarayonida kamomadlar aniqlanganda aybdor shaxsga qanday choralar ko'riladi?

27. Qimmatli qog'ozlarning butligini ta'minlash uchun qanday ishlarni amalga oshirish lozim?

Testlar

1. Investitsiyalar auditini rejalashtirishning asosiy qoidalarini ko'rsating.

- a) komplekslik, aniqlilik, maqbullik
- b) to'liqlik, uzluksizlik, maqbullik
- c) aniqlilik, uzluksizlik, maqbullik
- d) komplekslik, uzluksizlik, maqbullik

2. Moliyaviy faoliyat bo'yicha daromadlarga kiradigan qatorni ko'rsating

- a) davr xarajatlari
- b) dividend ko'rinishidagi daromad
- c) asosiy faoliyatdan daromadlar
- d) asosiy vositani hisobdan chiqarish bo'yicha daromad

3. Auditor tekshirilayotgan tashkilot faoliyati to'g'risida qanday manbadan ma'lumot olishi mumkin:

- a) uchinchi tomon so'rovlari
- b) iqtisodiy agentlarning rasmiy hisobotlari
- c) soliq hisoboti
- d) yuqoridagi barcha manbalar

4. Audit paytida bajarilishi kerak bo'lgan asosiy tadbirlardan birini aniqlang:

- a) auditni rejalashtirish
- b) shartnoma tuzish
- c) moddiylik darajasini hisoblash
- d) audit xavfini aniqlash

5. Auditni rejalashtirish birinchi navbatda zarur:

- a) auditorlik to'lovini aniqlash

- b) mijoz biznesining muammoli sohalarini va bu muammolarning audit protseduralari vaqtiga ta'sirini aniqlash
- c) rahbariyat ish hujjatlaridan nusxa ko'chirish
- d) audit bilan shug'ullanadigan mutaxassislar sonini aniqlash

6. Xo'jalik yurituvchi sub'ektning faoliyati to'g'risida bilim olishning asosiy usullaridan birini aniqlang:

- a) aktivlar va yozuvlarni saqlash shartlarini o'rganish
- b) mulk va majburiyatlarni inventarizatsiya qilish
- c) ichki nazorat tizimini tashkil etish bilan tanishish
- d) ish haqi hujjatlari bilan tanishish

7. Audit rejasini kim tayyorlaydi?

- a) auditorlik tashkilotining rahbari
- b) xo'jalik yurituvchi sub'ektni boshqarish
- c) auditor
- d) buxgalter

8. Moliyaviy investitsiyalarni auditorlik tekshiruvidan o'tkazishda foydalaniladigan axborot manbalari qaysilarni o'z ichiga oladi?

a) moliyaviy investitsiyalarni buxgalterlik hisobida aks ettirish va soliqqa tortishni hamda auditorlik tekshiruvidan o'tkazishni tartibga soladigan me'yoriy hujjatlar;

b) buxgalteriya hisobotlari va korxonaning hisob siyosati to'g'risidagi buyrug'i;

c) moliyaviy investitsiyalarni hisobga oladigan sintetik va analitik hisob registrlari hamda moliyaviy investitsiyalarni aks ettiradigan dastlabki hujjatlar.

d) barcha javob to'g'ri

9. Korxonaning hisob siyosati to'g'risidagi buyrug'i bo'yicha auditor nimalar bilan tanishishi mumkin?

a) boshqa korxonalarning ustav kapitalida ishtirok etishda olingan daromadlarni oddiy operatsion faoliyatdan olingan daromadlar qatorida tan olish;

b) moliyaviy investitsiyalarni aks ettirish uchun foydalaniladigan schyotlar rejasi;

c) qo'llaniladigan buxgalteriya hisobi shakli va korxonada buxgalteriyasida tuziladigan hisob registrlari ro'yxati;

d) barcha javob to'g'ri.

11. Auditor mijozlar rahbariyati bilan umumiy audit rejasining ayrim bo'limlari va auditning ba'zi tartib -qoidalarini muhokama qilish huquqiga egami?

a) huquqqa ega emas

b) huquqiga ega

c) auditorlik tashkiloti rahbariyatining xohishiga ko'ra

d) to'g'ri javob yo'q

VII bob. MOLIYAVIY INVESTITSİYALAR AUDITINI O‘TKAZISH TARTIBI

7.1. Moliyaviy investitsiyalar hisobiga doir dastlabki hujjatlarning rasmiylashtirilishini va qimmatli qog'ozlarni baholashning to'g'riligini tekshirish

O‘tgan yillarda mamlakatimizda auditning me‘yoriy-huquqiy va uslubiy bazasi shakllantirildi, shuningdek, auditorlik faoliyatini litsenziyalashning soddalashtirilgan va muddatsiz tizimi joriy etildi, bu auditorlik xizmatlari bozorining shakllanishiga va mahalliy auditorlik tashkilotlari auditorlik kompaniyalarining yirik xalqaro tarmoqlariga kirishini ta‘minlashga imkon yaratdi.

Shu bilan birga, qator muammolar va kamchiliklar auditorlik faoliyatining yanada rivojlanishi, boshqarishga oid qarorlarni qabul qilish va korporativ boshqaruv sifatini oshirish uchun auditorlik xizmatlarining ahamiyatini oshirishga to‘sqinlik qilmoqda, xususan:

birinchidan, auditorlik tashkilotlariga ishonch darajasi past, shuningdek, auditorlik tekshiruviga moliyaviy hisobotning haqqoniyligini tasdiqlashning kafolati emas, balki ortiqcha va malol keladigan ma‘muriy tartib-taomil sifatida qaralmoqda;

ikkinchidan, auditorlik tashkilotlarini tanlab olish bo‘yicha mavjud cheklovlar va tanlovlar o‘tkazish amaliyoti ko‘p hollarda insofsiz, shu jumladan narx borasida insofsiz raqobatni keltirib chiqaradi, buning oqibatida auditorlik xizmatlari sifati va auditorlik xulosalarining haqqoniyligi pasaymoqda;

uchinchidan, auditorlarni maxsus tayyorlash va ularning malakasini oshirishning amaldagi tizimi yuzaki tusga ega bo‘lib, professional tayyorgarlikning va auditorlik xizmatlari sifatining zarur darajasini, shu jumladan, auditorlik faoliyatining xalqaro standartlariga mosligini ta‘minlamayapti, bu esa auditor kasbi nufuzining pasayishiga olib kelmoqda;

to‘rtinchidan, auditorlik tashkilotlari ishi sifatini tashqi nazorat qilishning samarali tizimi mavjud emas, bu litsenziyalovchi organning huquqiy ta‘sir choralari cheklangani sharoitida sifatsiz auditorlik

xizmatlarini ko'rsatish hollariga va auditorlarning insofsiz xatti-harakatlariga nisbatan tezkor chora ko'rish imkonini bermayapti;

beshinchidan, auditorlik faoliyatining milliy standartlari umume'tirof etilgan xalqaro audit standartlariga to'liq mos emas, bu esa xorijiy investorlarda mahalliy korxonalar moliyaviy hisobotlarining haqqoniyligini tushunish ko'nikmasining shakllanishini ta'minlamayapti⁴⁹.

Yetarli va tegishli auditni hujjatlashtirishni o'z vaqtida tayyorlash audit sifatini yaxshilashga ko'mak beradi va auditorlik hisoboti (xulosasi) yakunlanishidan oldin olingan auditorlik dalilini va erishilgan xulosalarni samarali ko'rib chiqish va baholashni yengillashtiradi. Audit ishlari amalga oshirilgandan so'ng tayyorlangan hujjatlashtirish bunday ishlar amalga oshirilayotgan paytda tayyorlangan hujjatlashtirishga nisbatan aniqsizroq bo'lishi mumkin.⁵⁰

Moliyaviy investitsiyalarni hisobga olishda qo'llaniladigan dastlabki hujjatlarning rasmiylashtirilishini tekshirishda shuni hisobga olish zarurki, qimmatli qog'ozning o'zi-qat'iy shakldagi hujjat bo'lib, uning shakli va majburiy rekvizitlari qimmatli qog'ozlarning turlari uchun qonunchilik bilan belgilangan talablarga mos kelishi lozim. Qimmatli qog'ozlarda majburiy rekvizitlarning yo'qligi yoki qimmatli qog'ozning belgilangan shaklga mos kelmasligi, uning yaroqsizligidan dalolat beradi. Shuning uchun auditor qimmatli qog'ozlar blankalarini shaklan tekshirish bilan birga, mohiyatan ham tekshiruvdan o'tkazadi. Shuningdek, qimmatli qog'ozlar qiymat ko'rsatkichlari arifmetik tekshiruvdan ham o'tkazilishi zarur.

Moliyaviy investitsiyalarni hisobga olishda qo'llanilgan dastlabki hujjatlarni tekshirish o'ta muhim ahamiyatga ega. Chunki ular qimmatli qog'ozlarga doir mulkiy huquqning bir subyektdan ikkinchisiga o'tishida maxsus tartibni belgilaydi.

⁴⁹O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida. PQ-3946-son. 19.09.2018.

⁵⁰www.naaa.uz Auditning xalqaro standarti: 230- Hujjatlashtirish.

Moliyaviy investitsiyalarni hisobga qabul qilish uchun asos bo‘luvchi hujjatlarda muayyan qimmatli qog'ozni sotib olish maqsadi va undan foydalanish muddati ko‘rsatilishi shart.

Moliyaviy investitsiyalarni baholash va qayta baholashning umumiy qoidalari O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi qonunida va “Moliyaviy investitsiyalar hisobi” nomli 12-sonli buxgalteriya hisobi milliy standartida belgilangan.

Oldi-sotdi shartnomasi bo‘yicha qimmatli qog'ozlar sotib olinganida qilingan moliyaviy investitsiyalar investor uchun qilingan haqiqiy xarajatlar summasida buxgalteriya hisobiga qabul qilinadi.

Auditor qimmatli qog'ozlarni baholashni tekshiruv chog'ida “Moliyaviy investitsiyalar hisobi” nomli 12-sonli BHMSning 9-19-bandlaridagi qoidalarga asoslanadi. Qimmatli qog'ozlarni sotib olish bo‘yicha haqiqiy xarajatlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi: shartnomaga muvofiq sotuvchiga to‘lanadigan summalar; qimmatli qog'ozlarni sotib olish bilan bog‘liq informatsion va konsultatsion xizmatlar uchun ixtisoslashtirilgan tashkilotlar yoki shaxslarga to‘lanadigan summalar; qimmatli qog'ozlarni sotib olishda ishtirok qilgan vositachi tashkilotlarga to‘lanadigan to‘lovlar.

Qimmatli qog'ozlar sotib olish uchun, ularni buxgalteriya hisobiga qabul qilgunga qadar foydalanilgan qarz mablag'lari bo‘yicha foizlar to‘lash uchun qilingan sarflar; qimmatli qog'ozlarni sotib olish bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan boshqa sarflar inobatga olinadi.

Qimmatli qog'ozlarni hisobga oladigan qiymatini shakllan- tiruvchi barcha haqiqiy xarajatlar 0610-“Uzoq muddatli investitsiyalar” va 5810-“Qimmatli qog'ozlar” schyotlar debetida hisobga olinadi.

Auditor qimmatli qog'ozlar sotib olish bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlar tarkibini, ushbu xarajatlarni moliyaviy investitsiyalar qiymatiga qo‘shishning qonuniyligini, bu xarajatlarning tegishli hujjatlar bilan tasdiqlanganligini tekshiradi.

Moliyaviy investitsiyalarning hisobga qabul qilingan bahosi, qoidaga ko‘ra, o‘zgartirilmaydi. Qarzli qimmatli qog'ozlar bundan mustasno.

Qimmatli qog'ozlar shartnomaga muvofiq tekinga olinganida olingan vaqtidagi bozor bahosi bo‘yicha baholanadi.

Agar moliyaviy investitsiyalar xorij valutasida amalga oshirilsa, bunday muomalalarning valuta muomalalarini tartibga soladigan me'yoriy hujjatlarga muvofiqligini tekshirish zarur.

Qiymati xorij valutasida ifodalangan moliyaviy investitsiyalar O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan muomala sodir bo'lgan kunda amal qilayotgan valuta kursi bo'yicha so'mga hisoblab baholanadi.

Auditor qaytarish muddati bir yildan ortiq qimmatli qog'ozlar ham qayta baholanayotganligini tekshirishi lozim. Chunki kurs tafovutini qayta baholash va hisobda aks ettirish faqat qisqa muddatli moliyaviy investitsiyalar tarkibida hisobga olinadigan qimmatli qog'ozlar hamda korxonalar tomonidan belgilangan tartibda depozitga joylashtirilgan pul mablag'lari bo'yicha amalga oshiriladi.

Boshqa korxonalarning ustav kapitaliga qo'shilgan ulushlar ta'sis shartnomasida belgilangan (kelishilgan) qiymat bo'yicha baholanadi. Korxonalar mulkini boshqa korxonalar ustav kapitaliga ulush sifatida berishda moliyaviy investitsiyalar shartnoma qiymati va berilgan mulklar qiymati o'rtasidagi farqlarni hisobda aks ettirishning to'g'riligini tekshirish zarur.

Buxgalteriya hisoboti ko'rsatkichlarining sintetik va analitik hisob ma'lumotlariga mosligini tekshirish buxgalteriya balansining «Uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalar» (I bo'lim) va «Qisqa muddatli moliyaviy investitsiyalar» (II bo'lim) satrlari bo'yicha ko'rsatkichlarni Bosh daftardagi: 0610, 0620, 0630, 0640, 0600, 5810, 5830, 5890 schyotlarining qoldiqlari bilan taqqoslash orqali amalga oshiriladi.

Moliyaviy investitsiyalar alohida turlarining mavjudligi va hisobot davri davomidagi harakati to'g'risidagi axborotlar buxgalteriya balansiga beriladigan tushuntirishlarda keltiriladi. Moliyaviy investitsiyalar alohida turlarining hisobot davri boshi va oxiriga qoldig'i to'g'risidagi ko'rsatkichlar 0610-0690 va 5810, 5830, 5890-schyotlari bo'yicha sintetik va analitik hisob ma'lumotlari bilan solishtiriladi.

Buxgalteriya hisoboti va sintetik hamda analitik hisob registrlari ko'rsatkichlarini solishtirish natijalarini auditor tegishli tarzda rasmiylashtiradi.

7.2. Qimmatli qog'ozlarning analitik hisobini, kirimi va chiqimiga doir muomalalarni tekshirish

0610-0690 va 5810, 5830 va 5890- schyotlar bo'yicha analitik hisob moliyaviy qo'shilmalarning turlari va obyektlari bo'yicha yuritiladi. Auditor korxonaning hisob siyosati to'g'risidagi buyrug'iga ilova qilingan ishchi schyotlar rejasidagi moliyaviy investitsiyalarni hisobga olish uchun foydalaniladigan schyotlar rejasi bilan tanishadi hamda analitik hisobning tuzilishi qimmatli qog'ozlarni sotuvchi-korxonalar bo'yicha moliyaviy investitsiyalar to'g'risidagi, qarz oluvchi-korxonalar bo'yicha mamlakat hududidagi va xorijdagi obyektlarga qilingan investitsiyalar to'g'risidagi axborotlar qay darajada ta'minlashini baholashi kerak.

Korxonalar qimmatli qog'ozlarini kassasida yoki depozita- riylarda (Davlat qisqa muddatli obligatsiyalar (DQMO) emitenti faqat Moliya vazirligi bo'lib, ular valuta birjasidagi depozitariyda) saqlaydi.

Ular korxonada saqlanganida, qimmatli qog'ozlar blankalarini (sertifikatlarini) mas'ul saqlash uchun korxonada kassasida yuritiladigan reyestrning mavjudligini tekshirishi lozim. Reyestrda: qimmatli qog'oz nomi, raqami, emitent nomi, qimmatli qog'ozning nominal qiymati ko'rsatilishi shart.

Qimmatli qog'ozlar depozitariylarda saqlanganida, ular saqlash uchun berilgan depozitariyning rekvizitlarini analitik hisobda ko'rsatgan holda, korxonada buxgalteriyasida hisobda aks ettirilib boriladi. Bunday holda auditorga deponent bilan depozitariy o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soladigan shartnoma (depo schyoti to'g'risidagi shartnoma) taqdim qilinishi lozim.

Shartnomada uning predmeti - qimmatli qog'ozlar sertifikatlarini saqlash yoki qimmatli qog'ozlar uchun huquqni hisobga olish bo'yicha xizmat ko'rsatish hamda:

- deponent tomonidan uning qimmatli qog'ozlarini depozitariyga deponentlash to'g'risidagi depozitariy axborotlarni berish tartibi;
- shartnomaning amal qilish muddati;
- depozitariy xizmatlari uchun shartnomada belgilangan haq to'lash hajmi va tartibi;

- depozitariyning deponentga hisobot berish shakli va davri;
- depozitariyning majburiyatlari aniq ko'rsatilgan bo'lishi lozim.

Depozitariy xizmatlari uchun to'lanadigan haq bo'yicha sarflar 9420 schyoti debeti bo'yicha aks ettiriladi. Depozitariy xizmatlari bo'yicha to'langan QQS xizmat qiymatiga qo'shib aks ettiriladi.

Auditor korxonada «Qimmatli qog'ozlarni hisobga olish daftari»ning mavjudligini aniqlaydi. Unda korxonada saqlanadigan barcha qimmatli qog'ozlar ro'yxatga olingan bo'lishi lozim.

Moliyaviy investitsiyalar kirimi va chiqimiga doir muomalalar aks ettirilishini tekshirish uchun 0610-0620, 5810, 5830, 5890 va 9220-schyotlar bo'yicha hisob registrlar ma'lumotlaridan foydalaniladi. Bunda auditor korxonada hisob uslubiyoti va moliyaviy investitsiyalar summasini shakllantiradigan haqiqiy xarajatlarni aks ettirish talablariga rioya qilinishiga ishonch hosil qilishi lozim.

Shuningdek, qimmatli qog'ozlarni sotib olish qanday mablag'lar hisobiga amalga oshirilganligini ham tekshirish zarur. Masalan, pulni to'lash yoki mulklarni berish hisobiga olinishi mumkin.

Agar qimmatli qog'ozlar qiymati mulklar bilan to'lansa, investor bunday muomalalarni hisobga olishda 9210-«Asosiy vositalarning chiqimi», 9220-«Boshqa aktivlarning chiqimi» schyotlaridan foydalanishi lozim. Chunki qimmatli qog'ozlar qiymati mulklar bilan to'langanda hisobdan chiqarilgan mulklarning balans qiymati va sotib olinayotgan qimmatli qog'ozning sotib olish bahosi o'rtasidagi farq soliqqa tortiladigan bazaga ta'sir ko'rsatadi.

Auditor, masalan, auditorlik tekshiruvi jarayonida qimmatli qog'ozlar sotib olish uchun kredit olinganligi ma'lum bo'lganida, qimmatli qog'ozlar hisobga qabul qilinganidan so'ng qilingan xarajatlarning moliyaviy investitsiyalar qiymatini ko'paytiradigan qo'shimcha xarajatlar sifatida qimmatli qog'ozlar qiymati ustiga qo'shilmayotganligini ham tekshirishi lozim.

7.3. Moliyaviy investitsiyalarning daromadlilik, olingan daromadlarning to'liq aks ettirilishi va soliqqa tortilishini tekshirish

Korxonaning moliyaviy investitsiyalardan oladigan daromadlari 9520-«Dividend ko'rinishidagi daromadlar», 9530-«Foiz ko'rinishidagi daromadlar» va 9560-«Qimmatli qog'ozlarni qayta baholashdan olinadigan daromadlar» schyotlarida hisobga olinadi va «Mahsulot (ish, xizmat)lar tannarxiga qo'shiladigan mahsulot ishlab chiqarish (ish bajarish, xizmat ko'rsatish) va realizatsiya xarajatlarining tarkibi hamda moliya natijalarini shakllantirish tartibi to'g'risidagi nizom»ga muvofiq moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar qatoriga kiritiladi.

Mazkur nizomda (V bo'limi, 3-§. «Moliyaviy faoliyatdan olinadigan daromadlar», 3,5-modda) Qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar», shu'ba korxonalariga berilgan mablag'lar va shu kabilarni qayta baholashdan olingan foyda, shuningdek, V bo'limi, 3-§. «Moliyaviy faoliyatga doir chiqimlar», 3,4-modda, «Qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar» (sho'ba korxonalariga berilgan mablag'lar va shu kabilarni)ni qayta baholashdan ko'rilgan zararlar qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar va sho'ba korxonalariga berilgan mablag'larni har chorakda (yilda) qayta baholash, ya'ni ularni balansda bozor bahosi bo'yicha aks ettirish tavsiya etiladi.

Ammo, bunday hisob yuritish siyosatiga qimmatli qog'ozlar bozori keng rivojlanganda, bozor qiymati haqida muntazam axborotlar mavjud sharoitda erishish mumkin.

Auditor sotib olingan qimmatli qog'ozlardan tashqari korxonaning o'zida chiqarilgan qimmatli qog'ozlar saqlanishi ham mumkinligini bilishi zarur. Bunday qimmatli qog'ozlar o'z jamoasi a'zolariga sotilguncha yoki birjaga berilgunga qadar 006-«Qat'iy hisobot blankalari» degan balansdan tashqari schyotda hisobga olinadi.

Qo'shimcha daromad olish maqsadida ikkilamchi sotish uchun birjada sotib olingan yoki jismoniy shaxslardan (masalan, korxonada xodim ishdan bo'shab ketayotganida) sotib olingan korxonada aksiyalari 8620-«Sotib olingan xususiy aksiyalar-imtiyozli» schyotida hisobga olinadi va quyidagi buxgalteriya yozuvi bilan rasmiylashtiriladi: Dt-8620-«Sotib olingan xususiy aksiyalar imtiyozli» schyoti va Kt 5010,

5110-schyotlar qimmatli qog'ozlarning xarid qiymatiga. Korxonalar aksiyalarini ikkilamchi sotish quyidagicha aks ettiriladi:

1. Dt-5010, 5110, 5210, 5220; Kt-9220-ikkilamchi sotish qiymatiga.
2. Dt-9220; Kt-5610- (maxsus subschyot) qimmatli qog'ozlarning xarid bahosi.
3. Dt-9220; Kt-9590-ikkilamchi sotish qiymatining xarid bahosidan oshgan qismi.

Agar xarid qiymati ikkilamchi sotish qiymatidan yuqori bo'lsa, u holda Dt 9690; Kt 9220. Auditor bunday hollarda samarasiz moliyaviy muomalalar amalga oshirilganligining obyektiv (balki subyektiv) sabablarini aniqlash, oqilona ish yuritilganda investitsiyalashdan mumkin yo'qotishlar ko'lamini aniqlashi va bu haqda direktorlar kengashida yoki aksiyadorlar majlisida bildirishi zarur.

Boshqa korxonalar ustav kapitaliga hissa qo'shish ko'rinishidagi qilingan moliyaviy investitsiyalar auditi ushbu korxonalar ustavlarini tahlil qilib, daromad olish shartlarini hamda bunday investitsiyalar samaradorligining to'g'riligi va hisobda to'liq aks ettirilganligini aniqlashdan iborat.

Shuningdek, vekselga berilgan qarzlarning ham moliyaviy investitsiyalar hisoblanadi. Ular quyidagicha aks ettiriladi: Dt-0610,5810; Kt-5110,5210, 5220-vekselga berilgan qarz summasiga.

Veksellar ularda aks ettirilgan summalar, ya'ni nominal qiymati va sotib olish bahosi o'rtasidagi farqdan daromad olish maqsadida sotib olinganida buxgalteriya hisobida quyidagicha aks ettiriladi:

Dt 5810; Kt 5110, 5210, 5220 -vekselning sotib olish qiymatiga;

Dt 5810; Kt 9590 vekselga ko'rsatilgan summa va sotib olish qiymati o'rtasida farq daromadga olinganida.

Moliyaviy investitsiyalar boshqa korxonalar faoliyatida hissa qo'shib ishtirok etish, aksiyalar bo'yicha dividendlar va obli-gatsiyalar bo'yicha daromadlar olish maqsadida amalga oshirilib, hisobda quyidagicha aks ettiriladi:

- Dt 5110, 5220, 5220; Kt 9520, (9530) - olingan dividendlar (foizlar) summasiga.

Daromadlarning to'liq aks ettirilganligini tekshirishda, ularning miqdori buxgalteriyada hisobga olish maqsadida quyidagi shart-sharoitlar mavjud bo'lganda tan olinadi:

- korxonada ushbu daromadlarni olish huquqiga ega;
- daromadlar summasi aniqlangan bo'lishi mumkin;
- muayyan muomala natijasida korxonada iqtisodiy manfaatning ko'payishiga ishonch bo'lganida.

Korxonaning moliyaviy investitsiyalardan olgan barcha daromadlari soliqqa tortish maqsadida ikkita guruhga bo'linadi:

- umumqabul qilingan tartibda realizatsiyadan tashqari daromadlar tarkibida soliqqa tortiladigan daromadlar (hamkorlikdagi faoliyatdan olingan daromadlar);

- maxsus tartibda soliqqa tortiladigan daromadlar. Bularga aksiyador-korxonaga tegishli va bu qimmatli qog'ozlar egasining emitent-korxonada foydasini taqsimlashda ishtirok etish huquqini tasdiqlovchi aksiyalar bo'yicha olingan daromadlar;

- O'zbekiston Respublikasi davlat qimmatli qog'ozlari va mahalliy organlar qimmatli qog'ozlari; O'zbekiston Respublikasi hududida tashkil qilingan boshqa korxonalar ustav kapitalida hissa qo'shib ishtirok etishdan olingan daromadlar. Bunday daromadlar belgilangan foiz stavkasi bo'yicha soliqqa tortiladi va daromadlarni to'lash manbalaridan to'lanadi.

Aksiyalar bozor bahosining ular nominal qiymatiga nisbatan yildan yilga o'sib borishi ham korxonada rahbariyatining oqilona ish yurttayotganligidan dalolat beradi.

Asosiy kapitalga kiritilayotgan investitsiyalarning yalpi ichki mahsulotga nisbatan ulushi 24 foizdan kam bo'lmasligi tarkibiy o'zgartirishlarni jadal amalga oshirish va iqtisodiyotni modernizatsiya qilishni ta'minlaydi.

Investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning asosiy hajmi ichki resurslarni safarbar qilish hisobidan amalga oshiriladi. Kelgusi yillarda bu ko'rsatkich yalpi kapital qo'yilmalar hajmining 76 foizini tashkil etadi.

Bu mablag'lar, avvalo, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashni amalga oshirayotgan korxonalarining o'z mablag'larini ko'paytirishi, soliq yukini yanada kamaytirish, tijorat banklarining resurs bazasini mustahkamlash va aholining tadbirkorlik faoliyatidan oladigan daromadlarini oshirish hisobidan hosil bo'ladi.

Strategik muhim infratuzilmani shakllantirish, ishlab chiqarishni rekonstruksiya qilish va modernizatsiya etishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirishga ichki resurslarni jalb etishda O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi alohida o'rin egallaydi. Mazkur jamg'armaning tarkibiy o'zgarishlardagi tobora ortib borayotgan rolini inobatga olgan holda, yaqin yillarda uning hisobida 10 milliard AQSh dollaridan ziyod mablag' jamlanadi.

Mazkur jamg'armaning eng muhim vazifalaridan biri strategik investitsiya loyihalarini birgalikda moliyalashtirish maqsadida yirik xorijiy investor va sheriklarni jalb etishdir. Masalan, Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi va Osiyo Taraqqiyot banki ishtirokida amalga oshirilayotgan, umumiy qiymati 1,28 milliard AQSh dollarga teng bo'lgan Tolimarjon issiqlik elektr stansiyasida ikkita bug'-gaz moslamasini qurish loyihasi shular jumlasidandir.

Kelgusi yillardagi ustuvor yo'nalishlardan biri mamlakatimizda, eng avvalo, jalb qilinayotgan to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmini oshirish, xorij investorlari uchun kafolatlar yaratish hamda ularning ishonchini mustahkamlash maqsadida yanada qulay investitsiya muhitini shakllantirishdan iborat. Bu vazifalarni oshirish orqali 2018-2020-yillar davomida 13 milliard AQSh dollardan ziyod yoki o'tgan besh yildagiga nisbatan 1,7 barobar to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb etilishini ta'minlaydi.

Ushbu mablag'lar eng ilg'or texnologiyalar bilan jihozlangan va xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash hamda raqobatdosh tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni ta'minlaydigan, mamlakatimiz eksport salohiyatini oshirish hamda yangi ish o'rinlarini yaratishga xizmat qiladigan yangi sanoat korxonalarini tashkil etish bo'yicha xorij investorlari ishtirokidagi 320 tadan ortiq yirik investitsiya loyihasini amalga oshirishga yo'naltiriladi.

Bunday loyihalar haqida soʻz borganda, avvalo Surgil koni bazasida Ustyurt gaz-kimyo majmuasini barpo etish, Shoʻrtan gaz-kimyo majmuasida tozalangan metan bazasida suyultirilgan sintetik yoqilgʻi ishlab chiqarish, Muborak gaz-kimyo majmuasini qurish, Qandim guruhi konlarini oʻzlashtirib, gazni qayta ishlaydigan zavod barpo etish, Navoiy viloyatida ammiak va karbamid ishlab chiqaradigan zamonaviy kompleks qurish, avtomobil dvigatellari, katta hajmda yuk tashiydigan «MAN» avtomobillari, «Mercedes Bens» shassis bazasida koʻp oʻrinli avtobuslar, «Klaas» kompaniyasi bilan hamkorlikda qishloq xoʻjaligi texnikasini ishlab chiqarishni tashkil etish, tayyor mahsulot ishlab texnik va polikristall kremniy ishlab chiqarish, tayyor mahsulot ishlab chiqarishning toʻliq sikliga ega vertikal integratsiyalashgan tekstil majmualarini, tayyor dori preparatlarini ishlab chiqaradigan korxonalarini barpo etish va boshqa loyihalarni qayd etish mumkin.

Iqtisodiyotni tarkibiy oʻzgartirishda Oʻzbekiston yirik xalqaro moliya institutlari, hukumat tashkilotlari va xorijiy banklarni, birinchi navbatda mamlakatimiz bilan yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirish boʻyicha oʻzaro hamkorlik aloqalarini kengaytirishga katta qiziqish bildirayotgan Osiyo taraqqiyot banki, Jahon banki, Islom taraqqiyot banki, Yaponiya, Janubiy Koreya va XXR taraqqiyot banklari, qator arab davlatlarining investitsiya fondlarini jalb etish masalasiga katta ahamiyat beradi. Aynan ana shu hamkorlikning moliyaviy koʻmagida kelgusi yillar davomida Oʻzbek milliy avtomagistrali uchastkalarini qurish, ichimlik suvi bilan taʼminlash tizimlarini barpo etish va rekonstruksiya qilish, qishloq xoʻjaligi yerlarining meliorativ holatini yaxshilash, polivinilxlorid va kaustik soda ishlab chiqarish boʻyicha yangi majmua barpo etish, qishloq xoʻjaligi texnikasi va avtomobil shinalarini ishlab chiqarishni tashkil etish kabi koʻplab loyihalar amalga oshiriladi. Qulay investitsion muhit va tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish hamda eksportni qoʻllab-quvvatlash borasida ham muayyan ishlar amalga oshirildi. Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki bilan toʻlaqonli munosabatlar tiklandi, bank tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka 190 million AQSh dollarini miqdorida kredit liniyasi ajratildi. Turli yoʻnalishlarda 20 dan ortiq loyihalar ishlab

chiqildi. Hamkor mamlakatlar va xalqaro moliya institutlari bilan munosabatlardagi yondashuv o'zgartirildi. Oliy darajadagi tashriflar chog'ida quyidagi davlatlar bilan savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy aloqalarni rivojlantirish bo'yicha ikki tomonlama davlatlararo shartnomalar imzolandi. Hozirgi kunda binoda qurilish ishlari amalga oshirilmoqda. 2019-yil yakuniga borib, foydalanmay turgan bo'sh bino majmuasi negizida 3,0 ming tonna sig'imga ega zamonaviy sovitish kameralari ishga tushiriladi. Bir so'z bilan aytganda, 2019-2020-yillarda jami xorijiy investitsiya va kreditlar hajmi 118,6 milliard AQSh dollarni tashkil etishi yoki o'tgan besh yildagiga nisbatan 2 barobar ko'p bo'lishi prognoz qilinmoqda. Ularning 75 foizdan ortig'ini to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar tashkil etadi. Bu borada qarz mablag'lari uzoq muddatli asosda faqat ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmalarini rivojlantirish, iqtisodiyotning strategik tarmoqlarini modernizatsiya qilish, shuningdek, xorijiy moliyaviy institutlar kredit liniyalarini mamlakatimiz tijorat banklari orqali qayta moliyalashtirish yo'li bilan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga jalb etiladi.

VII BOB bo'yicha xulosa

Moliyaviy investitsiyalarni hisobga olishda qo'llaniladigan dastlabki hujjatlarning rasmiylashtirilishini tekshirishda shuni hisobga olish zarurki, qimmatli qog'ozning o'zi-qat'iy shakldagi hujjat bo'lib, uning shakli va majburiy rekvizitlari qimmatli qog'ozlarning turlari uchun qonunchilik bilan belgilangan talablarga mos kelishi lozim. Qimmatli qog'ozlarda majburiy rekvizitlarning yo'qligi yoki qimmatli qog'ozning belgilangan shaklga mos kelmasligi, uning yaroqsizligidan dalolat beradi. Shuning uchun auditor qimmatli qog'ozlar blankalarini shaklan tekshirish bilan birga, mohiyatan ham tekshiruvdan o'tkazadi. Shuningdek, qimmatli qog'ozlar qiymat ko'rsatkichlari arifmetik tekshiruvdan ham o'tkazilishi zarur.

Nazorat savollari

1. Moliyaviy investitsiyalar auditi qanday tartibda o'tkaziladi?

2. Moliyaviy investitsiyalar hisobiga doir dastlabki hujjatlar qanday rasmiylashtiriladi?
3. Qimmatli qog'ozlarni baholashning to'g'riligi qanday tekshiriladi?
4. Qimmatli qog'ozlarning analitik hisobi deganda nimani tushunasiz?
5. Qimmatli qog'ozlarning kirimi va chiqimiga doir muomalalar qanday tekshiriladi?
6. Moliyaviy investitsiyalarni hisobga olishda qo'llaniladigan dastlabki hujjatlarning rasmiylashtirilishini tekshirishda nimani inobatga olish zarur?
7. Moliyaviy investitsiyalarni hisobga qabul qilish uchun asos bo'luvchi hujjat nima?
8. Moliyaviy investitsiyalarni baholash va qayta baholashning umumiy qoidalari nechanchi sonli BHMSga asosan yuritiladi?
9. Auditor qimmatli qog'ozlarni baholashni tekshirayotganda 12-sonli BHMS ning nechanchi bandlaridagi qoidalarga asoslanadi?
10. Qimmatli qog'ozlarni sotib olish bo'yicha haqiqiy xarajatlar nimalarni o'z ichiga oladi?
11. Qimmatli qog'ozlarni hisobga oladigan qiymatini shakllantiruvchi barcha haqiqiy xarajatlar qaysi schyotlarning debetida hisobga olinadi?
12. Moliyaviy investitsiyalarning hisobga qabul qilingan bahosi qoidaga ko'ra o'zgartirilishi mumkinmi?
13. Depozitariy deganda nimani tushunasiz? Qimmatli qog'ozlar bo'yicha olingan daromadni hisobga olishda qanday buxgalteriya provodkasi beriladi?
14. Depozitariy xizmatlari uchun to'lanadigan haq bo'yicha sarflar qaysi schyotda aks ettiriladi?
15. Moliyaviy qo'yilmalar auditining xususiyatlari nimalardan iborat?
16. Moliyaviy qo'yilmalar auditida ko'p uchraydigan xatolar qaysilar?
17. Korxonaning moliyaviy investitsiyalardan oladigan daromatlari qaysi schyotlarda hisobga olinadi?

18.Korxonaning moliyaviy investitsiyalardan olgan barcha daromadlari soliqqa tortish maqsadida qaysi guruhlarga bo‘linadi?

19.Qimmatli qog'ozlarni baholashning to‘g‘riligini tekshirishda auditorning majburiyatlari nimalardan iborat?

20.Moliyaviy investitsiyalarning soliqqa tortilishini tekshirish bosqichlari.

Testlar

1."Dastlabki" audit nimani anglatadi:

- a) auditorlik tashkiloti tomonidan birinchi marta o‘tkazilgan audit
- b) auditorlik firmasi bu tashkilotda birinchi marta audit o‘tkazdi
- c) biznes -reja auditi, mahsulot, ishlar, xizmatlar bozorining ma'lum bir segmentida belgilangan mezonlarga muvofiq tashkil etilayotgan tashkilotning samaradorligini tekshirish.
- d) to‘g‘ri javob yo‘q

2.Aniqlangan xatolarning ahamiyatliligini baholashda auditor ularni hisobga olishi kerak:

- a) qiymat (miqdor)
- b) belgi (sifat)
- c) ham ma'no, ham xarakter.
- d) to‘g‘ri javob yo‘q

3.Qimmatli qog'ozlarni hisobga oladigan qiymatini shakllantiruvchi barcha haqiqiy xarajatlar 0610-“Uzoq muddatli investitsiyalar” va 5810-“Qimmatli qog'ozlar” schyotlar debetida hisobga olinadi.

- a) noto‘g‘ri
- b) to‘g‘ri
- c) 8600 hisobvarag‘ining kreditida yuritiladi
- d) xarajatlarning hammasi 9400 hisobvaraqsida yuritiladi

4. Moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar qaysi hisobvaraqda hisobga olinadi

- a)8500
- b)8600
- c)9500
- d)9600

5. Korxonada aksiyalarini ikkilamchi sotish qaysi hisobvaraqa aks ettiriladi?

- a) Dt-5010, 5110, 5210, 5220; Kt-9220
- b) Dt-9220; Kt-5610
- c) Dt-9220; Kt-9590
- d) barcha javob to'g'ri

6. Moliyaviy investitsiyalar boshqa korxonalar faoliyatida hissa qo'shib ishtirok etish, aksiyalar bo'yicha dividendlar va obligatsiyalar bo'yicha daromadlar olish maqsadida amalga oshirilib, hisobda quyidagicha aks ettiriladi:

- a) Dt 5110, 5220, 5220; Kt 9520, (9530)
- b) Dt 4010, 5120, 5220; Kt 9520, (9530)
- c) Dt 5510, 5020, 4220; Kt 9620, (9730)
- d) To'g'ri javob yo'q

7. Ta'rischilar tomonidan ustav kapitaliga qo'shiladigan hissalar hisobda va balansda qay tarzda aks ettiriladi?

- a) balans qiymatida
- b) ularning rejada krim qilinish meyoriga qarab
- c) ularni haqiqatda krim qilinish meyoriga qarab
- d) aksiyalar obunasiga qarab

8. Ekspert xulosasi qanday qsimlardan tarkib topadi?

- a) kirish, tekshirish, xotima
- b) kirish, xotima
- c) kirish, tekshirish, tushuntirish, xotima
- d) kirish, tekshirish, dalillar tarkibi, xotima

9. Auditorlik xulosasini imzolash sanasidan oldin, sodir bo'lgan voqealar to'g'risida auditorlik dalillarini yig'ish va baholash yakunlanishi kerak:

- a) Hisobot sanasidan keyin
- b) Aktsiyadorlarning umumiy yig'ilishidan keyin xo'jalik yurituvchi sub'ektning hisobot berish sanasi
- c) Hisobot ishlari xo'jalik yurituvchi sub'ekt tomonidan yakunlangan sanadan keyin
- d) to'g'ri javob yo'q

10. Auditorlik hisobotida auditorlik tashkiloti auditorlik sub'ektining o'z faoliyatini davom ettirish qobiliyatiga shubha bildirgan, garchi auditorlardan buni talab qilinmagan. Ziddiyatli vaziyat bor edi, chunki hisobot ishonchli edi. Vaziyatni baholang:

- a) auditorlik tashkiloti bunday hukm chiqarishga haqli emas, bu audit mavzusiga taalluqli emas
- b) auditorlik hisobotida asosiy narsa - bu bayonotlarning ishonchliligini tasdiqlash, qolganlari muhim emas
- c) auditorlik tashkiloti to'g'ri ish qildi
- d) a va b javob to'g'ri

ATAMALAR LUG'ATI

Asosiy vositalar - korxonada tomonidan uzoq muddat davomida xo'jalik faoliyatini yuritishda mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish jarayonida yoxud ma'muriy va ijtimoiy-madaniy vazifalarni amalga oshirish maqsadida foydalanish uchun tutib turiladigan moddiy aktivlar.

Amortizatsiyalanadigan qiymat - moliyaviy hisobotlarda faraz qilinayotgan (baholangan) tugatish qiymatini chegirgan holda ko'rsatilgan aktivning boshlang'ich (tiklash) qiymati summasi.

Amortizatsiya - foydali xizmat muddati mobaynida aktivning amortizatsiyalanadigan qiymatini asosiy vositalarning vazifasidan kelib chiqqan holda mahsulot (ishlar, xizmatlar) tannarxi yoki davr xarajatlariga muntazam taqsimlash va o'tkazish ko'rinishida eskirishning qiymat ifodasi.

Asosiy vositalarning inventori - obyekt sifatida barcha qurilmalari va anjomlariga ega bo'lgan obyekt yoki muayyan mustaqil vazifalarni bajarish uchun mo'ljallangan alohida konstruktiv asosdagi buyum yoxud butun bir yaxlitlikni ifodalovchi va muayyan vazifalarni bajarish uchun mo'ljallangan konstruktiv jamlangan buyumlarning alohida majmuyi tan olinadi.

Asosiy vositalarni qayta baholash - asosiy vositalar obyektlarining tiklash qiymatini hozirgi bozor narxlari darajasiga moslash maqsadida ularni vaqti-vaqti bilan aniqlashtirish. Asosiy vositalar qayta baholash natijasida hisob va hisobotda joriy qiymat bo'yicha aks ettiriladi.

Asosiy vositalar obyekti bo'yicha amortizatsiya ajratmalarini hisoblash mazkur obyekt asosiy vositalar tarkibiga qabul qilingan oydan keyingi oyning dastlabki sanasidan boshlanadi hamda mazkur obyektning amortizatsiyalanadigan qiymati to'liq so'ndirilgunga qadar yoxud bu obyektning balansdan hisobdan chiqarilguncha amalga oshiriladi.

Aktiv - buxgalteriya balansining bir qismi bo'lib, ma'lum bir muddatga subyekt mablag'larining tarkibi va joylanishini pul ko'rinishida aks ettiradi. Bundan tashqari balansning passiv qismi ham

mavjud bo‘lib, aktiv va passiv tomonlar bo‘lim va moddalaridan iborat. Aktiv tomonining jami summasi passiv tomoni summasi bilan teng bo‘lishi lozim. Buni shunday tushuntirish mumkin, ya'ni aktiv tomonidagi mablag'larning manbalari, balansning passiv tomonida joylashgan.

Akkreditiv (lot. accredo - ishonaman) - naqd pulsiz hisob- kitob turlaridan biri. Ma'lum bir tovar va xizmatlar uchun belgilangan muddatda mol yetkazib beruvchilar bilan hisob-kitoblar uchun ajratilgan pul mablag'idir. Akkreditiv quyidagi hollarda qo‘llaniladi: xaridor va mol yetkazib beruvchi o‘rtasidagi shartnomaga asosan, xaridor va mol yetkazib beruvchi o‘rtasidagi xo‘jalik munosabati doimiylikka ega bo‘lmasa, xaridor tovarni mol yetkazib beruvchi manzilida qabul qilib olsa, hokimiyat ko‘rsatmasi va yo‘riqnomasiga ko‘ra, tovar yetkazib berishning alohida ma'lum bir sharoitlarida bank muassasasi talabi bilan kreditlash va hisob-kitobning ma'lum usuliga o‘tgan korxonalar munosabatida, tovar-moddiy boyliklarning me'yoridan yuqori zaxiralariga ega bo‘lgan korxonalar munosabatida.

Aksept - belgilangan sharoit bo‘yicha shartnoma tuzishga rozilik berish. Naqd pulsiz hisob-kitobda aksept xaridorning mol yetkazib beruvchi taqdim qilgan hisobini to‘lashga rozilik bildiradi.

Akseptant - hisob bo‘yicha to‘lovni amalga oshirishga rozilik bergan korxonalar, tashkilotlar va muassasalar yoki shaxslar.

Akseptlash (lot. acceptare - qabul qilish) - to‘lov hisobini qabul qilish, mol yetkazib beruvchi schyotiga to‘lovni o‘tkazishga rozilik berish.

Boshlang'ich qiymat - to‘langan va qoplanmaydigan soliqlarni (yig'implarni), shuningdek, aktivni undan mo‘ljal bo‘yicha foydalanish uchun ishchi holatiga keltirish bilan bevosita bog'liq bo‘lgan yetkazib berish va montaj qilish, o‘rnatish, ishga tushirish va istalgan boshqa xarajatlarni hisobga olgan holda, asosiy vositalarni tiklash (qurish va qurib bitkazish) yoki xarid qilish bo‘yicha haqiqatda qilingan xarajatlarning qiymati.

Bozor qiymati — bu investitsiyalarning aktiv bozorda aniqlangan summasi.

Bozordagi — bozor qiymati(yoki bozor qiymatini hisoblash imkonini beradigan boshqa biror ko‘rsatkich) aniqlangan aktiv bozorning mavjudligini bildiradi.

Balans (fr. Balance- muvozanat, tarozining ikki pallasi) - doimiy o‘zgarishda va o‘zaro bog‘liq kattaliklarning holatini ko‘rsatuvchi, ko‘rsatkichlar tizimi, tenglik.

Balansdagi schyotlar - buxgalteriya ko‘rsatkichlari balansida aks ettiriladigan buxgalteriya schyotlari.

Bank korrespondenti - boshqa banklar bilan o‘zaro munosabatlarda bo‘ladigan va ularning topshiriqlari bilan ma'lum bir moliyaviy jarayonlarni bajaruvchi bank.

Birlamchi hujjatlar - buxgalteriya hujjatlari bo‘lib, xo‘jalik jarayoni sodir bo‘lgan vaqtda tuziladi va ular sodir etilganligi haqida birlamchi guvohnoma hisoblanadi.

Bosh shartnoma - umumiy ish bajarish yoki tovar yetkazish davri tugagunga qadar muddatga tuzilgan shartnoma.

Buxgalteriya balansi - ma'lum bir davrda xo‘jalik mablag‘lari va ular manbalarining pul qiymatini guruhlab va umumlashtirib aks ettirish usuli.

Buxgalteriya daftarlari - sintetik va analitik hisobni hujjatlarga asosan qayd qilish.

Buxgalteriya o‘tkazuvi - schyotlar korrespondensiyasini yozish. Bunda xo‘jalik jarayoniga tegishli summa bir schyotning debeti va ikkinchi schyotning kreditida aks ettiriladi. Buxgalteriya o‘tkazmasi hujjatlar (jurnal-order, tabulogramma yoki eski hujjatlar shakli, memorial order)ga asosan tuziladi.

Chet el investitsiyalari — chet ellik investor tomonidan ijtimoiy soha, tadbirkorlik, ilmiy va boshqa faoliyat turlari obyektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy boyliklar hamda ularga bo‘lgan huquqlar, shu jumladan intellektual mulk obyektlariga bo‘lgan huquqlar, shuningdek reinvestitsiyalar.

Da'vo - da'vo qo‘zg‘atuvchining talabi. Korxonalar qarzdorlarga (debitorlarga) o‘z vaqtida to‘lanmagan qarz summalar uchun da'vo qo‘zg‘atishlari lozim. Da'vo moddiy zarar keltirganlarga nisbatan asosli

ravishda qo'zg'atilishi zarur (debitorlik qarzlari, da'volar yuzasidan hisob-kitoblarga qarang).

Dotatsiya - korxonalar, tashkilot, muassasalarga qarzlarni qoplash uchun davlat tomonidan beriladigan nafaqa.

Diskontlash - kelajakda aniq bir vaqtda olinishi kutilayotgan pul mablag'larining joriy ekvivalentini aniqlash.

Diskont stavkasi - vaqtning har xil paytiga taalluqli bo'lgan pul summalarini bir vaqtga (paytga) keltirishda foydalanadigan stavka.

Dividend - aksiyadorlik jamiyati foydasining bir qismi bo'lib, aksiyadorlar o'rtasida soliqlarni, ishlab chiqarishni kengaytirishga ajratmalar, zaxiralarni tashkil etish, obligatsiyalar bo'yicha foizlar va boshqa to'lovlarni amalga oshirilganidan so'nggina taqsimlanadi.

Diskont - 1) vasiqa hisobi; 2) hisob foizi — vasiqa hisobida banklarga to'lanadigan foiz; 3) birja va valuta ishlarida — tovar kotiral bahosidan ustama (masalan, agar tovar sifati standartdan past bo'lsa) valuta.

Debitorlik va kreditorlik qarzlarning haqiqiy qiymati - korxonaning jami debitorlik (kreditorlik) qarzlarning faqatgina so'ndirilishi mumkin bo'lgan qismi.

Debet (lot. debet - u majbur) - buxgalteriya hisobining bir qismi. Aktiv schyotlarning debetiga summalarning ko'payishi yozilsa, passiv schyotlarda esa summaning kamayishi yoziladi. Hisoblashish schyotlarining debetida esa, boshqa korxonalar va shaxslarning shu korxonaga qarzlari aks ettiriladi va debitorlik qarzlari deyiladi. Debet kreditlari esa aktiv va aktiv-passiv schyotlarda bo'ladi.

Debitorlar (lot. debitor - qarzdor) - ushbu subyektga qarzdor bo'lgan boshqa korxonalar, tashkilot, muassasa yoki shaxslar bo'lib, ular debitorlik qarzlarni to'lashlari lozim.

Deponent (lot. depono - yig'aman) - korxonalar, tashkilot, muassasa yoki jismoniy shaxsning korxonalar, tashkilot, muassasada vaqtincha saqlayotgan mablag'i.

Foydali xizmat muddati - korxonalar aktivdan foydalanadigan vaqt davri yoki korxonalar ushbu aktivdan foydalanishdan olishni mo'ljallayotgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) miqdori.

Faol bozor - oldi-sotdi obyektlari bir turda (bir xil) bo'lgan va har qanday vaqtda bitimni amalga oshirishni xohlovchi manfaatdor sotuvchi va xaridorlarni topish mumkin bo'lgan, shuningdek, narxlar haqidagi ma'lumotlar oshkor (hammabop) bo'lgan bozor.

Hisob-kitob operatsiyalari - korxonadan tomonidan yoki korxonada ishlatilgan hisob (moliya) yili davomida sodir etilgan operatsiyalar natijasida yuzaga kelgan debitorlik va kreditorlik qarzlarning so'ndirilishi.

Hisob-kitob operatsiyalarida nazorat riski - hisob-kitob operatsiyalariga nisbatan ichki nazorat riskining mavjud bo'lishi, ammo bu tizimning sifatsizligi sabab buxgalteriya tizimida hisob-kitob operatsiyalarining noto'g'ri aks ettirilgan bo'lishi xavfi.

Hisob-kitoblarning bo'yicha o'zaro solishtirma dalolatnoma - mijoz korxonadan xaridori/mol yetkazib beruvchisi mijoz bilan bir shaharda joylashgan bo'lsa, ikki tarafning o'zaro debitorlik/kreditorlik operatsiyalari bo'yicha hisob-kitoblari inventarizatsiyada tuziladigan hujjat.

Hisob-kitob operatsiyalari bo'yicha asoslovchi testlar - hisob-kitob operatsiyalarining moliyaviy hisobotlarda keltirilgan summalari to'g'ri (asosli) ekanligini tekshirishga yo'naltirilgan testlar majmui.

Investitsiyalar — investor tomonidan foyda olish maqsadida ijtimoiy soha, tadbirkorlik, ilmiy va boshqa faoliyat turlari obyektlariga tavakkalchiliklar asosida kiritiladigan moddiy va nomoddiy boyliklar hamda ularga bo'lgan huquqlar, shu jumladan intellektual mulk obyektlariga bo'lgan huquqlar, shuningdek reinvestitsiyalar bo'lib, ular quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin:

mablag'larni, shu jumladan pul mablag'larini (shu jumladan chet el valyutasini), maqsadli bank omonatlarini, paylarni, ulushlarni, aksiyalarni, obligatsiyalarni, veksellar va boshqa qimmatli qog'ozlarni;

ko'char va ko'chmas mol-mulkni (binolar, inshootlar, uskunalar, mashinalar va boshqa moddiy qimmatliklarni);

intellektual mulkka doir mulkiy huquqlarni, shu jumladan u yoki bu ishlab chiqarish turini tashkil etish uchun zarur bo'lgan, texnik hujjatlar, ko'nikmalar va ishlab chiqarish tajribasi tarzida rasmiylashtirilgan,

patentlangan yoki patentlanmagan (nou-xau) texnik, texnologik, tijoratga oid va boshqa bilimlarni, shuningdek O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligida taqiqlanmagan boshqa qimmatliklarni.

Investor — foyda olish maqsadida investitsiya faoliyati obyektlariga o‘zining mablag‘larini va (yoki) qarz mablag‘larini yoxud jalb qilingan boshqa investitsiya resurslarini investitsiya qilishni amalga oshiruvchi investitsiya faoliyati subyekti.

Investitsiya loyihasi — iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa foyda olish uchun investitsiyalarni amalga oshirishga yoxud jalb etishga qaratilgan, o‘zaro bog‘liq bo‘lgan tadbirlar majmui.

Investitsiya majburiyati — belgilangan maqsadlarga erishish uchun investor tomonidan qabul qilinadigan majburiyat.

Investitsiya siyosati — O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida va uning alohida tarmoqlarida investitsiyalarning zarur darajasini va tuzilmasini ta‘minlashga, investitsiya faoliyati subyektlarining investitsiya manbalarini topishga va ulardan foydalanishning ustuvor tarmoqlarini aniqlashga yo‘naltirilgan investitsiyaviy faolligini oshirishga doir o‘zaro bog‘liq tadbirlar majmui.

Investitsiya faoliyati — investitsiya faoliyati subyektlarining investitsiyalarni amalga oshirish bilan bog‘liq harakatlari majmui.

Investitsiya faoliyatining ishtirokchisi — investitsiyalarning amalga oshirilishini buyurtmalarni bajaruvchi sifatida yoki investorning topshirig‘i asosida ta‘minlaydigan investitsiya faoliyati subyekti.

Investitsiya shartnomasi — investitsiya faoliyati subyektlari o‘rtasida tuziladigan, investitsiya shartnomasi taraflarining huquqlari, majburiyatlari va javobgarligini belgilaydigan yozma bitim.

Ijara (polyak. -arenda va lot. Arrendare - qarzga foydalanishga berish) — shartnoma asosida buyumlarning vaqtinchalik foydalanishga belgilangan ijara haqi to‘lovi asosida berilishi.

Ijara (lizing) obyektlari - iste'mol qilinmaydigan har qanday buyumlar (ashyolar), shu jumladan, korxonalar, mulkiy komplekslar, alohida binolar, inshootlar, uskunalar, transport vositalari hamda boshqa ko‘char va ko‘chmas mulk (muomaladan chiqarilgan yoki muomalada bo‘lishi cheklangan boshqa mol-mulklar bundan mustasno).

Ijarachi — biror narsani ijaraga olgan korxonona, tashkilot va muassasa yoki jismoniy shaxs.

Ikkilamchi ijara (ikkilamchi lizing) - ijarachi (lizingga oluvchi) ijaraga beruvchi (lizingga beruvchi)ning roziligi bilan ijaraga beruvchi (lizingga beruvchi)ning oldida ijara (lizing) shartnomasi yuzasidan javobgarlikni saqlagan holda ijaraga olingan mulkni (lizing obyektini) boshqa shaxsga ikkilamchi ijara (ikkilamchi lizing)ga topshiradigan shartnoma munosabati.

Ichki nazorat tizimi bo'yicha savolnoma - mijoz korxonona ichki nazorat tizimi sifatini tekshirish va baholash maqsadida tuzilgan maxsus ishchi qog'oz.

Ishchi qog'ozlarni kodlashtirish - audit tekshiruv jarayonida tuzilgan barcha ishchi qog'ozlarni auditorlik firmasida qabul qilingan raqamlashtirish tizimi asosida joriy va doimiy fayllarda arxivlash.

Ijobiy solishtirma dalolatnoma - mijoz korxonona va mijoz xaridorlari /mol yetkazib beruvchilari o'rtasida amalga oshirilgan va ikki taraf buxgalteriya tizimida aks ettirilgan hisob-kitob operatsiyalari natijalarining auditor tomonidan inventarizatsiyasi bir xil ma'lumotni aks ettirishi yoki muhim bo'lmagan farqning yuzaga kelishi.

Inventarizatsiya - korxonona tegishli bo'lgan barcha asosiy vositalar, inventarlar, mablag'lar va boshqa moddiy boyliklarning haqiqatda mavjudligi bilan buxgalteriya hisobi ma'lumotlarini solishtirish va tekshirish usuli.

Inventar kartochkalar — asosiy vositalar (fondlar)ning hisobi uchun mo'ljallangan hisob registrining shakli. Inventar kartochkalar har bir obyekt xo'jalikka keltirilganda tuziladi.

Inventar obyekt — tugallangan qurilish, buyum yoki kompleks inventar obyekt asosiy vositalar tarkibida hisobga olinadi. Har bir korxonada inventar obyektlari ko'p bo'lib, ularning har biri bo'yicha hisobni to'g'ri tashkil etish uchun inventar raqam belgilanadi.

Inventar raqami — inventar obyektga birlashtirilgan raqam. Inventar raqami asosiy vositalar (fondlar) hisobini to'g'ri tashkil etish uchun va obyektlarning saqlanishini ta'minlash uchun zaruriy hisoblanadi. Bir turdagi buyumlarning guruhi uchun shu obyektlarning haqiqiy holati,

eng ko'p qiymatini hisobga olgan holda, raqamlar seriyasi ajratiladi. Buxgalteriya hujjatlarida asosiy vositalar hisobida ushbu inventar raqamlar ko'rsatiladi.

Inkassalash - to'lov hujjatlarini ko'rsatib, u asosida pulni olish.

Ishlab chiqarish xarajatlari - korxonaning mahsulot ishlab chiqarish bilan bog'liq xarajatlari (mehnat haqi, xomashyo, material, yoqilg'i, asosiy vositalarning eskirishi va hokazolar).

Joriy qiymat - ma'lum sanadagi amal qilayotgan bozor narxlari bo'yicha asosiy vositalarning qiymati yoki xabardor qilingan, bitimni amalga oshirishni xohlovchi, mustaqil taraflar o'rtasida bitimni amalga oshirishda aktivni sotib olish yoki majburiyatlarni bajarish uchun yetarli bo'lgan summa.

Joriy ta'mirlash - asosiy vositalar obyektini ishchi holatida saqlab turish maqsadida amalga oshiriladigan ta'mirlashdir. O'rtacha ta'mirlashda ta'mirlanayotgan agregatni qisman ajratish va detallar- ning qismlarini tiklash yoki almashtirish amalga oshiriladi.

Kontokorrekt ko'chirma - mijoz korxonaga xaridori /mol yetkazib beruvchisi va mijoz turli shaharlarda joylashgan taqdirda, ikki tarafning o'zaro debitorlik / kreditorlik operatsiyalari bo'yicha hisob-kitoblarini inventarizatsiya uchun tuziladigan va xaridorlarga yuborish uchun mo'ljallangan mijoz korxonaga hisob-kitoblari tahliliy smetasi nusxasi.

Kalkulatsiya (lot. calculatio - hisoblash) - bajarilgan ish, tayyorlangan mahsulot, qabul qilingan moddiy boyliklar qiymatini aniqlash, xarajatlarini guruhlash usuli.

Kassa kitobi — korxonaga kassiri kassa jarayonlari hisobini yurgizishiga mo'ljallangan hisob registrlari.

Kassa limiti — korxonaga kassasida doim bo'lishi mumkin bo'lgan pul mablag'larining summasi. Bu summa kunlik mayda xarajatlar uchun ishlatiladi.

Kassaning orderlari - korxonaga kassasiga pul kirimi va chiqimining qonuniyligini va belgilangan maqsad bo'yicha amalga oshirilganligini asoslovchi hujjatlar.

Kelgusi davr daromadlari - hisobot davrida olingan, ammo kelgusi davrga tegishli bo'lgan mablag'lar.

Konsalting - maslahat xizmatini ko'rsatish va ekspertiza o'tkazish. Konsalting bilan shug'ullanadigan firmalar konsultativ deb ataladi.

Konsignatsiya - tovarlarni xorijga sotishning komission shakli bo'lib, unga ko'ra tovarlarning egasi (konsignant) u yerdagi o'z komissioneriga (konsignatoriga) tovarlar partiyasini sotish uchun jo'natadi.

Korxonaning bankdagi hisobidan ko'chirma - korxonaning hisob-kitob, joriy va maxsus schyotlaridagi pul mablag'larining harakati haqida bank muassasasining yuborgan hujjati.

Kredit (lot. Credit-u ishonadi) - buxgalteriya schyotining bir qismi. Aktiv schyotlarning kreditida hisob obyektining kamayishi yoziladi, passiv schyotlarda esa ushbu hisob obyektlari summasining ko'payishi yoziladi. Kredit tomondagi kredit passiv va aktiv-passiv schyotlarda bo'ladi.

Ko'chmas mulkka investitsiya — investitsiya qiluvchi subyektning yoki investitsiya qiluvchi subyekt guruhiga kiruvchi boshqa subyektning ishlab chiqarish faoliyati davomida foydalanilmaydigan yer maydonlariga yoki imoratlarga investitsiyalar.

Lizing to'lovlari - lizingga beruvchining lizing obyektini sotib olish uchun qilgan xarajatlarining hammasi yoki ko'p qismini, shuningdek, lizing obyektini yetkazib berish va belgilangan maqsadda foydalanish uchun uni yaroqli holga keltirish bilan bog'liq bo'lgan boshqa xarajatlarini lizingga oluvchi tomonidan qoplanishi hamda lizingga beruvchining daromadidir.

Lizingga beruvchining daromadi - lizing to'lovlari bilan lizing obyektini sotib olish, uni yetkazib berish va belgilangan maqsadda foydalanish uchun yaroqli holga keltirish xarajatlari o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadigan, lizingga beruvchi tomonidan lizing operatsiyasini amalga oshirish natijasida oladigan daromadidir.

Moliyaviy investitsiyalar- xo'jalik yurituvchi sub'ekt tasarrufidagi (foiz, dividend, royalti va ijara haqi shaklida) daromad olish uchun mo'ljallangan, investitsiya qilingan kapital qiymatning ortishi yoki investitsiya qilish uchun kompaniyaning boshqa naf olish uchun foydalaniladigan aktivlar.

Mutlaq huquq - bu faqatgina huquq egasi tomonidan yoki uning roziligi bilan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda uchinchi shaxsga berilishi mumkin bo'lgan mulkiy huquq.

Majburiy to'lov - egasining roziligsiz hisob-kitob schyotidan pul mablag'ining o'tkazilishi. Masalan, majburiy to'lovlarga davlat budjetiga, davlat ijtimoiy sug'urtasiga to'lov, sug'urta to'lovlari va boshqa belgilangan qoidalarga asosan to'lovlar kiradi.

Mahalliy investorlar — investitsiya faoliyatini amalga oshiruvchi O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, O'zbekiston Respublikasi rezidenti maqomiga ega bo'lgan chet ellik fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar, shu jumladan yakka tartibdagi tadbirkorlar, shuningdek O'zbekiston Respublikasining yuridik shaxslari.

Mehnat balansi - mehnat resurslarining (ishchi kuchi, ish vaqti) haqiqatda yoki kutilgan va ulardan foydalanish miqdorini aks ettiradi. Mehnat balansida ishchi kuchini qayta tashkil etish, joylashtirish va mehnat resurslarini ehtiyojga mos ravishda taqsimlashning asosiy jarayonlari haqida ma'lumotlar ko'rsatiladi.

Nomoddiy aktivla - korxonadan ulardan ishlab chiqarish, ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish yoki tovarlarni sotish jarayonida foydalanish maqsadida yoxud ma'muriy va boshqa funksiyalarni amalga oshirish uchun uzoq muddat mobaynida tutib turiladigan, moddiy-ashyoviy mazmunga ega bo'lmagan mol-mulk obyektlari.

Qisqa muddatli ijara - ijaraga beruvchi ijarachiga haq evaziga mol-mulkni 12 oydan kam muddatga egalik qilish va foydalanish yoki foydalanish huquqini beradigan kelishuv.

Qisqa muddatli (joriy) investitsiyalar — muomalada bo'lish muddati 12 oydan oshmaydigan oson realizatsiya realizatsiya qilinadigan investitsiyalar.

Qoldiq (balans) qiymat - jamlangan amortizatsiya summasini chegirgan holda asosiy vositalarning boshlang'ich (tiklash) qiymati.

Qaydnoma - birlamchi hujjat yoki hisob registri. Qaydnoma yig'ma hujjat bo'lishi ham mumkin. Qaydnomadan buxgalteriya hisobining hamma shakllarida ham foydalaniladi.

Reinvestitsiyalar — investitsiyalardan olingan, tadbirkorlik faoliyati va boshqa faoliyat turlari obyektlariga kiritiladigan har qanday daromad, shu jumladan foyda, foizlar, dividendlar, royalti, litsenziya va vositachilik haqlari, texnik yordam, texnik xizmatlar uchun to'lovlar va haqlarning boshqa turlari.

Salbiy solishtirma dalolatnoma - mijoz korxonasi va mijoz xaridorlari/mol yetkazib beruvchilari o'rtasida amalga oshirilgan va ikki taraf buxgalteriya tizimida aks ettirilgan hisob-kitob operatsiyalari natijalarining auditor tomonidan inventarizatsiyasi turli ma'lumotlarni aks ettirishi (muhim farqning yuzaga kelishi).

Tugatish qiymati - asosiy vositalarning chiqib ketishi bo'yicha kutilayotgan xarajatlarni chegirgan holda kutilayotgan foydali xizmat muddati oxirida asosiy vositalarni tugatish chog'ida olinadigan aktivlarning faraz qilinayotgan summasi.

To'g'ridan to'g'ri chet el investitsiyalari — chet ellik investorning hukumat kafolatlarisiz, tavakkalchilik sharoitlarida o'z mablag'lari yoki qarz mablag'lari hisobidan investitsiyalari.

Uskunalar va transport vositalarini kapital ta'mirlash -agregatni to'liq ajratib yig'ish amalga oshiriladigan ta'mirlashdir, bazaviy va korpus detallari hamda uzellarini ta'mirlash, barcha eskirgan detallar va uzellarni almashtirish yoki tiklash hamda agregatni yig'ish, sozlash va sinab ko'rishdir. Binolar va inshootlarni kapital ta'mirlash bazaviy va korpus detallari hamda uzellarini ta'mirlash, barcha eskirgan konstruksiyalarning detallari va uzellarini almashtirish yoki tiklash amalga oshiriladigan ta'mirlashdir.

Uzoq muddatli ijara — ijaraga beruvchi ijarachiga haq evaziga mol-mulkni 12 oydan ko'p muddatga egalik qilish va foydalanish yoki foydalanish huquqini beradigan kelishuv.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi qonunlari

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. - T.:, 2021 40 b.
2. O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni. 404-sonli. 2016-yil 13-aprel.
3. O'zbekiston Respublikasining «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi qonuni. –
T.: 2021-yil 25-fevral.
4. 2019 yil "Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish" yili deb e'lon qilinishi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi.
5. 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili"da amalga oshirishga oid DAVLAT DASTURI. 04/01/2019.
6. O'zbekiston Respublikasining "Investitsiya va investitsiya faoliyati to'g'risidagi qonunining yangi tahriri. - T.: 27.01.2020.
7. "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, 2015-yil 3-iyun, O'RQ-387-son.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 29 dekabrda PQ-3454-sonli "O'zbekiston Respublikasining 2018-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi qarori.

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari

1. O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida PQ-3946-sonli 19.09.2018- yil.
2. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida PQ-4611-sonli 25.02.2020- yil
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Mirziyoyev Sh.M.ning O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi.

4. “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF 4947-sonli Farmoni. 2017-yil 7-fevral.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-4720-sonli Farmoni. 2015 yil 24 aprel.

6. “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasini kelgusida amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017- yil 15- avgustdagi PF-5024-sonli farmoyishi.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Iqtisodiyot real sektori korxonalarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2008-yil 18- noyabrdagi PF-4053-sonli Farmoni.

III. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Qarorlari va O‘zbekiston Respublikasi vazirliklarining me‘yoriy-huquqiy hujjatlari.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasining 2019-yilga mo‘ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. 2018-yil 20-dekabr

4. Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risidagi Nizom. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori. 5.02.1999 4-son (o‘zgartirish va qo‘shimchalar bilan).

5. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2002- yil 27-dekabrda “Moliyaviy hisobot shakllari va ularni to‘ldirish bo‘yicha qoidalarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 140-sonli buyrug‘i (O‘zR AV tomonidan 24.01.2003-yilda 1209-son bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan).

6. O‘zbekiston Respublikasining Auditorlik faoliyatining xalqaro standartlari. To‘plam. - T.: O‘zR BAMA nashriyot markazi, 2021.

7. O‘zbekiston Respublikasining Buxgalteriya hisobining milliy standartlari. To‘plam. - T.: O‘zR BAMA nashriyot markazi, 2017.

8. “Korxonalaridagi ichki audit xizmati to‘g‘risidagi nizom” O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 16-oktyabrdagi 215-sonli qaroriga 2-ilova.

9. Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari - 2013, O‘zbekiston buxgalterlar va auditorlar milliy Assosiasiyasining tarjimasini, - T.: 2014.

10. Xalqaro audit standartlari, sifat nazorati, ko‘rib chiqish, boshqa ishonch bildirish va turdosh xizmatlarning xalqaro standartlari to‘plami - Xalqaro buxgalterlar federatsiyasi, 2013. O‘zbekiston buxgalterlar va auditorlar milliy Assosiasiyasining tarjimasini. - T.: 2014.

IV. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga eng asosiy va dolzarb siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy masalalar va jamiyatni demokratik rivojlantirish bo‘yicha Murojaatnomasi. 2017-yil 22-dekabr.

2. Mirziyoyev Sh. M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – T.: 2017 yil 16 yanvar’. Xalq so‘zi (11 (6705)-son).

3. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.-T: O‘zbekiston, 2017.

4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O‘zbekiston, 2017. – 488 b.

5. Mirziyoyev Sh.M. Demokratik islohotlarni izchil davom ettirish, xalqimiz uchun tinch va osoyishta, munosib hayot darajasini yaratish-barqaror taraqqiyot kafolatidir. - T.: O‘zbekiston, 2017. – 22 b.

6. Mirziyoyev Sh. M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qabul qilinganining 24-yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi. 07.12.2016.

V. O‘zbekiston Respublikasi vazirliklarining me'yoriy-huquqiy hujjatlari

1. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2002-yil 27-dekabrdagi “Moliyaviy hisobot shakllari va ularning to‘ldirilishi bo‘yicha qoidalarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 140-sonli buyrug‘i.

2. O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi tomonidan tasdiqlangan “Buxgalteriya hisobining milliy standartlari”. 1998-2005-yillar.

3. “Kapital qurilish uchun pudrat shartnomalari” nomli 17-son BHMS //Soliq to‘lovchining jurnali. 5-son 1999.

VI. Asosiy adabiyotlar

1. Audit. To‘laxo‘jayeva M.M. Ilhamov Sh.I. va bosh. Mualliflar jamoasi. Darslik. - T.: Iqtisodiyot, 2018.

2. Ilhamov Sh.I. Amaliy audit. Darslik. - T.: Iqtisodiyot, 2018.

3. Ilhamov SH.I. Audit. (1-qism) Darslik. Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti, Iqtisodiyot, 2018. – 295 b.

4. Karimov A.A., Muqumov Z.A., Khodjaeva M.X, Avloqulov A.Z. Xalqaro audit: Darslik-. “IQTISOD MOLIYA”. Toshkent. 2020-424b.

5. Xodjayeva M.X., Muqumov Z.A., Xasanova X.F Investisiyalar auditi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent. Iqtisodiyot, 2019yil.

5. Ю.Г.Одегов, Т.В.Никонова “Аудит и контроллинг персонала”. Учебник 2-е изд. и доп. – М.: Al’fa Press, 2010. – 672s.

6. Arens, Alvin A. Auditing and assuring services: an integrated approach/ Arens, Alvin A. Randal J. Elder, Markel S. Beasley -14th ed. Amazon, USA - 2012, 894 p.

7. Д.А.Ендоицкий, В.А. Бабушкин, Н.А. Батурина Анализ инвестиционной привлекательности организации. Учебник. - М.: КНОРУС, 2010.

8. А.Саленков Ценные бумаги в Узбекистане. -Т.: 1998.

9. Бернстайн Л.А. Анализ финансовой отчетности. — М.: Финансы и статистика, 1996.

10. Камишанов П.И. Современная бухгалтерия и аудит на предприятиях и в банках. - М.: 2000.

11. IFAS Handbook of Technical Pronouncement on ethics and auditing. New York, 2000.

12. IFAS Handbook of Technical Pronouncement on Education Guidelines. -New York, 2000.

VII. O‘quv qo‘llanmalar

1. Аудит. Практикум/ Харченко О.Н., Самусенко С.А., Фёрова

И.С – учебное пособие. 4-е изд., переработка и доп. - М.: KNORUS, 2014. 248 str..

2. Audit. To'la xo'jayeva M.M., Ilhomov Sh.I.. O'quv qo'llanma. va bosh. - T.: TDIU 2012-yil, 184 bet.

3. “Сборник международных стандартов аудита и контроля качество”. Учебное пособие - T.: NNO “Palata auditorov Uzbekistana”, 2011

4. Vahobov A.V., Xajibakiyev Sh.X., Mo'minov N.G. Xorijiy investitsiyalar. O'quv qo'llanma. - T.: Moliya, 2010.

5. Imomov X.X. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. O'quv qo'llanma. - T.: Iqtisod-moliya, 2010.

6. Смекалов П.В., Терехов А.А. Теория и практика аудита. Санкт-Петербург.: СРБ Госагроуниверситет и АОЗТ «Балтийский аудит». 2009.

7. Сотникова Л.В. Оценка состояния внутреннего аудита: Практическое пособие. - М.: Юнити-Дана. 2010.

8. Чая В.Т. Международные стандарты финансовом отчетности. Учебное пособие. - М.: ЮРУС. 2009.

VIII. Ilmiy monografiyalar, maqolalar va boshqa asarlar

1. Mamatov Z.T. Audit: muammolar va rivojlantirish istiqbollari. - O.: TMI, 2004.

2. Дружиловская Э.С. Инвестиционные активы как новый учетный объект и правила его оценки в российском и международном учете. - М.: Нижегородской государственной университет им.Н.И.Лобачевского 2014.

3. Худякова А.С. Зеленевская А.Д. Понятие инвестиционных активов российские и международные стандарты - М.: Опубликовано в 2015, Выпуск Сентябрь 2015, ЭКОНОМИЧЕСКИЕ НАУКИ.

4. Алексеева Г.И. Новые требования международных стандартов финансовой отчетности к учету договоров аренды. - М.: Журнал “Бухгалтер и закон”.

5. Ilhomov Sh.I. Investitsiya faoliyatida buxgalteriya hisobi va auditi

masalalari. Monografiya - T.: Fan. 2005.

6.Алексеева Г.И. Учет договора аренды в соответствии с международными стандартами финансовой отчетности: текущее состояние и перспективы для российских организаций. - М.: Журнал Учет. Анализ. Аудит. 2017.

IX. Ilmiy-amaliy anjumanlar ma'ruzalari to'plami

1. Khodjayeva M.Kh., Khasanova Kh.F. Importance of investments in economic development and liberalization: why investing in uzbekistan is enjoyable. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. - T.: TDIU, 2019-yil 27-28-may.

2.Muminov B.Sh. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroz sharoitida ijtimoiy sohani moliyalashtirishga investitsiyalarni jalb qilish// Inqirozga qarshi choralar dasturini amalga oshirish va inqirozdan keyingi barqaror rivojlanishni ta'minlashda bank-moliya tizimining o'rni. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. - T.: Moliya, 2010.

3.Muminov B.Sh. Kichik biznesni investitsiyalashni takomillashtirish istiqbollari// Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini mikromoliyalashtirish amaliyotini takomillashtirish. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. - T.: Moliya, 2011.148-150 b.

XI. Statistika to'plamlar ma'lumotlari

1.O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining 2020-yildagi asosiy ko'rsatkichlari.- T., 2021.

2.O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining yillik hisobotlari.

XII. Internet saytlari

1.www.gov.uz.

2.www.mf.uz .

3.www.stat.uz .

4.www.lex.uz .

5.www.naaa.uz .

6.www.norma.uz.

7.<http://www.stat.uz>(O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi);

8.<http://www.mf.uz> (O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi);

9.<http://www.mfer.uz> (O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiya va savdo vazirligi);

10.<http://www.lex.uz> (O‘zbekiston Respublikasi qonun va normativ-huquqiy hujjatlar to‘plami).

11.<http://www.ula.uz> (O‘zbekiston Lizing beruvchilar assotsiatsiyasining rasmiy sayti)

EXPLICITION

	Introduction	3
Chapter I. Terms and types of investment in the development of the economy		
1.1.	The role of investments in economics in the conditions of economic development and liberalization	9
1.2.	The economic essence of investment	14
1.3.	Types and forms of investments	19
1.4.	World experience of investment climate determination	21
1.5.	An active investment policy and an analysis of the ongoing foreign investment for the country's modernization	31
Chapter II. Problems of investment and auditing in the application of international audit standards		
2.1.	Methodological problems of investment accounting	48
2.2.	Methodological problems of investment audit	65
Chapter III. Assessment and audit of capital investments		
3.1.	Functions of capital investments account	72
3.2.	Classification of Capital Investments	76
3.3.	Capital investments assessment and accounting	84
3.4.	Recording of completed construction facilities and unfinished construction	87
3.5.	Capital investments audit	89
Chapter IV. Evaluation of financial investments		
4.1.	Nature of financial investments and their tasks	98
4.2.	Classification and evaluation of long-term financial investments	100
4.3.	Discounting investment	113
4.4.	Long term financial investment movement reflecting	118
4.5.	Short-term financial investment	127
Chapter V. Investment audit planning		
5.1.	Purpose, tasks, stages and basic principles of	

	investment audit planning	140
5.2.	Creating an investment audit program .	142
Chapter VI. Procedure for the organization of financial investments audit		
6.1.	Description of financial investments, nature, purpose and objectives of audit	150
6.2.	Information sources used for auditing financial investments	159
6.3.	Inventory of financial investments and verification of priority inventory	160
Chapter VII. Procedure for financial investments audit		
7.1.	Check the accuracy of the valuation of the initial valuation of financial investment accounts .	170
7.2.	Check the accuracy of the valuation of the initial valuation of financial investment accounts	174
7.3.	Profitability of financial investments, full reflection of income and checking of taxation	176
	List of terms	187
	List of references used	198

MUNDARIJA

	KIRISH	3
I bob. Investitsiyalar haqida tushuncha va ularning turlari		
1.1.	Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish sharoitida investitsiyalarning iqtisodiyotda tutgan o‘rni	9
1.2.	Investitsiyaning iqtisodiy mohiyati	14
1.3.	Investitsiyalarning turlari va shakllari	19
1.4.	Investitsiya muhitini aniqlashning jahon tajribasi	21
1.5.	Mamlakatni modernizatsiyalash yo‘lida amalga oshirilayotgan faol investitsiya siyosati va o‘zlashtirilayotgan xorijiy investitsiyalar tahlili	31
II bob. Investitsiyalar hisobi va auditining muammolari		
2.1.	Investitsiyalar hisobining uslubiy muammolari	48
2.2.	Investitsiyalar auditining uslubiy muammolari	66
III bob. Kapital investitsiyalar hisobi va uning auditi		
3.1.	Kapital investitsiyalar hisobining vazifalari	72
3.2.	Kapital investitsiyalarni turkumlash	76
3.3.	Kapital investitsiyalarni baholash va buxgalteriyada hisobga olish	85
3.4.	Qurilishi tugallangan obyektlarni hamda tugallanmagan qurilishni hisobga olish	88
3.5.	Kapital investitsiyalar auditi	89
IV bob. Moliyaviy investitsiyalar hisobi		
4.1.	Moliyaviy investitsiyalarning mohiyati va ularni hisobga olishning vazifalari	98
4.2.	Uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalarni turkumlash va baholash	100
4.3.	Investitsiyalarni diskontlash	113
4.4.	Uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalar harakatini hisobda aks ettirish	118
4.5.	Qisqa muddatli moliyaviy investitsiyalar hisobi	128

V bob. Investitsiyalar auditini rejalashtirish		
5.1.	Investitsiyalar auditini rejalashtirishning maqsadi, vazifalari, bosqichlari va asosiy tamoyillari	140
5.2.	Investitsiyalar auditining dasturini tuzish	141
VI bob. Moliyaviy investitsiyalar auditini tashkil qilish tartibi		
6.1.	Moliyaviy investitsiyalar tavsifi, auditining xususiyati, maqsadi va vazifalari	150
6.2.	Moliyaviy investitsiyalarni auditorlik tekshiruvdan o'tkazishda qo'llaniladigan ma'lumot manbalari	158
6.3.	Moliyaviy investitsiyalarni inventarizatsiyadan o'tkazish va oldin o'tkazilgan inventarizatsiyalar to'g'riligini tekshirish	160
VII bob. Moliyaviy investitsiyalar auditini o'tkazish tartibi		
7.1.	Moliyaviy investitsiyalar hisobiga doir dastlabki hujjatlarning rasmiylashtirilishini va qimmatli qog'ozlarni baholashning to'g'riligini tekshirish	169
7.2.	Qimmatli qog'ozlarning analitik hisobini, kirimi va chiqimiga doir muomalalarni tekshirish	173
7.3.	Moliyaviy investitsiyalarning daromadliligi, olingan daromadlarning to'liq aks ettirilishi va soliqqa tortilishini tekshirish	175
	Atamalar ro'yxati	185
	Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.	196

**Mo‘tabar Xamidullayevna Xodjayeva,
Maxmudov Azamat Normurodovich,
Xusnorahon Fahriddinovna Xasanova
Fayziev Umurqul Shuxratovich ,
Tulovov Erkin To‘lqin o‘gli,**

INVESTITSIYALAR AUDITI

Muharrir: *M.Talipova*
Tex.muharrir: *G.Ibragimova*
Sahifalovchi: *E.Jo‘rayev*

Bosishga ruxsat etildi 20.05.2022. Format 60x84 ¹/₁₆.
Garnitura Times. Ofset qog‘ozi. Rizograf bosma usuli
Shartli bosma tabog‘i 12,75. Nashr bosma tabog‘i 11,9
Adadi 100. Buyurtma № 09-12

«IMPRESS MEDIA» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Toshkent sh. Qushbegi ko‘chasi, 6-uy.